



“O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN‘ATINING
YANGI TENDENSIYALARI”

• II Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi-2024

“O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN‘ATINING YANGI TENDENSIYALARI”

mavzusidagi Respublika yosh olimlar,
tadqiqotchi va magistrning ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari to‘plami

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN‘ATI INSTITUTI
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI**



**“O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN‘ATINING
YANGI TENDENSIYALARI”**

• II Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi-2024

**“O‘ZBEK MILLIY MUSIQA
SAN‘ATINING YANGI
TENDENSIYALARI”**

*mavzusidagi Respublika yosh olimlar, tadqiqotchi va
magistrlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to‘plami*

TOSHKENT - 2024



“Musiqa san’ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San’at bilan oshno bo‘lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo‘ladi. Va men ishonaman, ular dunyoni ma’naviy tanazzuldan qutqarishga qodir bo‘lgan, o‘zaro ahillik va birdamlikni ulug‘lovchi avlod bo‘lib maydonga chiqadi!”

SHAVKAT MIRZIYOYEV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti





UO‘K: 78.071.1(575.1) (092)

BBK: 85.31g(50‘)

A 11

“O‘zbek milliy musiqa san’atining yangi tendensiyalari” mavzusidagi Respublika yosh olimlar, tadqiqotchi va magistrning ilmiy-amaliy konferensiyasi // Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti. – Toshkent - 2024. 300-bet.

Mas’ul muharrir

A.Sunnatillayev – O‘zMMSI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi sektori boshlig‘i, dotsent.

Tahrir hay’ati a’zolari:

R.Oripova – O‘zMMSI “Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

N.Yuldasheva – O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini mudiri v.v.b.

Sh.Berdixanova – O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini dotsenti v.b, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

N.Haydarova – O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini o‘qituvchisi.

N.Botirova – O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi.

J.Sherimmatov – O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini o‘qituvchisi.

G.Abdusamatova – O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini o‘qituvchisi.

Z.Shukurov – O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

A.Abdurashidov – O‘zMMSI dotsenti, san’atshunoslik fanlari nomzodi.

Ch.Ergasheva – O‘zDK “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasini mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plamda “O‘zbek milliy musiqa san’atining yangi tendensiyalari” mavzusidagi Respublika yosh olimlar, tadqiqotchi va magistrning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari joy olgan bo‘lib, unda o‘zbek milliy musiqa san’ati, istiqbollari va uni yanada rivojlantirish, o‘zbek milliy musiqa san’atining yangi tendensiyalariga bag‘ishlangan yosh olim, magistrant, doktorant va mutaxassilarning ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Mazkur to‘plam materiallari O‘zMMSI Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil “30”-apreldagi 2-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRI,
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA
SAN’ATI INSTITUTI REKTORINING ANJUMAN
ISHTIROKCHILARIGA TABRIGI**



Ma’lumki, so‘nggi yillar hayotimizda tub o‘zgarishlar boshlangan davr bo‘ldi. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, degan ezgu g‘oya asosida barcha sohada juda katta amaliy ishlarga qo‘l urildi. Xususan, bebaho madaniy merosimizni asrab-avaylash, qadimiy yodgorliklarni keng miqyosda tiklash, uni dunyo ahliga tanitish, madaniyat va san’at, turizm sohasini rivojlantirish hamda xalqaro mezonlar darajasiga olib chiqish bo‘yicha ulkan qadamlar tashlandi.

Ta’bir joiz bo‘lsa, millatimiz taqdirida yangi, buyuk ma’rifiy bosqich boshlandi. Buni madaniyat va san’atimiz rivoji yo‘lida qilinayotgan ezgu sa’y-harakatlar misolida ham ko‘rish mumkin. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, bebaho me’moriy obidalari, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi. Aynan ana shu “ildiz” bugun dunyo xalqlarining katta





qiziqishiga sabab bo‘layotir. Bu esa madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrash mas’uliyatini yanada oshiradi.

Bugungi globallashuv davrida madaniyat xavfsizligini ta’minlash va madaniyatlararo hamkorlikni kengaytirish yo‘llarini izlashda dolzarbligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, merosimizni asrashda madaniy suverenitetni saqlab qolish masalasi ham bugun kun tartibiga chiqmoqda.

Bu jarayonda esa avvalo, yoshlarimiz milliy madaniy merosning asl mohiyatini anglab olishlari zarur. Tariximiz bilan faxrlanish uchun uni o‘rganishlari, ajdolarimiz kim bo‘lganini, ularning qoldirgan bebaho meroslarining qimmatini bilib olishlari lozim.

Chunki milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizni asrab, keyingi avlodga biror shikastsiz yetkazish ayni yoshlarimiz zimmasidagi mas’uliyat, ta’bir joiz bo‘lsa muhim vazifadir.

So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san’at, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish maqsadida qator Farmon va qarorlar qabul qilinmoqdaki, bu amalda yoshlarga keng imkoniyatlar eshigini ochib, ijodiy yutuqlar, xalqaro miqyosdagi e’tiroflarga zamin yaratmoqda. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4433-sonli qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori, 2023-yil 27-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-son farmoni hamda “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada





rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarorlari shuningdek, 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” Davlat dasturidagi vazifalar ayniqsa, yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb etish, yoshlarning ijodiy, ta’lim sifatini oshirishga erishish, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, iqtidorli talabalar, yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida biznesinkubator, startap, ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish, ilmiy salohiyatni yuksaltirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim muassasalarida o‘qitish innovatsion sifatini yanada yaxshilash, elektron modullar tashkil etish vazifalari yuklatilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida ham yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, ta’lim tizimida malakali baxshilarni tayyorlash, iqtidorli talaba yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish, OTMning jozibadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy-innovatsion ishlanmalari, starap loyihalarini amaliyotga keng joriy qilish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, Respublika Yosh olimlar kengashi bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan “O‘zbek milliy musiqa san’atining yangi tendensiyalari” mavzusidagi yosh olimlar, tadqiqotchi va magistrnlarning Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ham ana shu ishlarning amaliy davomi sifatida e’tirof etish mumkin.





Konferensiya ishidan ko‘zlangan asosiy maqsad, respublikamizda o‘zbek milliy musiqa san’ati bo‘yicha bajarilayotgan ilmiy ishlar bo‘yicha o‘zaro fikr almashish hamda yosh olim, magistrant, doktorant va mutaxassislarning ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish hisoblanib, ushbu anjumanda respublika yosh tadqiqotchilarning tajribalari o‘rganiladi, muhokama etiladi va tavsiyalar yaratiladi, muammolar hamda ularning yechimlari bo‘yicha xulosa hamda takliflar tayyorlashdan iboratdir.

Konferensiya mavzusi bugungi kunning eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan o‘zbek milliy musiqa san’atining yangi tendensiyalari bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek milliy musiqa san’atining ta’lim sohasida o‘qitishning innovatsion usullarini keng joriy etish, ustoz-shogird an’analarini takomilashtirish, milliy musiqa san’atimizni asrab-avaylash, umuman milliy madaniyatimizni o‘rganishga, tadqiq etishga qaratilgan.

Ishonamizki, mazkur anjuman doirasida milliy musiqa san’atiga oid alohida mavzular bo‘yicha tashkil qilinayotgan munozara maydonlari bu yo‘nalishlarda o‘zaro tajriba almashish, istiqboldagi o‘zaro manfaatli hamkorlik imkoniyatlarini belgilash, yangi g‘oya va loyihalarning boshlanishiga turtki beradi o‘ylayman.

Men tashkilotchilar va barcha ishtirokchilarni anjuman bilan chin dildan tabriklayman va konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

Nazarbekov Ozodbek Axmadovich,
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy
musiqa san’ati instituti rektori.





SARAXBORI BUZRUK SHAKLI, G‘AZAL VAZNI VA MAZMUN MOHIYATI

Nodira HAYDAROVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

*“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida
o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi (PhD)*

Ilmiy raxbar: Soibjon BEGMATOV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor.*

Annotatsiya: Maqolada Buxoro Shashmaqomidagi Saraxbori Buzrukning shakli, tuzilishi, g‘azalining mazmun mohiyati tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, Saraxbor, Buzruk, usul, shakl, g‘azal, nota to‘plam, sho‘ba, namud, xat, tarona.

Аннотация: В статье дан анализ формы, строения, содержания газели Сарaxбори Бuzрук в Бухарских Шашмакомах.

Ключевые слова: Шашмаком, Сарaxбар, Бuzрук, ритм (усуль), форма, газель, нотный сборник, шўьба, намуд, часть, тарона.

Abstract: The article analyzes the shape, structure, and content of the Saraxbori Buzruk gazelle in Bukhara Shashmakoms.

Keywords: Shashmakom, Saraxhbar, Buzruk, rhythm (usul), form, gazelle, music collection, shuba, namud, part, tarona.


Shashmaqomning asl mohiyatini anglash uchun uning falsafiy asoslarini o‘rganish zarur. Shashmaqom – Mushkilot ya’ni cholg‘u hamda Nasr ashula bo‘limlaridan tashkil topgan g‘oyaviy tugallangan turkumli asar. Olti maqom nomining har biri chuqur falsafiy ma’noni anglatadi. Buzruk - “ulug”, “buyuk”; Rost - “haq”, “chin”; Navo - “yoqimli ohang” “kuy”; Dugoh - ikki parda; Segoh - uch parda; Iroq - mamlakat nomi yoki, “olis”, “yiroq” ma’nolarida keladi. Shashmaqomdagi sho‘balar maqom yo‘li hamda doyra usulidan kelib chiqib nomlanadi. Misol uchun “Saraxbori Buzruk” - Buzruk maqomi





ladida, Saraxbor doyra usulida ijro etiladigan asar, yoki “Nasri Uzzol” - uzzol maqom yo‘lida va Nasr doyra usulida ijro etiladi.

Monodik kuy usuli vokal asarlarda g‘azal vazni ham ahamiyatli o‘ringa ega. Saraxborlarga g‘azal tanlanganda ham usuli, ritmi, ifodaviyligi inobatga olingan.

X-XVII asr musiqa risolalarida qoidalarga asoslangan doira usullarining namunalari ko‘plab keltiriladi. “Doira  usullarida ishlatiladigan ruknlar aruzdagi vaznlarni tan ta-na ta-na-nan ta-na-na-nan ham ifodalay olgan. O‘tmishda sozandalar va xonanda aruz qoidasini bilmagan holda “tan-tana-tanan” kabi ritm turoqlari vositasi bilan ashula yo‘llariga mos keladigan she‘rlarni ham tanlab olganlar.”[3. 168] “Bu ritm unsurlarini nota tizimida taxminan quyidagicha ifodalash mumkin:” [3. 168]

Saraxborlar odatda o‘n besh hamda o‘n to‘rt hijoli (bo‘g‘indan iborat), muzore, mujtass, mutaqorib va ramal vaznlaridagi g‘azallar bilan yakkaxon xonandalar va ashulachilar ansambli tomonidan, cholg‘u ansambl jo‘rligida ijro etiladi. Aksar hollarda A.Navoiy g‘azallaridan foydalanilgan. Saraxborlar uchun qo‘llanilgan 13-15-17 bo‘g‘inli g‘azallar ritmiga ham mos kelib, ular uyg‘unlikda jozibador, ohangdor asar hosil qilgan.

“O‘tmishda Saraxborlar maqomlarni tavsiflab yozilgan maxsus she‘rlar bilan ijro etilganligi qayd etilgan. Masalan, Navo maqomi Saraxbori quyidagi g‘azal bilan o‘qilgan:

Bulbula sho‘rida dar sahna chaman Navo

To‘ti shirin suxan anchuman sozan Navo.

Saraxborlarga aytilgan bu g‘azallar lirik xarakterda bo‘lib, maqom va sho‘balar nomi, ko‘pincha, so‘z o‘yini tarzida kiritiladi. Bu an‘ana Kavkabiylar (XVI asr) davrida ham kuchli bo‘lgan edi” [3. 217]

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek milliy musiqa merosini klassik adabiyotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, Shashmaqom – dunyoga mashhur musiqiy merosimiz, mumtoz o‘zbek she‘riyatining durdona baytlari bilan, xususan hazrat Navoiyning o‘lmas g‘azaliyoti bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Maqolaning asosiy negizi bo‘lmish Shashmaqomdagi “Saraxbor” larning g‘azal tibdilini O‘zbekiston davlat konservatoriyasining dotsenti, xalq xofizi professor Mahmudjon Tojiboyev o‘zining “Zulfing” deb nomlangan





xonandalik mezonlari turkumidan g‘azallar tabdili o‘quv qo‘llanmasida ham keltirib o‘tgan [4].

Saraxborlarning har bir namunasi ma’lum qonuniyat asosida ijod etilgan. Ibn Sino she’riyat va musiqaaning vazni, ular mazmunini chambarchas bog‘lanishi, musiqa asari mukammalligining eng muhim shartlaridan biri deb bilgan [2. 21]. Shashmaqomning ikki til o‘zbek va tojik she’riyatiga asoslanishi ham ijodiy muhit mahsulidir. Maqomlarda aytiladigan she’r matnlari masalasi bo‘yicha ham bir nechta tadqiqiy, ilmiy ishlar olib borilgan. Maqomlarda asosan odatda klassik shoirlarning aruz vaznida yozilgan g‘azallari qo‘llaniladi. Maqom kuylariga solib aytiladigan g‘azallar mazmun nuqtai nazardan o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi lozim. Ma’lumki, har bir mohir ijrochi ko‘plab sh’er va g‘azallarni yoddan biladigan san’atkor bo‘lishi lozim. Musiqa asarining ichki dunyosi, shinavandalarining ta’biga qarab, ijrochi ashula matnini to‘g‘ri tanlay olishi kerak. Bunda aytib o‘tganimizdek she’r vazni mos kelishi muhim qonuniyat hisoblanadi. Buxoro Shashmaqomi sh’er vaznlari forsiy tilidagi sh’erlar bo‘lgan. Musiqashunos olim Yunus Rajabiy izlanishlari natijasida o‘zbek klassik shoirlarining she’rlari va xalq she’rlari bilan almashtirilgan. “Tojikiston nashrida maqomning barcha Saraxborlar she’rlari 15 bo‘g‘inli bo‘lsa, Yunus Rajabiy o‘zbek tiliga moslagan Saraxborlar she’rlari asosan 14 bo‘g‘inli she’rlarni kiritadi. [1. 132] Is’hoq Rajabov va Fayzulla Karomatovlarning amaliy hamda nazariy sa’y xarakterlari shuni ma’lum qildiki, Saraxborlarda, asosan, ikki xil vazndagi she’rlar o‘qilishi aniqladi:

Muzorei musammani axrabi makfufi maqsur,

Mafuvlu-foilotu -mafoiylu -foilon.

- - V - V- V V - - V - V -

Mutaqoribi musammani mahzuf

Fauvlun - fauwlun-fauvlun-faul.

V - - V - - V - - V -

Is’hoq Rajabov o‘zining “Maqomlar” kitobida Saraxborlarga 4 xil g‘azal vaznini keltirgan: *Muzorei musammani axrabi makfufi maqsur:*

Mafuvlu - foilotu - mafoiylu - foilon





- - V -V -V V - - V - V-

Majtasi muasammani maxbuni maqtu’n musabbag‘:

Mafoilun - folilotun - mafoilun -fa’lun

V - V - V V - - V - V - - -

Mutaqoribi musammani mahzu:

Fauvlun - fauwlun -fauvlun -faul.

V- - - V - - V - - V -

Ramali musammani mahzuf:

Foilotun-foilotun-foilotun -foilun.

- V - - - V - - - V - - - V -

To‘rtinchi vaznda avvallari Saraxbori Navo ijro etilgani haqida Is’hoq Rajabov iqtibos qilib keltiradi. Quyida Shashmaqom tarkibidan o‘rin olgan Saraxbori Buzrukning shakli va g‘azal vaznlari haqida mulohaza yuritiladi. Saraxborlarning shaklini aniqlashda Yunus Rajabiyning olti jildli “Shashmaqom” (1966-1975) nota to‘plami birinchi jildiga murojat etildi.

| Ash ula | Cho lg‘u | 1-xat | 2-xat | 3- xat | 4 xat | 5-xat | 6-xat | 7-xat | 8-xat |
|------------|-------------|---------|----------|-----------|--------------|--------------------|------------------------|--------------------|----------|
| Xat | - | Daromad | Miyonxat | Dunasar | Namudi Uzzol | Muxxayyari Chorgoh | Muxxayyari Chorgoh Avj | Muxxayyari Chorgoh | Furovard |
| Takt | 1-8 | 9-25 | 50-64 | 90-102 | 154-172 | 178-206 | 211-235 | 241-252 | 311-325 |


Saraxbori Buzruk – musiqa shakli yuqoridagi jadvalda berilganidek, cholg‘u muqaddimasi → Daromad → Miyonxat → Dunasar → Namudi Uzzol → Namudi Muxayyari Chorgoh → Avji Namudi Muxayyari Chorgoh → yuqori pardalardan asl pardagi asta-sekin tushirish → Furovard va hang bilan asar yakunlanadi. Har bir xat va qismning o‘z vazifasi mavjud bo‘lib, ashulaning cholg‘u muqaddimasi tinglovchini Buzruk maqomi ohangi va ladiga sozlaydi. Daromad bu- kuy yoki ashulaning boshlanish qismi. Shashmaqom





ashula bo‘limini boshlab beruvchi asosiy sho‘basi bo‘lib, Daromad qismining bir oktava yuqoridagi Dunasr bo‘lishiga olib keladi (Dunasr bu- maqomlarda kuy yoki ashula boshlanish bo‘lagining yuqori registrda takrorlanishi). 4-5 xatlarda “Namudi Uzzol” va “Namudi Muxayyari Chorgoh” namudlariga o‘tadi. Namud bu – ko‘rinish, kelish, maqomlardagi muayyan ashula parchasining boshqa ashula yo‘llari tarkibida avj sifatida ko‘rinishi yoki kelishi. Uzzol namudi asosiy kuy pog‘onasidan kvarta intervaliga pastga harakati bilan tavsiflanadi. (uzzol – “pastga tushish” “sakrash” ma’nolarida ishlatiladi). Muxayyari Chorgoh namudi (Chorgoh sho‘balari nomlaridan tanlab olingan, “Muxayyar – tuzatilgan, yaxshilangan, tanlab olingan ma’nolarida keladi” [3. 185]), ikkinchi marta kelganda Saraxborning eng yuqori tovushlarida avjida ham shu namud keladi. 7 va 8 xatlar asta sekin asarni boshlang‘ich pardaga tonikaga tushiradi, ya’ni Furovard (furovard bu- tushirish, maqom kuy yoki ashulasining dastlabki pardasiga olib kelish) bilan asarning taronalariga o‘tib ketadi. Saraxbor sho‘basi tugaganidan so‘ng, navbati bilan taronalar ijro etiladi. Ushbu shaklda asosan xatlarning kelish tartibi ko‘rsatilgan. Jadvalga kiritilmagan taktlarda hanglar ijro etiladi (hang bu – ashulada unli harflar “o”, so‘z birikmalari “yor”, “yoramey”, “jon” “joning maney” va h.z. bo‘g‘inlar orqali nola qilib xatlar o‘rtasida bog‘lovchi, yangi xatga tayyorlovchi, yakunlovchi vazifalarni bajaruvchi qismi). Ayrim jadvalga kiritilmagan kichik hajmli taktlarda esa, cholg‘u kuylari mavjud.

Shashmaqomdagi taronalar ham qo‘shiqqa yaqin ixcham, kichik hajmli aytimlardir. Lekin murakkab doira usuli va kuy harakatiga ega taronalar ham ko‘p uchraydi. Taronalarning asosiy vazifasi: sho‘balar orasidagi bog‘lovchi hamda vazmin asarlar o‘rtasidagi rang-baranglikni ta’minlaydi. Ma’lumki, taronalar nomlanmaydi raqamlar bilan belgilanadi.

Saraxbori Buzrukning 1- taronasi Zahiriddin Muhammad Boburning “Ne fikrekim sening fikring...” deb boshlanuvchi g‘azali bilan ijro  etiladi. Doyra usuli esa quyidagicha: Taronalar to‘xtalishlarsiz bir tartibda ijro etiladi. Taronalarning usullari ham ohangi shu qadar mohir ishlenganki, bir biriga to‘xtovsiz o‘tganda qismlar bo‘linishi yoki tafovuti sezilmaydi. Ikkinchi taronaning so‘z matni Boburning “Sensen” radifli





ruboyisiga yozilgan. Shu tartibda oltita tarona birma-bir ijro etiladi.

XV asrda ijod etgan mavlono Lutfiy qalamiga mansub “emish” radifli g‘azalini Saraxbori Buzruk uchun Yunus Rajabiy tanlab kuyga moslashtirgan. “Ramal” bahrining birmuncha kamroq tarqalgan “Ramali mussamani mahfuzi tag‘yir” vaznida bitilgan”[4].

*Dilbar sog‘inmag‘on jihati bu firoq emish,
Ko‘zdin yiroq bo‘lsa ko‘nguldin yiroq emish.*

G‘azal mazmuni: Dilbarni, ya’ni ma’shuqani sog‘inmagani sababi uzoq muddatli ayriliq sodir bo‘ldi. Xalqda “ko‘zdan yiroq ko‘ngildan yiroq” deyiladi. Ushbu xol ham ushbu gapning xaqiqatligini isbot etmoqda” deydi xassos shoir. Shuning uchun doim oshiq qalbgga mavjudligi borasida ishora beradi. Baytdan so‘ng ijro etiladigan so‘zsiz unli harflar bilan hirgoya (hang) oshiqning ichki olamini tasvirlaydi. Mazkur bayt – shaklan birinchi xat hisoblanadi va asarning “Daromad”i deb belgilaymiz. Daromad (yoki sarxat deb ham yuritiladi) – kuy yoki ashulaning boshlanish qismi.

*Tinmas hayoli kunicha ko‘z yoshi qatradin,
Yuz sorini yuguzguchi gulgun biroq emish.*

“Kun davomida hayolim Yor ishqida uchar ot kabi parvoz etadi, ko‘z yoshim ham qatra bo‘lib to‘kilishdan to‘xtamaydi” mazmunida kelmoqda. Miyonxatdan keyin ijro etiladigan hang ansambl ijrosida bo‘lsa ayol va erkaklar ovozi birgalikda ijro etilib, oshiq dardini yanada kuchli ifodalaydi.

Uchinchi xat bir oktava yuqoridagi re_2 dan dunasrga navbat yetadi. Dunasr bu – ashula boshlanishi ohanglarining yuqori pardalarida takrorlanishi:

*Bo‘lmas visol birla ko‘ngil dardu dog‘i kam,
Ul to‘ymag‘urda, vah, ne balo ishtiyoq emish.*

Mazkur baytda hatto yorning visoliga yetishganda ham ko‘ngildagi dard dog‘ini kamaytirmagani, bu to‘ymag‘urda (ya’ni ko‘ngilda)gi ishtiyoq qanday ishtiyoq ekan, degan fikr bayon etilgan. Ushbu baytning dunasr qismida misralardagi ma’no ifodaviyligi yanada ortgan. Navbati yetgan hanglar esa, kelgusi jumlagga bog‘lovchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Maqomlar shaklida dunasr kuy jumlasidan keyin odatda biron – bir namud ijro etiladi. Saraxbori Buzruk turkumida dunasrdan keyin Nasri Uzzol sho‘basidan Uzzol namudi qo‘llaniladi. Kuy davomida





dunasrdagi ikkinchi oktava *re* tovushidan kvarta pastga birinchi oktava *lya* notasiga sakraydi. Kuyning bu harakati g‘azal mazmunini yanada ta’sirli ijrosini ta’minlaydi:

*Qon bog‘ladi jigarlari ul g‘amza zahmidin
Chinu Xitoda nechaki ohu qaror emish.*

Ya’ni, jigarlar o‘zi qon edi, yor bergan zaxmatdan yanada qon bo‘ldi. Shoir keyingi misrada o‘zini Chin mamlakatida uchraydigan qora tusli ohuga taqqoslaydi. Ohu ham zaxmatlardan qorayib ketgandir demoqda. Oshiqning dardini ifodalagan Namudi Uzzol takroriy ijroda birinchi misraga urg‘u berib, hanglar yordamida navbatdagi mungli ohangga olib keladi.

Uzzol namudidan so‘ng Shashmaqom sho‘balari orasida keng tarqalgan Muxayyari Chorgoh namudi ijro etiladi. “Muxayyari chorgoh nomli sho‘ba yoki, ashula yo‘li mavjud emas. Chorgoh sho‘balaridan tanlab olingan degan fikr xaqlidir ehtimol:

*Yoydek bo‘yimni egdi qoshing bori g‘am bila
Kim, egrilikda davri qamar ichra toq etmish.*

Yor qoshiga yetishmoqlik g‘mi oshiq bo‘ynini kamondek yoki yoydek egdi. Bu egrilik davri qamar ichra toq oyning eng egilgan holatidan ham egriroq, demoqchi.

Keyingi xat Muxayyari Chorgoh namudining davomi, asarning avji eng baland pardalarda ijro etiladi. Ikkinchi oktava *lya* pardasigacha ko‘tariladi.

*Lutfiy, Hiriya qolmadi she‘ringga mushtariy,
Azmi Hijoz qilki, maqoming Iroq etmish.*

Ushbu bayt takroriy ijroda yuqori pardadan asl pardaga harakatlanadi. Pastga xarakatlanish tushirim. Furovard deyiladi. Lutfiy, sening yor ishqida bitgan go‘zal she‘rlarining tushunib, qadriga yetguvchi kimsalar endi Hirot shahrida qolmadi hisob. Shuning uchun Hijozga qarab yo‘l ol, balki Iroq tomonlarda sening dardinga malham bo‘lguvchi odam topilib qolar.

Tahlil qilingan, mazmun mohiyati o‘rganilgan ushbu g‘azallar bugungi kunda ijro amaliyotida qo‘llanilgan.

Saraxbori Buzruk maqom ladi, ohangi haqida mulohaza yuritilganda maxsus QR kod kiritilmoqda. Gadget yoki smartfon skaner dasturidan o‘tkazib asarni to‘g‘ridan to‘g‘ri youtube video hostingida joylashtirilgan ijrosiga o‘tish imkonini beradi.





Saraxbori Buzruk Nasr bo‘limi birinchi guruh sho‘basini boshlab beruvchi asar. Saraxbori Buzrukning *re*



pardasidan ijro etiladi va tovush qatori 1-nota misolida.

Tayanch tovushlari ohang

mag‘zi, ya’ni – timsoli asarning daromadidagi kvarta ko‘tarilib qaytishida – deb belgiladik va bu kvarta intervali maqom boshidan oxirigacha asos (yadro) bo‘lib xizmat qiladi. Asarning kirish cholg‘u qismida ham (bosh kuy) kichik namunasi seziladi. Ushbu kvarta intervaliga sakramali, ba’zida kvinta orqali forshlag qilib tushirish ijroni tinglagan vaqtda ham yorqin eshitiladi asar yakunigacha timsol vazifasini bajaradi. Bu jarayon asar chizmasida yaqqol namoyondir. Kvarta intervaliga sakramalar guyoki bir turdagi ifoda vositasidek o‘z aksini topgan. Saraxbori Buzrukning lad asosi, tayanch tovushlari Buzruk maqomi cholg‘u kuyi hamda birinchi guruh sho‘basida bir xil. Ikkinchi guruh sho‘basida esa turli ladlar qo‘shilishidan yaratilgan asarlar uchraydi. Laddagi tayanch tovushlari o‘zgaradi. Quyidagi nota misolida Saraxbori Buzruk maqomining ohang timsoli, yadrosi asar cholg‘u muqaddimasidayoq namoyon bo‘layotganini kuzatishimiz mumkin:

• *2- nota misol*

M.M. ♩ = 72-76

mf

f 1.

Dil - bar so - g'in ma - gan ji - ha - ti bu fi - roq e - mish

Saraxbori Buzrukning usuli, ladi, ohangi, g‘azal vazni va matn mazmuni qisqa yoritildi. Tahlil jarayonida

- Maqom namunalarini tahlil qilish uslubini ishlab chiqish
- Turkumiylik xususiyatlarini belgilash;
- Etnografik faoliyatni yo‘lga qo‘yib namunali, zamonaviy nota to‘plam yaratish masalalari kelajakda bajarish lozimligi xulosa qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:





1. Аҳмедов М. Юнус Ражабий. Т.: Ғофур Ғулом, 1980. 132 с.
2. Матякубов О. Оғзаки анъанадаги профессионал музика асосларига куриш. Т.: Укитувчи, 1983. 21с.
3. Ражабов И. Мақомлар. Т.: SAN’AT, 2006.
4. Тожибоев М. Зулфинг. Хонандалик мезонлари туркумидан ғазаллар табдили (ўқув қўлланма). Тошкент, 2008





AN’ANAVIY XONANDALIKDA OVOZ SOZLASH MASALALARI

Suhrob JUMAYEV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI,

*“Maqom xonandaligi” kafedrası o‘qituvchisi,
tayanch doktorant.*

*Ilmiy rahbar: Rustam ABDULLAYEV,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor.*

Annotatsiya: *Maqolada an’anaviy xonandalik ta’limidagi dolzarb mavzulardan biri bo‘lmish ovoz sozlash masalasi haqida so‘z boradi. Bu jarayonda chet el ko‘nikmalari bilan bir qatorda milliy ijrochilikka ham tayaniladi. Shu asosda ovoz sozlash mashqlariga nota ko‘rinishida misollar tavsiya etiladi. Bu mashqlarda qaysi jihatlariga e’tibor berish kerakligi aytib o‘tiladi. Soha mutaxassislarining qimmatli fikrlari iqtibos tarzida keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *An’anaviy xonandalik, avj, legato, nola, forshlag, zamzama, hang, stakkato.*

Ijrochi xonanda doim asar ijrosi mobaynida o‘z ovozinı jaranglı va mayın, yoqimli va maftunkor holatda tinglovchiga yetkazishni istaydi. Buning uchun esa ovoz ustida muntazam va tartibli mehnat qilish lozimdir. An’anaviy xonandalik sohasida ta’lim oluvchi talabalar uchun ovoz ishlatish mahorati o‘ta muhimdir. Talabalar ta’lim va ijrochilikda turli darajadagi murakkablikka ega asarlarga duch kelishadi. Bunda ovozning erkin ishlatilishi, asarning esa yengil ijro etilishi xonandaning qanchalik o‘z ustida ishlagani va qanday ovoz sozlash mashqlaridan foydalanganiga ham bog‘liqdir.

Ta’lim jarayonida mutaxassislar talabalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda turli ovoz sozlash mashqlarini tavsiya etishadi. Hozirgi kunda xonandalarning ovoziı ijroga tayyorlash borasida ko‘pgina ovoz mashqlari ishlab chiqilgan va bu jarayon davom etmoqda. Quyida esa shu kabi ovoz mashqlariga misollar keltiriladi. Ushbu ovoz mashqlari Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida ilmiy tadqiqot va pedagoglik amaliyoti mobaynida ishlab chiqildi:





Ovoz sozlash mashqlari:

Ovoz mashqlari doimo yopiq lab bilan boshlangani ma’qul. Va shu bilan birga kuylovchi uchun qoida bo’yicha yengildan murakkablashib boruvchi ovoz sozlash mashqlari amalga oshiriladi. Til va tanglay orasida bo’shliq hosil qilinadi. Yopiq “M” tovushi hosil qilinadi. Shuni unutmaslik kerakki, bu turdagi ovoz mashqlarida xonanda sinaladi. So’ng uning keyingi murakkab ovoz sozlash mashqlariga o’ta olish masalasi aniq bo’ladi. Bunda mashq to’g’ri bajarilsa, lab va burun atrofida, xonandaning yuz qismida mayin tebranishlar hosil bo’ladi. Agar mashq noto’g’ri bajarilsa, xonanda o’zida noqulaylikni his etadi. Kuylovchi imkon darajasida tovush tebranishini yuz qismiga yo’naltirishga harakat qilishi lozim. Buni nazorat qilib turish uchun esa qo’l kaftining orqa tomonini mashq jarayonida lablarga tekkizib turish tavsiya etiladi. Bunda tebranishlar labdan qo’lga o’tishi mashqning to’laqonli bajarilayotganidan darak beradi. “Aytilganidek lab yumilgan holatda uzluksiz “M” undoshiga o’xshash tovush hosil qilinadi:

1

¹ Jumayev S. Xonandalarni ijro jarayoniga tayyorlovchi intensiv ovoz mashqlari. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY. International scientific journal. Volume: 2, Issue: 5, 2024. 291-295-betlar.





Mashq jarayonida nafas faqatgina burun orqali olinadi. O‘pkaning havo sig‘imi ustida ishlash ham ancha samarali ovoz mashqlaridandir. Chunki shunday asarlar borki, yuqori pog‘onalarda bir necha takt davomida cho‘zib turiladigan avjlarga ega. Bunday holatda o‘pka, unga olingan havo miqdori va uni iqtisod qilib ishlata olish masalasi oldinga chiqadi. Ushbu mashqda esa aynan shu jihatlarga urg‘u berilgan:

Xonanda qanchalik chanqoq bilan nafaas olsa shunchalik o‘pka faollashadi. Buning uchun legato yordamida ko‘proq takt mobaynida cho‘zib kuylanadigan ovoz mashqlari zarurdir.

Borgan sari ovoz mashqlarini milliylikka yaqinlashtirish va unda nolalarni aks ettirish muhimdir. “Hozir taqdim etiladigan ovoz mashqi xonanda o‘zbekona nolalardan foydalanishi uchun qulay melizmlar bilan ham bezatilgan. Unda forshlag melizmi bor bo‘lib o‘ziga xos dinamika bilan ijro etilishi kerak bo‘ladi. Xonanda kreshcendo yordamida uchinchi taktdagi notani cho‘zib turadi va diminuendo yordamida navbatdagi taktdan boshlab forshlag orqali tovushining kuchini pasaytirib boradi. Xonanda o‘z ixtiyoriga ko‘ra mashqni





yanada boyitib, bezab ijro etishi mumkin. Faqat me’yordan oshmaslik va bachkanalikka yo‘l qo‘ymaslik kerak bo‘ladi:

Maestoso

Maestoso

2

Ovoz mashqi shu tarzda davom ettiriladi.

Shundan so‘ng “Cho‘li Iroq” yoki “Munojot” kabi asarlarning so‘zsiz kuylanadigan qismlaridan parcha kuylashga o‘tish mumkin:

a - si - ri - ngma - no.

a - si - ri - ngma - no.

² Jumayev S. “Ovozni yo‘lga qo‘yish” fanining nomlanishi o‘rniga muqobil sifatida “Ovozni sozlash” termini va maxsus ovoz mashqlari. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume: 4, Issue: 5, 2024. 196-200-betlar.





Ushbu ovoz mashqi vokal pedagogikasi mutaxassislari tomonidan tavsiya etiladi³.

“Demak, ovoz mashqlarini ko‘proq o‘zbek xalq musiqa merosi asosida tanlash maqsadga muvofiq. Bunday mashqlar talabaning mamlakatimiz tarixiga bo‘lgan e’tiborini oshiradi kelajagiga ishonch paydo qiladi”⁴. Shu fikrlarga asoslangan holda ta’lim jarayonini olib borish maqsadga muvofiqdir. Mashq jarayonida ham milliy ohanglar jaranglab tursa xonandaga asar ijrosi yanada osonlashadi. “An’anaviy qo‘shiqchilik o‘rgatish jarayonida o‘zbek maqomlari va mumtoz musiqasida mavjud “zamzama”, “hang”lardan unumli foydalanish bo‘lg‘usi xonandani ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan muqaddas musiqiy merosga yaqinlashtiradi”⁵. Quyida esa ushbu ikki atamaning ta’rifiga e’tibor berish kerak bo‘ladi:

“Zamzama (arab. – زَمْرَمَةٌ g‘ing‘illab ovoz chiqarish, g‘o‘ng‘irlash) – 1. Sekin ovoz bilan ashula aytish, hirgoyi qilish. 2. Otashparastlarning ibodat chog‘ida ohista va mayin ohangda “o‘qish”lari. 3. Kuy va ashulalarni o‘rganish jarayonidagi mashqlar. 4. O‘n ikki maqom majmuasida tovush tizilmalari, tuzuk (parda) turlaridan birining nomi. Navro‘zi Bayotiy shu’basi bilan Rohaviy maqomi asosida yaratilgan 24 murakkabotning biri”⁶.

“Hang (fors.-tojik. – هنگ ovoz, sado) – 1. Kuy, ohangning umumiy ifodasi. 2. Tovushqator va uni ovoz bilan berish. 3. His, hayajon kabi kayfiyatlarni anglatuvchi – o, oh, voh, yor, yor-yey, dod, dod-yey, voy, e voy, vo-yey, jon, jon-yey, jonim, joni-mo – singari undov so‘zlari bilan cho‘zib aytiladigan ashulaning parchalari. Maqomlarda ular qaytarma ohanglardan iborat bo‘lib, ashula yo‘llarining ma’lum qismlaridan so‘ng har gal takrorlanib aytiladi. Bularni she’r matnisiz aytiladigan ohanglar deyish maqsadga muvofiq. 4. Turkman xalq musiqasida “ohang, kuy” ma’nosida cholg‘u yo‘llarini ifodalaydi. Yana q. Ohang, Kuy, Ovoz, Sado”⁷. Zamzama va hang yordamida bajariladigan ovoz mashqlari esa xonandani yanada maqom ijrochiligiga yaqinlashtiradi. Ovoz mashqlarining oxirida stakkato

³ “Maqom xonandaligi ta’limida ovozni yo‘lga qo‘yish masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “BOOKMANY PRINT” MChJ bosmaxonasi, 2023. 56-bet.

⁴ Rasulov O‘. Yakkaxon qo‘shiqchilik. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017. 7-bet.

⁵ Rasulov O‘. Yakkaxon qo‘shiqchilik. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017. 8-9-betlar.

⁶ Rajabov I. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug‘ati. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2023. 75-bet.

⁷ Rajabov I. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug‘ati. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2023. 212-bet.





mashqlari bajarilsa nafas va yengil kuylay olmaslik borasidagi muammolar o‘z yechimini topadi.

“Eng mukammal soz-inson ovozi, degan gapni ko‘p takrorlaymiz. Qo‘shiq tinglayotganda, kuylayotganda, ayniqsa, uni o‘rgatayotganda bu hikmatli so‘zning bejiz aytilmaganini anglaymiz. Bu so‘zlar har bir o‘qituvchining shoriga aylanishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchi ovoz shakllantiruvchi zarur holatlar ko‘nikmalarni to‘g‘ri, aniq shakllanishni ta‘minlovchi unsurlarga alohida e‘tibor qilishi kerak. Darvoqe, biz ovozni mukammal soz dedik. Nazarimda, bu sozning birinchi tori – ong, ikkinchi tori – ovoz, uchinchi tori – nafas, to‘rtinchi tori – talaffuz... An’anaviy qo‘shiqchilikda mavjud barcha jarayonlar mana shu “tor”larni sozlashga qaratilishi lozim. Ulug‘ allomalardan Abu Ali ibn Sino e‘tirof etgan “Inson ovozi” deb atalmish muqaddas “cholg‘u”ning xonandalikdagi barcha ilmiy-nazariy qoidalar asosida sozlanishining ham ilk ibtidoiy omillaridan biri ham mashqlar-ovoz mashqlaridir.

Mashqlar nafaqat ovoz, balki talaba ongi, shuuri, xususan, estetik didining shakllanishida muhim vositadir”⁸.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabov I. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug‘ati. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2023.

2. Rasulov O‘. Yakkaxon qo‘shiqchilik. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017.

3. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY. International scientific journal. Volume: 2, Issue: 5, 2024. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume: 4, Issue: 5, 2024.

4. “Maqom xonandaligi ta‘limida ovozni yo‘lga qo‘yish masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “BOOKMANY PRINT” MChJ bosmaxonasi, 2023.

Foydalanilgan saytlar:

1. <https://imlo.uz>; <https://izoh.uz>

⁸ Rasulov O‘. Yakkaxon qo‘shiqchilik. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017. 6-bet.





“SUG‘DIYONA” MILLIY CHOLG‘ULAR KAMER ORKESTRI JAZ MUSIQA SAN’ATIDA

Yulduz DADAJONOVA,

O‘zRFA San’atshunoslik instituti tayanch doktoranti.

bazarbekova96@list.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Sug‘diyona” milliy cholg‘ular kamer orkestrining jaz musiqa san’atidagi ijodiy faoliyati yoritilgan. Jaz musiqasiga bag‘ishlanagan “Sogdiana in jazz” nomli konsert dasturida ijro etilgan asarlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: orkestr, jaz, kompozitsiya, aranjirovka, uslub.

Аннотация: В данной статье освещается творческая деятельность камерного оркестра национальных инструментов “Согдиана” в области джазового музыкального искусства. В концертной программе “Согдиана в джазе”, посвященной джазовой музыке, анализируются исполняемые произведения.

Ключевые слова: оркестр, джаз, композиция, аранжировка, жанр.

Abstract: This article focused the creative work of the chamber orchestra “Sogdiana”, which specializes in playing national instruments, in the realm of jazz music. The concert program, “Sogdiana in Jazz”, is dedicated to showcasing the orchestra’s interpretation of jazz compositions.

Key words: orchestra, jazz, composition, arrangement, genre.

Jaz musiqasini ijro etish uchun alohida maxsus cholg‘udan foydalanish kerak degan noto‘g‘ri fikr mavjud. Saksafon bilan bonjo cholg‘ulari jaz musiqasi bilan birga tassavur qilinishi rost, ammo aynan jaz musiqasining alohida cholg‘ulari emas.[1,46] Shunchaki shunisi haqiqatga yaqinki jaz ijro etayotgan cholg‘u, uning qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Jaz kompozitsiyalarini ijro etish uchun cholg‘u asboblari yangiliklar kiritilishi rost(masalan trubalarga surdinalar qo‘shib ijro etish va boshqa) ammo bu ijrochiga asarni ijro etishida yengillik yaratadi xolos, ijrochidan haqiqiy jazmenni yaratib bera olmaydi. Jaz musiqasini har qanday cholg‘uda ijro etish mumkin. Yuqorida





aytilganlarning tasdig‘i sifatida Firuza Abduraximova boshchiligidagi “Sug‘diyona” orkestrining hamda A. Ikromovning Estrada simfonik orkestrining jaz musiqasidagi faoliyatini keltirsak bo‘ladi.

“So‘g‘diyona” milliy cholg‘ulardan iborat kamer orkestri 1991 yilda tashkil topgan. Mazkur jamoa rahbari Firuza Abdurahimova orkestr asoschisi hisoblanib, 30 yildan oshiq ijodiy faoliyat olib borib kelmoqda. Turli festivallar, ko‘rik- tanlovlar da milliy musiqa san’atining yangi davrdagi rivojiga hissa qo‘shib kelmoqda.[2.1] Orkestrning o‘ziga hos jihatlaridan biri milliy musiqamiz bilan bir qatorda jahon musiqasining turli janrlarida o‘zlarini sinab ko‘rishlaridadir. Orkestr rahbari F. Abdurahimovaning aytishicha jaz musiqasiga bo‘lgan qiziqish orkestr ilk tashkil topgan mahal boshlangan. So‘ngra jaz musiqasini o‘zlashtirish, ijro repertuarlariga yangi yonalish asarlaridan qo‘shish maqsadida Radio qoshidagi estrada- simfonik orkestri rahbari Ye. Jivaevga murojaat qilishgan. Ammo Ye. Jivaev “Mening 50 yillik tajribamga ishoning xalq cholg‘ularida jaz musiqasi hech qachon yangramaydi” degan keskin xulosani aytgan ekan. Biroq yillar mazkur xulosa noto‘g‘ri ekaniga butun dunyo bo‘ylab turli xil cholg‘ularda ijro etilib kelinayotgan mazkur musiqaning ijodiy amaliyot asos bo‘ldi. To‘g‘ri O‘zbekiston jaz musiqasining rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkor Ye. Jivaevning yuqoridagi xulosasida ham bir tomonlama haqiqat bor. Sababi jaz musiqasini tarixan ijro etilib kelinayotgan cholg‘ulardan o‘rganish bu musiqada tarbiyalanmagani ijrochilarimizga murakkablik tug‘dirib kelayotgan bir mahalda, jaz musiqasiga yod bo‘lgan milliy cholg‘ularimizda spesifik jihatlarini namoyon etish bosqichiga hali tayyor emasligi rost edi albatta.

So‘ngra 2010-yilda F. Abdurahimovani Germaniya elchixonasiga taklif etishgan hamda Berlin universiteti jaz fakultetining ijodkorlari “So‘g‘diyona” orkestri bilan birgalikda ijod qilish taklifini berishgan. Mazkur jaz fakultetida bizning ta‘lim yo‘nalishlarimizdan farqli o‘laroq nafaqat ijrochilar balki jaz kompozitorlari ta‘lim olishlari sababli ham “So‘g‘diyona” orkestri tarkibiga moslashtirilgan 6 ta haqiqiy jaz musiqa asarlari tayyorlab, ularni ijro etish uchun Berlinning Trio “Arlyous” jamoasi Toshkentga yetib kelgan. F. Abduraximovaning mazkur uchrashuv haqida shunday eslaydi “ Nemis musiqachilari oldida biroz hijolat bo‘lganman, sababi biz 6 ta jaz asarlari tayyorlab





keldik, qani endi o‘zbek jaz musiqa asarlaridan ham ijro etish istagini bildirganlarida, hatto biroz ikkilanib qolganmiz qaysi asarni ijro etishni, so‘ngra V. Saparovning “Yallama yorim”, “Olmacha anor” aranjirovkalarini ijro etganmiz”.

So‘ngra 2019-yil orkestr Afrikadan tashrif buyurgan jaz guruhi “Where’s Africa” triosi bilan hamda shu yilning o‘zida Qozog‘istondan tashrif buyurgan “Yedil va Satjan proekt” jaz guruhi bilan hamkorlikda konsert dasturi o‘tkazildi. Konsert avval milliy kamer orkestrimiz o‘zining repertuaridan, so‘ng mehmon musiqachilar o‘z repertuarlaridan va konsert so‘ngida ikki mamlakat musiqachilari birgalikda yangicha tarkibli guruhga moslashtirilgan ijod namunalarini taqdim qilganlar. Konsertlar mobaynida xorijiy jaz musiqachilari bilan birgalikda milliy musiqamiz kuylariga jaz musiqa uslublari qorishtirilgan ajoyib aranjirovkalar tinglovchilarga taqdim etilgan. Misol sifatida “Where’s Africa” triosi bilan birgalikda ijro etilgan “Qamar booba” deb nomlangan nubiyaliklarning xalq qo‘shig‘i etnojazz uslubdagi ajoyib aranjirovka namunasi hisoblanadi. “Yedil va Satjan proekt” jaz guruhi bilan birgalikda esa o‘zbek xalq kuylaridan “Quralay” hamda qozoq xalq kuyi “Mavsumjon” kuy mavzulariga ijro etilgan aranjirovkalar e‘tiborga sazovor.[3]

Shundan so‘ng yillar o‘tib “So‘g‘diyona” orkestrining jaz musiqasi bilan to‘qnashuvi 2024-yil 18-aprel kunida butunlay jaz musiqasiga bag‘ishlangan “So‘g‘diyona jazda” (“Sug‘diyona in jazz”) nomli konsert dasturiga to‘g‘ri keldi. Konsert dasturida butunlay jaz musiqasining turli janrlaridagi asarlarni milliy cholg‘ular kamer orkestri va vokal ijrochilar tomonidan mahorat bilan ijro etdilar. Asarlar orasida jaz “klassika” siga aylangan J. Gershvinning “Summertime”, D. Ellingtonning “It don’t mean a thing”, “Caravan”, R. Rojerdsoning “The lady is a tramp”, I. Berlinning “Cheek to cheek”, Ch. Korieaning “Ispaniya”, A. sfasmanning “Ne udachnoe svidanie” kabi asarlar, horij estradasining yorqin namunalaridan K. Soltanining “Je veuh”, Ye. Dadlining “Jivs va Vuster world”, A. Mustafazadening “Doimo” kabi qo‘shiqlari hamda o‘zbek xalq kuyi “Chorgoh”, E. Salixovning “Qiz bola” asarlari ijro etildi. Yuqoridagi kompozitsiyalarni orkestrga A. Tursunov, Q. Bozorov, A. Karabaev hamda S. Primov mahorat bilan moslashtirgan. Kompozitsiyalar orasida J. Gershvinning “Summertime” asarini o‘zbek cholg‘ularida jaz






musiqasi spesifikasini chiqara olgan ajoyib aranjirovka sifatida baholash mumkin. Mazkur jaz musiqasining “oltin fond”iga kirgan asarni A. Karabaev orkestrga moslashtirgan va solo ijrosini qo‘sh nay cholg‘usiga bergan. Ammo tiniqva toza sadolanish hususiyatiga ega qo‘sh nay cholg‘usida S. Primov huddi truba cholg‘usini surdina orqali yopiq ijro etgandek bo‘g‘iq ovozda ijro etdi. Ijrochining mohirona yondashuvi sabab asar huddi haqiqiy jaz musiqasi cholg‘usida yangrayotgandek eshitildi. A. Karabaev asl aranjirovkaga biroz o‘zgacha yondashuv qilib asarni asosiy mavzudan emas balki ritm hissini kuchaytiruvchi kirish qismidan boshlagan.

Shuningdek D. Ellingtonning “Caravan” asari milliy cholg‘ular orkestri ijrosida biroz o‘zgacha uslubda aranjirovka qilingan. Asarning lotin amerika uslubini yanada yorqinroq ifodalash maqsadida orkestrga urma zarbli cholg‘ulardan (udarnik) hamda lotin amerika uslubini yaxshiroq ifodalovchi bondjo cholg‘usi qo‘shib samba uslubidagi kirish qismidan boshlangan. So‘ngra asosiy mavzu ijro etilib, kompozitsiyaning aynan J. Vasson tomonidan aranjirovkasiga asoslangan bo‘lsada, orkestr hususiyatidan kelib chiqib kichik o‘zgartirishlar bilan miks qilib ishlangan.



Albatta konsert dasturidan o‘rin olgan har bir kompozitsiya jaz uslublarini to‘la ochib bera oldi degan fikrdan yiroqmiz. Masalan, sving uslubining eng yorqin namunasi hisoblangan D. Ellingtonning “It don’t mean a thing” oladigan bo‘lsak solo ijrosidagi S. Primovning vokal ijrosi sving uslubiga yaqin kelgan bo‘lsada orkestrda yangrayotgan ritm hissi quyida keltirilgan sxemadagi kabi sving ritmini aniq aks ettira olmadi. Albatta sving uslubining eng murakkab tomoni ham uning ritmi hisoblanib, jaz ijrochilari ushbu ritmni his qilish uchun yillar davomida shug‘ullanib keladi.





Bundan tashqari asarning aranjirovkasiga e’tibor beradigan bo‘lsak D. Ellington ijro etgan improvizatsiya qismini notalashtirilganini ko‘rish mumkin. Bu kompozitsiya aranjirovkalar turlarining maxsus-aranjirovka turiga mansubligidan dalolat beradi.

Yuqorida tahlil qilingan kompozitsiyalar milliy kamer orkestr uchun noodatiy ijro imkoniyatlarini ochib berdi. Jaz musiqa tinglovchilari uchun ham yangicha talqinda jaz standartlarini tinglash uchun zamin yaratdi. Aranjirovkachilar milliy musiqa hamda yevropa klassik musiqa ta’limini olgan bo‘lsalarda jaz musiqa ohanglarini eshitish orqali samarali mehnat qilganliklari ko‘rinib turadi. Ta’kid joizki milliy musiqa ohaglarida tarbiya topgan ijrochilarning murakkabliklarsiz jaz improvizatsiyalarini ijro eta olganliklarining tubida milliy musiqamiz ham aslini olganda badihaviylik asosida yaralgani yotadi. Ikki mintaqa musiqasining spesifik ijro tili turli xil bo‘lsada badihaviylik san’ati Yevropa klassik musiqasiga qaraganda milliy musiqamizga xos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Конен В. Третий пласт: Новые массовые жанры в музыке XX века // Музыка. – М, 1994.-С. 160.





2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/musiqa/so-g-diyona-davlat-xalq-cholg-ulari-kamer-orkestrining-ijodiy-faoliyati>

3. <https://www.youtube.com/watch?v=NrRRhsn0iGI&list=PLpc9IkiiOVxRpAolTF-VVdaGgZfYrF0vT&index=6>





ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ НОВАЦИИ В УЗБЕКСКИХ ТРАДИЦИОННЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ: ОТ ПРОШЛОГО К СОВРЕМЕННОСТИ

Виктор ХАНДАМЯН,

*Институт узбекского национального
музыкального искусства им. Юнуса Раджаби
доцент кафедры «Композиторства, бастакорства и
общего фортепиано, Независимый исследователь, PhD.*

khandamianvictor@gmail.com

Аннотация: Современное узбекское национальное музыкальное искусство находится на пересечении традиций и новейших технологий. Это сочетание позволяет не только сохранить богатое культурное наследие, но и представить его в новом свете, адаптируя к требованиям времени. В данной статье уделяется внимание созданию цифровых библиотек сэмплов узбекских традиционных музыкальных инструментов и их роли в сохранении культурного наследия.

Ключевые слова: библиотека сэмплов, танбур, узбекские традиционные музыкальные инструменты, технологии

Annotatsiya: Zamonaviy o‘zbek milliy musiqa san’ati an’analar va eng yangi texnologiyalar kesishuvida bo‘lib. Bunday uyg‘unlik nafaqat boy madaniy merosni asrab-avaylash, balki uni davr talabiga moslashtirib, yangicha ko‘rinishda taqdim etish imkonini beradi. Ushbu maqolada o‘zbek an’anaviy cholg‘u asboblari namunalaridan iborat raqamli kutubxonalar yaratish va ularning madaniy merosni asrab-avaylashdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: namuna kutubxonasi, tanbur, o‘zbek xalq cholg‘u asboblari, texnologiya.

Abstract: Modern Uzbek national musical art is at the intersection of traditions and the latest technologies. This combination allows not only to preserve the rich cultural heritage but also to present it in a new light, adapting to the demands of the time. This article focuses on the creation of digital sample libraries of Uzbek traditional musical instruments and their role in preserving cultural heritage.





Key words: *sample library, tanbur, Uzbek traditional musical instruments, technologies.*

Узбекистан является страной с богатым музыкальным наследием, и многие традиционные музыкальные инструменты имеют глубокие корни в истории страны. Формирование и развитие узбекских традиционных музыкальных инструментов отражает глубину музыкального наследия этой культуры и её вклад в мировую музыкальную традицию.

Узбекская музыка, с её богатыми традициями и уникальными инструментами, всегда занимала важное место в культуре региона. Традиционные инструменты являются неотъемлемой частью музыкального наследия Узбекистана. С развитием технологий эти инструменты претерпели значительные изменения, которые способствовали их адаптации к современным условиям и требованиям.

Один из самых известных и распространённых музыкальных инструментов в Узбекистане — это танбур. Танбур, как и другие инструменты этого семейства, имеет древнюю историю и разнообразные формы, которые можно проследить на протяжении тысячелетий.

История развития танбура насчитывает тысячелетия. Например, на цилиндрической печати Аккадского периода (2400-2200 до н.э.) изображена фигура, играющая на музыкальном инструменте с длинным грифом, что, вероятно, является прототипом танбура. Курт Сакс связывает название танбура с шумерским “пан-тур”, что означает “маленький лук”. Танбур указывает на историческую и культурную преемственность между различными регионами сквозь века.

Танбур представляет собой струнно-щипковый инструмент с длинным грифом и чашеобразным резонатором. Современные узбекские танбуры обычно имеют четыре струны. Звук извлекается с помощью плектра (нахуна), надеваемого на указательный палец. Танбур используется в различных жанрах музыки, включая узбекско-таджикскую классический жанр маком.

Исторически, танбур был важным инструментом при дворе Шейбанидов, и его использование продолжало развиваться при





династии Мангытов, когда в Бухарском эмирате получил развитие узбекский классический музыкальный цикл Шашмаком.

Инструменты семейства танбура имеют общие черты, но также обладают уникальными характеристиками в зависимости от географического региона и культурного контекста.

Из коллекции А. Эйхгорна [1], видно, что Кашгарский ситар XIX века имел уникальные особенности: 11 резонирующих струн и одну приподнятую мелодическую струну, на которой играли смычком или плектром. Эти новшества улучшили резонанс и обогатили звуковую палитру инструмента, что сделало его звучание более насыщенным и многогранным. Такие изменения позволяют расширить возможности использования ситара в различных музыкальных жанрах, от традиционной до современной музыки.

Чартар из Шугнана имеет четыре струны, расположенные парами, и крупные отверстия в деке под каждую пару струн. Такая конструкция улучшает акустические характеристики и громкость звучания, что позволяет инструменту звучать более мощно.

Технические изменения, такие как удвоение мелодических струн, улучшение конструкции парда и улучшение акустических характеристик, способствовали адаптации и совершенствованию узбекских музыкальных инструментов. Эти новации улучшили качество звучания и сделали инструменты более удобными для исполнителей своего времени.

Цифровизация музыкальных инструментов стала важным этапом в дальнейшем развитии музыкальной культуры. Создание цифровых библиотек сэмплов позволяет воссоздавать звучание традиционных инструментов в цифровой среде, что является ключевым для сохранения и популяризации узбекской музыкальной культуры среди масс. Этот процесс включает несколько этапов[2]:

Анализ возможностей инструмента: На данном этапе осуществляется сбор информации о технике игры на инструменте, его диапазоне и специфических приемах.

Создание структуры библиотеки: Составление текстового файла, описывающего структуру каждого элемента библиотеки, помогает систематизировать звуки по нотам и категориям.





Разработка интерфейса пользователя (UI/UX): Создание удобного и функционального интерфейса для конечного пользователя, который будет использовать цифровую библиотеку.

Запись звуков в студии: Этот этап включает сотрудничество с опытными исполнителями и запись различных техник игры на инструменте.

Обработка и нарезка сэмплов: Важный этап, включающий нарезку звуков на короткие сэмплы и их последующую обработку для использования в цифровой библиотеке.

Программирование и создание скрипта: Использование языка программирования KSP для реализации всех активных элементов библиотеки.

Цифровые библиотеки сэмплов предлагают множество преимуществ:

Доступность: Цифровые версии инструментов доступны по более низкой цене, чем реальные инструменты.

Удобство использования: Музыканты могут использовать цифровые инструменты в любое время без необходимости владеть физическим инструментом.

Сохранение культурного наследия: Цифровые библиотеки помогают сохранить уникальное звучание традиционных инструментов для будущих поколений.

Несмотря на многочисленные преимущества, создание цифровых библиотек сэмплов сталкивается с рядом проблем и вызовов. Одной из основных проблем является необходимость высококачественной записи звуков, что требует специальных условий и оборудования. Кроме того, программирование и создание скриптов для библиотеки требуют значительных временных и финансовых затрат.

Развитие цифровых технологий и создание цифровых библиотек сэмплов открывают новые перспективы для узбекской музыкальной культуры. В ближайшем будущем можно ожидать появления новых библиотек сэмплов для других узбекских традиционных инструментов. Это позволит сохранить и популяризировать уникальные звучания узбекских инструментов, делая их доступными для широкой аудитории по всему миру.





Цифровизация узбекских традиционных музыкальных инструментов напрямую способствует решению проблем, обозначенных в ПП №4038 от 28.11.2018 «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан»[3]. Цифровизация музыкальных инструментов и исторические исследования способствуют увеличению присутствия узбекской культуры в мировом медиа пространстве, продвижению национального творчества на международном уровне и улучшению сотрудничества с международными организациями. Эти шаги важны для сохранения и популяризации богатого музыкального наследия Узбекистана, а также для его интеграции в современные культурные и технологические процессы.

Цифровые библиотеки сэмплов позволяют интегрировать традиционные узбекские инструменты в современные музыкальные проекты по всему миру. Это способствует популяризации узбекской музыкальной культуры и увеличению её присутствия в мировом медиа пространстве.

Использование информационно-коммуникационных технологий для создания и распространения цифровых библиотек сэмплов позволяет облегчить доступ к узбекской музыкальной культуре для исследователей и музыкантов по всему миру.

Цифровые библиотеки сэмплов могут быть проданы или предоставлены на основе подписки, что создает новые возможности для экспорта продукции национального творчества. Это позволяет не только сохранять, но и распространять узбекское музыкальное наследие на международном уровне.

Участие в международных музыкальных проектах, конкурсах и фестивалях с использованием цифровых версий узбекских инструментов способствует повышению узнаваемости и популярности узбекской культуры за рубежом.

Создание цифровых библиотек сэмплов способствует установлению и укреплению связей с международными культурными и образовательными организациями:

Научные конференции: Представление результатов исследований на международных конференциях по этномузыкологии и культурным исследованиям.





Международные проекты: Участие в международных проектах по сохранению и популяризации музыкального наследия.

Цифровые библиотеки сэмплов открывают новые возможности для экспорта узбекской музыкальной культуры:

Коммерческое использование: Продажа лицензий на использование сэмплов в коммерческих музыкальных проектах.

Туризм и культура: Привлечение туристов и культурных обменов через демонстрацию уникальных аспектов узбекской музыки.

| Проблемы | Решения | Влияние |
|--|---|---|
| Недостаточное внедрение ИКТ в сферу культуры | Цифровизация музыкальных инструментов, улучшение доступа к узбекской музыкальной культуре для исследователей и музыкантов по всему миру | Интеграция узбекской музыкальной культуры в международные культурные процессы |
| Отсутствие эффективной системы экспорта национального творчества | Продажа цифровых библиотек сэмплов, участие в международных музыкальных проектах, конкурсах и фестивалях | Повышение узнаваемости и популярности узбекской музыкальной культуры за рубежом |

Технологические новации в узбекских традиционных музыкальных инструментах играют важную роль в их адаптации к современным условиям и требованиям. Эти новации обеспечивают долгосрочное развитие узбекской музыкальной культуры и её интеграцию в мировое музыкальное сообщество. Технологические достижения не только улучшают функциональность и звук инструментов, но и сохраняют их





культурную значимость, делая их актуальными и востребованными в современном мире.

Современные технологии позволяют музыкантам экспериментировать с новыми звуками и стилями, создавая уникальные музыкальные произведения, которые сочетают традиционные и современные элементы.

Использованная литература:

1. Эйхгорн А. Полная коллекция музыкальных инструментов народов Центральной Азии. СПб: тип. Ю. Штауфа (И. Фишона), 1885

2. Khandamian, Victor and Khasanov, Abdulaziz (2021) “Building a Library of Samples (Kontakt) of The Uzbek Traditional Dutar” Eurasian music science journal: 2021 : No. 1 , Article 3ю

3.ПП №4038 от 28.11.2018 «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан»





“TOHIR VA ZUHRA” MUSIQALI DRAMASINING ATOQLI IJODKORLARI

Gulxumor ABDUSAMATOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasi
o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi.
Ilmiy rahbar: Ravshan YUNUSOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI professori,
san’atshunoslik fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi mashhur bo‘lishida dramaturg Sobir Abdulla, bastakor To‘xtasin Jalilov hamda xushovoz hofiz Ma‘murjon Uzoqov singari atoqli ijodkorlarning beqiyos xizmati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: bastakor, musiqali drama, hofiz, dramaturg.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori madaniyat tizimini, jumladan, teatrlar faoliyatini yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xalqimiz, birinchi navbatda, yoshlar o‘rtasida teatr san’atiga bo‘lgan qiziqish va e‘tiborni kuchaytirishga qaratilgan qator qarorlar ishlab chiqildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-aprelda tasdiqlangan “Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁹gi 329-sonli qaroriga muvofiq yurtimizda teatr san’atining boy an’analarini yuksaltirish, asrab-avaylash va rivojlantirish, zamon talablari darajasidagi sahna asarlarini sahnalashtirish, ularda milliy an’analarimizni ulug‘lash orqali umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida milliy

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат театрлари ва концерт-томоша муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, 329-сон, 18.04.2019. // <https://lex.uz>.





qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg‘usini oshirish kabi dolzarb masalalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunga kelib teatrda tarixiy mavzuga bag‘ishlangan asar spektakllarini tomosha qilishga bo‘lgan qiziqish yana ortayotgani seziladi. San’atsevarlar yahshi biladiki, Tohir va Zuhraning sadoqatli sevgi qissasi asosida o‘z davrida sahnaviy asarlar talqin etilgan. Xususan, musiqali drama va opera yaratilib, badiiy film ham suratga olingani ma’lum. Milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi davrga kelib, ardoqli va qadri baland sevgi qahramonlarining hayoti va ruhiy kechinmalari dastlabki manbalarga tayangan holda yangicha ko‘rinishda sahnaga olib chiqildi.

Ma’lumki, “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi yaratilish tarixi O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli yozuvchi va dramaturg Sobir Abdullaning 1937-yilda Moskvada o‘tkazilgan birinchi O‘zbekiston adabiyoti va san’ati o‘n kunligidagi ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu o‘rinda atoqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, akademik Naim Karimovning “Tohir va Zuhra” ijodkori” nomli maqolasi 2021-yilda “Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilganini ta’kidlash o‘rinli. Maqola mazkur sahna asarining yaratilishiga 80 yil to‘lgani munosabati yozilgan bo‘lib, unda shoir va dramaturg Sobir Abdullaning esdaliklari bayon etiladi. Maqolada yozilishicha: “... delegatsiya rahbari Akmal Ikromov Moskva teatrlaridan birida Shekspirning “Romeo va Julyetta” spektakli namoyishiga meni chorlab, bunday dedi: “Sobirjon, o‘zbek xalqida nima ko‘p, baxtsiz oshiq va ma’shuqalar haqidagi xalq ertaklariyu dostonlari ko‘p. Navoiy ham “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” kabi dostonlarni yozgani bejiz emas. Siz Shekspirning shu asarini ko‘rib, o‘zbek xalqining ham Romeo va Julyetta singari muhabbat shaydolari haqida sahna asarini yozing”¹⁰. Shu tariqa Sobir Abdulla spektaklni tomosha qilgach, bunday o‘ta ma’suliyatli ishni bajarish uchun avval xalq dostonlarini o‘rgana boshlagan. Avvaliga o‘zbek xalqining “Tohir va Zuhra” ertagiyu dostonlarini o‘qib chiqib, shu yilning o‘zidayoq shu nomli bo‘lg‘usi spektakl uchun pyesa yozadi. Xususan, shoir xalq dostonidagi sevgi, vafo kabi tuyg‘ularga sodiq

¹⁰ Каримов Н. “Тоҳир ва Зухра”нинг иждокори”. // Янги Ўзбекистон. 2021 йил, 30 январь, 21-сон.





oshiqlar timsolini o‘z talqinida yaratish uchun uch yil mobaynida mehnat qilgan.

1939-yili Muqimiy teatrida endigina o‘z ijodiy faoliyatini endigina boshlagan Saodat Qobulova Sobir Abdulla bilan olib borgan suhbatini shunday xotirlaydi: “... “Tohir va Zuhra”ni yozish qanday hayolingizga kelgan edi? – deya qiziqib bergan savolimga Sobir Abdulla kuldi va: - 1937-yil Moskvada Shekspirning “Romeo va Juletta” asarini ko‘rganimdan keyin ana shunday asar yozish, pokiza muxabbat dostonini yaratish orzusi tug‘ildi, - deb javob bergan edi. Suhbat yakunida, - uch yilda yettita variant yozdim va nihoyat Farg‘ona kanalining ochilishi kuni teatrga topshirdim, - deb qo‘shib qo‘ydi.”¹¹ Darhaqiqat, musiqali dramadagi Tohir bilan Zuhraning vafoli lekin fojeaviy muxabbati xaqidagi voqealar bilan “Romeo va Juletta”dagi voqealar rivoji o‘rtasida mushtaraklik bor. Chunki, ikkisida ham sevgi, vafo mavzusi avj pardalarda tarannum etiladi, muxabbat intihosi fojea bilan yakunlanadi.

Musiqali dramadagi oshiqlarning his-tuyg‘ularini, orzu va umidlarini, xatti-harakatlarini esa hassos sozanda va bastakor To‘xtasin Jalilov xalqchil uslubda, go‘zal va maftunkor musiqa namunalari orqali aks ettiradi. Musiqashunos To‘xtasin G‘ofurbekov ta’kidlaganidek, “... “Farxod va Shirin” (1922), “O‘rtoqlar” (1930), “Layli va Majnun” (1933), “Gulsara” (1936) singari musiqali dramalar “Tohir va Zuhra”dek tom ma’nodagi shoh asar darajasiga ko‘tarila olmadi.”¹²

“Tohir va Zuhra” musiqali dramasida qahramonlarning shoirona tabiati, oddiy va samimiyligi, taqdirlarining murakkabligi musiqiy jihatdan xalqchil uslubga tayanilgan holda, badiiy-barkamol tarzda amalga oshirilgan. Uni har bir tomoshabin hayajon bilan kuzatadi, maroq bilan tinglaydi. Avvalambor, spektakldagi go‘zal, dilkash ariya, qo‘shiq va ashulalarni mohirona bastalagan atoqli bastakor, sozanda va ustoz, musiqali dramalar “otaxoni” To‘xtasin Jalilovni tilga olishimiz shart, albatta. XX asrning birinchi yarim yilligida To‘xtasin Jalilov respublikadagi qator musiqali teatrlarda badiiy rahbar bo‘lib xizmat qilgan ekan, qirqqa yaqin sahnaviy asarlari bilan san’at olamini boyitishga muvaffaq bo‘lgan. Jumladan, “Tohir va Zuhra”, “Farxod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Alpomish”, “Nurxon”, “Ravshan va

¹¹ Урфон Отажон. Санъат менинг кўёшимдир (бадиа). “Янги аср авлоди”, Т., 2006., 41-бет.

¹² Каримов Н. “Тоҳир ва Зухра”нинг ижодкори”. // Янги Ўзбекистон. 2021 йил 30 январь, 21-сон.





Zulxumor” singari musiqali dramalari uchun bastalagan dilbar kuy, qo‘shiq va ashulalari teatr shinavandalari orasida mashxur bo‘libgina qolmay, balki o‘zbek xonanda va sozandalarining kamol topishida o‘rni salmoqli.

Bilamizki, Sobir Abdulla va To‘xtasin Jalilovlarning “Tohir va Zuhra”si ilk bor rejissyor Mamadali Xaydarov tomonidan sahnalashtirilib, 1939 yili Farg‘ona viloyat musiqali drama teatrida namoyish etilgan. Bunga oid dalilli ma’lumotlar mazkur teatrdan ko‘p yillar davomida faoliyat olib borgan rejissyor Solijon Axmedovning “Farg‘ona davlat musiqali teatri 40 yil ijodiy izlanishda” nomli maqolasida keltirilgan. Unga ko‘ra, “... 1939-yil O‘zbekiston xalq shoiri Sobir Abdulla hamda xalq artisti To‘xtasin Jalilov hamkorlikda “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi ustida ish olib bordi. Spektakl shu yilning o‘zida sahnalashtirilib, Katta Farg‘ona kanali quruvchilari uchun Farg‘ona viloyat musiqali teatrining ijodiy kollektivi tomonidan namoyish etildi.”¹³

“Tohir va Zuhra”da benazir bastakor musiqasining syujet voqealari ruhiga uyg‘unligi, ta’sir kuchining o‘tkirliги bilan e’tiborlidir. Xususan, san’atshunos tadqiqotchi Zaynab Xudoyorovaning musiqali drama janri tahliliga bag‘ishlab yozgan maqolasida keltirilishicha, “...O‘zbekiston xalq artisti, farg‘onalik aktyor Fayzulla Axmedov ushbu spektaklning zahmatkash ijodkorlari haqida hotirlab, shunday degan ekan: “To‘xtasin Jalilov bilan Sobir Abdulla “Tohir va Zuhra” ustida ish olib borganlari xali xanuz yodimda. Barcha ijodkorlar Sobir Abdullaning bog‘ida¹⁴ to‘planishar domla matnni yozib tursalar, To‘xtasin aka kuyini bastalab o‘sha yerning o‘zida ijrochilarga aytirib ko‘rar edilar.”¹⁵ Darhaqiqat, hassos san’atkorning olib borgan mehnati samarasi “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi xalq yuragidan chuqur o‘rin egallashida ko‘rindi. Zero, bunga atigi bitta misol keltirishning o‘zi kifoya: musiqali dramadagi Tohir ijro etgan “To‘ylar muborak” ashulasi uzoq o‘tmishdan to hozirgi kunga qadar o‘zbek to‘ylarining muqaddimasiga aylangani ayni haqiqat.

¹³ Axmedov S. “Farg‘ona davlat musika teatri 40 yil ijodiy izlanishda (1930-1970).” // Mazkur maqola qo‘lyozmasi Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatri arxiviga tegishli. 1970-yil.

¹⁴ 1939 yilda Farg‘ona shahrining Ishehilar shaharchasidagi “Yangiariq” mahallasi oqsoqoli Sobir Abdullaga bog‘ hadya etgan ekan. // Bu haqda qarang: N.Каримов. “Тоҳир ва Зухра”нинг иждокори” // Янги Ўзбекистон. 2021 йил 30 январь, 21-сон.

¹⁵ Bu haqda qarang: Zaynab Xudoyorova. Musiqali drama janr sifatida. // Teatr jurnali, 2020-yil, 2-son, 38-bet.





Musiqashunos Ilyos Akbarovning To‘xtasin Jalilovga bag‘ishlangan kitobida “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi qisman tahlil etilgan. Unda qahramonlarning tabiati quyidagicha tavsiflanadi:¹⁶

-Tohir – fidoyi oshiq, ona xalqining orzu-umidlari uchun doimo qayg‘uradigan, xaqsizlikka qarshi kurashuvchan sofdil yigit;

-Zuhra - Tohirga bo‘lgan muxabbati tufayli har qanday qiyinchilikka tayyor nozik tabiatli go‘zal, qat‘iyatli qiz;

-Xon Boboxon – Zuhraning otasi. Ikki oshiqni bir-biridan ayirish yo‘lida har qanday qabihlikka qo‘l uradigan johil xukmdor;

-Qorabotir – Tohirning dushmani, razil niyatli sarkarda;

Shuningdek, Tohirga oshiq Xorazm malikasi Mohim, Zuhraning yaqin dugonasi Qamar, Yulduz hamda xalq yo‘lboshchisi Sardor kabi yorqin siymolar shular jumlasidandir.

Darhaqiqat, “Tohir va Zuhra”ning to‘laqonli badiiy-barkamol pyesasi va mazmundor, ohangdor kuy-qo‘shiq bilan chuqur sug‘orilgan musiqiy talqinning bir-biriga singib, uyg‘unlashib ketgani sabab u hamon tomoshabinlarning e‘tibori va e‘tirofida. Bu borada Sobir Abdulla va To‘xtasin Jalilovning samarali mehnati tahsinga sazovor. Benazir bastakor spektakldagi musiqiy sahnalarni har bir qahramonning tabiatiga mos tarzda bastalab, dramaturg bayon etgan badiiy syujetni o‘zining lirik, jozibador musiqasi orqali jonlatirib bergani bilan ahamiyatlidir.

Bastakorning birgina Muqimiy nomidagi musiqali teatrdagi faoliyatini oladigan bo‘lsak, u qisqa vaqt ichida ijodiy jamoani shakllantirib, orkestrni qaror toptirgani, shuningdek, “Tohir va Zuhra” musiqali dramasini sahnaga olib chiqqani unutilmas voqea bo‘ldi. Benazir o‘zbek operasining xushovoz xonandasi Saodat Qobulova o‘sha kezlarda, poytaxt teatrida olgan ilk taassurotlari xaqida shunday xotirlaydi: “... 1941-yilning yanvar oyi. Muqimiy teatri sahnasida “Tohir va Zuhra” ishi ketayotir. Teatrning badiiy rahbari To‘xtasin Jalilov, bosh rejissyor Muzaffar Muhamedov, Vahob Azimov. Menga Qamar rolini berdilar. Olti oy mobaynida teatr jamoasi bilan tanishib, kimlar qanday repetitsiya qilayotir, sahna yonida razm solib eshitar

¹⁶ Акбаров Ил. Тўхтасин Жалилов. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т.,1978., 74-75 betlar.





edim. O‘shanda birinchi marotaba orkestrni eshitdim. Bir tomonda yevropa cholg‘ulari, ikkinchi tomonda milliy cholg‘ular.”¹⁷

Musiqashunos Otanazar Matyoqubovning atoqli bastakor ijodiga bag‘ishlab yozgan maqolasida keltirilishicha, “To‘xtasin Jalilov ijodining gullab-yashnagan davri 1940-yillarga to‘g‘ri keldi. Shu davrda Muqimiy nomidagi poytaxt musiqali drama va komediya teatrida ishlagan marhum ustoz Turg‘un Alimatovdan bastakorning ijod uslubi, butun vujudi bilan berilib ishlashi, kerak bo‘lganda rejissyor, dirijyor va hattoki aktyor va xonanda sifatida ham boshqalarga ustozlik qilgani to‘g‘risida ko‘p eshitganman. Lozim bo‘lganda aktyor hamda sozandalar bilan 7-8 soatlab repetitsiya o‘tkazilar, kerak bo‘lsa, ular teatrdan yotib qolishar ekan.”¹⁸ Tabiiyki, bunday fidokorlik ibtidosi ulug‘ san’atkor To‘xtasin Jalilovdan boshlangan.

Teatr sahnasida namoyish etiladigan har bir sahna asarining tomoshabin ko‘nglidan chuqur joy olishida nafaqat dramaturg, musiqa muallifi yoki rejissyor mehnati, balki aktyor-xonandalarning iqtidori ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, aktyorning mahoratidan kelib chiqqan holda musiqali dramaga baho beriladi. Ayniqsa, musiqali teatr aktyorining iqtidori qay darajada ekanligi u ijro etgan biror bir dialog yoki monologdan musiqiy chiqishga silliq o‘tishida namoyon bo‘ladi. Zero, uning sahnadagi holatida sun‘iy ehtiroslar emas, balki, tabiiy hissiyotlar chulg‘ab olishi kerak. 1939-yilda Muqimiy teatri tashkil etilgach, ustoz san’atkor To‘xtasin Jalilovning o‘z ijodiy jamoasi tarkibini tuzgan. Xususan, san’atshunos olimi Marfua Xamidovaning qayd etishiga ko‘ra, “Muqimiy teatrining yangi jamoasi viloyat teatrlari hamda o‘zbek davlat filarmoniyasi musiqachilari, xonandalari hamda raqqoslari ijodiy kuchi bilan mustahkamlana borgan.”¹⁹ Ta’kidlanishicha, “...yangi teatrga o‘z davrining mashhur san’at ustalaridan, - Abdurauf Boltaev, Soyib Xo‘jaev, Sobir Raxmonov, Maxmudjon G‘ofurov, Lutfixonim Sarimsoqova, Shaxodat Raximova, Maryam Yoqubova, Omina Fayozova, Abduvahob Azimov, Mashrabjon Yunusov, Asad Ismatov, Tursunxon Ja’farova, shuningdek Jamolqori G‘iyosov, Xojiakbar Axmedov, Jo‘raxon Sultonov,

¹⁷ Урфон Отажон. Санъат менинг кўёшимдир (бадиа). “Янги аср авлоди”, Т., 2006., 33-бет.

¹⁸ Матёқубов О. Андижон самоси.// “Jannatmakon” jurnali, fevral, 2011 yil.

¹⁹ Хамидова М. Актёрское искусство узбекской музыкальной драмы. Издательство “Фан”, Ташкент-1987., 70-бет.





Ma’murjon Uzoqov singari aktyor-xonandalar jalb etilgan.”²⁰ Ayniqsa, Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov, Mashrabjon Yunusov va Mahmudjon G‘ofurovlar Tohir rolini, Tursunxon Ja‘farova, Shahodat Rahimova, E‘tibor Jalilova, Farog‘at Rahmatovalar Zuhra rolini maromiga yetkazib ijro etganlar. Baralla aytish joizki, ularning bunday mahorati tufayli spektaklning umri uzaygan.

40-yillarda Muqimiy teatriga taklif qilingan va ushbu “Tohir va Zuhra”da Jarchi rolini, keyinroq Tohir rolini ijro etgan Ma’murjon Uzoqov²¹, bir yildan so‘ng Toshkentga kelib mazkur teatrdan ishlagan va spektaklda Hofiz rolini o‘ynagan Jo‘raxon Sultonovlar xizmati tahsinga sazovor albatta. Zamondosh filologlar Nabijon Soliev va Muxammadrasul Kimsanovlarning “Ma’murjon Uzoqov” nomli monografiyasida yozilishicha, “Tohir va Zuhraning g‘amgin sevgi qissasini sahnada sevimli hofizning jonli ijrosida ko‘rish tomoshabinlar uchun zavqli va qiziqarli bo‘lgan. Musiqali dramaning butun voqealari Jarchining jarangdor ovozli hayqirig‘i bilan boshlanar edi:

Hoy, odamlaru odamla-a-a-a-r!

Bog‘da bitgan bodamla-a-a-a-r!

Eshitmadim demangla-a-a-a-r!

Eshitganlar jilmangla-a-a-a-r!”²²

Ta’kidlanishicha, keyinroq Ma’murjon Uzoqovga Tohir roli ishonib topshirilgan kezlarda,²³ xushovoz hofiz avj pardali ariya va duetlarni maromida kuylab, ko‘plab muxlislarga ega bo‘lgan ekan. Biroq, “... spektakldagi rolni yod olish, sahnada uni ijro etish, yurish-turish, holatga kirish va qo‘shiq aytish, bularni bir-biri bilan bog‘liq ravishda tomoshabinga silliq va choksiz namoyish etish, albatta, hofizga avvaliga mashaqqatli bo‘lgan ekan.”²⁴

Shunday qilib, hozirda o‘zbek musiqali dramasi ta’rif berganda, o‘ziga xos murakkab san’at turi ekanligini e’tirof etishimiz lozim. Zero, u o‘zining hayotiyli va xalqchilligi bilan alohida janr sifatida teatr san’atida munosib joy olgan. Tomosha san’atining boshqa turlaridan

²⁰ Mazkur manba, 71-bet.

²¹ Солиев Н., Кимсанбоев М., Маъмуржон Узоқов. “Наврўз” нашриёти, Т., 2015., 55-bet.

²² Солиев Н., Кимсанбоев М., Маъмуржон Узоқов. “Наврўз” нашриёти, Т., 2015., 46-47 betlar.

²³ “1941 yil yanvar oyidan boshlab Toshkentda yangi tashkil etilgan Muqimiy nomidagi respublika musiqali drama va komediya teatriga Ma’murjon Uzoqovni aktyor lavozimiga ishga qabul qilinadi. Bir muddatdan so‘ng, Usmon Yusupov daldasi bilan uni Tohir rolini ijro etishga taklif etadilar.” Jo‘ravoy Muhitdinov xotiralaridan. // Солиев Н., Кимсанбоев М., Маъмуржон Узоқов. “Наврўз” нашриёти, Т., 2015., 46-bet.

²⁴ Урфон Отажон. Санъат менинг кўёшимдир (бадиа). “Янги аср авлоди”, Т., 2006., 34-bet.





farqli o‘laroq musiqali drama janrining o‘ziga xos muhim jihatlari shundaki, unda dramaturgiya ham, musiqa ham teng huquqli asosga ega. Teatrsevar tomoshabin mazmundor sahna asarlarini tomosha qilar ekan, ularni yaratgan ijodkorlar sababli ma’naviy ozuqa oladi, undagi qahramonlar siymosi bilan yashaydi. Jumladan, dramaturg, kompozitor, rejissyor, dirijyor, sozanda, aktyor, rassom va boshqa ko‘plab san’at ustalarining ijodiy mehnati orqali barkamol sahna asari ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytish joizki, bugungi kunda tor doiradagi mavzularga tayanib pyesa yozadigan dramaturg, unga “mos” tarzda silliqqina musiqiy sahnalarni bastalaydigan kompozitor, sahnalashtirish bobida ustoz ko‘rmagan rejissyorlarning, shuningdek, o‘z ustida “tinmay mehnat qiladigan” aktyor-xonandalarning omadi chopgan. Biroq, ular teatr sahnasiga olib chiqqan musiqali drama spektaklining sayozligi tufayli faqatgina bir kunlik ihlosmandlar olqishiga sazovor bo‘layotgani afsuski, quvonarli emas. Kuzatuvlar natijasidan kelib chiqib, ta’kidlash joizki, birgina Muqimiy poytaxt teatrining hozirgi repertuaridan o‘rin olgan spektakllarga nazar tashlaylik. Har oyda ikki marotabagacha namoyish etiladigan “Sovchiga er topildi”, “Ayyorgina ayollar”, “Qaychi qudalar” nomli spektakllarni ko‘rish uchun tashrif buyuradigan tomoshabinlar soni, ikki oyda bir marotaba namoyish etiladigan “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, “Otabek va Kumushbibi” spektakllarini ko‘rish uchun boradigan tomoshabinlar sonidan sezilarli oz. Xususan, musiqashunos Karima Axmedova-Olimboevaning “Uzbekskaya muzykalnaya drama” nomli tadqiqotida o‘z davrining taniqli dramaturgi bo‘lgan, marhum filologiya fanlari doktori Izzat Sultonovning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Bizda shunday o‘ylashadi: agar drama yoza olmasang, yaxshisi musiqali drama yoz! Biroq, bilishmaydiki, dramadan ko‘ra, musiqali dramani yozish qiyinroq. Chunki unda muhim omil – musiqa mavjud. Xalqimizning sevimli janri bo‘lgan musiqali dramaga biz ijodkorlar diqqatli yondashmog‘imiz lozim.”²⁵

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

²⁵ Bu haqda qarang: Axmedova K. Uzbekskaya muzykalnaya drama. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kand.isskustv. T., 1970., 7-bet.





1. Акбаров Ил. Тўхтасин Жалилов. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т.,1978.
2. Солиев Н., Кимсанбоев М.. Маъмуржон Узоқов. “Наврўз” нашриёти, Т., 2015.
3. Урфон Отажон. Санъат менинг кўёшимдир (бадиа). “Янги аср авлоди”, Т., 2006.
4. Хамидова М. Актёрское искусство узбекской музыкальной драмы. Издательство “Фан”, Ташкент-1987.
5. Ахмедов С. “Фарғона давлат мусикали театри 40 йил ижодий изланишда (1930-1970).”
6. Zaynab Xudoyorova. Musiqali drama janr sifatida.//Teatr jurnali, 2020-yil, 2-son
7. Каримов Н.“Тоҳир ва Зухра”нинг ижодкори”.// Янги Ўзбекистон. 2021 йил 30 январь, 21-сон.
8. Матёкубов О. Андижон самоси.// “Jannatmakon” jurnali, fevral, 2011 yil.
9. lex.uz.





TASNIFI BUZRUK KUYINING NOTA NASHRLARIDAGI QIYOSIY TAHLILIGA DOIR

Shoxbozbek ABDUXOSHIMOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti.
Rahbar: Ravshan YUNUSOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI professori,
san’atshunoslik fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Mazkur maqola Shashmaqom nota nashrlarida aks etgan Tasnifi Buzruk maqom cholg‘u kuyining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, bundan tashqari maqoladan V.A.Uspenskiy, B.Fayzullayev, Sh.Sohibov, F.Shahobov, Yu.Rajabiylar tomonidan Shashmaqom turkumining notalashtirilishi haqida ma’lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: maqom, Shashmaqom, nota, bastakor, kompozitor, sozanda, xonanda, Tasnifi Buzruk.

Mumtoz musiqamiz gultojisi bo‘lmish Shashmaqom o‘zining uzoq va qadim tarixiy yo‘li davomida qiyin va murakkab dovonlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelishida bir qancha insonlar turli mushkulliklarni yengib matonat ila kelajak avlod uchun xizmat qildilar.

Yuqorida ta’kidlanganidek o‘sha tarixshumul Shashmaqom nota to‘plamini zamonaviy Yevropa nota yozuviga tushirishdek mashaqqatli va shu bilan birga mas’uliyatli vazifani amalga oshirgan shaxs, O‘zbekiston va Turkmaniston xalq artisti, taniqli etnograf olim, kompozitor Viktor Aleksandrovich Uspenskiy bo‘ldi.

Ushbu ulkan ishda unga yaqindan yordam bergan, o‘zining qimmatli maslahatlari ila uning juda og‘ir vazifani ado etishiga yaqindan ko‘maklashgan insonlar: Viktor Mixaylovich Belyayev kabi maslakdosh do‘sti, Ota Jalol Nosirov hamda Ota G‘iyos Abdug‘ani kabi soha mutahassislari va Abdurauf Fitrat kabi jonkuyar olimlar bo‘lganlar.

Natijada 1924-yili Moskvada “Шашмақом. Шесть музыкальных поэм (маком)” nomli nota to‘plami 5000 nusxada chop





ettirildi. 128 sahifadan iborat bo‘lgan bu to‘plamda har-bir maqom uchun alohida daftarlar nashr etilgan bo‘lib, ular yaxlitlikda Shashmaqom nota kitobini tashkil etadi. Ushbu nota to‘plami Abdurauf Fitrat va N. N. Mironov tahriri ostida chiqqan bo‘lib, unga amir saroyida uzoq yillar mobaynida faoliyat olib borgan maqomdon ustozlar – hofiz Ota Jalol Nosirov hamda sozanda-tanburchi Ota G‘iyos Abdug‘ani ijrolari asos qilib olindi.

“Ikki tilda so‘zlaydigan bir millat” deganlaridek, azaliy do‘st-u birodar xalqlar – o‘zbek va tojik musiqasining eng ko‘rkam va salobatli bo‘lagi bo‘lmish Shashmaqomni xujjatlashtirish, ya’ni nota to‘plamlari shakliga keltirish ishlarining yangi bosqichi Tojikiston poytaxti Dushanbega ko‘chadi. U yerda ushbu ezgu amallarni Boboqul Fayzullayev (1894-1964), Shonazar Sohibov (1903-1972), Fazliddin Shahobovlar (1911-1974) ustozlardan o‘zlashtirgan bilimlari evaziga, xotiralariga tayanib amalga oshirdilar. Bunda ularga yaqindan yordam bergan shaxs – V.A.Uspenskiy orqali Shashmaqomga qiziqib qolgan va undan xabardor bo‘lgan, Moskvalik taniqli etnomusiqashunos olim, professor V.M.Belyayev bo‘ldi. Aynan Belyayev tahririga asoslangan to‘plam 1950-67 yillar Moskvada besh jilddan iborat nota to‘plami sifatida har biri 1.500 nusxada chop etildi.

Asrlar qa‘ridan sadolanayotgan Shashmaqom vaqt o‘tishi bilan o‘ziga qiziquvchilar va o‘rganuvchilarini ohangrabo singari tortib, ular safini tobora kengaytirib bordi. Jumladan, XX asrda yashab ijod etgan ulug‘ maqom allomasi, mahoratli ijrochi, maqom ustози, san’atimiz arbobi bo‘lmish Yunus Rajabiyning sermahsul va mashaqqatli mehnatlari samarasi maqomchilik sohasida tub burilishlardan bo‘ldi. U o‘zining ziyrak qobiliyati, benazir xotirasi va yuksak didi ila bobolardan yodgorlik – Shashmaqomni hujjatlashtirishda muhim, ta’bir joiz bo‘lsa hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Quyida V.A.Uspenskiyning, B.Fayzullayev, Sh.Sohibov, F.Shahobovlarning va Yunus Rajabiyning nota yozuvlaridagi “Shashmaqom” nota to‘plamlariga asoslanib Buzruk maqomining Mushkilot bo‘limidan Tasnif, Tarje va Gardun kuylari tuzilishi yoritildi va farqli manzaraning sabablari baholi qudrat o‘rganildi.

Bizgacha yetib kelgan qadimiy musiqa risolalarida Buzruk maqomi haqida bir qancha ma’lumotlar keltirilgan. Ularni o‘rganish natijasida maqomshunos alloma Ishoq Rajabov Buzruk maqomi haqida





shunday yozgan edi: “O‘tmish olimlarining musiqiy risolalarida Buzruk muayyan lad tuzilmasini va unga mos kuy va ashulalarni ifodalagan. Buzruk atamasi forsiy “buzurg” so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lib, “katta”, “ulug‘”, “buyuk” kabi ma‘nolarni anglatadi. Har holda bu maqom juda ko‘p kuy va ashula yo‘llarini o‘z ichiga olganligi uchun shunday nomlangan bo‘lsa kerak”²⁶.

Tasnif – arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “sinflangan”, “yaratilgan” kabi ma‘nolarga ega. U cholg‘u bo‘limi – mushkilotning birinchi qismidir. Ishoq Rajabov ta’kidlaganlaridek: “Bu yerda maqomlarning cholg‘u bo‘limidagi bosh asar ma‘nosi ham bor”²⁷.

Shu kunga qadar chop etilgan “Shashmaqom” to‘liq nota yozuvlarini kuzatish natijasida bir xillik va o‘xshashlikdan tashqari farqli jihatlar ham ko‘zga tashlandi.

1-jadval:

Tasnifi Buzruk kuyining nota to‘plamlaridagi parametrlari jadvali:

Jadvalda ko‘rinib turganidek, V. A. Uspenskiy yozuvi bo‘yicha Tasnifi Buzruk do miksolidiy ladida. Qolgan notaga oluvchilar esa “re” tovushini tonika sanab, re miksolidiy va doriy ladida kuyni notaga tushirganlar. San’atshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabov “Buzrukning asosiy qismlari “re” doriy va miksolidiy ladlariga mos keladi”²⁸ – deb yozgan edi. Ammo, nega mohir maqomdon tanburchi Ota G‘iyosdan yozib olingan Tasnifi Buzruk “do” tovushidan yozilgan? Bu savolga aniq javob berib bo‘lmaydi. Lekin, faraz qilish mumkin. Bu yerda gap tanburning pardasida, sozida bo‘lsa kerak. Boshqa “olam”dan kelib qolgan shaxs uchun, garchand u musiqachi bo‘lsada tanburning sozini tushunish va aniq topa olish bir muncha qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. Keyingi tarixiy nashrlarning mualliflari amaliyotchi, ya’ni ham sozanda, ham honanda bo‘lganliklari sababli bevosita yaxshi natijalarga erishganliklarini ta’kidlamoq zarur.

1-misol:

Buzruk maqomining asosiy lad tovushqatori

²⁶ Исҳоқ Ражабов. Мақом асослари. Тошкент, 1992. 39-бет.

²⁷ Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. Тошкент, 2006. 171-бет.

²⁸ Исҳоқ Ражабов. Мақом асослари. Тошкент, 1992. 34-бет.





V.A.Uspenskiy nashrining qolgan to‘plamlardan yana bir farqli

| | <i>V. A. Uspenskiy nota yozuvida</i> | <i>B. Fayzullaev, Sh. Sohibov, F. Shahobov nota yozuvida</i> | <i>Yunus Rajabiy nota yozuvida</i> |
|-------------------------------|--|--|--|
| Tonalligi | Do miksolidiy | Re miksolidiy va doriy | Re doriy va miksolidiy |
| O‘lchovi | C | 2/4 | 2/4 |
| Balandlik darajasi | Kichik oktava | 1-oktava | 1-oktava |
| Xonalar soni | 9 ta | 8 ta | 8 ta |
| Bozgo‘yala r soni | 9 ta | 8 ta | 8 ta |

tomoni Tasnifi Buzruk to‘laligicha do miksolidiy ladida ekanligidir. Unda keyingi nashrlarda uchraydigan kuy xususiyati, doriy ladi ohanglari yo‘q. Balki, bu taniqli etnomusiqashunosning xatosidir. Yoki yana boshqa sabablar bo‘lgandir. Ammo, afsus buning sababi bizga qorong‘u.

Keyingi notalashtirish tajribalari V.A.Uspenskiy yozuvidagi parda masalasi asliga nomuvofiq tanlanganligini ko‘rsatdi. Bu bilan Uspenskiyning tarixshumul va biz uchun bo‘lgan beqiyos xizmatini zarracha bo‘lsada kamsitish niyati nojoizdir. Nima bo‘lgan taqdirda ham, oldida turgan ulkan mushkulliklarni sabr va matonat ila yengib o‘tib, boshlab bergan ulkan ishi uchun Uspenskiydan benihoya minnatdor bo‘lmog‘imiz darkor.

V.A.Uspenskiy amalga oshirgan notalashtirishida Shashmaqomni kichik oktava notalarida yozgan. Keyingi chop etilgan kitoblarda o‘qishni osonlashtirish uchun kuy birinchi oktavaga ko‘chirilgan. Aslida, tanburdan taraladigan tovush kichik oktava balandligida eshitiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, V.A.Uspenskiy notalashtirish ishlarida tanlangan oktava asliga to‘g‘ri. Lekin, bu bilan keyingi nashrlarda o‘qishni osonlashtirish uchun sol kalitidagi birinchi oktava notalari noto‘g‘ri tanlangan degan fikrdan yiroqmiz. Bu yerda “ikkovi ham xato emas” degan fikr o‘rinlidir.





Usul masalasiga keladigan bo‘lsak, Tasnifi Buzruk usulining deyarli barcha nota nashrlarida ko‘rinishi bir xil. Yozuvlarga ko‘ra birinchi taktda “bak”, ikkinchi taktda “bum”, uchinchi taktda “bak”, to‘rtinchi taktda “bum”. Nota yozuvlaridagi ba’zi farqlar faqatgina usul xissalarining cho‘zimida aniqlandi. Misol uchun, 1950 yil Moskva nashrida:

2-misol:



bo‘lsa, Yunus Rajabiy nashrlarida esa quyidagicha:

3-misol:



V. A. Uspenskiy yozuvi bo‘yicha Tasnifi Buzruk C o‘lchovida, keyingi nota nashrlarida esa 2/4 o‘lchovi belgilangan. Bunday holat o‘z-o‘zidan taktlar soniga ham ta’sir etadi, albatta. Jadvalda ko‘rinib turganidek, Uspenskiy yozuvida 122 takt bo‘lgan kuy, Tojikiston nashrida 195 takt, Y. Rajabiyda esa 212 taktni hosil qiladi, vaholanki B. Fayzullaev, Sh. Sohibov, F. Shahobovlar nashrida va Y. Rajabiy kitoblarida o‘lchov bir xil edi. Uspenskiy yozuvida o‘lchov ikki barobar katta bo‘lganligi sababli 122 taktni ikkiga ko‘paytiramiz. Agarda, Uspenskiy ham Tasnifi Buzrukni 2/4 o‘lchovida notaga tushirgan bo‘lganida edi, taktlar soni 244 taktni hosil qilgan bo‘lar edi. O‘z-o‘zidan bir-biriga nomutanosib bo‘lgan raqamlar manzarasi paydo bo‘lmoqda. Uspenskiyning yozuvida Tojikiston nashridan 49 takt ortiq, Y. Rajabiy to‘plamlaridan esa 32 takt ortiqcha ekan. Tojikistonlik Shashmaqomchilar tomonidan bosilgan Shashmaqomdagi Tasnifi Buzruk cholg‘u kuyidan, Y. Rajabiy chop ettirgan Shashmaqomdagi huddi shu kuy 17 takt ortiqroq chiqmoqda. Buning sababini Shashmaqomning Mushkilot bo‘limiga xos bo‘lgan rivojlanish usuli – xona va bozgo‘ylardan qidirib ko‘ramiz.

Ushbu izlanish natijasida ham Tasnifi Buzrukdagi xona, bozgo‘ylarning soni va hajmi jihatidan bir-biriga taqqoslashni osonlashtirish va tushinarliroq chiqishi uchun jadval tuzildi (bu jadvalda Y. Rajabiyning 1959 yilgi hamda 1966 yilgi nashri deyarli (hajm jihatdan) bir xil bo‘lganligi sababli birlashtirib yuborildi):

2-jadval:





Tasnifi Buzrukning nota to‘plamlaridagi xona va bozgo‘y parametrlari (hajm jihatdan) jadvali:

| <u>Xona va bozgo‘ylar ning tartib raqami</u> | <u>V. A. Uspenskiy nota yozuvida</u> | | <u>B. Fayzullaev, Sh. Sohibov, F. Shahobov nota yozuvida</u> | | <u>Yunus Rajabiy nota yozuvida</u> | |
|--|--------------------------------------|----------------|--|----------------|------------------------------------|----------------|
| | xona | bozgo‘y | xona | bozgo‘y | xona | bozgo‘y |
| <i>1-xona va bozgo‘y</i> | 2 takt | 4 takt | 4 takt | 8 takt | 4 takt | 8 takt |
| <i>2-xona va bozgo‘y</i> | 2 takt | 4 takt | 4 takt | 8 takt | 4 takt | 8 takt |
| <i>3-xona va bozgo‘y</i> | 4 takt | 4 takt | 8 takt | 8 takt | 8 takt | 8 takt |
| <i>4-xona va bozgo‘y</i> | 8 takt | 4 takt | 13 takt | 8 takt | 16 takt | 8 takt |
| <i>5-xona va bozgo‘y</i> | 10 takt | 4 takt | 17 takt | 8 takt | 20 takt | 8 takt |
| <i>6-xona va bozgo‘y</i> | 12 takt | 4 takt | 25 takt | 8 takt | 28 takt | 8 takt |
| <i>7-xona va bozgo‘y</i> | 14 takt | 4 takt | 29 takt | 8 takt | 32 takt | 8 takt |
| <i>8-xona va bozgo‘y</i> | 16 takt | 4 takt | 30 takt | 9 takt | 36 takt | 8 takt |
| <i>9-xona va bozgo‘y</i> | 18 takt | 4 takt | - | - | - | - |

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, Tasnifi Buzrukka tegishli bo‘lgan xona va bozgo‘ylar uchta nashrda ham bir qancha farqli tomonlarga egadir. Ushbu nashrlarda bozgo‘ylar hajm jihatdan deyarli bir xildir (tojik nashridagi 8-bozgo‘ydan tashqari). Bunda ham, huddi usul singari, kuy asosi saqlanib qoladi, ammo, nashrlardagi ritmik figurani bir-biriga qiyoslaganda nomuvofiqliklar ko‘zga tashlanadi.

Xonalardagi bunday nomuvofiq chigalliklarni yechishga harakat qilib ko‘ramiz. Takomil nashr hisoblangan Yunus Rajabiyning versiyasiga o‘zidan oldingi nashrlardagi versiyalarni taqqoslab chiqamiz.

Yunus Rajabiy va Ota G‘iyos ijrosidan yozib olingan Uspenskiy nashridagi Tasnifi Buzrukning xona variantlarini bir-biriga qiyoslash natijasida ikkala versiyada ham 1-xonadan 5-xonagacha muvofiqlik





borligi ayon bo‘ldi. Uspenskiy nashridagi 6-xona Y. Rajabiy nashridan topilmadi. Keyingi xonalar yana bir-biriga muvofiqlashdi. Uspenskiy nashridagi 7-xona Y. Rajabiy nashridagi 6-xonaga to‘g‘ri bo‘lib ketdi. Keyingi xonalar ham huddi shunday, Uspenskiyda 8-9-xonalar, Y. Rajabiyda 7-8-xonalarga mutanosib kelmoqda. Demak, Tasnifi Buzrukda “nega Uspenskiy nashrida, Y. Rajabiy nashridan 32 takt ortiq?” degan savolga javob topildi. Qaytaramiz, Uspenskiy nashridagi Tasnifi Buzrukda xona va bozgo‘ylar soni 9 tadan va u C o‘lchovida notaga tushirilgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Y. Rajabiy nashrida Uspenskiy nashridagi 6-xona topilmadi. Noma’lum sabablarga ko‘ra tushib qolgan 6-xona Uspenskiyda 12 takt edi. Bitta ortiqcha bozgo‘y, ya’ni 9-bozgo‘y 6-xona hisobiga qo‘shilgan bo‘lib, u 4 takt edi. Ana endi matematik amallarni bajaramiz: $12(6\text{-xonaning taktlari soni})+4(9\text{-bozgo‘yning taktlar soni})\times 2(\text{Uspenskiyning o‘lchovi C edi, Yu.Rajabiyniki esa } 2/4)=32(!)$. Mana, Y. Rajabiy nashrida uchramaydigan 32 takt topildi.

Yunus Rajabiy va Tojikistonlik Shashmaqom ustozlari nashridagi Tasnifi Buzrukning xona variantlarini bir-biriga qiyoslash natijasida ikkala nashrda ham 1-xonadan 3-xonagacha muvofiqlik borligi kuzatildi. 4-xonadan boshlab, to 7-xonagacha Y. Rajabiy variantida, barchasi bir-xilda 3 taktdan ortiq chiqdi. Ohirgi 8-xona esa Y. Rajabiyda 6 takt ko‘p chiqdi. Tojikiston nashrida 8-bozgo‘yning bir takt ortiqqligini hisobga olgan holda, noma’lum sabablarga ko‘ra tushib qolgan 17 taktni topish maqsadida, yana matematik amallarni bajaramiz: $4(4\text{-xonadan } 7\text{-xonagacha } 4 \text{ ta xona bor})\times 3(\text{ana shu } 4 \text{ ta xonada ortiq chiqayotgan } 3 \text{ tadan taktlar})+6(\text{Y. Rajabiy nashridagi so‘ngi } 8\text{-xonaning } 6 \text{ takt ortiqchasi})-1(\text{Tojikiston nashridagi } 8\text{-bozgo‘yning bir takt ortiqchasi})=17(!)$. Tojikistonda notaga tushirilgan nashrda kiritilmay qolgan 17 takt ham topildi.

Agarda, Tojikiston nashrini Uspenskiy nashri bilan qiyoslab ko‘radigan bo‘lsak, yuqoridagi ikki taqqoslama masala manzarasi (ikkisi birda) takrorlanadi.

Demak, Y. Rajabiy kitoblarida ham Tojikiston nashrida ham Uspenskiy nashridagi 6-xona uchramaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: balki, V. A. Uspenskiy nashridan keyingi nashrlarda 6-





xona notaga olinmay qolib ketgan (bu ishonchsiz fikr), yoki, 26 yil ichida 6-xona amaliyotdan tushib qolgan (bu mantiqliroq fikr)²⁹.

Yunus Rajabiyning 1966-75 yillarda nashrdan chiqqan “Shashmaqom” nota to‘plamiga asoslanib Tasnifi Buzruk re pardasidan doriy va miksolidiy ladida ilmiy kitoblarga hamda audio tasmalarga muhrlandi. Tasnifi Buzruk kuyini nota kitobiga yuzlangan holda tinglansa, uning naqadar chuqur falsafiy kuy ekanligini va Buzruk maqomidagi kelgusi qismlar uchun “ohang urug‘i” vazifasini ham o‘taganini payqash qiyin bo‘lmaydi.

Tasnifi Buzrukning hissiy ta’sir kuchi o‘z nomiga mos ravishda, tinglovchiga ko‘tarinki ruh va ulug‘vorlik baxsh etadi. Unda bozgo‘yga tegishli bo‘lgan ham ritmik, ham ohang unsurlari barcha xonalar, qolaversa, Buzruk maqomining butun boshli Mushkilot bo‘limi qismlariga ham xosdir. Ayniqsa, dastlab 1-xona tarkibida namoyon bo‘lib, so‘ngra bozgo‘yga ko‘chgan ritmik figura bir necha marotaba takrorlanadi.

4-misol³⁰:

Таснифи Бузрук

1 хона Бозгўй

2 хона

Tasnifi Buzruk kuyining ohanglari, ayniqsa bozgo‘yiga o‘xshashlari Buzruk maqomining boshqa qismlarida ham kelib, xuddiki, Mushkilot bo‘limidagi bosh asar – Tasnifni eslatib turgandek taasurot uyg‘otadi. Unda I pog‘onadan tashqari IV pog‘onani ham tayanch nuqta sifatida qayd etish mumkin. 1-oktava do tovushidan 2-oktava si tovushigacha, qariyb ikki oktava (diapazoni) oralig‘ida kuy

²⁹ Sharh: ma’lumki, V. A. Uspenskiyning “Shashmaqom” nota to‘plami 1924-yilda nashr qilingan bo‘lib, unda bitta ortiqcha xona (6-xona) mavjudligi aniqlangandi, Tojikiston Shashmaqomchilari to‘plami 1950-yilda nashr qilingan, unda bitta xona kam (Uspenskiy nashridagi 6-xona), Y. Rajabiyning 1959, 1966-yillardagi nashrlarida ham bitta xona kam (Uspenskiydagi 6-xona) bo‘lib, bu 1924-yildan 1950-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida (26 yil ichida) Uspenskiy nashridagi 6-xona amaliyotdan chiqarilgan yoki unutilgan, degan xulosaga kelishga sabab bo‘ldi.

³⁰ Qolgan nota misollari takomil nashr hisoblangan Y. Rajabiyning 1961-66 yil Shashmaqom nota to‘plamidan olindi.





butun boshli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi. Mushkilot bo‘limiga xos bo‘lgan rivojlantiruvchi tuzilma – xonalarni kuzatish natijasida ularda boshlang‘ich mavzuning pog‘onama-pog‘ona harakati kuzatildi (istisnolar ham mavjud: 3-4 xonalar va 5-6 xonalar orasida):

5-misol:

Tasnifi Buzruk xonalarining boshlang‘ich pardasi:



1-xoha 2-xoha 3-xoha 4-xoha 5-xoha 6-xoha 7-xoha 8-xoha

Ushbu misolda xonalarning boshlang‘ich pardasi keltirilgan bo‘lib, har bir xona o‘z yakunida tayanch parda hisoblangan re tovushiga qaytib keladi. Mushkilot bo‘limiga xos xona va bozgo‘y qonuniyatlariga muvofiq tarzda har yangi xonadan so‘ng bir-xil tarzda (o‘zgarmas) bozgo‘y takrorlanadi. Bozgo‘yning boshlang‘ich pardasi sol, yakuniy pardasi, tayanch parda bo‘lmish re tovushidir. Yuqoridagi misol nafaqat Yunus Rajabiy nashriga, balki, Tojikiston nashriga ham taaluqlidir.

V.A.Uspenskiy nota yozuvini tahlil qilganda ilk nashrda keyingi nashrlardan bitta xona va bozgo‘y ortiq ekanligi qayd etilgan edi. Huddi ana shu xona va bozgo‘y hisobiga uning ko‘rinishi biroz boshqacha, ta‘bir joiz bo‘lsa, butunroqdek tuyulmoqda:

6-misol:

Tasnifi Buzruk xonalarining boshlang‘ich pardasi (Uspenskiy nota yozuvida):



1-xoha 2-xoha 3-xoha 4-xoha 5-xoha 6-xoha 7-xoha 8-xoha 9-xoha

Ushbu misolda xonalarning boshlang‘ich pardasi keltirilgan bo‘lib, har bir xona o‘zining yakunida tayanch parda hisoblangan do tovushiga qaytib keladi. Naqorat sifatida o‘zgarmasdan qaytarilib turadigan bozgo‘yning boshlang‘ich pardasi fa, yakuniy pardasi, tayanch parda bo‘lmish do tovushidir. Uspenskiy ushbu kuyni do miksoliy tonalligida notaga tushirganligi hisobiga bozgo‘y ikkinchi tayanch nuqta – IV pog‘ona, ya‘ni, fa tovushidan boshlab ijro etiladi.

Nota misollaridan ko‘rinib turganidek Uspenskiyda fa tovushidan, Yunus Rajabiy va Tojikistonlik Shashmaqom ustalari nashrida esa sol tovushidan yuqoriga tomon pog‘onama-pog‘ona





harakat bor. Uspenskiy nota yozuvida si notasi, tonallikka nisbatan qaraganda VII pog‘ona uchramaydi. Tojikiston va Y. Rajabiy nashrida esa do va fa tovushlari, tonalikka nisbatan VII va III pog‘onalardan boshlab ijro etiladigan xona variantlari kuzatilmadi.

Lad masalasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Yunus Rajabiyning 1961-66 yil nashriga ko‘ra 1-xonadan to 5-xonagacha re doriy tonalligi “hukmronlik” qilsa, 6-7-8-xonalarning boshida esa u o‘z o‘rnini re miksoliy tonalligiga bo‘shatib berishini guvohi bo‘lamiz. V. A. Uspenskiy nashrida esa faqat bitta lad ohanglaridan foydalaniladi (miksoliy). V. M. Belyaev taxriri ostidagi, Tojikiston Shashmaqomchilari talqini bo‘yicha Tasnifi Buzruk kuyiga tonallig asos etib re miksoliy belgilandi. Ba’zida esa re doriy ham eshitiladi. Ularni 6-xonada, 7-xonada va 8-xonada uchratishimiz mumkin. Aytish mumkinki, ushbu lad-tonallikning o‘zgarib turish sistemasi Shashmaqomga o‘ziga xos rang-baranglik hadya etgan.

Shashmaqom usullariga nisbatan qo‘llanadigan “oddiydan murakkabga tomon” degan iborani xonalarga nisbatan ham ishlatish mumkin ekan (misol, 1-xona 4 takt bo‘lsa, 8-xona 36 takt). Xonalar o‘z rivojlanish jarayonida kengayib, kattalashib, to‘lishib boradi³¹. Ammo, yakunida baribir bozgo‘yga va u orqali tayanchga qaytib keladi.

Xonalar bir-biri bilan juda yaqin aloqada bo‘lib, ular ritmik harakat, interval harakati va ayniqsa, ohang jihatdan o‘xshash. Ularga sekvension harakatda rivojlanish usuli juda xosdir. Har bir xona bamisoli marjondek terilgan deyishimiz mumkin. Birini ikkinchisidan ajratib olib bo‘lmaydi. Aks holda kuyning o‘ziga xos rivoj tamoyillari buziladi va u “qovushmagan gaplar bilan ma’ruza qilayotgan notiq”dek yoqimsizlik kasb etadi.

Asarning eng tarang nuqtasi, baland pardasi 8-xona tarkibida jarang sochadi. Bundan tashqari 8-xona o‘zidan oldingi xonalarga nisbatan eng yirigi va barkamolrog‘idir. Ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda Tasnifi Buzrukning 8-xonasi – uning avjidir desak, aslo yanglishmagan bo‘lamiz. Qolaversa, yuqorida ta’kidlanganidek sekvension rivojlanish usulining yaqqol namunasini ushbu 8-xona misolida ham kuzatishimiz mumkin:

7-misol:

³¹ Shu maqoladagi xona va bozgo‘y jadvaliga qarang.





8 хона

Бозғўй

Nota misolidan ma’lum bo‘lishicha, 8-xona kuyning eng baland notasi, 2-oktava sidan boshlab har 4 taktda pog‘onama-pog‘ona tarzida, pastga tomon harakat qilib bozgo‘yning boshlang‘ich pardasi bo‘lmish 1-oktava solgacha tushadi. Sol notasidan esa o‘zgarmas bozgo‘y mavzusi tayanch pardaga bamisoli “yetaklab” keladi va yuksak badiiy qiymatli kuy o‘zining ajib nihoyasiga yetadi.

Faxriddin Sodiqov boshchiligidagi talabalar maqom ansambli tomonidan magnet tasmlarga yozib olingan Tasnifi Buzruk kuyi ilk, o‘zgacha yondoshilganligi bilan ahamiyatga molik. Yunus Rajabiydek maqom allomasining ko‘ziga yosh keltirgan ijro boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas³². “Jo‘rnavorlik ravonligi, ohanglar shiradorligi, tovush zarblari mayinligi, bezaklar me’yorlarining bir xildaligi, g‘ijjak kamonlari tortilishining batartibligi umumiy barkamollikni vujudga keltirib, tinglovchilarga huzur baxsh etardi. Bu mumtoz kuylar bunchalik supo va mazmundor ijro talqinida hech yangramagan edi, chog‘i. Sinovchi mehmonlar (Yunus Rajabiy, Ahmadjon Jabborov, Ishaq Rajabov, Fayzulla Karomatov) chuqur o‘yga cho‘mgan edilar. Zero bu nafis badiiy kashfiyot amalini talabalar uddalaganiga ishonish

³² Qarang: Равшан Юнусов. Фахриддин Содиқов. Тошкент, 2005. 183-бет.





qiyin bo‘ldi”³³ – deb yozgan edi taniqli musiqashunos olim Ravshan Yunusov.

Ushbu ijro talqinida xuddiki har-bir milliy cholg‘u sozi chiqish qilib, ajoyib va o‘ziga xos tembri hamda ijro imkoniyatlarini namoyish etayotgandek taasurot uyg‘otishini har bir sozga bo‘lgan mehr va e’tibor deya baholash mumkin. Balkim, mana shu xususiyat ham uni avvalgi ijrolardan qiziqarliroq chiqishiga sabab bo‘lgan omillardan biridir.

Jonkuyar ustoz, zabardast bastakor, benazir sozanda Faxriddin Sodiqov rahbarligidagi talabalar maqom ansambli ijro etgan Tasnifi Buzrukda tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, chang va albatta doyra kabi cholg‘ulardan foydalanilgan bo‘lib, ular o‘z navbatida ma’lum bir xonani yakkaxon sifatida ijro etgan (albatta doyradan tashqari). Unga ko‘ra kuy muqaddimasini ansambl birgalikda, avjini, ya’ni, 8-xonani esa ulkan ijro imkoniyatlariga ega bo‘lgan cholg‘u sozi g‘ijjak ijro etadi. Tasnifi Buzrukdagi eng yuqori pardalarda “faryod chekayotgan”, inson qalbini “ezadigan” honishi ila kuy falsafasidan mushohadaga botgan g‘ijjak, xalq tili bilan aytganda “uzukka ko‘z qo‘ygandek” ushbu kuyga mos tushgan.

Darhaqiqat, ushbu kuy kabi san’atimizning yetuk namunalari bisyor. Ularni o‘ziga mos ravishda ijro etish, originallikni buzmagan holatda rivojlantirish, to‘g‘ri ilmiy va amaliy targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish va eng asosiysi, kelajak avlodga badiiy qiymatini zarracha bo‘lsada kamaytirmay, asrab-avaylab yetkazish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu maqsad yo‘lida barchamiz “bir tan-u bir jon bo‘lib” harakat qilmog‘imiz shart. Ushbu badiiy beqiyos xazinamizni rivojlantirish, keng omma, xalqni ham shunday bebaho boyligimiz bilan tanishtirish va to‘g‘ri ma’lumotlar ila qiziqtirish biz musiqashunoslarning dolzarb va asosiy vazifalarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исҳоқ Ражабов. Мақом асослари. Тошкент, 1992.
2. Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. Тошкент, 2006.
3. Исҳоқ Ражабов. Мақом асослари. Тошкент, 1992.
4. Равшан Юнусов. Фахриддин Содиков. Тошкент, 2005.

³³ Равшан Юнусов. Фахриддин Содиков. Тошкент, 2005. 183-бет.





ZAMONAVIY O‘ZBEK OPERASI MUAMMOLARI XUSUSIDA

Komilaxon TADJIBAYEVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI
2-bosqich magistranti.*

Ilmiy rahbar: Shaxida BERDIXANOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI
“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi”
kafedrasi dotsenti v.b., PhD.*

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonga opera san’atining kirib kelishi va rivojlanish bosqichlari, zamonaviy o‘zbek operasining muammo va kamchiliklari xususida bo‘lib, unda muallifning kuzatuvlari va boshlang‘ich xulosalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: opera, kompozitor, teatr, o‘zbek operasi, muammolar.

Abstract: This article is about the introduction of opera art to Uzbekistan and the stages of its development, the problems of modern Uzbek opera, and the author’s observations and initial conclusions are described in it.

Key words: opera, composer, theater, Uzbek opera, problems.

Kasbiy musiqa san’ati O‘zbekistonda rang-barang va turfa xilligi bilan xarakterlanadi. Turli janrlar orasida sahna uchun mo‘ljallanganlari salmoqli o‘rin tutadi. Opera, musiqali drama kabi janrlar ayniqsa, keng tarqalganlaridandir. Biz mazkur maqolamizda o‘zbek operasining paydo bo‘lishi, bugungi opera san’atimizning ayrim muammolarigagina baholi qudrat to‘xtalib o‘tishga jazm etdik.

Opera so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “mehnat mahsuli”, “asar” degan ma’nolarni anglatadi. Operaga O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “musiqali dramatik san’at janri” deya ta’rif beriladi [4.58-b.]. Opera qorishma (sintetik) janr bo‘lib, o‘zida bir nechta san’at turlarini mujassam etadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san’at va raqs san’ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog‘lanadi. Lekin, musiqa ular orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Qahramonlarning





hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, ariozo, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o‘z ifodasini topadi. Bugungi kunda opera san’ati Yevropa orqali butun dunyoga quloch yozib, klassik musiqaning eng mukammal va murakkab namunasi sifatida tan olingan.

O‘zbekistonda opera janri o‘zbek musiqali dramasi rivoji asosida, shuningdek, chet el mumtoz operasi ta’sirida o‘tgan asrda paydo bo‘ldi. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Toshkentga bir nechta (guzin - 1894; 1907-15 yillarda - italyan, tatar, rus, ozarbayjon) opera truppalari gastrolga kelgan edi. 1918-yildan Toshkentda Rus opera teatri o‘z faoliyatini boshlaydi. 1929-yilda Muhiddin Qoriyoqubov tashabbusi bilan o‘zbek musiqali teatri ishga tushadi [3.80-b.]. Uning repertuari, asosan, musiqali dramalardan iborat bo‘lgan. Mazkur teatr sahnasida o‘zbek tilida qo‘yilgan birinchi operalar — “Er Targ‘in” (Ye. Brusilovskiy, 1937) va “Nargiz” (M. Magomayev, 1938) operalari edi.

O‘zbek opera va balet truppasini O‘zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, 1939-yil S. Vasilenko va M. Ashrafiyning “Bo‘ron” operasi bilan o‘z faoliyatini boshlagan. Dastlabki o‘zbek operalari o‘zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O‘zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan (R. Gliere, T. Sodiqov, “Layli va Majnun”, 1940; “Gulsara”, 1949; A. Kozlovskiy, “Ulug‘bek”, 1942). Shu davrda o‘zbek tilida jahon mumtoz operasi namunalari (J. Bizening “Karmen”, 1944; P. Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin”, 1947 va boshqalar) ham sahnalashtirildi. Keyinchalik o‘zbek kompozitorlarining afsonaviy-romantik, tarixiy, lirik, zamonaviy mavzulardagi mustaqil operalari paydo bo‘ladi: “Dilorom”, “Shoir qalbi” (M. Ashrafiy), “Hamza” (S. Boboyev), “Xorazm qo‘shig‘i” (M. Yusupov) va boshqa birinchi o‘zbek hajviy operasi “Maysaraning ishi” (S. Yudakov) bo‘lib, bir nechta chet mamlakatlar teatrlarida qo‘yilgan. “Yoriltosh” (S. Boboyev) birinchi o‘zbek bolalar operasidir.

1970-80 yillari o‘zbek kompozitorlari opera janrini mavzu jihatidan ancha boyitishdi. Shu davr ichida tarixiy operalar ham ijod etildi. Bulardan “Mangulik” (U. Musayev), “Fidoyilar” (S. Boboyev) va boshqalar. Zamonaviy operalardan “Sadoqat” (R. Abdullayev), atoqli shaxslarga bag‘ishlangan operalardan “So‘g‘d elining qoplani”





(I.Akbarov), “Zebunniso” (Sayfi Jalil), “Alisher Navoiy” (M.Burhonov), shuningdek, kamer operalar — “Sohilda to‘qnashuv” (N. Zokirov), “Ona qalbi” (H.Rahimov) va boshqa operalar sahnalashtirildi.

Mustaqillik davri o‘zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitildi: jahon mumtoz adabiyoti (N.Zokirovning Shekspir tragediyalari asosida yaratilgan “Hamlet” va “Makbet” opera-dilogiyasi), hozirgi zamon ijtimoiy muammolari (N.Zokirovning “Muxtoriyat” operasi, O.Abdullayevaning “Vafo”, F.Yanov-Yanovskiyning “Orkestr” operalari), tarixiy shaxslar siymolari (M.Bafoyevning “Al-Farg‘oniy”, “Alisher Navoiy”) va falsafiy mavzular (I.Akbarovning “Ibtido xatosi” opera-oratoriyasi) opera janrining keyingi rivojini belgilab berdi desak bo‘ladi. Mazmuni talqin qilishda asosiy urg‘u milliy hamda umumbashariy ma’naviy qadriyatlarni tarannum etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratildi. Bu davrda o‘zbek kompozitorlari opera asarlarida o‘zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an‘analarini zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog‘lashga ahamiyat qaratdilar.

Zamonaviy o‘zbek opera san’ati erishgan yutuq va muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda yo‘l qo‘yilgan va qo‘yilayotgan kamchilik va nuqsonlar ham yo‘q emas. Hali-hanuz yozilmagan mavzular ko‘p va o‘z yechimini kutayotgan muammolar esa talaygina. Yuqorida ko‘plab o‘zbek kompozitorlari opera janrida ijod etgani haqida ma’lumot keltirdik. Lekin, ularning juda ko‘pi jamoatchilik tomonidan milliy o‘zbek operasi sifatida qabul qilinmagan, tan olinmagan.

1-o‘zbek hajviy operasi sifatida tarix zarvaraqlaridan o‘rin egallagan Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidan bo‘lak boshqa operalarning ko‘pchiligi u erishgan natija va muvaffaqiyatga erisha olmadi. Nazarimda, bunga ko‘plab omillar sabab bo‘lgan. Bulardan birinchisi, operalarning musiqasi milliy emasligi, esda qoladigan va mashhur xalq kuy va qo‘shiqlaridan foydalanishning kompozitorlar tomonidan yetarlicha o‘zlashtirilmaganligidandir.

Zamonaviy o‘zbek kompozitorlaridan opera janrida samarali ijod etayotgan O‘zbekiston san’at arbobi Mustafu Bafoyevning “Hamsa”, “Al-Farg‘oniy” («Небо моей любви») va “Alisher Navoiy” operalari,





O‘zbekiston san’at arbobi Mirhalil Mahmudovning “Kumush” operasi boshqa operalardan milliylikka ancha yaqinligi, o‘zbek xalq kuylaridan mohirona foydalanganligi bilan ahamiyatli.

O‘zbek kompozitori tomonidan ijod etilgan eng yangi operalardan biri sifatida 2019-yilning 15-noyabr sanasida premyerasi bo‘lib o‘tgan “Kumush” operasini e’tirof etmay iloj yo‘q. O‘zbekiston san’at arbobi, O‘zDK “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasini faxriy professori, atoqli kompozitor Mirhalil Mahmudov marhum akasi Mirsodiq Tojiyev g‘oyasi bilan O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim librettoasi asosida 2 pardali 6 ko‘rinishdan iborat “Kumush” operasining ilk namoyishi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat katta akademik teatrida bo‘lib o‘tdi.

Ushbu opera o‘zbek romanchilik maktabi asoschisi, ulug‘ yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida yaratilgan bo‘lib, unda o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini an’analari milliy musiqa yordamida mohirona tasvirlangan. M.Bafoyevning “Al-Farg‘oniy operasida ham maqom usullari va ohanglaridan, mumtoz musiqamiz namunalaridan, jumladan, “Sayyora” ashulasidan keng foydalangan.

Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek opera ijodkorligi rivojlanayotgani sezilmayotganini ham ta’kidlab o‘tish joiz. Qanchadan-qancha mavzular haqida operalar yozilmayotgani, milliy opera san’atimiz rivojlanmayotgani, bir joyda muallaq qotib turganini ham tan olishimiz lozim.

Misol uchun, T.G‘ofurbekovning “O‘zbekiston musiqa madaniyati” fanidan yozgan o‘quv qo‘llanmasida keltirilishicha 1706-1976-yillar (ya’ni, 270 yil) mobaynida Italiya, Germaniya, Angliya, Chexiya, Fransiya mamlakatlarida Amir Temur obraziga taaluqli 44 ta opera ro‘yxati keltiriladi³⁴. Ammo, ulug‘ hukmdor va sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi, sohibqiron Amir Temur haqida birorta o‘zbek kompozitori opera yozgani ham, yozayotgani ham yo‘q. Shu kabi o‘nlab tarixiy siymolarimiz, jumladan, Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko‘plab butun dunyoga dong‘i ketgan bobokalonlarimiz, doston va maqomlar

³⁴ Batafsil qarang: T.G‘ofurbekov. O‘zbekiston musiqa madaniyati. “Musiqqa” nashriyoti, Toshkent, 2019. 63-bet.





tarixidan hikoya qiluvchi yoki ular asosida ijod etilgan operalar yaratilmagan. Chet elda o‘zbek operasi sifatida tanishtirishga arzigulik, o‘zbeklarning hayoti va turmush tarzi, boy tarixi va tarixiy yodgorliklari haqida hech bo‘lmasa tasavvur uyg‘otuvchi tarixiy, ilmiy nazariyaga asoslangan ko‘plab mavzularda operalar yaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, deyarli rivojlanmay qolayotgan o‘zbek operasi ko‘plab m uammo va kamchiliklar orasida bazo‘r nafas olmoqda. O‘zbek milliy operasini rivojlantira oladigan, uning dovrug‘i va mavqeini jahon miqyosida oshira biladigan kompozitorlarni yetishtirish dolzarb masalalardan bo‘lmog‘i shart. Bundan tashqari o‘zbek operasini ommaviylashtirish, xalqona musiqiy til va syujet asosiga qurib uni yanada rivojlantirish o‘zbek milliy operasini dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishi va ommalashishiga erishish lozim. Bunda milliy musiqa boyligimizdan unumli foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmog‘i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.G‘ofurbekov. O‘zbekiston musiqa madaniyati. “Musiqqa” nashriyoti, Toshkent, 2019.
2. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар). “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент, 2001.
3. A.Jabborov, S.Begmatov, M.A’zamova. “O‘zbek musiqasi tarixi”. Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (elektron versiya). “O” va “O” harflari. “Davlat ilmiy nashriyoti”, Toshkent.
5. Internet ma’lumotlari.





MUSIQIY OVOZ YOZISH DASTURLARI TARIXIDAN

Tohirjon ABDULLAYEV,

O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI “Texnogen san’at: musiqiy ovoz rejissorligi” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

*Ilmiy rahbar: Akbar MIRZAYEV,
O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.*

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘tgan asrda jahonda kashf etilgan audio ovozlarni yozib olish uchun mo‘ljallangan mutaxassislarning turfa kashfiyotlari haqida ma‘lumot beradi. Musiqiy ovoz yozish dasturlarining musiqa san’ati rivojidadagi o‘rni va ahamiyatini tahlillaydi.

Kalit so‘zlar: fonograf, gramafon, barrel, Odeon, record, musiqiy ovoz yozish dasturlari.

Abstract: This article provides information about the various discoveries of specialists for recording audio sounds discovered in the world in the last century. Analyzes the role and importance of music recording programs in the development of music art.

Key words: phonograph, gramophone, barrel, Odeon, record, music recording programs.

San’at turlari ichida musiqa san’ati keng omma uchun eng qiziq va mosligi bilan xarakterlanadi. Uni audio yozuvlarga muhrlash kabi ishlar fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq.

1877-yilda Tomas Edison o‘z audio yozuvini yozish mumkin bo‘lgan fonografni kashf etdi. U 1878-yil 19-fevralda AQSh Patent idorasi tomonidan chiqarilgan ixtiro uchun patent oldi. Ixtiro shunday katta muvaffaqiyatga erishdiki, 1906-yilda u tomonidan yaratilgan ixtiro vositasida Milliy Fonografiya kompaniyasi tomonidan bir necha musiqiy va teatr yozuvlari yaratildi.

O‘sha vaqtning barcha fonograflari quyidagi prinsipga muvofiq ishladi: bir igna-to‘suvcchi aylanuvchi ovoz uzatgichi bo‘ylab harakatlanib, membrana-mikrofon yordamida olingan mexanik tebranishlar mexanik tarzda ovoz o‘tkazuvchisi deformatsiyasi bilan





o‘rnatildi. Dastlabki dizaynlarda original ovoz uzatgichi ko‘paytirish uchun ham ishlatilgan, ammo bu texnologiya yetarli hajmda ovoz olish uchun qo‘shimcha mexanik energiya bermadi.

Keyinchalik, Shveytsariyalik ishlab chiqaruvchilar kichik ko‘chma fonograflarda ixtisoslasha boshladilar. Biroq, diskli fonograf 1912-yilda bozorga kirdi va 1887-yildan boshlab allaqachon fonogrammaning barcha modellaridan oshib ketgan grammofon edi. Gramofon 1887-yilda Emil Berliner tomonidan ixtiro qilingan.

Ikkitomonlama yozuvlar “Odeon” kompaniyasining rivojlanishi hisobiga 1903-yilda paydo bo‘ldi. 1910-yillarning boshlariga qadar ular asosan musiqiy klassikalarning asarlarini chiqarib olishdi, chunki ular jami besh daqiqalik ovozni o‘z ichiga olgan. XX asrning 30-yillarida yozuvlar bir tomondan bir tarkibga chiqarildi va ko‘pincha bir ijrochining bitta kontserti ko‘pincha kartonda, kamroq tez-tez charm, qutilarda bir nechta qismlarda sotildi. Fotoalbomlar bilan o‘xshash qutilarning tashqi o‘xshashligi tufayli ular “recordlar bilan albom” yoki “record albom” deb nomlana boshladilar.

Birinchi record kompaniyasi (kompaniya) Grammofon (Grammophone), 1893-yilda Berliner tomonidan tashkil etilgan. Ikkinchi, kamroq mashhur - Columbia. 1907 yilda Gillon Kemmler gramfonni yaxshilashni taklif qildi. Sobiq Sovet Ittifoqidagi grammatik yozuvlarni ishlab chiqarish bo‘yicha asosiy zavodlar Noginskiy, Moskva, Aprelevskiy va keyinroq Leningradda joylashgan "Artel Plastmass" edi [1.51-b.].

Musiqiy barrel organi quyidagicha ishlaydi. Ovozlar har xil garmonik o‘lchovdagi akustik qutiga joylashtirilgan turli uzunlikdagi va qalinlikdagi po‘latdan yupqa plitalar yordamida yaratiladi. Ulardan ovoz chiqarib olish uchun baraban yuzasiga joylashtirilgan maxsus tambur mavjud, u yerda mo‘ljallangan joyga mos keladi. Drum pinlerinin bir xil aylanishini ma‘lum bir ketma-ketlikda tegib turishi bilan ajralib turadi. Organ changni yutuvchi o‘zidan barrel organini harakatga keltiradi, tugmachani aylantiradi.

Musiqiy mexanik asboblarni sun‘iy ravishda yaratilgan tovushlarni qayta ishlab chiqaruvchi avtomatlardir. Hayotiy tovushlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish vazifasi ancha keyin hal qilindi.

Fonograf - ovoz yozish va o‘ynash uchun birinchi qurilma. Tomas Alva Edison ixtiro qilgan, 1877-yil 21-noyabrda taqdim etilgan. Edison





fonografining asarlari asosida ishlab chiqilgan prinsiplar 1857-yilgacha eksperimental tarzda o‘rganilmoqda. Edisonning bunday qurilmani yaratishga bo‘lgan intilishlari Menlo Park (Nyu-Jersi shtati, AQSh) laboratoriyasida telefon orqali suhbatlar yozishni istash edi. Kunlarning birida telegrafda takror-takror takrorlanuvchan ovoz eshitildi. Birinchi yozuvlar folyo yuzasida, harakatlanuvchi igna tomonidan tayyorlangan bo‘shliqlar edi. Folyo ovoz eshitilganda siljigan silindrga joylashtirildi. Qurilmaning omma namoyishi darhol Edisonni mashhur qildi. Ko‘p ovozli reproduktiv uskuna odamlarga mo‘jizaviy tuyulardi, shuning uchun Edisonni “Menlo Parkdagi sehrgar” deb atashdi. Edisonning o‘zi bu kashfiyotdan juda hayratda edi: “Men hech qachon hayotimda bu qadar hayratga tushmagandim. Men birinchi marta ishlayotgan narsalardan qo‘rqardim”. Ushbu ixtiro Oq uyda va Fransiya akademiyasida ham namoyish etildi. Dastlab fonografni diktaturada ovoz yozish uchun vosita, kotiba sifatida foydalanish rejalashtirilgan edi.

“Amerikalik ixtirochi Emil Berliner Edison shamchiroqlarini tekis diskli grammofon record bilan almashtirdi va matritsalarini qo‘llash uchun texnologiya ishlab chiqdi. Bu yozuvlar Berliner 1888-yilda namoyish etilgan. Biroz vaqt o‘tgach, gramofon yozuvlarini siqishni rezina va ebonitdan tayyorlangan po‘latdan yasalgan matritsa va keyinchalik tropik hashoratlar tomonidan ishlab chiqarilgan modda - shellac asosida tayyorlangan kompozitsion uslub yordamida ishlab chiqilishi olamshumul voqea edi” [5.48-b.]. Plitalar yaxshi va arzonlashdi, lekin ularning asosiy kamchiliklari past mexanik kuchlanishida edi. Shellac plitalari XX asrning o‘rtalariga qadar ishlab chiqarilgan. 1896-yilgacha diskni qo‘l bilan qaytarish kerak edi va bu gramofonlar keng tarqalgan bo‘lib qo‘llanilishida asosiy to‘siq bo‘ldi.

Gramophone - gramofon yozuvidan ovoz yozish va ovoz chiqarib olish uchun mo‘ljallangan qurilma. Grafika fonografining o‘zgarishi, 1877-yilda Karl Xorg‘a va Tomas Edison tomonidan mustaqil ravishda ixtiro qilingan. Emil Berliner, Croaning ishi bilan tanishib, tovushlarni yozish va ovoz yozish uchun silindrlarning o‘rniga disklardan foydalanishga qaror qildilar. Gramophone deb atalgan yangi ixtiro, Berliner tomonidan 1887 yil 26 sentyabrda patentlangan [2.32-b.].

1940 va 1960-yillarda grammofonni takomillashtirish musiqiy tovushni, ham vokal, ham instrumental holatga ega bo‘lishga imkon





berdi. Gramofonlar AQShda (AQSh) va Yevropada, jumladan Rossiyada kuchli mustaqil sanoatga aylandi. 1907-yilda “PATE” firmasi fonografiyani, 1925-yilda esa Berlinerni RCA bilan birgalikda birinchi seriyali elektrofonini yaratadi. Turli repertuardagi yozuvlar (disklar) ishlab chiqarish muayyan sohada o‘z aksini topdi (musiqiy virtuoza va taniqli qo‘shiqchilar tomonidan ijro etilgan).

Qizig‘i shundaki, dastlabki ovoz yozish va ko‘paytirish qurilmalari musiqa qutilarining mexanizmlariga o‘xshardi. Ularda ham, boshqalarda ham rulo (silindr) ishlatilgan, so‘ngra aylanadigan diskda ovoz chiqarib ko‘paytirish mumkin.

Inson aqli hali to‘xtamadi va juda yaqin orada kariklonlar pinlerin ma‘lum bir tartibda joylashtirilgan silindrlari bilan jihozlandi. Ushbu ignalar qo‘ng‘iroqchalarga urg‘u bergan bolg‘acha chizishdi. XVIII asrning oxirlarida cho‘zinchoq burchakli rollarda miniatyura asboblari - musiqa qutilarida ishlatila boshlandi, bu yerda qo‘ng‘iroqlar o‘rniga metall plitalari bilan chiroyli sozlangan taraklar ishlatila boshlandi. XIX asrda Shveytsariyada soat texnikasi bilan jihozlangan musiqa qutilarini ishlab chiqarish markazi tashkil etildi.

Elektron gramofon yozuvidan tovush chiqarish uchun mo‘ljallangan qurilma ixtiro etildi. Kundalik hayotdagi nomiga ko‘ra «elektrofon» gramofondan farqli o‘laroq, elektromoatda (radio stantsiyasi, patnis va radio qabul qiluvchining kombinatsiyasi) pikap ignasi mexanik tebranishlari elektr chastotasi kuchaytirgichi bilan kuchaytirilib, elektroakustik tizim orqali ovozga aylantirildi.

Bundan tashqari, 1958-yildan beri ular stereo yozuvlarni ishlab chiqarishni boshladilar va atrof-muhit tovush effektini yaratdilar. Ularning ignalari ham ancha mustahkam bo‘ldi. Ular qattiq materiallardan tayyorlana boshlashdi va ular qisqa muddatli grammofon ignalaridan butunlay voz kehdilar. Yozuvlar faqatgina maxsus studiyalarga o‘tkazildi.

1979-yilda, Philips va Sony, ovoz yozish va ijro etish uchun optik disk (CD - kompakt disk - CD) o‘rniga gramm yozishni o‘rniga butunlay yangi saqlash muhiti yaratdi. 1982-yilda Germaniyada ishlab chiqarilgan zavodda kompakt diskarni ommaviy ishlab chiqarish boshlandi [3.16-b.]. Mexanik ovoz yozish bilan solishtirganda, u juda ko‘p afzalliklarga ega edi.





Shunday qilib, insoniyat tarixida XX asr – fan va texnologiya asrida audio ovozlarni yozib olishning turfa yo‘llari kashf etildi. Ular borgan sari rivojlanib bugungi kunga qadar misli ko‘rilmagan salmoqda ommalashib ketgan bolib, ularning musiqa san’ati rivojidadagi o‘rni va ahamiyati ham nihoyatda yuqoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turdiyev M.T. “Elektrotexnika va elektronika asoslari”. Toshkent, 2014.
2. Esanboyeva Sh.S. “Televizion rejissura asoslari”. Toshkent, 2014.
3. Mirzayev Akbar “Ovoz yozish studiyasi jihozlari va ovoz yozish tizimi” Toshkent, 2019.
4. Raxmatullayev. D. F. “Musiqiy akustika”. Toshkent, 2014.
5. Tursunova G. “Kino va televideniya va radio san’ati”. Toshkent, 2018y.
6. M. Muxamedov, F. Fayziyeva, V. Ablyayeva. Televideniya asoslari. T.: 2008.
7. Abulqosimova X. “Kino san’ati asoslari”. Toshkent, 2010y.
8. Internet ma’lumotlari.





XONANDALARNI “USTOZ-SHOGIRD” AN’ANALARI ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

Shohsanam USUBJONOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI

2-boqich magistranti

Ilmiy rahbar: Ra’no ORIPOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI dotsenti,

pedagogika fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Mazkur maqola musiqa ilmida “Ustoz-shogird” an’analaridan foydalangan holda bakalavr-o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ustoz-shogird, an’ana, ta’lim, tarbiya, madaniyat, san’at, milliy, xofiz, ijodkorona.

Аннотация: Данная статья направлена на выяснение педагогических и психологических особенностей повышения качества профессиональной подготовки педагогов-бакалавров с использованием традиций «Учитель-ученик» в музыковедении.

Ключевые слова: учитель-ученик, традиция, воспитание, обучение, культура, искусство, национальное, традиционное, творческое.

Abstract: This article is aimed at clarifying the pedagogical and psychological features of improving the quality of professional training of bachelor teachers using the “Teacher-student” traditions in musicology.

Key words: teacher-student, tradition, education, training, culture, art, national, traditional, creative.

O‘z kasbining mohir ustalari bo‘lgan hofiz, sozanda va bastakorlar ijodi tufayli maqom dildagi niyat, amalga oshishi mumkin bo‘lgan mavhum musiqiy g‘oyadan kuy yoki ashulalarga aylanadi. Barhayot musiqiy an’analar har qanday faoliyat kabi uchta asosiy tamoyilga tayanadi: *bastakor*, *ijrochi* va *tinglovchi*. Ana shu uchta





tamoyil negizida musiqa san’atining mushtarak jarayoni yuzaga keladi.

Ozaki an’analar sharoitida ijro bilan ijod faoliyatining chegaralarini belgilash qiyin. Chunki haqiqiy ijroning o‘ziyoq, ijod demakdir. Cholg‘uchi yoki hofiz o‘z hunarining siru asrorlarini o‘zlashtirishda ma’lum bir darajaga erishgandagina *Ustoz* degan sharafga musharraf bo‘ladi. Aynan shu chinakam ustoz sozandalar maqomni yuksak san’at darajasiga ko‘tarishga qodirlar. Ularning ijodiy shuxrati porloq yulduzlar kabi musiqa madaniyatini nurafshon etadi. Ana shunday yorqin yulduzlarning shu’lari klassik musiqa merosimizning turli uslublarini yoritib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev “Biz yangi sharoitda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirishga intilmoqdamiz. Bunday yondashuv — bugungi va kelgusi rivojlanishimiz uchun mustahkam poydevordir. Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonni barpo etish — yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir” – deb ta’kidlaydi³⁵. Zero, hozirgi kunda oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiladigan chuqur bilimga ega, yuksak tarbiya ko‘rgan, barkamol avlodni ya’ni, komil insonni voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirishda ustozlarning o‘rni kattadir.

Bugungi kunda ustozlar ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya to‘g‘risida bizga meros bo‘lib qolgan yozma manbalaridan ustoz va shogirlik talablarida belgilangan ibratli qoidalarni chuqur o‘rganish, tadqiq etish va ulardagi ilg‘or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga tadbiq etgan holda ta’lim-tarbiya ishlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Unsurulmaoliy Kaykovusning farzand tarbiyasiga bag‘ishlangan “Qobusnoma” risolasining o‘ttiz oltinchi – “Hofiz va sozandalik zikrida” nomli bobida bayon etilishida musiqa ilmining ustodlari ushbu muallif yashagan davrda xalqining har bir tabaqasi tabiatiga mos ravishda kuylar tuzishgan ekan. Bunday tabaqalardan biri esa yosh bolalar nozikta’b kishilar, ya’ni ayollar bo‘lishgan. “Bu qavm uchun - deb uqtiriladi asarda, - taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar. Chunki

³⁵ Sh.Mirziyoyev. “Yangi o‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. 2021 yil 17 avgustdagi “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 5-b.





hamma vaznlarning orasida taronadin yoqimli vazn yo‘qdir”.

Hozirgi kunda oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiladigan chuqur bilimga ega, yuksak tarbiya ko‘rgan, yosh o‘sib kelayotgan avlodni ya’ni, komil insonni voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirishda ustozlarning o‘rni kattadir. Bugungi kunda ustozlar ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya to‘g‘risida bizga meros bo‘lib qolgan yozma manbalaridan ustoz va shogirdlik talablari belgilangan ibratli qoidalarni chuqur o‘rganish tadqiq etish va ulardan ilg‘or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga tadbiiq etgan holda ta’lim – tarbiya ishlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Forobiy ustoz qiyofasida quyidagi fazilatlar mujassam bo‘lmog‘i lozim, deb hisoblaydi:

- o‘tkir va uzoqni ko‘ra oladigan aql sohibi;
- o‘z bilimlarini o‘quvchilarga bera olishi, va bu faoliyat hamrohi bo‘lgan mashaqqatli mehnatdan tolmasligi;
- haqiqat va unga intiluvchilarni sevishi;
- yolg‘on va uni shoir qilib olganlardan g‘azablanishi;
- mag‘rur ruhga ega bo‘lishi;
- o‘z shogirdlariga adolatli munosabatda bo‘lishi;
- qo‘yilgan maqsadga qat’iylik ko‘rsata olishi va boshqalar;

Allomallarimiz ustoz odobining sakkiz shartini sanab o‘tganlar. Birinchidan, o‘quvchilarga nisbatan shavqatli bo‘lishi va ularga o‘z bolalari kabi muomalada bo‘lishi; ikkinchidan, ustoz ilm o‘rgatish va tarbiya berish uchun haq talab etmaslik; uchinchidan, o‘quvchiga qilinishi lozim bo‘lgan nasihatlardan hech birini qoldirmasligi; to‘rtinchidan, ta’lim san’atining nozik jihatlaridan biri, muallim o‘quvchining yomon axloqini oshkora emas, balki, imkoni boricha o‘ziga ko‘rsatish yo‘li bilan tuzatishi; bechinchidan, ilmlardan ba’zilarini o‘rganayotgan o‘quvchiga boshqa ilmlarni yomon ko‘rsatmasligi; oltinchidan, o‘quvchiga ilmni fahm-farosati va qobiliyatining ko‘tarishiga qarab o‘rgatishi; yettinchidan, zehni past o‘quvchiga o‘ziga xos bo‘lgan ilmlarni o‘rgatishi va sakkizinchidan, ustoz ilmiga amal qilishi lozimligiga urg‘u berilgan.

Bugungi kunda ustoz qiyofasida ma’naviy yetuk ustozni ko‘rish lozim deb hisoblaymiz. Ma’naviy yetuk ustoz kim bo‘lishi kerak? - degan savolga javob izlasak, bizningcha u ko‘p kitob mutolaa qilgan, o‘rgangan, bilimli, malakali, har qanday ijodkordan ham ijodkorroq,





o‘z-o‘zini ma’nan ruhan tarbiyalagan, dono maslahatchi, hamdard, ruhiy madadkor bo‘lib peshvoz chiquvchi hamda o‘z bilimi va barcha axloqiy fazilatlarini shogirdining ma’naviy kamoloti uchun sarflab, jon kuydiradigan jismonan yetuk va iymonli shaxsdir.

Yetuk ustoz xushxulqligi, xushfe’lligi, o‘z-o‘zini ma’nan, ruhan, qolaversa, jismonan tarbiyalaganligi bilan ajralib turadi. Ma’naviy yetuk ustozning eng muhim shartlaridan biri, ta’sirchan va zalvorli nutq sohibi bo‘lib, shogird tuyg‘ularini o‘y-hayollarini jilovlay olishi; ikkinchidan, o‘quvchining ma’naviy olamini boyitishga, xulqi va odobini takomillashtrishga hissa qo‘shishi; uchinchidan, o‘z ilmi bilan har qanday shogirda qiziqish uyg‘ota olishdir.

Abu Nasr Forobiy ustoz o‘qituvchiga shunday talab qo‘yadi: “Ustoz shogirdiga katta zulm ham haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmaslik lozim”. Chunki, ortiqcha zulm shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi-yu, ustoz juda ham yumshiq bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan ham sovib qoladi. U o‘qituvchiga bolalarning fe’l atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanishni maslahat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o‘qish va o‘rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta’lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha itoatsiz bo‘lsalar, qattiq usul (majburlov) qo‘llaniladi.

Ba’zi ustozlarimiz “qancha tarbiya-yu qancha tanbeh berganimiz bilan ayrim yoshlarni odam qilib bo‘lmaydi”, - deyishadi. Albatta, bu noto‘g‘ri fikrdir. Chunki tarbiya tabiatga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkindir, lekin axloqni o‘zgartiradi, ya’ni, yaxshi fazilatlarini kamol toptiradi. Bu albatta, ma’naviy yetuk ustozning qo‘lida. Bordi-yu, uning bo‘lgani shu deb o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, yoshlarimiz turli oqimlar va yo‘llariga kirib qolishi hech gap emas. Bunday hollarda ma’naviy yetuk ustoz yoshlarga kuchli ta’lim va tarbiya berish bilan yosh avloga oqu - qorani va yaxshi yomonni o‘rgatish, milliy mafkura asosida e’tiqodni shakllantirish, haq huquqlari, burch va mas’uliyatini chuqur anglatish zarur bo‘ladi.

O‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lgan ustozning faoliyatini quyidagi mezonlarga asoslagan holda baholash mumkin:





- O‘quvchilarning sog‘lom ma’naviy muhiti, kasbiy kamoloti bo‘yicha qo‘lga kiritgan yutuqlari;
- O‘quvchining maishiy hayotdan xabardorligi va ularning mafkuraviy tayyorgarligi uchun mas’ulligi;
- O‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmasi shakllanishi uchun mas’ulligi;
- O‘quvchilarning o‘quv va mehnat intizomi, ta’lim muassasasi ichki tartib qoidalariga rioya qilishi;
- O‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirish darajasi;
- O‘quvchilarning ilmiy -ijodiy ishlarida faol qatnashishi, turli ko‘rik tanlovlardagi ishtiroki va qo‘lga kiritgan yutuqlari va shu kabilar.

Demak ma’naviy yetuk ustozlarning shogirdlari mustaqil fikrlaydigan va o‘z -o‘zini anglagan, o‘z haq-huquqini taniydigan, o‘z kuch imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘ladigan voqealarga munosabat bildiradi, o‘z xatolaridan xulosa chiqara oladigan, shaxsiy manfaatidan mamlakat va xalq manfaatlarini ustun qo‘yadigan, vatanini jonidan ortiq ko‘radigan shaxslar bo‘lib ulg‘ayadi. Bunga faqat va faqat tarbiya olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir” - Toshkent. “O‘zdabiynashr”, 1963.
2. Abdullayev R.S “O‘zbek mumtoz musiqasi” – Toshkent. Yangi nashr, 2008.
3. Rajabov I. “Maqomlar” – Toshkent. San’at, 2006.
4. Begmatov S. “Xofizlik san’ati”. “Misiqa”. – Toshkent, 2007
5. Matyakubov Sh. “An’anaviy ijrochilik tarixi” - Toshkent, 2015





YUNUS RAJABIY UY-MUZEYI FAOLIYATI XUSUSIDA

Davron KARIMOV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti.*

Ilmiy rahbar: Nabijon QODIROV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek milliy musiqa san’ati tarixida yorqin iz qoldirgan serqirra ijodkor, sozanda, xonanda va bastakor, akademik Yunus Rajabiy va uning vafotidan so‘ng tashkil topgan uy-muzeyi faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, u soha mutaxassislari va an’anaviy musiqa tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: maqom, uy-muzey, akademik, sozanda, xonanda, bastakor, an’anaviy musiqa.

Abstract: This article is dedicated to the activities of Yunus Rajabi, a great creator, musician, singer and composer, academician, who left a bright mark in the history of Uzbek national music art, and the house-museum established after his death. And intended for a wide readership interested in the history of traditional music.

Key words: makom, house-museum, academic, musician, singer, composer, traditional music.

XX asr o‘zbek musiqa san’atining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan va ushbu ishlarning boshida turgan Yunus Rajabiy, yaxshi sozanda (dutor, nay), xushovoz hofiz, ilg‘or bastakor, tashkilotchi rahbar, mumtoz musiqamiz ustoz va shu bilan birga o‘zbek musiqasi durdonalarini jamlab xujjatlashtirib bergani uchun akademiklikka saylangan, ilmiy ilg‘or tafakkurga ega zabardast darg‘amiz bo‘lgan.

Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov o‘zining “Maqomot” nomli kitobida Yunus Rajabiy shuhrati haqida quyidagicha yozadi: “San’atkorning o‘z ishiga har tomonlama ijodiy yondoshishi – ustoz-





murabbiy, ijrochi, tadqiqotchi va arbob sifatida unga keng ommaviy shon-shuhrat olib keldi”³⁶.

Yana bir musiqashunos olim Soibjon Begmatov Yunus Rajabiyning musiqa san’ati rivojida olib borgan faoliyati ko’p qirrali ekanligini e’tirof etib, quyidagi fikrni bildiradi: “Birinchidan, ijrochilik; ikkinchi yo‘nalish – bastakorlik; uchinchi – an’anaviy musiqa namunalari notaga olish bilan bog‘liq etnograf-musiqashunoslik; to‘rtinchisi – maqom ansambliga rahbarlik; beshinchisi – o‘zbek xalq va mumtoz musiqalarini maqomchilar ansambliga o‘rgatib, magnet tasmalariga yozdirgan va meros qilib qoldirgan xazinabon; oltinchisi – betakror shogirdlarning kamolga yetishida rahnamolik qilgan mehribon ustoz, yettinchi – musiqa ijrochiligi, ijodiyotida ibrat sifatida faoliyat olib borgan yagona akademikdir”³⁷. Mana allomaning serqirra ilmiy va ijodiy faoliyatiga berilgan baho. Darhaqiqat, ulug‘ alloma o‘zining ulkan qobiliyati ila serqirra va mashaqqatli faoliyati davomida o‘zbek mumtoz va folklor musiqasi bobida katta muvaffaqiyatlarga erishdi, o‘z nomini tarixga muhrlab, Yunus Rajabiy maktabi davomchilarini tarbiyaladi.

Akademik Yunus Rajabiy o‘zining ilmiy faoliyati natijasida bir qancha yutuqlarga erishdi. 1955-yildan 1959-yillargacha davomida Yunus Rajabiy o‘zining folklorshunoslik ilmida olib borgan ishlarini tarixga muhrlashga erishadi. 1500 dan ortiq xalq kuy va ashulalari, yalla va laparlari, terma va dostonlaridan namunalarni hamda maqom namunalari (Buxoro Shashmaqomi va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari) besh jilddan iborat “Ўзбек халқ музыкаси” kitoblarida ilmiy mantiqqa mos ravishda nashrga tayyorlashining o‘zi ulkan jasorat namunasi edi. Bu kitoblar “Ўзбек халқ музыкаси” nomida musiqashunos Ilyos Akbarov tahriri ostida 1-tom 1955-yilda, 2-tom 1957-yilda, 3-tom 1959-yilda, 4-tom 1958-yilda, 5-tom 1959-yilda Buxoro maqomlari nomida Toshkentda chop etiladi.

Musiqashunos M.Ahmedov o‘zining musiqa merosimiz bilimdoni Yunus Rajabiyga bag‘ishlangan kitobida shunday deydi: “Yunus Rajabiy o‘zbek xalq musiqasini sistemali ravishda to‘plash jarayonida xilma-xil ashula, qo‘shiq janrlarini to‘plash va yozish tajribasini boyitib va mukamallashtirib bordi. To‘plovchi xalq kuylarini

³⁶ Otanazar Matyoqubov. Maqomot. Toshkent, 2004. 329-bet.

³⁷ Soibjon Begmatov. Bastakorlar ijodi. Toshkent, 2017. 53-bet.





notaga yozganda ham, to‘plaganda ham avvalo, har bir kuyning xarakteri, shakli va tuzilishi qonunlarini o‘rgandi”³⁸. Shunday ekan Yunus Rajabiy musiqa merosimiz namunalarini nafaqat amaliy va ijodiy hatto ilmiy-nazariy bilganligi ham aniqlashdi. Serqirra qobiliyat egasi Yunus Rajabiy haqiqiy olimlik xususiyatlariga ega san’atkor bo‘lgan edi.

Yunus Rajabiy haqida gap ketganda ko‘zimiz oldiga birinchi navbatda Shashmaqom keladi. 1959-yilda nashrdan chiqqan “Ўзбек халқ музикаси” kitobining 5-jildi Buxoro maqomlari nomida bosildi. Unda mumtoz musiqa durdonasi Shashmaqomning cholg‘u va ashula bo‘limlaridagi musiqiy namunalar, turkumlar o‘z ifodasini topdi.

1959-yilda Yunus Rajabiyning rahnamoligida O‘zbekiston teleradiosi qoshida “Maqomchilar” ansambli tashkil etildi. Unga Yunus ota vafot etgunlarigacha rahbarlik qildilar ya’ni, 1976-yilgacha. Yunus Rajabiy mumtoz musiqa namoyondalari, maqomdonlarga rahnamolik qilib samarali va oqilona faoliyat olib bordilar. Aynan ana shu davr, ana shu yillar Yunus Rajabiyning eng gullagan, sermahsul davri bo‘ldi.

1960-1966 yillar alloma ijodida Shashmaqomni qayta yozish jarayoni bo‘lib, o‘z davrining eng yetuk sozanda va hofizlari bilan birgalikda Shashmaqomdagi har bir asar qayta o‘rganilib, kamchiliklari va yetishmayotgan qismlari to‘ldirilib yana ham mukammalroq nota kitobi Yunus Rajabiy tomonidan tayyorlandi. Natijada, 1966-1975 yillarda Shashmaqom nomida yozib oluvchi Yunus Rajabiy, musiqashunos Fayzulla Karomatov tahriri ostida Toshkentda olti tomlik shaklida chop etildi: 1-jild – Buzruk, 2-jild – Rost, 3-jild – Navo, 4-jild – Dugoh, 5-jild – Segoh, 6-jild – Iroq.

O‘zbek xalq klassik va zamonaviy musiqiy san’atimizning targ‘ibotini kuchaytirish va puxta o‘rganish maqsadida, hamda o‘zbek xalqining milliy musiqiy madaniyati va san’atining shakllanishi, o‘zbek maqomlarining tiklanishi va rivoj topishida salmoqli hissa qo‘shgan, ulkan arbob, benazir hofiz va bastakor, musiqiy boyligimizni to‘plab notalashtirgan, musiqamiz hazinaboni, zabardast olim va kompozitor, O‘zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiyning xalqimizga qilgan buyuk xizmatlarini e’tiborga olib, shu bilan birga yirik mutaxassis musiqashunos olimlar, bastakorlar, hofizlar, sozandalarning

³⁸ М.Ахмедов. Юнус Ражабий. Тошкент, 1980.





va xalqimizning millionlab musiqa shinavandalarining, takliflariga asosan, O‘zbekiston hukumatining 1989-yil, 13-sentabr № 301 sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 28-sentabr, 1989-yil 385-sonli buyrug‘iga muvofiq tashkil etilgan musiqamiz allomasining uy-muzeyi, ilmiy – tadqiqot va ilmiy-ma’rifiy tashkilotdir. Uy-muzey O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tasarrufiga kiradi va o‘z faoliyatini olib boradi. Uy-muzey huquqiy muassasasi sifatida Davlat Gerbi tasviri tushirilgan dumaloq muhriga, to‘rt burchak shtampi va Davlat bankidagi hisob raqamiga ega.

O‘zbek xalqining o‘g‘loni, buyuk bastakor va hofiz, ulkan va beqiyos musiqiy merosimizning benazir hazinaboni, akademik Yunus Rajabiy 1956-1976 yillar mobaynida, o‘zining 12 nafar farzandidan 6 nafari bilan avvalgi “Shelkovichnaya”, so‘ngra “German Lopatin”, keyinroq “Navro‘z” nomlari bilan atalgan ko‘chadagi 20 uy 1 xonadon, 1989 yil O‘zbekiston Respublikasi hukumatining 13 sentabr № 301 qarori asosida O‘zbekiston xalq artisti, buyuk hofiz va bastakor akademik Yunus Rajabiy uy-muzeyi tashkil etilgan.

Yunus Rajabiy uy-muzeyi Toshkent shahrining eng so‘lim va markaziy ko‘chalaridan birida Yunus Rajabiy 1956-1976 yy. yashab ijod etgan xonadon uy-muzeyga moslashtirilgan bo‘lib, bu ko‘cha hozirda uning nomi bilan yuritiladi.

Uy-muzeyda turistlarning iltimoslariga binoan taniqli san’at ustalari va uy muzey xodimlari ijrosida o‘zbek xalq cholg‘u kuylari, ashulalari va maqomlaridan jonli ijrolarni tinglashlari uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Ziyoratchilar muzeyda Yunus Rajabiy va uning shogirdlari, mashhur hofiz va sozandalarning ijrolarini tinglash va disk yozuvlaridan harid qilishlari mumkin.

Akademik Yunus Rajabiy “Men butun hayotimni o‘zbek xalq va klassik ashulalari, cholg‘u kuylari, o‘zbek maqomlarining eng mukammal darajasiga yetkazishga va uning rivojiga bag‘ishladim”, - degan edi.

Yunus Rajabiy sulolasi, uning ustozlari va shogirdlarining Shajarasida farzandlarining nomlari qayd etilgan va ular tartib bilan berilgan. G‘ulom Zafariy 1930-yilda tuzgan “ Musiqiy shajarasi” ham ekspozitsiyadan joy olgan.





Muzeyda o‘zbek musiqasi va maqomlariga ajratilgan alohida zal bo‘lib, bunda noyob hujjatlar, kitoblar, foto suratlar, musiqa asboblardan va shu zalga munosib bo‘lgan boshqa materiallar ham saqlanadi.

O‘zbekiston xalq rassomlari, akademik Alisher Mirzo va Sobir Raxmetovning moy bo‘yoqda ishlagan mashhur hofizlarning (Yunus Rajabiyning ustozlari va shogirdlari) portretlari, 14 ta vitraj va grafik asarlar, 5 ta pano uy-muzey ekspozitsiyasini boyitgan.

Yunus Rajabiy memorial xonasi ham eng shinam xonalardan biri hisoblanadi. Bu yerda Yunus Rajabiyga taaluqli bo‘lgan jihozlar, kiyim kechaklari, ishlatgan ish qurollari, o‘qigan kitoblari, nota qog‘ozidagi qo‘lyozmalari, o‘zlari ishlatgan dutor va boshqa noyob hujjatlari u tiriklik paytidagidek saqlangan.

Shashmaqom xonasida eng noyob eksponatlar qatorida XIX asr II yarmida Feruz shoh tomonidan shoir va olim Komil Xorazmiyga buyurilgan “Tanbur chizig‘i” uslubida kuylarni notalashtirish yo‘llarida ikki chiziqli yo‘lga tushirilgan nuqta belgilar bilan yozilgan, Xorazm vohasida ijro etilgan o‘zbek maqom yo‘llari notalari yozilgan qo‘l yozma kitobi ham o‘rin olgan. Bu nusxani Hasan Rajabiy Yunus Rajabiyning ustози Abdurahmon Umariyning o‘g‘li Sunnat akadan olgan ekan.

Uy-muzeyning yana bir xonasi “Yunus Rajabiyning o‘smirlik yillari”. Bunda siz Yunus Rajabiy tug‘ilib o‘sgan xonadoning maketi, 110 yosh yashagan onasi Oysha bibi tikkan palak, oilasida ishlatilgan noyob uy-ro‘zg‘or buyumlari, tosh oyna, Yunus Rajabiy chalgan Nay, hamda o‘zbek musiqa asboblardan Karnay-Surnay, Qo‘shnay, Safoyl, Navoiy va Bobur zamonasi davriga tegishli bo‘lgan “G‘ippchak” sozi hamda turli foto- hujjatlar, tasviriy san’at asarlari bilan tanishasiz.

Ziyoratchilar zallar bo‘ylab o‘rnatilgan dinamiklardan past tovushda taralayotgan mayin kuy sadolari hamroxligida xonalardagi ekspozitsiyalar bilan tanishish jarayonida eksponatlarni jonlantirgandek bo‘ladi. Uy-muzey direktori O‘zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy ziyoratchilar bilan olib borgan suhbatlari qiziqarli va jozibali bo‘lishi bilan birga so‘nggida uning ijrosidagi jonli kuy va qo‘shiqlar tinglovchilar katta zavq berib, Yunus Rajabiy haqida olingan hujjatli film, uning ijrosida yozib olingan DVD lardan namunalar ham ko‘rsatilib disklerini ko‘rish va eshitish uchun ham sharoit yaratilgan.





Uy-muzeydagi noyob eksponatlar:

Yunus Rajabiy o‘zi nashrga tayyorlab chop ettirgan 5 jildli “O‘zbek xalq musiqasi”, 6 jildli “Shashmaqom”, “Musiqqa merosimizga bir nazar” nomli tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan 12 jild kitoblari; uning arab, lotin va kiril harflarida turli mavzularga oid, o‘z qo‘li bilan yozgan qo‘lyozmalari, ustozlari haqidagi xotiralari, notaga olgan musiqiy drama va opera yozuvlarining qo‘lyozmalari, konsertlarda kiygan turli xil to‘nlari, uy ro‘zg‘orda ishlatgan misdan yasalgan ashyolar va noyob idish-tovoqlar.

O‘zbekiston xalq rassomi, akademik Alisher Mirzoning deraza oynalariga vitraj (14 ta, 160x60 sm) uslubida uy-muzeyga xos etib ishlagan rang tasvir miniatyura suratlar va moy bo‘yoqda ishlagan (16 ta) portretlari, Yu.Rajabiyning o‘zi, ustozlari va safdoshlari, 5 ta katta hajmdagi panno (Musiqqa allomasi 100 yosh (2.20x180sm), Toshkent, Samarqand, Xiva va Buxoro (1.60x85sm) asarlari, O‘zbekiston xalq rassomi, akademik Sobir Rahmetovning: “Alloma” va “Yunus Rajabiy”, rassom V.Okudinaning Yu.Rajabiy tug‘ilib o‘sgan Chaqar mahallasidagi uyining maketi (90x45sm), “Tabiat va musiqa” diaramasi (80x120sm) muzeyning noyob eksponatlari ham shular jumlasiga kiradi.

Yunus Rajabiyga berilgan orden va medallar, uning nigohi tushgan va o‘qigan kitoblari, o‘zi chalgan musiqa asboblaridan: Dutor, Tanbur, Nay va Fortopiano uning ustozlari, safdoshlari, shogirdlari va farzandlarining fotosuratlar ham muzey ekspozitsiyasidan joy olgan.

Ekspozitsiyaga XX asr boshlarida suratga olingan va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan eski Toshkent ko‘rinishlari, dramaturg G‘ulom Zafariyning o‘z qo‘li bilan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tuzgan “Musiqiy Shajara”si (qo‘lyozma), XIX asrning II yarmida Komil Xorazmiy o‘z qo‘li bilan yozgan “Tanbur chizig‘i” nota yozuviga olgan o‘zbek maqomlarining qo‘lyozma kitobi ekspozitsiyaga qo‘yilgan.

Yunus Rajabiyning o‘g‘li, O‘zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiyning 30 dan ortiq musiqa asboblarining kolleksiyasi: Ud, Dutor, Tanbur, Doyra, Qonun, Sato, Manzur, Soz, Rubob, Safoil, Chanqovuz, Qadimiy G‘ippchagi Boburiy, Qo‘shnay, Karnay, Surnay, Chang, Chang bas, Manzur, Qo‘shyor, Mandalino, Balalayka, Tor, Qayroq Tosh, po‘latdan yasalgan bir-biriga urib chalinadigan asbob, Xindistondan olib kelgan Sitar, Nay, Shaqildoq, Puflab chalinadigan





Duduk (qovoq va bambuk yog‘ochidan yasalgan), Xitoydan keltirilgan bir necha puflab chalinadigan musiqa cholg‘u asboblari (qamishdan yasalgan) uy-muzeyga tashrif buyurgan ziyoratchilarda, ayniqsa chet ellik mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Yunus Rajabiy o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlangan faoliyatini, qobiliyati, kuch va qudratini o‘zbek musiqasiga, ijrochilik madaniyatiga, milliy musiqa ijodiga, xalq musiqasini va mumtoz musiqamizni targ‘ib qilishga, uni o‘rganishga va o‘rgatishga bag‘ishladi. Allomaning hayoti, ijodi va ilmiy-amaliy, ijodiy faoliyati bilan tanishar ekanmiz uning o‘zbek musiqa madaniyati tarixida tutgan o‘rni beqiyos ekaniga ishonamiz. Undan o‘rnak olamiz, saboq olamiz. Uning nota kitoblaridan foydalanib o‘zbek mumtoz va xalq musiqamizni o‘rganishga kirishamiz. Ijodiy asarlaridan: kuy, qo‘shiq va ashulalaridan bahra olib zavqlanamiz. Shu sababli ham Yunus Rajabiy ilmiy-ijodiy faoliyatini muntazam tadqiq etib, saqlab, yoritadigan uy muzeyining faoliyat yuritayotganligi har tomonlama manfaatli. So‘z oxirida Yunus Rajabiyning porloq xotirasi haqi uning uy-muzeyi rivojlanishini tilab qolaman...

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Музыка ижодиёти масалалари. Мақолалар тўплами. Тошкент, 1997.
2. Ўзбек халқ музыкаси. Тўпловчи ва нотага олувчи Юнус Ражабий. Ил.Ақбаров таҳрири остида. Тошкент, I том, 1955; II том, 1957; III том, 1959; IV том, 1958; V том, Бухоро мақомлари, 1959.
3. Шашмақом I-VI томлар. Ёзиб олувчи Юнус Ражабий. Ф. Кароматов таҳрири остида. Тошкент, 1966-75.
4. Юнус Ражабий. Музыка меросимизга бир назар. Тошкент, 1978.
5. М.Аҳмедов. Юнус Ражабий. Тошкент, 1980.
6. Ражабийнома. Тузувчи: Ҳасан Ражабий. Тошкент, 2016.
7. И.Ражабов. Мақомлар. Тошкент, 2006.
8. О.Матёкубов. Мақомот. Тошкент, 2004.
9. С.Бегматов. Бастакорлар ижоди. Тошкент, 2017.





MUSIQA TA’LIMIDA FAN VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Asfandiyor ABUBAKIROV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti.*

Ilmiy rahbar: Ra’no ORIPOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi.*

Annotatsiya: Biz ushbu maqolamizda ta’lim va amaliyot integratsiyasini ta’minlash –musiqa sohasida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida yoritib berganmiz.

Kalit so‘zlar: integratsiya, uzviylik, ta’lim, texnologiya, samaradorlik, natija, o‘quv dasturi, o‘quv reja, globallasuv.

Аннотация: В данной статье мы выделили интеграцию образования и практики как одно из основных направлений развития системы подготовки кадров в сфере музыки.

Ключевые слова: интеграция, интеграция, образование, технология, эффективность, результат, учебная программа, учебная программа, глобализация.

Abstract: In this article, we have highlighted the integration of education and practice as one of the main directions in the development of the personnel training system in the field of music.

Key words: integration, integration, education, technology, efficiency, result, curriculum, curriculum, globalization.

Hozirgi kunda Republikamizda faoliyat yuritayotgan Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari jumladan, uch yuzga yaqin Bolalar musiqa va san’at maktablari va yuzlab o‘smirlar ijodiyoti saroylari, markazlari, madaniyat uylari, klublar va studiyalarda ham milliy cholg‘ularda ijro etish mahoratini o‘rgatish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Bu ta’lim jarayonida o‘quvchilar individuallashtirilgan va tabaqalashtirilgan musiqa ijrochiligi ta’limini olishmoqda, muayyan cholg‘u turi va ijrochiligi bo‘yicha mahorat sirlarini o‘rganishmoqda. Ularning yakka





tartibdagi ehtiyojlari qondirilmoqda. Ayni paytda maktabdan tashqari musiqa ta’limi bo‘yicha yoshlarni qamrab olishni yanada kengaytirish ham umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida milliy cholg‘ularda ijro etish mahoratini o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish masalasini samarali hal qilish imkonini beradi.

Maktabdan tashqari musiqa ta’limi noyob tizim, bugungi kunda uning imkoniyatlaridan keng foydalanish bo‘yicha quyidagi dolzarb vazifalarni bajarish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin:

1) maktabdan tashqari milliy musiqa ta’limining yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish;

2) maktabdan tashqari milliy musiqa ta’limida milliy cholg‘ular turlari hamda qo‘shiqchilik bo‘yicha saboq berishni kengaytirish;

3) maktabdan tashqari milliy musiqa ta’limini professional kadrlar bilan ta’minlashni kuchaytirish;

4) maktabdan tashqari musiqa ta’limi bilan o‘quvchilarni yanada kengroq qamrab olish.

Bularni amalga oshirish maktabdan tashqari musiqa ta’limi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida milliy cholg‘u ijrochiligi san’atini o‘rgatishni rivojlantirishga ko‘mak beradi. Albatta, buning uchun uzviy va uzluksiz ravishda milliy musiqa ta’limini rivojlantirib borish lozim bo‘ladi. Shuningdek, jamiyatda milliy mumtoz musiqa va maqom san’atini yanada keng targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, umumiy o‘rta ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan milliy cholg‘ularda ijro etish mahoratini o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish yosh avlodning bilim doirasi va dunyoqarashini kengaytirishga, uning madaniy ongini rivojlantirishga, axloqiy fazilatlarini yuksaltirishga shuningdek, layoqati, iqtidori va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga mustahkam zamin yaratadi.

Bugungi globallashuv jarayonida bilimdonlik va aql-zakovat ko‘proq milliy boylik, insonning ma’naviy salomatligi, har taraflama rivojlanganligi, kasbiy tayyorgarligining kengligi va uzviyligi, ijod qilishga intilishi va vazifalarni hal qilishni bilishi mamlakat salohiyatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Mazkur sharoitda uzluksiz ta’lim mazmunini takomillashtirish ob’ektiv zarurat kasb etmoqda.

Ko‘plab mamlakatlarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, Respublikamizda ilgari surilgan ta’lim va maorif sohasiga tegishli islohotlarning asosini ta’limning uzluksizligi





va uzviyligi, ta’lim sohasidagi ishlarning keng ko‘lamliligi va sermazmunligi, ta’lim mazmunining jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayotidagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligi kabi jihatlar tashkil etadi.

Ushbu jihatlariga bevosita to‘xtalib o‘tamiz. Ta’lim va amaliyot integratsiyasini ta’minlash musiqa sohasida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’kidlab o‘tish joiz. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat har bir fuqaroga oliy ma’lumot olishni kafolatlashi, balki beriladigan mutaxassislik bo‘yicha malakasini doimiy ravishda oshirib borish va tizimli ravishda bilimlarni yangilash uchun imkoniyat yaratishi zarur. Kasbiy tayyorgarlikni oshirish va mavjud bilimlarni yangilash sohasidagi faoliyat alohida shaxslarning o‘z shaxsiy manfaatlarini qondirishga xizmat qiluvchi vosita bo‘lib qolmasligi, balki kelgusida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot shartlaridan biri sifatida jamiyat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil bo‘lishi zarur.

Ilmiy bilimlarning o‘sish sur‘atlari va shu bois ijtimoiy hamda madaniy hayotdagi o‘zgarishlar, shuningdek, ta’lim oluvchilarda aqliy rivojlanish jarayonining tezlashishi, avval uchramagan holatlar ta’lim tizimini doimiy o‘zgarib turuvchi hayot sharoitiga mos tizimga o‘zgartirishni talab qiladi. Bu holatni moslashuvchanlik talabi asosida izohlash o‘rinlidir. Bu kabi o‘zgarishlar o‘quv dasturlari sohasida, ayniqsa, zarur.

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda musiqa ta’limida o‘qitiladigan fan dasturlari uzviyligi va uzluksizligini, ta’lim bilan amaliyot integratsiyasini yanada rivojlantirish, mavzular va ijro dasturlarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi hamda o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Talabalarning cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha metodik o‘zlashtirishlarida murakkabliklarga duch kelganligi sababli ta’lim mazmunining integratsiyalash haqidagi tamoyilga ko‘ra, har bir o‘qituvchi ham mazmun, ham uslubiy tomondan o‘quv dasturlarini davriy modernizatsiya qilish bilan bir qatorda mustaqil ravishda ba’zi dasturiy qoidalarni yangilash, dasturlarni eng yangi ilm-fan yutuqlari bilan to‘ldirish imkoniga ega bo‘lishi zarur.





Ta’lim va amaliyot dasturlariga iloji boricha eng yangi nazariyalar va hattoki, ilmiy farazlarni kiritish zarur. Shu munosabat bilan o‘quv rejalarida ta’lim bilan amaliyot integratsiyasini kuchaytirish bo‘yicha muayyan soatlar ajratilishi lozim. Bunda to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rgan o‘qituvchilar mazkur vaqtdan ta’lim oluvchilarning aqliy rivojlanishida samarali foydalanishlari mumkin.

O‘qitish jarayonini modernizatsiya qilishning yana bir vositasi darsliklar mazmunini takomillashtirishdan iborat. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovor hisoblanadi. Chunonchi, an’anaviy darsliklarning mazmunini tahlil qilish bo‘yicha ishlar quyidagilarni ko‘rsatdi. Masalan, darsliklar mazmunidan ortiqcha materiallarni chiqarib tashlash, matnlardagi xatoliklarni to‘g‘rilash, ta’lim oluvchilar uchun qiyin yoki umuman tushunarsiz bo‘lgan, ularning yosh xususiyatlariga mos kelmaydigan topshiriqlarni olib tashlash orqali erishish mumkin.

Shuningdek, o‘quv-tarbiya ishini tashkil etishda uzviylik talab etiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘rtacha qobiliyatli o‘quvchilar bilan ishlashga ko‘proq urg‘u beriladi, bunda davomati past hamda o‘ta qobiliyatli o‘quvchilar nazardan chetda qoladi. Bunga qobiliyatli o‘quvchilar bilan mashg‘ulot o‘tkazish tizimining keng yo‘lga qo‘yilmaganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tizimli o‘qitish o‘quvchida muayyan bilim va ko‘nikmalarni faol rivojlantirish orqali ta’lim oluvchi tomonidan aniq bilim va ko‘nikmalarni hamda xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Shu bois o‘quvchi faolligini rivojlantirish va uni ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlash – uzluksiz musiqiy ta’lim samaradorligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Oliy musiqiy ta’lim va pedagogik amaliyot mazmunini integratsiyalash bugungi kunning muhim talablaridan biri bo‘lib, uni amalga oshirish orqali ta’lim tizimi yangicha mazmun, tamoyillar, didaktik birliklar, qarashlar, yondashuvlarga ega bo‘ladi.

Jahondagi ko‘pgina davlatlar ta’lim tizimi integrallashgan kurslarni o‘rganishga asoslanadi. Masalan, Avstraliya, Shimoliy Irlandiya, Yaponiya, Angliya, Gong-Kong, Uels davlatlarida integrallashgan fanlar joriy etilgan bo‘lsa, Koreya, Shvesiyada integrallashgan fanlar bilan bir qatorda alohida fanlar ham o‘rgatiladi;





Vengriya, Niderlandiya, Irlandiyada integrallashgan fanlar bilan birga madaniy fan yo‘nalishlari ham o‘zlashtiriladi.

80-yillardan boshlab yaqin xorijda integratsiya muammolari keng tadqiq qilinib, fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. M.A.Rozov, N.K.Chapaev, B.M.Kedrov, P.M.Erdniev, V.V.Anisiev, M.G.Chepikov N.N.Shatrova, O.A.Manasikov ishlarida integratsiya tushunchasining kelib chiqishi, uning falsafiy negizi va zamonaviy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Bilimlarni integratsiya etishning metodologik asosi sifatida falsafaning umumiy bog‘lanishlar va o‘zaro aloqadorlik, butun va ulush, tizim kabi kategoriyalari asos bo‘lib xizmat qiladi. Bilish nazariyasining butun, yaxlit tuzilma haqidagi qarashlari bilimlarni integratsiya qilishning psixologix asoslari bo‘lib, insonning atrof-muhit, borliq bilan o‘zaro ta’siri, aloqalarini chuqurligi va kengligini, borliqni o‘rganish va tahlil etishda umumiy yondashuv, yaxlit tasavvur hosil etishni ta’minlaydi.

Musiqa ta’limida integratsiyani amalga oshirish uning nazariy asoslarini o‘rganib, ishlab chiqishgina yetarli bo‘lmay, shuningdek, tashkiliy va amaliy pedagogik shart-sharoitlari kompleks ta’minlangandagina o‘z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ma’murov B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari. –T.:Fan, 2008. 80-b

2. Sattorov Z., Inoyatov U., Yusupov R. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish (Uslubiy qo‘llanma).-T.: UMKXTM, 2001.-43 b.





YUNUSQORI YUSUPOV IJRO YO‘LI VA BASTAKORLIK IJODI

Umidjon TUROPOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: **Nabijon QODIROV,**
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI dotsenti.

Annotatsiya: San’atimiz tarixida yashab ijod etgan buyuk ustozlar hayoti va ijodiy merosini o‘rganish har bir yosh ijodkorning oldida turgan dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada milliy san’atimiz rivoji uchun umrini bag‘ishlagan ijodkorlardan biri, Andijon ijrochilik maktabining yorqin namoyandalaridan hisoblangan Yusunqori Yusupov ijrosi va ijodi haqida fikr yuritiladi. Ularning qoldirgan ijodiy merosi o‘rganilib, bugungi kunda yetishib kelayotgan yosh ijrochi xonanda va sozandalarga o‘rnak sifatida ko‘rsatilishi ustida ilmiy va ijodiy ishlar olib borildi. Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanish va tadqiqotlar davomida ko‘plab ustoz xonanda va sozandalar, soha bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan ijodkor va ijrochilar bilan suhbatlar tashkil etildi. Ulardan olingan zarur tavsiya va takliflardan unumli foydalanildi.

Kalit so‘zlar: mumtoz musiqa, xonanda, ovoz, hamnafaslik, mahoratli ijodkor.

Abstract: Studying the life and creative heritage of the great masters who lived and created in the history of our art is one of the urgent tasks facing every young artist. In particular, in this article, one of the creators who devoted his life to the development of our national art, Yusunqori Yusupov, who is considered one of the brightest representatives of the Andijan performing arts school, discussed the performance and creativity. Scientific and creative works were carried out to study their creative heritage and show it as an example to young performing singers and musicians who are growing up today. During the research and studies conducted on the article, interviews were organized with many master singers and musicians, creators and performers who are specialists in the field.





Key words: classical music, singer, voice, harmony, skilled artist.

Millatimizning boy musiqiy merosini o‘rganish va uni xalq orasida targ‘ibotini oshirish san’atimizning fidoiy vakillarining hozirgi kundagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mumtoz musiqa san’atimiz so‘nggi yillarda yanada qadr topmoqda va rivojlanmoqda. Uzoq o‘tmishga borib taqalgan buyuk san’atimiz tarixida o‘zidan munosib iz qoldirgan beqiyos iste’dod sohiblari talaygina. San’atimizning bugungi kunga qadar zavol topmay yetib kelishida ko‘plab san’at fidokorlarining muhim o‘rni bor. Ana shunday soha qahramonlaridan biri, Andijon ijrochilik maktabining yorqin namoyandasi, o‘zining qisqa hayoti davomida o‘zbek milliy musiqa san’ati rivojiga barakali hissa qo‘shib, tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirgan sehrli ovoz sohibi va betakror g‘ijjakchi Yunusqori Yusupovdir.

Yunusqori Yusupov o‘z zamonasida nomi chiqqan sozanda va xonanda sifatida tanilgan. U o‘zining dardli ovozi bilan muxlislarining qalbini zabt eta olgan ijodkor bo‘lgan. Sozandalikda ham o‘z uslubini yaratgan. Davralarda uning kuylari tinglovchilar qalbini hayajonga to‘ldirgan. Qisqagina hayot davomida ham o‘zining chin san’at uchun tug‘ilgan inson ekanligini isbotlab keta olgan ijodkor ekanligini u qoldirgan ijodiy merosni ko‘rgan har bir inson beixtiyor his etadi. Yunusqori Yusupov sozandalikda ham yuqori mahorat sohibi bo‘lganlar. Ularning bir umrlik hamrohi bo‘lgan deb g‘ijjak cholg‘usini aytishimiz mumkin. Milliy cholg‘ularimiz orasida o‘zining yurakni hayajonga soluvchi shirali ovozi bilan ajralib turuvchi g‘ijjak cholg‘usi Yunusqori Yusupovning qo‘lida o‘zgacha yangragan. Sehrli nolalar tinglovchini mast etgan. Yunusqori Yusupov o‘zining takrorlanmas ijrochilik san’ati bilan milliy ijrochiligimizga ko‘plab yangiliklar olib kirgan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Yunusqori Yusupov g‘ijjak cholg‘usida surnay yo‘llarini nihoyatda yuqori mahorat bilan ijro qilganlar. Surnay cholg‘usida ishlatiladigan ijro bezaklaridan mohirlik bilan foydalanib, ayrim tovushlarni qo‘sh torda ijro etib, aynan surnay ovozidek tovush hosil qila olganlar. Katta ashula ijrochiligini esa xonandalikda ishlatiladigan ijro bezaklari, dinamika va hattoki nafas olish qonun-qoidalariga ham amal qilgan holda g‘ijjak sozida ijro etishni uddalaganlar. Bunga misol tariqasida, “Oltin fondi” xazinasidan o‘rin olgan surnay yo‘llaridan “Surnay Dashtnavosi” va





“Guluzorim qani” nomli katta ashulani fikrimizning isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Qolaversa, Yunusqori Yusupov g‘ijjak cholg‘usida karnayning, turli hayvonlarning va qushlarning ovozi ham o‘xshata olgan.

Yunusqori Yusupovning bastalagan asarlarini tinglaganda, uning nozik didli bastakor bo‘lganliklariga amin bo‘lamiz. Uning asarlarida tabiiylik va insonga xush yoquvchi ajib harorat ufurib turadi. Asarlar o‘zining xalqchilligi va mukammalligi bilan tinglovchini o‘ziga jalb etadi. Yunusqori Yusupovning “Kelibdur”, “Sozandalar madhi”, “Yaxshi”, “Mubtalo etdi”, “Bilmasang bilgin”, “Davron taronasi”, “Mirzacho‘l qizlari”, “Samarqand”, “Diyorim mening”, “Jononim kelib” kabi ashulalari xalq orasida anchagina mashhurlikka erishgan. Yunusqori Yusupovning bastakorlik ijodi yuqori darajada bo‘lib, maqom pardalaridan ham mohirona foydalangan. Yunusqori Yusupov yaratgan asarlarni tinglaganda Navo va Dugoh maqomlaridan olingan andozalarni ham sezishimiz mumkin. Xususan, “Kelibdur” ashulasida Dugoh maqomiga xos nola va qochirimlar namoyon bo‘ladi. Asliga nazar solsak ham, o‘z zamonasining yetuk bastakorlari maqomlardan o‘z asarlari uchun andozalar olishgan. Yunusqori Yusupov ham ana shunday ijodkorlardan bo‘lgan. Quyida Habibiy g‘azali bilan Yunusqori Yusupov tomonidan ijro qilingan “Sozandalar madhi” asari xususida biroz to‘xtalsak: asar 2/4 o‘lchovi bilan Fa minor tonalligida ijro etilgan. Asar “Sozandalar madhi” deb nomlanib, shu mavzuda yozilgan. Asarda kuyning tinglovchi qalbini goh quvonchli, gohi qayg‘uli hissiyotlarga to‘ldirishi, eshituvchining yuragiga hayajon solishi, orom va zavq ulashishi haqida mavzu boradi. Asar tarkibi uch qismdan tashkil topgan deyishimiz mumkin. Asar qisqa cholg‘u muqaddima bilan boshlanadi. Birinchi qism bosh qism bo‘lib, bunda xonanda nozik nafasi va o‘zgaruvchan nag‘malari bilan muhlisni o‘ziga qaratadi. Ikkinchi va uchinchi qismlar bir xil shakldan tashkil topgan bo‘lib, bu qismlar o‘rta pardalarda boshlanadi. Keyin avj pardalarga ko‘tariladi. So‘nggi xati tushirim qismi sifatida yakunlanadi. Asar o‘ziga xos yondashuvda yaratilgan bo‘lib, asar pardalari o‘zgaruvchan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Asarning tinglovchiga tezda xush yoqishi, xonanda ovozidagi mung va ajib jozibadan desak adashmagan bo‘lamiz nazdimda.





Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Yunusqori Yusupovning bastakor bo‘lib tarbiyalanib shakllanishlarida asosiy ta’sir ko‘rsatgan omil bu, albatta, ularning shakllangan Andijon ijrochilik maktabidir. Andijon ijrochilik va ijodkorlik maktabida Yunusqori Yusupovdan avval kamol topgan ijrochilarda bastakorlik san’atiga bo‘lgan qiziqish va havas, ularda bastakorlik shakllanishiga turtki bo‘lgan. Shuning uchun ushbu maktabning munosib davomchilaridan bo‘lgan Yunusqori Yusupovda ham bastakorlik san’atining xususiyatlari tabiiy ravishda rivoj topgan va shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2001.
2. N.Qodirov. G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar (Yunusqori Yusupov). – Toshkent, 2016.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2000-2005
4. Ayxodjayeva Sh., Ch.Ergasheva., A.Zokirov. O‘zbek musiqasi tarixi. - Toshkent, 2021.





MAQOM XONANDALIGIDA OVOZNI TARBIYALASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

To‘lqin ELMURODOV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti.*

Ilmiy rahbar: Nodira PIRMATOVA

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: *Maqolada ovozni yo‘lga qo‘yish va tarbiyalash, ijrochi ovozining har tomonlama ma’noli bo‘lishi uchun ichki kechinmalari, kayfiyati, ruhiyati va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan pedagogik-psixologik muammolar xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *xonanda, diapazon, primar, foniator, tenor, mumtoz, ijrochi, parda, ovoz tembri, kayfiyat, ruhiyat, tarbiyaviy ta’sir.*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические и психологические проблемы, тесно связанные с развитием и воспитанием голоса, внутренними переживаниями, настроением, психикой и мировоззрением голоса исполнителя с целью придания ему осмысленности во всех аспектах.*

Ключевые слова: *певец, диапазон, основной, фонатор, тенор, классика, исполнитель, высота звука, тембр, настроение, психика, воспитательное воздействие.*

Abstract: *The article examines pedagogical and psychological problems closely related to the development and education of the voice, internal experiences, mood, psyche and worldview of the performer’s voice in order to give it meaning in all aspects.*

Key words: *singer, range, main, phonator, tenor, classic, performer, pitch, timbre, mood, psyche, educational impact.*

Qo‘shiq kuylash uslubi yillar davomida bir necha avlod xonandalarining (har bir vohada qo‘shiq aytishning o‘ziga xos uslubi yo‘llari bor) individual tajribasi asosida yuzaga keldi. Qo‘shiq kuylash





- bu inson tanasi uchun murakkab, tizimli jarayon bo‘lib, u insonning yuqori asabiy faoliyati bilan boshqariladi.

Tajribalardan ma’lumki, ovozni yo‘lga qo‘yish uchun turli xildagi ovoz mashqlarini uzoq vaqt davomida bajarishga to‘g‘ri keladi. Mashqlar esa u yoki bu xildagi ovozlarning kamchiliklariga qarab tanlanadi. Bunda o‘qituvchi talaba ovozidagi kamchilikni aniq eshitishi, uning xatosini talabaga o‘z ovozi orqali ko‘rsata bilishi va shundan so‘ng bu xatoni tuzatib, qaytadan talabaga kuylab ko‘rsatishi zarur. “U yerida bunday qilyapsiz, bu yerida boshqacha bo‘lyapti-ku?” degan umumiy gaplar hech qachon ijobiy natija bermaydi. Talaba o‘z xatosini o‘z qulog‘i bilan eshitsa va uning tuzatilgan yo‘lini o‘qituvchi ijrosidan anglasa, maqsadga muvofiqdir.

Ovozni yo‘lga qo‘yishning asosiy vazifasi talabalar ovozini ilk mashg‘ulotlardan boshlab kuylashga moslashtirirish va ovoz apparatini bosqichma-bosqich ijodiy jarayonga singdirib borishdan iboratdir. Ovozni yo‘lga qo‘yish jarayonida har bir talaba bilan individual, ya’ni talabaning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda yakka tarzda dars o‘tilishi maqsadga muvofiqdir.

An’anaviy xonandalikda ovozni yo‘lga qo‘yish darslari kunning birinchi yarmida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Chunki, talaba kunning ikkinchi yarmida guruhli saboqlardan so‘ng toliqqan bo‘lishi mumkin. Talabaning jismoniy baquvvatligi, salomatligining yaxshi darajada bo‘lishi, qolaversa, kayfiyati darslarning yaxshi natijalar berishiga kafolatdir. Ovozni sozlash mashqlarini talaba ovozining o‘rta qismidan (registr yoki diapazon) boshlagan ma’qul. Ba’zida bu pardalar baland yoki past bo‘lishi mumkin. Ovozning o‘rta qismidagi jarangli pardalarni topgandan so‘ng bu pardalarni yuqori va pastga qarab juda ehtiyotkorlik bilan yoyib borish kerak. Agar bu qoidaga amal qilinib borilsa, vaqt o‘tgan sayin talaba xonanda ovozida ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Xonanda talabalarning ovozlari primall (snoskada izoh berish zarur) parda bo‘ladi. Bu parda odatda hech qanday qiyinchiliksiz jaranglaydigan bo‘ladi. Bu primall prardalarni kuylash uchun unli xarflardan foydalaniladi. Bular asosan: “a”, “o” unlilaridir. Ammo, ba’zida juda kamdan-kam “e”, “i” unlilaridan ham foydalaniladi. Bunga sabab ovozni yo‘lga qo‘yish uchun boshlang‘ich darsga kelgan talabalar ovozlari ko‘krak registrida yaxshi jaranglasa, ba’zilarining bosh registrida yaxshi jaranglaydi. Ko‘krak registrida





yaxshi jaranglaydigan talaba uchun primal zonaning xarfi “e”, bosh registri yaxshi jaranglaydigan talaba uchun “a” yoki “o” xarflari qulaydir. Bu qilinayotgan harakat va mashqlar albatta boshlang‘ich darslar uchundir. Chunki talabaning hadeb ko‘krak registri yoki bosh registrida kuylayverishi qoidaga xilof bo‘lib, kelajakda uning ijrosiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aslida hamma yo‘nalishdagi xonandaliklar kabi an’anaviy xonandalikda ham hamma registrlarning: pastki, o‘rta va yuqori registrlarning aralashgan bo‘lishi yaxshi sanaladi. Shuning uchun ham talabada o‘rta yoki bosh registrlar bir-biridan ajralgan holda jaranglasa, bu holat ijrochilik qoidalariga xilof bo‘ladi. Mukammal ovoz sohibi bo‘lgan xonandada nafasni to‘g‘ri olish, uni to‘g‘ri tejab sarflash, undosh xarflarni burro-burro aytish, ashuladagi hamma musiqiy jummalarning bir-biriga nisbatan tekis va ravon jaranglashiga erishish har bir ashula ma’nosiga qarab mukammal badiiy obraz yaratish qonun-qoidalari mujassam bo‘ladi. Bunday mukammal ovozning yuzaga kelishiga uzoq yillik tinimsiz izlanish, ulug‘ ustozlar rahnamoligida ovozni ma’lum mashqlar yordamida sayqallantirish, tinmasdan she’rlar mutolaa qilib, ashulalar o‘rganish sababdir.

An’anaviy ijrochilikda xonandalar ijro etgan ashulalarning tinglovchilar ruhiyatiga har tomonlama hissiy ta’siri juda kattadir. Bunga sabab, ohangning so‘zlar bilan bevosita bog‘liqligi va xonanda tanasidagi ovoz hosil qiluvchi apparat jonli musiqa asbobi ekanligidadir. Shuning uchun ham xonanda-ijrochi o‘zining ichki his tuyg‘ularini tinglovchilarga izhor qilishi uchun cholg‘uchilarga o‘xshab musiqa asbobiga muhtoj emas. Uning musiqiy asbobi o‘z tanasidagi ovoz hosil qiluvchi jonli organi bo‘lib, xonanda ashula ijro etayotganda bu organ emotsional fiziologik funksiyalarni bajaradi. Xonanda ijrochi ovozining chuqur va har tomonlama ma’noli bo‘lishi uchun ichki kechinmalari, kayfiyati, ruhiyati va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir

Yosh xonandaning har tomonlama shakllanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib uning ijro texnikasi bilan qurollanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xonandani kelajagi ko‘p jihatdan yaxshi bilim olgani va kuylash jarayoniga to‘g‘ri munosabatda bo‘lganiga bog‘liqdir.





Inson ovozi - tabiatning eng noyob sozidir. Insonning ovoz apparati o‘ziga xos murakkab musiqa asbobi bo‘lib, u o‘zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqani ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan barcha musiqa asboblardan ustun turadi. Shu bois unga bo‘lgan cheksiz qiziqish, uni o‘rganish ko‘plab vokal mutaxassislarini, musiqa nazariyotchilarini, olimlarni o‘ziga jalb etib, turli baxs-munozarlarga, ko‘plab risolalarning yaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Vokal o‘qituvchilari yigit va qizlarning ovoz imkoniyatlari haqida mukammal bilimga ega bo‘lishlari shart. Talabada xonandalik ovozini tarbiyalashda bir qator metodik qo‘llanmalarga amal qilish kerak. Ularga vokal kuylash ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda avval ovoz apparati tuzilishi haqida tushuncha berib o‘tish juda muhimdir.

Tovushni hosil bo‘lishida inson organizmining bir qator organlari: og‘iz, burun bo‘shlig‘i, tovush paychalari, halqum, bronx, o‘pka, nafas mushaklari, diafragma ishtirok etadi. Ovoz hosil qilishda yuqorida aytib o‘tilgan a‘zolar asab tizimining buyrug‘ini bajaradilar. Qo‘shiq aytish jarayonida ular bir organizmda birlashadilar. O‘qituvchi birinchi darslardan talabani tabiatan qanday nafas olishini kuzatishi va o‘rgatishi bilan bir qatorda, talabaga bir qancha mashqlar orqali xonandalik nafas turlarini ko‘rsatishi zarur. Tovush hosil qilishda nafas olish naycha yo‘llari, burun bo‘shliqlari, artikulyatsiya, bo‘g‘iz, rezonator va bir qator mushaklar qatnashishi, erkin kuylashga o‘rgatishda paychalar to‘g‘ri kuchlanishi va bo‘g‘izni siqmaslik holatlari tushuntirib boriladi. Tovushni to‘g‘ri hosil etishda meyordan ortiq nafas olmaslik, yetarlicha nafas olmasdan kuylamaslik, tovush atakasida hosil bo‘lgan hisni keyingi jumlagacha o‘tguncha saqlab qolish asosiy shartlardan biri ekanligi uqtirib borilishi kerak. Ovozlar aniqlanayotganda bir qator belgilarga, ya‘ni: diapazon, tembr, ovoz apparatini anatomik-fiziologik holati, o‘tkinchi notalarga e‘tibor berish zarur.

Ovoz sozlash jarayoni talabalar ovozini rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan hisoblanib, unda foydalaniladigan mashqlarda qat‘iy ketma-ketlik qonuniyatga rioya qilish zarur. Talaba mashqlarni kuylayotgan vaqtda tomoq erkin va siqilmasligi kerak. Barcha ovozlariga dastlab o‘rta registrda kuylash tavsiya qilinadi. Masalan, yumuq ovoz bilan kichik mashqlarni xromatik intervallar bo‘yicha





yuqori va pastga kuylash, unli tovush mashqidan unli va undosh tovushli mashqgacha kuylash, sekin tempdan-tez tempgacha bo‘lgan mashqlarini kuylash o‘rgatiladi. Har bir mashqlar orasidagi vaqt interval imkon qadar kengroq bo‘lishi va ularni kuylash davomida tovushning to‘g‘ri hosil bo‘lishiga, intonatsion tiniqligiga, nafasni to‘g‘ri olib uni taqsimlanishiga talabani shoshtirmasdan o‘rgatib borish zarur. Talabalarga *legatoda* ya’ni jumlar, bog‘inlarni bog‘lab kuylashni o‘rgatish lozim. Ular vokal san’atini asosi bo‘lmish *kantilenada* kuylash – eng muhim jihat ekanligini tushunib yetishlari kerak.

Vokal jarangi ifodaliligi, tovush sifati vokal-texnik ko‘nikmalar: nafasni rezonatorlar ishi, talaffuz apparatini egallashga bog‘liq. Biroq texnik ko‘nikmalarni shakllantirish emotsional yo‘nalish va badiiy ifodalilik bilan birga olib borilishi lozim.

Talabalarga xonandalik malakalarini egallashda va ayniqsa musiqiy asarlarning yuqori notalarini ijrosida “niqob”da kuylashni o‘zlashtirib olishlariga katta e’tibor berilish lozim. Esnashni sezish hissi bo‘g‘izni mushak siqilishidan xolos etishga ko‘maklashadi. O‘qituvchi to‘g‘ri nafas olish, tovushni to‘g‘ri hosil etish haqida umumiy tushunchalarini talabalarga yetkazish bilan bir vaqtda, ularning ovozini zo‘riqishdan asrashga alohida e’tibor qaratishi lozim. Ijro uchun tanlangan mashqlar imkon qadar faqat o‘rta diapazonda bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, talaba asarni yaxshi o‘zlashtirib olgach, asardagi *dinamik tuslar* ustida ish olib borilishi mumkin. Asarlar ustida ishlash yoki o‘rganish jarayonida albatta uni *tempiga* qarab, holatga kirishib kuylash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xonandalik san’ati. Jahon va o‘zbek milliy an’analari. – T.: San’at, 2009. – 248 b.
2. Азимова А. Традиционный музыкальный язык узбекского, каракалпакского и уйгурского народов. – Ташкент, 2008. – 161 с.





SHASHMAQOMNING RIVOJIDA YUNUS RAJABIY NOMIDAGI MAQOM ANSAMBLINING O‘RNI

Vasilisa NAYPAK,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Ilyos ARABOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: *O‘zbek milliy mumtoz merosi va musiqasi bo‘lmish Shashmaqom, azal azaldan xalqimizda an’ana bolib shakillanib kelmoqda. Shashmaqomning shakillanishida hamda saqlanib to shu kungacha ijro amaliyotida qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan ko‘plab ustozlarni hissa qo‘shganidadir. Maqomlarning rivojida maqom ansambillarining faoliyati ham kiradi, shu o‘rinda aynan Akademik Yunus Rajabiy tomonidan tashkil qilingan Maqom ansambili misol bo‘la oladi. Maqoladagi asosiy mazmun mohiyati aynan Maqom ansambili tarixi, taraqqiyot yo‘li hamda faoliyati atroflicha yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *Shashmaqom, tarix, tahlil, ijro, ohang, ustoz, moslashuv, ansambl, targ‘ib, taraqqiyot.*

Mustaqil yurtimizda ilm-fan, iqtisod-siyosat, sport, zamonaviy sohalar hamda texnologiyalar keskin rivojlangan asrda yashab kelmoqdamiz. Zamon talabiga ko‘ra barcha sohalarda texnologiya o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmayabti. Shu nuqtai nazardan yurtimizda ham musiqa madaniyatida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan, jumladan, jaxon musiqalaridan klassika, estrada, vokal, jaz, rok, pop va zamonaviy elektron musiqalar kundan-kunga xalqimizning madaniyati orasiga kirayogan bir payitda o‘zbek milliy musiqa san’atiga juda katta e’tibor berilmoqda. Xozirgi kunda o‘zbek maqomlarini rivojlantirish darajasi davlat siyosati darajasigacha chiqdi, bunga sabab Yurtboshimizning o‘zbek maqom san’atiga bo‘lgan hurmat hamda yurtimizda milliy maqom san’ati, milliy musiqa merosini xalqqa, ayniqsa kelajak avlodni ma’naviy yuksaltirish masalasi jiddiy inobatga olingan holda rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganidek “Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan





milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohiga muhim o‘rin egallaydi. Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashshaqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuxrat va e’tibor qozongan” deb maqom san’atini yanada nufuzini oshirdi³⁹.

O‘zbek milliy musiqasi bo‘lmish maqomlar uzoq tarixdan to hozirgi kunga qadar etib kelishida ko‘plab turtkilarga, turli shart-sharoitlarda sayqallanib buyuk ustozlar, bastakorlar xonandayu-sozandalarni hissasi bo‘lganligi tufayli gullab yashnamoqda. Maqomlarni rivojlanish tarixidan professor Ravshan Yunusovning “O‘zbek maqomlari” kitobida yozilishicha “O‘rta Osiyo xududida qariyb IX asrga qadar maqom atamasi qo‘llanilmagan ekan. Ammo shu asosda bu erlarda rivojlangan shakillardagi aytim va cholg‘u kuy namunalari bo‘lmagan deyishga asos yo‘q. Negaki saroy musiqasi, zodagonlar musiqa hayoti, qolaversa zardushtiylik dini marosimlarida musiqa mavjudligi to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar ko‘p”⁴⁰ deyilgan. Demak maqomlar azal-azaldan xon saroylarda ijro qilingan, oddiy xalq esa bundan mustasno bo‘lgan va “ustoz-shogird” og‘izaki an’anasi tarzda ijro qilinib kelingan. Bunda maqom ijrolarini ansambl bo‘lib ijro qilishlari maqom rivojlanishiga sababchi bo‘lgan. Ansambl (Fransuzcha ensemble – birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik) ma’nosini bildiradi. Ansambl so‘zi yurtimizga XIX asr oxiri XX asr boshlarida kirib kelgan bo‘lib, xalqimiz to shu vaqtga qadar asosan jo‘rnavoz (Buxoro va uning atroflarida jo‘rnavoz) atamalarini qo‘llab kelishgan. O‘sha davrlarda xonandalarning ko‘payib borishida va ularga musiqiy jo‘rlikdagi cholg‘ularning birin-ketin qo‘shilib borishidagi ijroga (jo‘rnavoz) ya’ni (ansambl) deb yuritilishi o‘sha davrlardan kelib shiqqan. Tarixiy manbalarda “O‘n ikki maqom” bo‘lganligi va keyinchalik uning asosida “Shashmaqom” yuzaga keldganligi haqida kitoblarda keltirilgan. “Shashmaqom”ni bus-butunligicha saqlab qolishida o‘zlarining ulkan xissasini qo‘shgan ustozlar, ya’ni “Maqom ansambili” sozandalari va xonandalari xaqida so‘z yurutsak. O‘zbek

39LEX.UZ <https://lex.uz> 2017-yil 17-noyabr PQ-3391-son

40 Ravshan Yunusov “O‘zbek maqomlari” – Toshkent, 16-bet.





maqom san’atining keng ommaga etkazish, o‘rganish va o‘zlashtirish, maqom cholg‘u va ashula yo‘llarini jonli ijroda targ‘ib qiluvchi ma’lum bir gurux zarur bo‘lgan bir davrda, ushbu sharaflı ish ijrochilik, tashkilotchilik va ansambllar raxbarligidagi ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan buyuk inson, bastakor, sozanda, xonanda, tashkilotchi va folklorshunos, akademik Yunus Rajabiy ansamblni tashkillashga kirishadi. XX asrga kelib, maqom ansambli yanada qayta tiklana boshladi.

1927-yilda Toshkent Radio eshittirish komiteti huzurida ashula-cholg‘u ansambilini tashkil qilishga qaror qildi. Yunus Rajbiy Shoraxm Shoumarov, Rizqi Rajabiy, Imomjon Ikromov singari etuk sozanda va xonandalardan iborat o‘n ikki kishilik ansambl tuzdi. 30-yillarga kelib ansambl tarkibida 40 ta ijrochi faoliyat olib bordi va (Milliy ansambl nomi bilan yuritilgan). Milliy ansambl ijro repertuarida “Shashmaqom” va “Farg‘ona-Toshkent maqom”larining ayrim sho‘balari, mumtoz cholg‘u va ashula yo‘llari, xalq qo‘shiqdari, o‘zbek bastakorlari asarlari o‘rin olgan edi. 36-yilga kelib ansambl soni 90gacha etgandi va ushbu ansambl 1937-yili Moskvadagi birinchi o‘zbek san’ati dekadasida faol qatnashdi.⁴¹ Maqom ansamili shu darajada shakillandiki hatto boshqa millatlarning cholg‘ularidanxam foydalana boshladi, Radio ansambili simfonik orkestorlari cholg‘ulari xisobidan kengaydi va shu tufayli zamonga xos va mos xolatda yuritila boshlandi. 1947-1952-yillari ansambl, keyinchalik “O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri” nomi bilan ish yuritishni boshlaydi. O‘sha davirlarda orkestrda etuk sozanda va xonandalar ushbu orkestrda faoliyat yuritgan, bulardan: Mamadaziz Niyozov, Berta Dovidova, Zaynab Polvonova, Boboxon va Akmalxon Sufixonovalar, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jaev, Nabijon Xasanov, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Ayub Qodirov, Sayidjon Kalonov, G‘anijon Toshmatov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Jo‘rabek Saidaliyev, Rena Galibova, Ma‘rufxo‘ja Bahodirov, Dadaali Soatqulov, Doni Zokirov, To‘lqin Toshmatov, Xayri Izomov(Drijor sifatida) ansamblga jalb qilingan. O‘rganishlar davomida orkestr faoliyatidagi bir xolat juda ta‘jublidir. Keyinchalik Orkestr faoliyati to‘xtatildi ammo 1957-yilning may oyida Yunus Rajabiy rahbarligida

⁴¹Soibjon Begmatov “Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambiling 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan Maqolalar to‘plami”- Toshkent 2019 56-bet





radioning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri qaytadan tuzildi. Orkestda bosh dirijor Doni Zokirovni lavozimida orkestor ishini rivojlantirish ko‘zda tutildi. Qisqa vaqt ichida 23 nafar xonanda va sozandalar to‘plandi bulardan. 1957-yili “Maqom” ansamblini tuzish haqida fikrni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston radiosining raisi bilan kelishdi. 1959-yilida esa O‘zbekiston radiosi qoshida rasmiy tuzilgan “Maqomchilar ansambli” nomi bilan foliyat olib bordi. Birinchi yili ansambil tarkibida faoliyat ko‘rsatgan san‘atkorlar: xonandalardan; Karim Mo‘minov, Shokirjon Ergashev, Berta Dovidova, Klara Jalilova, Orif Alimxunov, Borux Zikriyev, sozandalardan; Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev (doira), Zokirjon Sodiqov (g‘ijjak), Erkin Yo‘ldoshev (tanbur), Ilhomjon To‘rayev (g‘ijjak), G‘ulomjon G‘afurov (g‘ijjak), Isxoq Qodirov (nay), Sayidazim Qudratillaev (tanbur), Orif Qoimov (dutor), Umarjon Otaev (qashqar rubobi) jalb qilindi. Ansamblda muntazam mashg‘ulotlar natijasida “Shashmaqom”ni tashkil etgan “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, va “Iroq”, maqom yo‘llarining ashulla yo‘llari to‘la-to‘kis o‘rganib, o‘zlashtirilib ijro etildi va yozib olindi. “Maqom” ansambili “Maqom kechalari” konsert dasturlari bilan “Shashmaqom”ni qaytadan tilga kiritdi va xalqimiz o‘zining bu o‘lmas madaniy-ma’naviy merosini qayta eshitishga muyassar bo‘ldi. Keyinchalikxam maqom ansambilida zabardast ustozlar beminnat xizmat qilib faoliyat olib borishdi. 1960-1964-yillari “Maqom” ansambili (badiy rahbari Yunus Rajabiy, Shashmaqom” turkumining maqom ashulla yo‘llarining barcha sho‘balari va ko‘pgina cholg‘u musiqa rahbari Faxriddin Sodiqov) Buxoro “Shashmaqomi” va Farg‘ona-Toshkent maqom yollarini mukammal o‘rganib, noyob uslublarini o‘zlashtirib bordi. O‘sha yillari “yo‘llari magnit tasmalari va grammafond plastinkalariga yozdirib, 22 gramplastinkadan iborat “Shashmaqom” audio yozuvlari chop etilib, tarqatildi.⁴² Yunus Rajabiy bastakorlik ijodiyoti bilanxam shug‘ullangan, barcha bastakorlik asrlarini to‘plab borgan ilk nashirdan chiqqan kitobi “O‘zbek xalq muzikasi” bo‘lgan uning o‘sha davrdagi izlanishlarida “musiqa merosimizga bir nazar” kitobida shunday degan “Men ham ko‘p yillardan beri o‘zbek xalq musiqa merosi durdonalarini

⁴²Soibjon Begmatov “Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambiling 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan Maqolalar to‘plami”- Toshkent 2019 18-bet.





to‘plab kelayotirman. O‘ttizinchi yillarda mashxur maqomdon ustozlar bilan uchrashib, ulardan maqom yollarini o‘rgana boshlaganimda menda bu ajoib asar namunalari notaga olish ishtiyoqi paydo bo‘lgan edi. Elliginchi yillarga kelib bu ishga jiddiy kirishdim, 1955-59 yillar davomida “O‘zbek xalq musiqasi” seriyasida besh jildlik kitobni nashrga tayorlab chop ettirdim. Uning beshinchi jildi “Shashmaqom”ga bag‘ishlagan edim”⁴³ deydi Yunus Rajabiy. 1966-1975- yillari “Shashmaqom”ning yangi nashri-olti tomdan iborat to‘plam noyob nashr sifatida taqdim etilib, unda “Shashmaqom”ning to‘liq turkumimidan tashqari “Farg‘ona-Toshkent maqomlari” xamda ayrim maqomlar asosida yaratilgan cholg‘u va ashula yo‘llari xam o‘rin olgan. Natijada maqom yo‘llari qaytadan notaga olinib “Shashmaqom” nomi bilan olti kitob xoliga keltirildi. Yunus Rajabiy rahbarligidagi ansambil jaxonshumul axamiyatga molik ilmiy-ijodiy Xalqaro anjumanlar konsert dasturlarida muvaffaqiyatli qatnashib keldi: YUNESKOning Xalqaro musiqa kengashining “Xalqlar musiqa madaniyati: an‘analari va zamonaviylik” mavzuyidagi VII kodressida (Moskva, 1971) maqom yo‘llaridan iborat katta ijro dasturini (maqom ashulla yo‘llari milliy raqs jo‘rligi bilan, “Baxor” raqs ansambili hamkorligida) dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan musiqa madaniyati arboblari tomonidan juda katta qiziqish bilan qarshi olingan. O‘sha yillar davomida Maqom ansambili nufuzli xalqaro tadbirlarda qatnashgan, jumladan; 1978-1983-1987-yillarda YUNESKO qoshidagi Xalqaro musiqa kengashining (ICM) Birinchi Ikkinchi Uchinchi Xalqaro musiqashunoslik simpo‘ziumi va an‘anaviy musiqa festivalida Samarqanda qatnashgan. Kuzatilgan ushbu davrda o‘zbek maqom san’atiga e’tibor kuchaydi 1975- yildan respublika miqyosida xavaskor maqom ansamblarning ko‘rik-tanlovlari, 1983-yildan maqom ijrochilari (1987-yildan “Xalqaro” mavqeyi berilishi. Xamda maqom ansambillari tanlovi qo‘shilishi, 1991-yildan (Yunus Rajabiy nomidagi) tanlovi, 1994-yildan o‘rta mahsus bilim yurtlari orasida an‘anaviy ijrochiligi bo‘yicha tanlovlari o‘tkazish an‘anaga aylandi.⁴⁴ Maqomlar

⁴³Yunus Rajabiy “Musiqa merosimizga bir nazar”- Toshkent 1978y 10-bet.

⁴⁴ Soibjon Begmatov “Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambiling 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan Maqolalar to‘plami”- Toshkent 2019 18-bet.





juddayam murrakkab musiqa turi bo‘lsada tarixdan sayqallanib turli uslublar va ijro an‘analari Ustoz sozanda va xonandalar tomonidan yaratilib kelindi. Maqom ansambili shakllanishida birqancha ustozlar jon kuydurib xizmat qilishgan, ularning alohida uslublariga egaligi kelajak avlodlarga katta musiqiy ilm bilm bo‘lib qoldi desam xechham mubolag‘a bo‘lmaydi. Maqom ansambili taraqqiyot yo‘lida ulkan xissa qo‘shgan ustoz san’atkorlar fidokorona xizmat qilib tariximizda o‘chmas iz qoldirishgan, bulardan: Turg‘un Alimatov, Fahriddin Sodiqov, Orif Alimaxsumov, Ochilxon Otaxonov, Eson Lutfullaev, Kommuna Ismoilova, Orifxon Xotamov, Mahmudjon Yo‘ldashev, Abdurahmon Xoltojiyev, Malika Ziyoyeva, Marg‘iloniy, Mahmudjon Tojiboev, Xurriyatxon Isroilova, Dadaxo‘ja Sottixo‘jaevlar. Shu o‘rinda ansambilni ansambil darajasiga olib chiqqan Yunus Rajabiy ansambilda faoliyat yuritgan ustozlarni birlashirib o‘zaro birgalikda ushbu merosni rivojlantirishgan va bu an‘anani keyinchalik moxir ustozlar raxbarlik qilib davom ettirishgan “Maqom” ansambilining 60 yillik faoliyatida raxbarlik qilgan san’atkorlar: Maqom ansambili asoschisi va badiiy raxbari Yunus Rajabiy (1958-1976); Orif Alimaqsumov (1976-1979), Shavkat Mirzaev (Muxamedov, 1979-1981), G‘anijon Toshmatov (1981-1982), Orif Alimaxsumov (1986-1989), Abduxoshim Ismoilov (1999-yildan xazirgacha); musiqa raxbari Faxriddin Sodiqov (1961-1976), Temur Maxmudov (1979-2002) va Abduraxmon Xoltojiyev (2002-yildan xozirgacha). Maqom ansamblining keyingi davrlarda boshqacha tarzda davom etdi keyingi yildagi yutuqlari xaqida aloxida so‘z yuritiladi. Maqola yakunida Yunus Rajabiyning “Men o‘z hayotimda ko‘plab ustoz san’atkorlar bilan uchrashganman. Ularning bir qanchalari bilan birga ishlaganimdan, hamnafas bo‘lganimdan mamnunman. Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla Toychi Toshmammedov, Domla Xalim Ibodov kabi mashhur maqomdon ustozlardan saboq olish bahtiga muyassar bo‘ldim. Shashmaqom san’atini mukammal o‘rganish hayotimning asosiy mazmuni bo‘ldi, unga butun kuch-quvvatimni bag‘ishladim,





desam mubolag‘a bo‘lmaydi.”⁴⁵Bu so‘zlaridan shuni anglash kerakki, nafaqat maqom ansambili balki butun bir Maqom olamini meros qilib qoldirgan buyuk inson bo‘lganliklarini tushunib etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yunus Rajabiy. Musiqa merosimizga bir nazar. Toshkent, 1978.
2. Yunus Rajabiy. “Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambilining 60-yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami”.
3. Yunusov R. “O‘zbek maqomlari”.
4. Soibjon Begmatov “Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambiling 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan Maqolalar to‘plami”- Toshkent 2019 18-bet.
- 5.

⁴⁵ Yunus Rajabiy “Musiqa merosimizga bir nazar”- Toshkent 1978 - y 12-bet.





**O‘ZBEK BASTAKORLIK IJODIYOTI: TURSUNBOY
JO‘RAYEV
(1952)**

*Behzodbek TURSUNBOYEV,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
2-bosqich magistranti, kompozitor.
Ilmiy rahbar: To‘xtasin G‘OFURBEKOV,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, mohir bastakor, sozanda (g‘ijjak), hofiz, ustoz-san’atkor Tursunboy Jo‘rayev to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Shuningdek, ijodkorning ijodiy uslubi, ijrochilik faoliyati yuzasidan atroflicha xususida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** bastakor, sozanda, hofiz, “Ustoz-shogird” maktabi, ijodiy uslub.*

***Аннотация:** В данной статье представлена информация о Турсунбой Джуроев, выдающемся артисте Узбекистана, искусном бастакоре, музыканте (гижжаке), хафизе, педагоге-художнике. Также подробно рассмотрен творческий стиль и исполнительская деятельность артиста.*

***Ключевые слова:** бастакор, музыкант, хафиз, школа “Учитель-ученик”, творческий стиль.*

***Abstract:** This article provides information about Tursunboy Jorayev, a distinguished artist of Uzbekistan, a skilled composer, musician (gijjak), hafiz, teacher-artist. Also, the artist’s creative style and performance activities are discussed in detail.*

***Key words:** bastakor, musician, hafiz, "Master-disciple" school, creative style.*

Ma‘lumki, XX asr o‘zbek bastakorlik ijodiyotiga nazar tashlar ekanmiz, bu davr xususida fikr yuritish uchun quyidagi ijodkorlarni nomlarini zikr etish darkor. Avvalambor bastakorlik ijodiyotida Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Matniyoz Xarratov, Komiljon Otaniyozov, Komiljon





Jabborov, Fahriddin Sodiqov, Imomjon Ikromov, Nabijon Xasanov, Saidjon Kalonov, Muhammadjon Mirzayev, G‘anijon Toshmatov, Xolxo‘ja To‘xtasinov, Salohiddin To‘xtasinov, Fattohxon Mamadaliyev, O‘lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Ahmadjon Dadayev kabi boshqa bastakorlar o‘zbek milliy musiqa san’atimiz sahifalarida o‘chmas iz qoldirdi. Ular yaratgan qo‘shiq, ashula, yalla, cholg‘u asarlari, musiqiy-sahnaviy janrlar (musiqali drama, musiqali komediya, opera, balet va hk.)ga qadar kabi musiqiy janrlarda barakali ijod qilishdi. Ularning musiqiy merosi hali ko‘p asrlar davomida milliy musiqa ihlosmandlariga ma‘naviy ozuqa bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi darg‘a-san’atkorlar qatorida bugungi kunda ham bastakorlikda ham cholg‘u ijrochiligida ham milliy musiqa san’atimiz namunalari shu bilan birga mualliflik asarlarining betakror ijrolari bilan bahramand qilib kelayotgan ijodkor O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a‘zosi, yetuk sozanda (g‘ijjak, dutor, tor, qashqar dutori, skripka, soz), xonanda va bastakor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Tursunboy Jo‘rayevning faoliyatini alohida ta’kidlash lozim.

Bugungi kunda globallashuv zamonida, milliy o‘zlikni anglash, asriy an‘analarni, musiqiy-meros namunalari yosh avlodga bezavol yetkazish musiqa san’ati ahlining muhim vazifalaridan biridir. Shu o‘rinda bastakor Tursunboy Jo‘rayevning bu boradagi ijodiy-ijrochilik faoliyati ana shu masalalar yuzasidan munosib yechim sifatida xizmat qiladi. Bastakorning hayot chiziqlariga razm tashlaydigan bo‘lsak, 1952-yilning 17-may sanasida Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh shahrida san’at arbobi Jo‘raboyhoji Yo‘ldashev va Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan artist Risolatxon Urunova oilasida dunyoga keldi. [1, 126s.]

Bastakor T.Jo‘rayevning katta san’at yo‘liga kirib kelishi borasidagi xotiralaridan birida shunday deydi: “Bizni katta san’atga Alloh rahmat qilsin otamiz Jo‘raboy Yo‘ldoshev, G‘anijon aka Toshmatov shu ustozlarimiz olib kelganlar”- deb xotirlaydi. U 1960-yilda O‘sh shahridagi bolalar musiqa maktabining skripka sinfida o‘qidi. 1967-yildan musiqa bilim yurtida g‘ijjak cholg‘u sozi bo‘yicha tahsil olgan. 1971-yil Konservatoriyani muvaffaqiyatli tamomlagan. Uning mehnat faoliyati 1968-yilda Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi akademik musiqali





drama teatrida sozanda sifatida faoliyatini boshlagan. 1976-yilda Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambliga sozanda sifatida qabul qilingan. Bastakor 1989-yilda O‘zbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasiga qabul qilinadi.

T.Jo‘rayevning ijodiy merosida 100 dan ortiq rango-rang dilrabo qo‘shiq, kuy va yallalarni tashkil etadi. Ijodkor o‘zbek qo‘shiqchilik va ijrochilik san’ati rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan zamondosh san’atkorlarimizdan biridir.

Bastakorning “Ayyomingiz muborak”, “Go‘zal muhabbat”, “Vatandir bu”, “O‘zbek tilim”, “Ming chinor”, “Salom Navro‘z”, “Istiqlol”, “Qalbimdasan”, “Zeboni ko‘ring”, “Himmat bo‘lmasa”, “Bu bog‘dan yor o‘tdimu?” kabi qo‘shiq-ashulalari, “Chorvador”, “Muhabbat kuyida”, “Mahliyolik”, “Yuzda xoling”, “Hijron sog‘inchi”, “Seni izlab”, “Yigitlig‘da”, “Muxtasar”, “Yor visoli”, “Qadrini bilgin”, “Intizorman yo‘lingga”, “Shirin umidlar nolasi”, “Sabo bilan”, “Hayol”, “Otani e‘zozlagin”, “Go‘zal”, “Qaydasan”, “Go‘zal oqshom”, “Sening hayoling”, “Yuzing charosga o‘xshar” kabi soatlab yangraydigan cholg‘u kuylari magnit lentalarida yozilgan yozuvlar O‘zbekiston radio uyining “Oltin fondi”dan munosib o‘rin egallagan.

Uning qo‘shiq-ashulalarini O‘zbekiston xalq artistlari Matluba Dadaboyeva (“O‘zbekistonim desam” Habibiy she‘ri, “Gulzorga kirdim”, Shukurullo she‘ri), Zamira Suyunova (“Chamanzor diyorum”, Mahbuba Rahim qizi she‘ri), Xuriyat Isroilova (“Kechirmas” Haydar Yahyo she‘ri, “Gulzorga kirdim” Shukurullo she‘ri), Mahmud Yo‘ldoshev (“Muhabbat kuyida” O‘tkir Rashid she‘ri), Komuna Ismoilova (“Ayyomingiz muborak” Habibiy she‘ri), Orif Alimaxsumov (“Sharafli shaningga” Turob To‘la she‘ri), Xadya Yusupova (“Ayrilmag‘ay” Bobur g‘azali), Tavakkal Qodirov (“Zeboni ko‘ring” Jumaniyoz Jabborov she‘ri), Tolibjon Badinov (“Cho‘pon bo‘l” Berdimurat g‘azali), Ochilxon Otaxonov (“Ey ko‘zi shahlo” Habibiy she‘ri), Rasuljon Urayimjonov (“Ko‘rishgandan beri” Nasimiy g‘azali), Kamoliddin Rahimov (“Va‘da berib” Habib Sa‘dulla she‘ri), Komiljon Baratov (“O‘tar ketar” O‘tkir Rashid she‘ri), Oysara Imomova (“Qo‘l uzatsam” Qadam Saidmurotov she‘ri, “Istadim” Abdunabi Nabiyev she‘ri), Samida Xolmetova (“Alla” Tursunboy Jo‘rayev she‘ri va musiqasi), Maryam Sattorova (xalq termalaridan “Fig‘onim mani”), Abdulla Qurbonov (“Zebo ekan yuzlari” Chustiy g‘azali) va Yunus





Rajabiy nomidagi maqom ansambli xonandalari mahorat bilan ijro qilgan.

Qo‘shiq janrida ijod qilish qatorida, T.Jo‘rayev teleradiokompaniya qoshidagi “Tanovar” raqs ansambli uchun ham qator raqs kuylari va syuitalar, o‘zbek xalq cholg‘ulari uchun ham bir necha kuylar yaratdi.

Bastakor nafaqat sozanda balki, xonanda sifatida mualliflik qo‘shiqklarining mohir ijrochisidir. Jo‘rayevlar sulolasi vakili sifatida milliy musiqa madaniyatimizning nodir namunalarini, o‘zbek kuy-qo‘shiq va ashulalari, o‘zbek bastakorlik ijodiyotining betakror musiqiy asarlarni jonbozlik bilan targ‘ib qilib kelmoqda.

Ijodkorning kasbiy sifatleri xususida to‘xtalishni lozim topdik.

-Mohir sozanda (g‘ijjak, dutor, tor, qashqar dutori, skripka, soz);

- Andijon g‘ijjak ijrochilik maktabi vakili;

-Bastakor;

- Xonanda;

- Ustoz;

- Targ‘ibotchi

- Jo‘rayevlar sulolasi vakili sifatida namoyon bo‘ladi. U ko‘plab shogirdlarning mehribon va talabchan ustozidir.

1-misol., 1-2-fotolar



**Bastakorning padari
buzrukvori
Jo‘raboyhoji Yo‘ldashev**



Bastakor Tursunboy Jo‘rayev





Bastakorning ijrochilik faoliyatiga yuzlanadigan bo‘lsak, u Andijon g‘ijjak ijrochilik maktabi vakilidir. Mazkur ijrochilik maktabi o‘ziga xosligi, cholg‘uning noodatij ijro yo‘llari bilan ajralib turadi. Tursunboy Jo‘rayev mohir g‘ijjak ijrochisi sifatida mazkur ijrochilik maktabini bugungi kunimizga qadar asliy ijro yo‘llarini saqlab, sayqallab, tag‘rib qilib kelayotgan sozandadir. Uning ijrosida “Sarahbori dugoh” taronalari va talqinlari, “Chormaqqom” kuylari, “Mushkilot” yo‘llari va xalqimizning sevimli qo‘shiq-lari, kuylari nafaqat respublikamizda, balki Fransiya, Angliya, Turkiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida muvaffaqiyatli ijro etilgan.

O‘zbek bastakorlik ijodiyotiga nazar tashlar ekanmiz, ko‘pchilik bastakorlar sozandalardan yetishib chiqqanligini guvohi bo‘lamiz. Misol tariqasida Abu Nasr Farobiy g‘ijjak cholg‘usini ixtiro etganligi va bu cholg‘uda o‘zi ham mukkamal chala olganligi borasida tarixiy manbalarda qayt etilgan. O‘rta asr musiqa san’ati risolalarida keltirilishicha, “g‘ijjak” (“g‘ipchak” nomi bilan) Farobiy tomonidan yaratilganligi bayon etiladi. Ibn Sino dastlab 2 torni kvarta intervaliga sozlagan, Qulmuhammad Udiy esa g‘ijjakka 3-torni qo‘shgan. Bu davrgacha ikki simli g‘ijjakda ipakdan eshilgan yoki simli aks-sado beruvchi torlar soni 8-11 tagacha bo‘lganligi qayd etiladi. [2, 20s.]

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida keltirishicha: “g‘ijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo‘lgan. O‘rta asrda Alijon G‘ijjakiy, Xoja O‘zbek G‘ijjakiy kabi sozandalar mashhur bo‘lgan”. Bunga sabab ushbu sozning inson ovozig-a yaqinligi, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boy, xonaqoiy ijro uslubi tufayli milliy mumtoz musiqa ansambllarida asosiy o‘rin tutadi.

Yurtimizda g‘ijjak ijrochiligining o‘ziga xos uslublari, asosan Andijon, Buxoro va Xorazm an’anaviy maktablari orqali namoyon bo‘lgan. [3, 27s.] Andijon g‘ijjak ijrochilik maktabi - Farg‘ona vodiysi hofizlik san’ati hamda surnay ijrochilik an’analari ta’sirida shakllangan. Ushbu maktabga xos ijro xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- *kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo‘llari;*
- *surnayga xos qochirimlar singdirilganligi;*
- *yovvoyi ijro etish yo‘llari bilan ajralib turadi.*





Bu xususiyatlar boshqa ijro maktablarda uchramaydi. Shunisi bilan ham Andijon g‘ijjak ijrochilik maktabi o‘z mavqei va o‘rnini saqlab kelmoqda. Ushbu maktab asoschisi bastakor, hofiz, sozanda (g‘ijjak, tanbur, dutor) – To‘xtasin Jalilovdir. Bastakor kasbiga erishish uchun birinchi navbatda Alloh tomonidan in‘om etilgan serqirra iste‘dod bo‘lishi, ma‘lum musiqiy saboqlardan xabardor bo‘lishi, milliy va zamonaviy musiqiy meros namunalarni bilishi, musiqiy-ifodaviy vositalarni qo‘llay olishi, musiqa asarini shakl tuzilishi borasida fikr yurita oladigan, mohir sozanda, o‘z cholg‘usini mukammal egallagan ijrochi bastakor bo‘lishi mumkin bo‘ladi.

Bastakor bugungi kunda Andijon g‘ijjak ijrochilik maktabining yirik vakillaridan biridir. Ustoz-san’atkor atoqli bastakor, sozanda, O‘zbekiston xalq artisti, To‘xtasin Jalilovning bastakorlik, sozandalik an‘analarini “Ustoz-shogird” ijodiy maktabi orqali davom ettirib, shogirdlariga o‘rgatib kelmoqda. Muhammadjon To‘xtasinov, Ahmadjon Dadayev, Xotamjon Sherqo‘ziyev, Dilshodbek Jo‘rayev, Dilmurod Jo‘rayev, No‘monjon Nosirov, Tohirjon Shukurov, Qayumjon Usmonov, Bahromjon Usmonov, Ozoda Nazarova, Ozoda Madrahimovalar ustozning shogirdlaridir. Ular bugungi kunda ustoz-san’atkorning ijrochilik, ijodchilik an‘analarini muvaffaqiyatli davom ettirib kelmoqda.

Tursunboy Jo‘rayev O‘zbekiston televideniya sinining maqom va an‘anaviy musiqa san’atiga oid turli eshittirishlar, ko‘rsatuvlarda sozanda, tashkilotchi, targ‘ibotchi sifatida faol ishtirok etgan. Shuningdek, uning hayoti va ijodiy yo‘lidan hikoya qiluvchi “Bastakor ilhomi” ko‘rsatuvi sur‘atga olgan.

Bastakor Tursunboy Jo‘rayevning ijodiy-ijrochilik faoliyati Respublikamiz hukumati tomonidan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” unvoni, “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni va bir qator hukumat fahriy yorlig‘i va tashakkurnomalarini bilan taqdirlangan. Bugungi kunda bastakor Tursunboy Jo‘rayevning ijodiy-ijrochilik faoliyatini to‘la-to‘kis tahlil va tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:





1. А.Жабборов. Ўзбекистон композиторлари, бастакорлари ва муסיқашунослари. (Маълумотнома). Тўлдирилган 2-нашр, Тошкент:..2018 й.

2. Т.Ғофурбеков. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. (Монография).“Muharrir nashriyoti”, Тошкент:..2019 й.

3. S.Begmatov. Bastakorlar ijodi. (o‘quv qo‘llanma). “NISO POLIGRAF”, Toshkent:..2017-y.

4. Bastakor Tursunboy Jo‘rayev bilan suhbat. 2023-yil, 23-iyul.





OVOZ YOZISH DASTURLARINING QIYOSIY TAHLILIGA DOIR

Tohirjon ABDULLAYEV,

O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI “Texnogen san’at: musiqiy ovoz rejissorligi” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Akbar MIRZAYEV,

*O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.*

Annotatsiya: *Ovoz yozish dasturlari ixtiro etilgan davrdan boshlab bugunga qadar evolyutsion bosqichlardan o‘tilgan. Bu bosqichlarda bir qancha dasturlar muvaffaqiyatga erishdi. Ushbu maqolada ayni shu masalalar yoritilgan bo‘lib, unda Steinberg Nuendo va Logic Pro X ovoz yozish dasturlari o‘zaro qiyosiy tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ovoz yozish dasturlari, ovoz rejissorligi, Nuendo, Logic Pro X.*

Abstract: *Voice recording programs have gone through evolutionary stages since their invention until today. Several programs have succeeded in these phases. This article covers the same issues, in which Steinberg Nuendo and Logic Pro X sound recording programs are compared.*

Key words: *sound recording programs, sound directing, Nuendo, Logic Pro X.*

XX asrda fan va texnologiyalar taraqqiy topib turfa xil ovoz yozish vositalari kashf etilgani sari rivojlanib, qulay imkoniyatlari kengayib bordi. Keyinchalik esa ularning turlari shunchalik ko‘payib ketganidan qaysi biri mukammalroq imkoniyatlarga ega, qaysi birida toza ishlash mumkin qabilidagi savollarga javob berish maqsadida ba’zi ovoz yozish dasturlarini qiyosiy tahlil etishga jazm etdik.

Zamonaviy musiqa yozish dasturi ko‘pincha faqat interfeysda farqlanadi. Funktsionallik hamma joyda tahminan bir xil. Qayd etish joizki, Shtaynberg hozirda butun dunyo foydalanayotgan VST plagin formatini yaratuvchilardan biri hisoblanadi. Albatta, ularning mahsuloti bunday plaginlarni mukammal darajada qo‘llab-quvvatlaydi. Cubase





nafaqat audio muharriri, balki MIDI muharriri sifatida ham yaxshi. U bilan bo‘lgan tajribam ikkinchi holatga tushadi. Bir vaqtlar ushbu dasturning o‘zgarishi qo‘llab-quvvatlangan - **Steinberg Nuendo**, bu Cubasedan bir nechta farqlarga ega edi.

Audacity atrofida bepul dasturiy ta'minotning eng ommabop qismlaridan biri bo‘lishga va yaxshi sababga aylandi. ProTools va Sound Forge kabi mashhur DAW-lar bilan solishtirganda, Audacityning rejasi juda minimalist. Trekka o‘tish, ularni tartibga solish va aralashtirish uchun asboblari paneli mavjud. Tomlar to‘liq ko‘tarilganda, ular to‘lqin shaklida ko‘rinadi, shuning uchun foydalanuvchi to‘lqin formatining tegishli qismini ta’kidlab, yo‘lning aniq qismlarini o‘zgartirishi mumkin.

Foydalanuvchilarga oddiy interfeysi bilan bog‘liq ovozlarni yozish va tahrir qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ehtimol, eng muhimi, boshqa ko‘plab bepul dasturlardan farqli o‘laroq, Audacity "cheklangan vaqtga bepul" yoki "juda ko‘p xususiyatlar bilan himoyalangan" bepul emas. Audacity taqdim etishi kerak bo‘lgan hamma narsa bepul.

Ushbu dasturda interfeysda navigatsiya qilish juda oson, ammo yangi foydalanuvchilarning har bir maxsus vositaning nima ekanligini aniqlashga vaqt talab qilishi mumkin. Tartibga solish uchun bepul dasturiy ta'minot Audacity ajoyib ishlaydigan ajoyib vositalarni taklif qiladi. Foydalanuvchilar pitch, bass va treble-ni sozlashi yoki shovqinni normallashtirishlari va reverb va phasing kabi effektlarni qo‘shishlari mumkin. Audacity hatto chiziqlarni tahlil qilish uchun chiziqlarni tahlil qilish uchun ba'zi vositalarga ega.

Sukut bilan suziladi Windows 10, Windows Ovoz yozuvchisi juda oddiy interfeysga ega - yozuvni boshlash uchun bitta katta tugma, qancha vaqt yozganingizni ko‘rsatadigan taymer va to‘xtatish tugmasi. Uni o‘ziga xos qiladigan narsa - bu yozuv paytida muhim daqiqalarni belgilashga imkon beruvchi xususiyatdir - shuning uchun yozuvingizda muhim bir nuqtani belgilashingiz mumkin [2.38-b.].

Ovozli yozuv mikrofoningizdan har qanday ovozni yozib olish va uni mahalliy papkaga saqlashga imkon beradi. Interfeys oddiy, xuddi shunga o‘xshash Windows Ovoz yozuvchisi, ammo moslashuvchanligi jihatidan ko‘proq funktsiyalarni taklif etadi. Shuningdek, siz ovozli yozuvlaringizni to‘g‘ridan-to‘g‘ri dasturdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri





Microsoft OneDrive-ga yuklashingiz mumkin, ammo unda reklama mavjud, ammo ularni Pro versiyasini sotib olib tashlashingiz mumkin.

Bu bepul dasturiy ta'minotning juda iste'dodli qismi bo'lib, REAPER dasturiy ta'minotida Audacity kabi ilovalar bilan taqqoslaganda keskin o'rganish egri mavjud. Shuning uchun foydalanuvchilar litsenziyani to'lashdan oldin mahsulotni mahsulotdan bepul foydalanishga undamoqda, shuning uchun foydalanuvchilar dasturning qobiliyatlari va ish oqimlari bilan tanishishlari mumkin. REAPER deyarli har bir narsani xususiylashtirishga imkon beradi, siz dasturlarning shakli va rangini hatto boshqaruv elementlarini o'z ichiga oladigan tarzda o'zgartirishingiz mumkin.

Bundan tashqari, u yuzlab mahalliy asboblardan bilan ta'minlangan va VST plaginlarini birlashtirishga imkon beradi, shuningdek dasturlarni qayta tiklash va deyarli har bir uchinchi tomon dasturlari. Unda foydalanuvchilar o'zlarining plaginlarini skriptlashi, disk raskadrovka qilishlari va kompilyatsiya qilishlari uchun turli xil hisoblash tillari yordamida o'zlarining dasturlash muhiti bilan ajralib turadi. REAPER - bu ikkalasi uchun ham mavjud bo'lgan juda ko'p qirrali dastur Windows va Mac OS X foydalanuvchilari, bepul. Shuni yodda tutingki, Reaper faqat 60 kun davomida bepul va undan keyin \$60 sotib olishni talab qiladi.

Ovozni yozish va aralashtirish uchun intuitiv usulni qidiradiganlar VirtualDJ-ning bepul versiyasidan bahramand bo'lishlari kerak, bu foydalanuvchilarga ovozni aylantirish uchun qulay foydalanish interfeysi bilan ta'minlaydi. VirtualDJni ishga tushirganingizda yangi foydalanuvchilarning sezishi mumkin bo'lgan birinchi narsa interfeys an'anaviy DJ jadvalidan so'ng modellashtirilganligi. Ovozlarini, tovushlarni va boshqa audio aspektlarni to'g'rilash uchun treklarni o'rnatish uchun juda oddiy ikkita katak va juda ko'p sonli terish va sozlagichlar mavjud. Agar xohlasalar, foydalanuvchilar chizilmasin va aylana oladigan ikkita "yozuv" mavjud. Treklar ekranning yuqori qismida bir-biriga bog'lab turadigan to'lqin shakllari sifatida ko'rsatiladi, bu foydalanuvchilarga ikki xil trekni aniq oraliqda joylashtirish imkonini beradi.

Apple uzoq vaqt davomida taniqli dasturiy ta'minotning takomillashtirilgan versiyasida ishlaydi **Logic Pro X**. Bu holda, Final Cut Pro X bilan birgalikda ular video va audio tahrirlash uchun





professional sohada eng ko‘p ishlatiladigan dasturlardir, shuning uchun Apple tomonidan amalga oshirilayotgan yaxshilanishlar ushbu sektor tomonidan juda ma'qul keladi. Logic Pro X audio dasturiy ta'minoti Mac foydalanuvchilari uchun Cupertino kompaniyasining dasturlar do‘konida mavjud, ammo uning narxi ancha yuqori va bu tahrir qilish uchun juda batafsil ma'lumotga ega dastur.

Biz uzoq vaqtdan beri Logic Pro X-ni Apple-ning eng yaxshi mahsulotlaridan biri deb bildik, bu juda ta'sirli xususiyatlar va quvvatni nisbatan arzon narxda taqdim etadi (hech bo‘lmaganda professional dasturiy ta'minot nuqtai nazaridan). Yillar davomida bir qator yangilanishlar yangi vositalar yoki imkoniyatlarni taqdim etdi, ammo so‘nggi 10.5 versiyasi bilan Apple o‘zining musiqiy ishlab chiqarish to‘plamini boshqa ko‘pgina kompaniyalar mutlaqo yangi versiya deb da'vo qiladigan darajada yangilab oldi - ammo bu yangilanish mavjud bo‘lganlar uchun bepul foydalanuvchilar.

GarageBandning iOS versiyasi bilan har qanday vaqtni o‘tkazganlar Live Loops-ga duch kelishadi. Ular qisqa zarbalar yoki ohangdor vinyetlar bo‘lib, ularni ustunlarga joylashtirish va qo‘shiq yoki minus trekning asosini yaratish uchun birlashtirilishi mumkin. Barcha ko‘chadan bepul foydalaniladi, shuning uchun siz ularni savdo-sotiq nashrlarida, shuningdek oilaviy videofilmlarda musiqani qo‘llab-quvvatlashda ishlatishingiz mumkin [3.68-b.].

Apple hozirda bularni yana bir nechta hushtak va qo‘ng‘iroqlar bilan bo‘lsa ham, Logic Pro Xga olib keldi.

Bu marketing usuli shuni anglatadiki, barcha ilmoqlar bir-birlari bilan har qanday vaqtda o‘z vaqtida qoladi, shuning uchun siz tajribalar bilan shug‘ullanishingiz mumkin. Bundan tashqari, sahna o‘ynaganda to‘ldiriladigan, keyingi o‘zgarish qachon sodir bo‘lishini ko‘rsatadigan doira mavjud.

Bu biroz murakkab tuyulishi mumkin, ammo Live Loopsdan foydalanish bu boshqa narsa emas. Vizual tabiat har qanday vaqtda nima bo‘layotganini ko‘rishni osonlashtiradi.

Yana bir ajoyib xususiyat shundaki, bu ko‘chalarning barchasi “Mantiq”dagi asboblar bilan bog‘langan, shuning uchun agar siz o‘zingiz yoqtirgan akustik gitara qismini topsangiz, lekin uni og‘irroq yo‘lda xohlasangiz, shunchaki siklni tanlang va asbobni buzilgan gitara





holatiga o‘zgartiring yoki aksincha. Albatta, siz o‘zingizning uslubingizni to‘g‘ridan-to‘g‘ri katakchaga yozib qo‘yishingiz mumkin.

Logic Remote 1.4 dasturida ishlaydigan iPad yoki iPhone taqdim etilgandan so‘ng siz tarmoqni ko‘proq organik usulda boshqarishingiz imkoniyati paydo bo‘ldi. Ableton Liveni Ableton Push 2 boshqaruvchisi bilan ishlatganlar darhol o‘ziga xos yondashuvni tan olishadi.

Bundan tashqari, Remix Effects plagini mavjud, bu sizga ikkita katta kvadrat yuzani beradi, ular yordamida siz modulyatsiyani, filtrlarni va boshqa effektlarni barmog‘ingizni siljitish orqali real vaqtda o‘zgartirishingiz mumkin. Buni ichki Kaoss pad deb o‘ylang, ammo qo‘shimcha xarajatlarsiz.

Siz yakuniy xulosaga kelganingizda, “Faoliyatni yozishni yoqish” tugmachasini bosishingiz, “Yozib olish” tugmachasini bosishingiz va ko‘chadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri loyihangizda ijro etishingiz mumkin. Bu konvertatsiya qilish yoki import qilishning hojati yo‘q avtomatik ravishda sizning standart ish joyingizda treklar va soundlarni yaratadi.

Shunday qilib, endilikda ijrochilar ko‘chadami yo uyda, xullas, istalgan yerda o‘z ijro ovozlari yoza olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Shu tariqa zamona zayli ila fan va texnologiyalar yutuqlari munosabati bilan ovoz yozish dasturlari ham o‘z tarixining gullab-yashnagan davrini o‘tkazmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

9. Turdiyev M.T. “Elektrotexnika va elektronika asoslari”. Toshkent, 2014.
10. Esanboyeva Sh.S. “Televizion rejissura asoslari”. Toshkent, 2014.
11. Mirzayev Akbar “Ovoz yozish studiyasi jihozlari va ovoz yozish tizimi” Toshkent, 2019.
12. Raxmatullayev. D. F. “Musiqiy akustika”. Toshkent, 2014.
13. Tursunova G. “Kino va televideniya va radio san’ati”. Toshkent, 2018y.
14. Internet ma’lumotlari.





ESON LUTFULLAYEVNING IJRO USLUBI VA IJODIY MEROSI

Jur’atbek HAKIMOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Shaxida BERDIXANOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: *Mumtoz musiqa san’ati tarixida o‘zidan munosib iz qoldirgan buyuk ijodkorlar talaygina. Ularning bosib o‘tgan yo‘li biz yosh ijodkorlar uchun na‘muna vazifasini o‘taydi. Asrlar osha shakllangan ijro uslublari har bir xonandaning kamolotiga zamin yaratadi. Ustozlar merosi yosh ijrochilar ijodida dasturulamal vazifasini qo‘llaniladi. Bu o‘z o‘rnida san’at rivoji va kamoloti uchun poydevor hisoblanadi. Mazkur maqolada ustoz hofiz Eson Lutfullayevning ijro uslubi va ijodiy merosi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mumtoz musiqa, xonanda, ovoz, uslub, bastakor, hamnafaslik, mahoratli ijodkor.*

Аннотация: *Можно перечислить множество имен великих мастеров исполнителей, оставивших яркий след в истории развития традиционного музыкального наследия. Их творческий путь и мастерство служит примером в творчестве молодых исполнителей. Стили исполнения, формировавшиеся веками, создают основу для совершенствования каждого певца. Их творческий путь и мастерство служит примером в творчестве молодых исполнителей, что в свою очередь является основой развития и совершенствования искусства. В данной статье рассматривается*

Ключевые слова: *классическая музыка, певец, голос, бастакор, искусный артист.*

Abstract: *There are many great artists who left their mark in the history of classical music. Their path will be an example for us young artists. Performance styles formed over centuries create a foundation for the perfection of each singer. The legacy of the masters serves as an*





example in the work of young performers. This is the foundation for the development and perfection of art.

Key words: *classical music, singer, voice, harmony, skilled artist, composer.*

Yurtimizda yillar davomida o‘ziga xos ijro uslublari shakllangan. Albatta, bu shakllanish jarayonida zamon va makon xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Qolaversa, bu ijrochilik maktablarining rivojlanishida ulardan oldingi ustozlar tarbiyasi va o‘gitlarini o‘zlashtirib, o‘z ijrochilik yo‘llarini shakllantirishga intilayotgan yosh xonandalar uchun dasturulamal vazifasini o‘tagan bilimlar asosiy omil bo‘lgan. Ana shunday ustozlar yo‘lini mustahkam o‘zlashtirib, o‘z uslubini yarata olgan san’atkorlardan biri, sehrli ovoz va yuksak ijod va mahorat sohibi Eson Lutfullayevdir. Uning ijro yo‘li Farg‘ona – Toshkent uslubiga xosdir. Garchi, yashash muhiti nuqtayi nazaridan Eson Lutfullayev vodiya istiqomat qilmagan bo‘lsalarda, san’at olamida o‘z o‘rinlarini topishiga sababchi bo‘lgan ustozlari Jo‘raxon Sultonov va Ma‘murjon Uzoqovlar ta‘sirida ushbu uslub orqali shakllandi. Ustozlarining ijro maktablarini to‘laqonli o‘zlashtirib, o‘zining yangi ijro uslubi va maktabini yarata oldi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Eson Lutfullayev 1960-yildan deyarli umrlarining oxirlarigacha maqom ansamblida faoliyat ko‘rsatganlar. Bu davr mobaynida Shashmaqom ijrosining uch marta qayta yozib olinishida bevosita ishtirok etganlar. Bundan tashqari, Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llaridan na‘munalar, Xorazm suvoralaridan va o‘zlari tomonidan ijod etilgan ko‘plab ashulalar hofiz ijrosida audiotasmaga yozib olingan. Oltin fondan ustoz hofiz ijrolaridagi 500 ga yaqin audioyozuvlarni topishimiz mumkin. Eson Lutfullayev ijodiy merosida *katta ashula ijrochiligi* muhim joy egallaydi. Masalan, Furqat g‘azallari bilan ijro etilgan “Ko‘ziga surma qildi”, “Orzu” *katta ashulalari* va Muqimiy g‘azali bilan ijro etilgan “Ul-kim janon” katta ashulasi xalqimiz orasida anchagina mashhurlikka erishgan. YUNESKO tomonidan e‘tirof etilgan va ayni bizning xalqimizgagina xos bo‘lgan katta ashula ijrochiligining zabardast vakili sifatida Eson Lutfullayev nomi buyuk maqom bilimdonlari tomonidan bot-bot tilga olinadi. Hofiz ko‘pincha tor cholg‘usida ashula ijro etishni xush





ko‘rgan ekan. “Ovozimni yaxshi his qilishim uchun tor cholg‘usi qulay” – deb aytgan ekanlar. Eson Lutfullayevning ijro uslubi, asosan, Farg‘ona – Toshkent yo‘liga xos bo‘lsada, lekin hofiz yurtimizdagi barcha ijro uslublarni o‘zlashtirishga harakat qilganliklarini audioyozuvlarni tinglash mobaynida kuzatishimiz mumkin.

Eson Lutfullayev ijodiy faoliyati davomida Shashmaqomning yuzga yaqin murakkab qismlarini yakka holda ijro etgan. Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Oromijon, Navro‘zi Sabo kabilar shular jumlasidandir. Eson Lutfullayev ijrolaridagi Saraxbori Dugoh ashulasini tinglash jarayonida hofiz ovozinig ko‘lami va ijroning aniqligi biz yosh xonandalarni lol qoldirmoqda. Asarning avj qismlari ham yuqori mahorat bilan ijro etilgan. Xususan, Zebo Pari avji va Muhayyari Chorgoh namudi tinglovchiga yoqimli huzur bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, Mo‘g‘ulchai Dugoh, Talqinchai Navro‘zi Sabo asarlarining ham mukammal tarzda ijro etilganiga guvoh bo‘ldik. Xususan, Mo‘g‘ulchai Dugoh asarining avj qismlari to‘liq ijro qilinmagan bo‘lsada, qochirimlarning joyida va me‘yorida ishlatilganligi xonandaning yetuk salohiyatidan darak beradi. O‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan Talqinchai Navro‘zi Sabo asarini hofiz ijrolarida tinglash jarayonida ovozning naqadar kuchliligiga va ijro mahoratining ya‘niki, asarning har bir qismida ovozning noziklik va aniqlik bilan ishlatilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Eson Lutfullayevning yetuk maqom bilimdoni, shirali ovoz sohibi va nozik didli bastakor Orifxon Xotamov bilan uzoq muddat hamnafas bo‘lib ijod qilganliklarini audioyozuvlarni tinglash jarayonida sezishimiz mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, ikki buyuk maqom bilimdonining mustaqil ijro yo‘nalishi ham bir-biriga yaqin bo‘lgan yoki bir-birlarining ijodidan ilhomlangandir.

Ustoz hofiz ijodiy merosi orasida o‘zlari tomonidan ijod etilgan yuzga yaqin ashulalar joy olgan. Hofizning bastakorlik ijodi rang-barang va takrorlanmasdir. Chunki, Eson Lutfullayevning maqom san’atimizni mukammal bilishi, uning zabardast bastakor bo‘lib shakllanishiga zamin yaratgan. Eson Lutfullayev ijodiy merosida katta ashulaning salmoqli o‘rin tutishini, uning bastakorlik ijodida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Misol tariqasida Erkin Vohidov she‘ri asosida yaratilgan “Zor etma” ashulasini keltirishimiz mumkin. Asar o‘zgacha yondashuvda yaratilgan va tinglovchini tezda o‘ziga jalb etadi. So‘z va





ohang uyg‘unligining jozibasiga qo‘shimcha tarzda usulning ham salobati va o‘zgachaligi asarga g‘oyat ajib kayfiyat va harorat bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, hofiz yaratgan “Rahnamo”, “Ko‘zim shahloga tushdi”, “Ayrilmasun”, “Ona”, “Sog‘indim” kabi ashulalar ham har bir muxlis qalbiga sirli hayajon soladi. Uvaysiy g‘azaliga bastalangan “Sog‘indim” ashulasi yosh muxlis sifatida menda katta taassurot qoldirdi. Sababi, asarda farzand dog‘ida ado bo‘lgan otaning alamli iztiroblari kuylangan. Yaratganning qismati tufayli farzandidan ayrilgan Eson Lutfullayev ushbu asarni bastalagan. Tinglovchi ashulani tinglash jarayonida hofizning dardli faryodlarini va cheksiz iztiroblarini qalban his etadi. “Mehribon topmadim onamdan ortiq, Shirin so‘z topmadim salomdan ortiq...” misralari bilan boshlanuvchi ashulasi tinglovchini chuqur o‘yga toldiruvchi falsafiy xarakterdagi asar hisoblanadi. Hofizning bastakorlik ijodiga razm solsak, asarlarda sharqona madaniyat, sharqona shukuh ufurib turadi. Eson Lutfullayev ijrolaridagi “Otajon” ashulasi ham mening qalbimga o‘zgacha hayajon soldi. Yurakdan chiqqan ohanglar yurakka yetib borishiga yana bir bor amin bo‘ldim. Asar usul va uslub nuqtayi nazaridan murakkab va mukammal tarzda yaratilgan va ijro etilgan. Asar tinglovchida salobatli maqom na‘munalari tinglagandek kayfiyat uyg‘otadi. Dardli ohanglar muxlis kayfiyatiga va ruhiyatiga ta‘sir etmay qolmaydi. Asarning usul va ijro yo‘li to‘laligicha maqom qonuniyati asosida yaratilgan.

Quyida Dugoh maqomining 2-guruh sho‘basiga kiruvchi Mo‘g‘ulchai Dugoh asarini Yunus Rajabiy boshchiligidagi maqom ansambli ijrosidan yozib olingan audio yozuv va Eson Lutfullayevning yakka holdagi ijrolarining audio yozuvi orqali tahlil etamiz va o‘xshash va farqli jihatlariga e‘tibor qaratamiz:

Navoiy g‘azali bilan ijro etilgan Mo‘g‘ulchai Dugoh asari bu ikki ijro orqali solishtirilganda, biroz farqlar namoyan bo‘ldi. **Birinchidan**, ansambl ijroda asar re pardasidan ijro etilgan. Yakka ijroda esa do pardasidan aytilgan. Ansamblda ayol ovozlarning ham borligi asarning o‘z lad pardasida ya‘ni re pardasidan aytilishiga zamin yaratgan. Lekin yakka ijroda ham asar o‘z xarakterini yo‘qotmagan. **Ikkinchidan**, mening fikrimcha, yakka ijro ansambl ijroga nisbatan jozibador va qochirimlarga boy bo‘lgan. Aslini olganda, har vaqt ansambl ijro yakka ijroga nisbatan biroz mashaqqat talab etadi. Bunda, ansambldagi har bir xonandani bir xarakter ostida birlashtirish ancha murakkab jarayon





hisoblanadi. **Uchinchi**, yakka ijrodagi jo‘navoz sozandalar ansamblida, jamoaviy ijrodagi ansambl sozandalariga nisbatan, o‘zgacha ruhiyat va biroz zamonaviylik sezilib turadi.

Asar deyarli ikkala ijroda ham bir xil cholg‘u muqaddima bilan boshlangan. Birinchi va ikkinchi xatida deyarli bir xil uslubdagi daromad qism ijro etilgan. Ansambl ijro yakka ijroga nisbatan biroz soddaroq, yakka ijroda xonandaning erkinligi sezilib turadi. Uchinchi va to‘rtinchi xatlarida o‘rta pardalarda miyonxat qism ijro etilgan. Ikkala ijroda ham umumiylik bor. Yakka ijro ansambl ijro andozasining na‘munasidir. Beshinchi va oltinchi xatlarida o‘zgacha nafasdagi dunasr qism ijro etilgan. Bu qismlarda ikkala ijroda ham o‘ziga xos xarakter sezilib turadi. Yettinchi va sakkizinchi xatlardagi Muxayyari Chorgoh namudi yakka ijroda tashlab ketilgan va tushurim qismi ijro etilib, asar yakunlangan. Ansambl ijroda esa bu namud o‘z o‘rnida qo‘llanilgan. So‘ngra, tushurim qismi ijro qilinib, asar yakunlangan.

Tahlil natijasida umumiy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, yakka ijro ansambl ijrodan ilhomlanish natijasida yuzaga kelgan. Ijrolar zamiridagi o‘zaro bog‘liqlik va uslub hamohangligi ko‘zga tashlanadi. Ansambl ijrosida ma’lum doiradagi yondashuv, yakka ijroda esa ijrochi erkinligini kuzatishimiz mumkin.

Eson Lutfullayev ijro uslubida ham vodiy, ham vohadagi maqom an‘analari to‘laqonli shakllangan. Vodiy maktabini ustozlari Jo‘raxon Sultonov va Ma‘murjon Uzoqov ijro maktablarini o‘rganish jarayonida o‘zlashtirgan. Vohadagi maqom an‘analarining o‘zlashtirilishi esa Yunus Rajabiy va maqom ansamblidagi uzoq yillik faoliyatlari bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Soliyev; M. Kimsanboyev: Ma‘murjon UZOQOV: “Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada...”. Toshkent “Navro‘z” nashriyoti 2015.

2. S.Begmatov. Mumtoz musiqa ijro uslublari. T- 2023.

3. S.Mannopov; N.Soliyev: Jo‘raxon Sultonov: “Ko‘kardi chaman, gul‘uzorim qani?”. Toshkent “IJOD-PRESS” 2019.





4. Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag’ishlangan MAQOLALAR TO’PLAMI Toshkent 2019.





**XONANDALIK AMALIYOTIDA “DUTOR”
IJROCHILIGINING AHAMIYATI (LUTFIXONIM
SARIMSOQOVA) IJODIDA**

Shaxzoda SAFAROVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Ilyos ARABOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xonandalik amaliyotida “Dutor” cholg‘usining ahamiyati, ham sahnada, hamda dutor ijrochiligi hamnafasligida o‘zbek kuy va qo‘shiqlarini ma’romioga yetkazib ijro etgan buyuk san’atkor, Lutfixonim Sarimsoqovaning ijro etgan kuy va qo‘shiqlari tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda bo‘lajak maqom xonandalariga cholg‘u sozini o‘rganish bo‘yicha ko‘rsatmalar berib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *cholg‘u, xonanda, ovoz, jo‘rnavor, ijrochilik, sahna, teatr, hamnafaslik.*

Abstract: *In this article, the importance of the dutor instrument in the singing practice is analyzed by People’s Artist of Uzbekistan Lutfikhanim Sarimsokova along with the dutor instruments, end instructions are given to young singers on how to learn the instruments on the exemple of master artists.*

Key words: *musical instrument, singer, voice, accompaniment, performance, scene, theater.*

O‘zbek milliy musiqa san’ati juda qadimiy tarihgaga egadir. Buni milliy kuy va qo‘shiqlarimiz, milliy cholg‘ularimiz va musiqa me’rosimizning gultojisi bo‘lgan Shashmaqom ijrochiligida yaqqol namoyon bo‘ladi. San’atkor hayotining mazmuni albatta uning ijodiyoti mahsuli bilan o‘lchanadi. O‘tmishda yashab ijod qilgan xofiz, sozanda, xonanda va bastakorlarning ijodiy izlanishlari, ularning mahorati va ilxomi tufayli milliy musiqamizning durdona asarlari yaratildi. Ustoz-shogird an’analari orqali rivojlanib bizgacha yetib kelgan.





Ma’lumki, bizda ovoz san’atiga nisbatan “xofiz” so‘zi, cholg‘u ijrochilariga esa sozanda so‘zlari ishlatiladi. Maqom ustozlarining yuqori pardalarda yoqimli va go‘zal ovozda kuylashlarini so‘z bilan tasvirlash qiyin. Buyuk ustoz-san’atkorlarning ovozlari baquvvat va to‘laqonli sadolanishi barobarida, ijro nafis va juda nozik bezaklar bilan boyitilgan. Shuning uchun xar bir ashulachining elda tan olinishi uning maktabining o‘ziga xosligi, aytish va cholg‘u chalishidagi malakamahorat darajasiga bog‘liq bo‘lgan.

Xonandalik amaliyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, soz chalish qobiliyati muhim sanalgan. Ustoz xonandalar orasida “Qo‘lida sozi bor xonanda butun xonanda hisoblanadi” degan gap bor. Qadimda xonanda va sozandalar bir emas bir nechta cholg‘ularni mukammal ijro etishgan. Har bir kuy va qo‘shiqlarni ma’lum bir cholg‘u jo‘rligida ijro sadolantirganlar. Buyuk ustoz-san’atkorlarimiz ijrolariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qo‘llarida doimo dutor va tanbur cholg‘ulari bo‘lgan. Chunki bu cholg‘ular tarixan qadimiy va inson ovozi va yuragiga yaqin bo‘lgan cholg‘ulardir. Ularning orasida dutor sozi o‘zining nafis va mayin ovozi bilan ajralib turadi. Qadimdan dutorlar ikki xil yasalgan. Biri ayollar ijrosiga mos xolatda dasta va kosa qismlari nozik va ingichga, erkak xonandalarga moslab esa dasta va kosa qismlari, ipak iplari ham qalin va yo‘g‘onroq qilib yasashgan. Bir cholg‘uda turlicha usullar bilan ijro etishning qadimiy an’analari, shuningdek sozandalarning tipalogiya jihatidan xilma-xil bo‘lgan cholg‘ularda chalishga intilish o‘tmishda ham, xozirda ham diqqatni o‘ziga jalb qiladi.

Milliy kuy va qo‘shiqlarimiz ma’lum bir cholg‘ular jo‘rligida ijro etish azal-azaldan ustoz-shogird an’analari asosida shakllanib, rivojlanib kelgan va hozirgi kunda ham davom etayapti. Milliy cholg‘ularimiz bo‘lgan dutor, tanbur, sato kabi sozlar jo‘rligida yangragan milliy ohanglarimiz insonlar qulog‘iga yoqimli eshitilgan. Ayniqsa cholg‘ular kelinchagi deb nom olgan dutor sozi bilan yangragan kuylarimiz xalqimiz yuragidan allaqachon chuqur joy olib ulgurgan.

Ustoz-san’atkorlarimizdan akademik Yunus Rajabiy, Turg‘un Alimatov, Orif Alimaxsumov, Orifxon Hotamov, Fattohon Mamadaliyev, Maxmudjon Tojiboyev kabi ustozlar qatorida Berta Davidova, Barno Is’hoqova, Kommuna Ismoilova, Halima Nosirova





kabi ayol xonandalar, shu bilan birgalikda aynan dutor sozi bilan birgalikda kuy va qo‘shiqlarni ijro etgan nafarqat musiqada balki teatr va kino sohasida faoliyat olib borgan O‘zbekiston xalq artistlari Lutfixonim Sarimsoqova, Farog‘at Rahmatova, Mavluda A‘zamova kabi ustoz-san’atkorlarimizni ham ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

O‘zbek musiqa san’atida ayol xonandalarimiz orasida milliy kuy va qo‘shiqlarimizni ayni dutor sozi jo‘rligida ijro etishda o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lgan ustozlar yashab ijod qilishdi. Ular orasida aloxida e’tibor bilab aytib o‘ta oladigan inson, san’at olamining yetuk darg‘alaridan biri Lutfixonim aya Sarimsoqovadir. Lutfixonim aya Sarimsoqovani biz “Sen yetim emassan”da Mehriniso, “Mahallada duv-duv gap” kinofilmida Fotima opa rollari bilan, shu qatorda “Layli va Majnun” “Farhod va Shirin”, Uzeyir Hojibekovning “Arshinmololon” kabi musiqali komediya va spektakllarida o‘zlarining takrorlanmas ijrolari bilan yodimizda qolganlar. Ustozni oddiy xalq va kino va teatr san’atkorlari “aya” deb chaqirishar edi. Bunga sabab ustoz sahnada ham, kinoda ham o‘zbek onasi rolini ma’romiga yetkazib ijro etganalar. Lutfixonim Sarimsoqova nafaqat kino va teatr aktrisasi, balki ayol xonandalar orasida kam uchraydigan aynan dutor sozi bilan kuy va qo‘shiqlar ijro etadigan mohir sozanda va xonanda hamdir.

Lutfixonim Sarimsoqovani o‘zbek kinoshunosi, yozuvchi va journalist, professor Xamidulla Akbarov shunday eslaydi: Lutfixonim Sarimsoqova haqida shingil hikoyalarni onam Xafiyaxon Muhamedovadan eshitganman. “Omon yor”, “Qilpillama”, “Fabrikaningh yo‘lidan ro‘molcha topib oldim”, “Barno yigit” kabi qo‘shiqlarni xirgoyi qilib, ularning ohangidan zavq olib bizni qorong‘u tunda ovutayotgan onamiz: “Mana bu qo‘shiqni Lutfixonim ayadan yozib olganmiz. Bu mashhur xonanda, usta san’atkorni Marg‘ilondan izlab topamiz!” - derdi.

Lutfixonim aya Sarimsoqovaning kuylagan kuy va qo‘shiqlarini yozib olish uchun ayaning uyiga hamrohim Yelena Yevgeneva bilan keldik. Yelena opa Peterburg konservatoriyasini bitirgan. Xozir Toshkentda yashaydi. Bizni madaniyatimizga mehr qo‘ygan. Vodiya ayollar aytadigan kuylarini yozish bilan bandmiz. Qaysi xonadonga bormaylik, bajonidil so‘rashib, dasturxon yozib, choy uzatishardi. Biz kirgan barcha xonadonlar faqaniga Lutfixonim ayani tavsiya etishar edi. Chunki vodiya unung dutorini qo‘liga olib xalq kuy va





qo‘shiqclarini shu qadar mohirlik bilan ijro etar edilar-ki, bir marotaba eshitgan odam yana qayta eshitgisi kelar edi. Vodiya ayaning uyiga bordik. Bir juft qo‘shiq aytib bering, dugonalaringiz sizni tavsiya etishdi, deb iltimos qilsak, durrachalari bilan yuzclarini berkitib, “Kim aytdi? Ashula, o‘yinni bilmaymiz. Artistlar bor-ku, o‘shalarga ayting qoyil qilib aytib berishadi” deb hech ko‘nmaydilar. Bir uchrashuvdan keyin darhol o‘rtaga tushib, o‘ynab, xirgoyi qilib, katta ashulalarni baralla aytib berishi amrimahol dedim. Siz ketganingizdan keyin eshikni qulflab olib, lapar ham aytishadi, dugonalari bilan askiya ham qilishadi. Farg‘onacha raqs tushishni aytmaymizmi? – devorga osig‘liq dutorni olib uni shunaqangi sayratadiki, asli qo‘yaverasiz. Biz opa bilan shoshib qoldik. Chamadondan metironomni – ohangning yangrash sur‘atini belgilaydigan uchburchak shakldagi asbobni olib, uni darhol ishga solishga urundik. Nota tagigga kichikroq patnis qo‘yib, yangrayotgan tovushlarni mahsus belgilar bilan qog‘ozga tushira boshladik deb xotirlaydi yozuvchi.

Bundan ko‘rinib turadi-ki Lutfixonim aya Sarimsoqova nafaqat kino va teatr aktrisasi balik o‘zbek milliy kuy va qo‘shilarining mohir ijrochisi va sozanda hamdir. Zamonasida ustozning vokal va musiqa vokal sohasidagi bilimi imkoniyatlaridan kinoda bir marotaba “Stadionda uchrashamiz” (1956) komediyasida keng foydalaniladi. O‘sha komediya filmda firoq o‘tida yongan qiz Asalni yupatadi. “Nasariddin Buxoroda” (1943) komediyasida uning qahramoni ayshishratga berilgan, tannoixon, toshoyna oldida ko‘z yoshini to‘kayotgan kelinchakka qalin o‘sma, upa-surma qo‘yib, satang ayollarga o‘xshatish sahnasida chapani qo‘shiqni dutorni mohirona ijro etgan xolda namoyon bo‘lganlar.

Lutfixonim aya Sarimsoqova ijro etgan xalq qo‘shiqlari “Yor-yor”, “Hakallakam o‘ynasam man”, “Quling”, “O‘zgancha” “Jambilxon”, “Yorginam” “Omon bo‘laylik”, “Qilpillama” “Nurxon” spektakli, “Nasriddin Buxoroda” kinofilmidagi “So‘zlaring” kabi kuy va qo‘shiqlarning mohirona ijrochisi.

Buncha ham jon qarodir ko‘zlaring
Surma qo‘yma muncha ham
Jon qarodir ko‘zlaring
Har biri jon qastiga
Boqqan balodir so‘zlaring





Qosh agar payvasta bo‘lsa
O‘smani gardon qilur
Yor agar nodon bo‘lsa
Oshiqni sargardon qilur.

Hozirgi milliy musiqa an’analarimiz, shu bilan birgalikda kino va teatr sohasida faoliyat olib borayotgan aktyor va aktrissalarimiz orasida yo‘q bo‘lib borayotgan va unutilgan ijrochilik faoliyati o‘tmishda yashab ijod qilgan buyuk san’atkorlarimiz ijrolarida muntazam ravishda namoyon bo‘lgan. O‘sib kelayotgan yosh san’atkorlarimiz ham ustozlar ijro yo‘llarini mukammal o‘rganishsa, teatr va kino sahnalarida ijod qilayotgan yosh aktyoor va aktrissalarimiz ham o‘tgan buyuk ustoz san’atkorlarimiz kabi ovoz va soz ijrochiligidan saboq olib, ayi shu mahoratlarini ijro etayotgan rollarida talqin etishsa, xalqimiz orasida yana ham sevimli bo‘lgan bo‘lar edilar. Chunki Lutfixonim Sarimsoqova, Klara Jalilova kabi el ardoq etgan san’atkorlarimiz bu uch yo‘nalishni birga olib borganliklari, har tomonlama iqtidor egasi bo‘lganliklari uchun ham xalqda aziz bo‘lganlar.

Men ohlar edimki, yurtimizda yetishib chiqayotgan yosh xonanda va sozandalarimiz, kino va teatr ustalari, barha san’at namoyondalari bir butun bo‘lgan xolatda ijodiy faoliyatlarida va ta’lim tizimida ham o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yib bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat yuritishsa, milliy musiqamiz, maqom ijrochiligimiz va shu bilan birga kin ova teatr sohalarimiz ham albatta gullab yashnaydi. Chuni xaqimiz haqiqatdan ham bizdan ilgari yashab ijod qilgan ustoz-san’atkorlarimizni ijro etgan kuy va qo‘shiqlarini, ijro etgan rollarini juda ham sog‘inishgan va hoziri kunda san’at va madaniyat sohasida faoliyat olib borayotganlardan ham ayni ularning ijro mahoratlarini ko‘rishni intiqlik bilan kutishayapti. Buning uchun esa ham ijrochilida, ham xonanda va sozandalikda mahoratga ega bo‘lgan san’at vakillarini yetishtirib chiqarishimiz lozim. Shundagina biz haqiqiy butun san’akorni ko‘ra olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barno Shaxnazarova Xonandalik uslubiyori asoslari Toshkent 2017.
2. Matyoquov O. “Maqomot” Musiqa nashriyoti Toshkent 2004
3. www.davron.hk.uz





AN’ANAVIY DUTOR CHOLG‘USINING IJRO USLUBLARI

Qumriniso RASULOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI

1-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: I.TOSHPO‘LATOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada dutor sozi ijrochilik amaliyotining mahalliy uslublari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Qolaversa, dutor sozida o‘zining uslubiga ega bo‘lgan mashhur dutor ijrochilarining faoliyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Dutor, Dorip dutorchi, Sharob I-II, Shafoat I-II-III, Dutor navosi, Nurmuhammad Boltayev, Qora dali, Aliqambar, G‘ulomjon Qo‘chqorov, Zokirjon Obidov, Mahmud Yunusov, Turg‘un Alimatov, Faxriddin Sodiqov.

Аннотация: В данной статье рассматриваются местные стили исполнения дутор сози. Кроме того, будет кратко рассмотрено творчество известных дутарных певцов, имеющих свой стиль в дуторной музыке.

Ключевые слова: Дутор, Дорип дутарист, Шароб I-II, Шафоат I-II-III, Дутор навоси, Нурмухаммад Болтаев, Карадали, Аликамбар, Гуломжон Кочкаров, Закиржон Обидов, Махмуд Юнусов, Тургун Алиматов, Фахриддин Садыков.

Abstract: This article discusses the local styles of dutor performance. In addition, the activities of well-known dutor players, who have their own style of playing the dutor instrument, will be briefly reviewed.

Key words: Dutor, Dorip dutor player, Sharob I-II, Shafoat I-II-III, Dutor navosi, Nurmuhammad Boltaev, Karadali, Alikambar, Gulomjon Kochkarov, Zakirjon Obidov, Makhmud Yunusov, Turgun Alimatov, Fahriddin Sadikov.





Musiqa o‘zining betakror tabiati bilan o‘quvchilarning ma’naviy dunyosiga katta ta’sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta’sirida o‘quvchilarda xissiyot olamining o‘sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilishi, go‘zallikni sevish, tabiatni asrash, oila Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. “Musiqa ko‘ngilga axloqan muayyan ta’sir ko‘rsatish quvvatiga ega, hamonki, musiqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo‘yilmog‘i lozim”, - deb aytgan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Arastu. Shunday ekan musiqiy ta’lim orqali o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash o‘ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi.

Dutor - o‘zbek an’anaviy chertim cholg‘u sozlaridan biri. Uzoq o‘tmishdan xalq ijrochilik amaliyotidan munosib o‘rin egallab kelayotgan dutor, ayni paytga kelib an’anaviy ijro uslubiga xos barcha guruhlar tarkibidan joy oldi. An’anaviy yakkanavoz cholg‘u sifatida shakllandi va yetakchi cholg‘ular qatoriga kirdi.

Dutor ijrochiligining keng ommalashuvi ijrochining samarali mehnati natijasidir. SHinavanda-tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang-barang asarlar va sirli ijro uslublarga oshno bo‘lib bordilar. Uslublar vaqt o‘tib o‘z-o‘zidan ijro maktablariga aylanadi. Xorazm dutor ijrochiligi maktabi yoki Qo‘qon ijro maktabi ana shunday an’analar asosida yuzaga kelganligi begumon.

Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg‘u yo‘llarining bir qator tomonlari mavjud bo‘lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo‘lgan. Birinchidan ijro repertuari, ya’ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalar yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albatta ijrochilikdagi o‘ziga xos xususiyatlardir. Ushbu prinsiplarsiz ijrochilikni maktab darajasida tasavvur etish qiyin. Lekin, masalani ikkinchi tomoni, maktab darajasiga erishish uchun vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi.

Xorazm dutor ijrochilik maktabida yuqorida eslatib o‘tilgan barcha prinsiplar amaliyotda shakllanganining guvohi bo‘lamiz. Amaliyotda yuzaga kelgan dutor maqomlari esa, «SHashmaqom» yoki «Xorazm olti yarim maqomlari» kabi ichki murakkab funksional





tartiblardan farqliroq, sodda va maqomlar yo‘liga mansub holda shakllanganligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi.

Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalar o‘zlarining «Xorazm musiqiy tarixchasi» kitoblarida «Dutor maqomlari deganda bir tarafdin mumtoz musiqa, ikkinchi tomondan el kuylari deyiladigan ma’muliy (amaldagi) butun boshli asarlar tushuniladi» deya ta’kidlaydilar. Bundan adabiyotlarda xalq orasida mashhurlikka erishgan va mumtoz yo‘lda yaratilgan alohida musiqiy namunalar dutor maqomlari deyilgan degan fikrga kelish mumkin.

Dutor sozi quyidagicha ta’riflangan o‘rinlar mavjud: – «Dutor sozi Xorazm o‘lkasida xalq orasida tanburdan ortiqmoch suratda tarqalgan bo‘lsada, tanbur qadar tartibda intizom ostina olinmagandur. Garchi dutor nag‘malari tanbur nag‘malari qadar bo‘lsada, tanburga berilgan ahamiyatni dutor nag‘malarina bera olmaganlar. Chunki, chertilish yoqidan qaraganda tanburdan qiyinroqdir»[3.37b].

Bu fikr esa dutor maqom ijrochiligida tanburchalik mohir bo‘lmasada, murakkab va o‘ziga xos uslubga ega bo‘lganini bayon etadi. Shu bois bo‘lsa kerak, Xorazm dutor ijrochilik uslubi zarblarga boy, rang-barang va eng muhimi Xorazm vohasiga xos «shovqinli» ijro uslubi sifatida alohida qayd etiladi. Bu ijro o‘ng qo‘l harakatlarini cholg‘u qopqog‘iga ishqalab chalish bilan xarakterlanadi. Ushbu vohaning Matkarim Hofiz, Jumaniyoz ota Hayitboev, Otajon Qo‘shmo, Sharif Botir, Nurmuhammad Boltaev, Yusuf Jabbor kabi mashhur dutorchilarining ijro yo‘llarini alohida e’tirof etish o‘rinlidir. Ayni paytda bu ijro yo‘llari yoshlar tomonidan munosib davom ettirilishi muhimdir.

Xorazm dutor ijrochilik uslubiga nisbatan Samarqand ijro yo‘li o‘zgacha ekanligi Abdurauf Fitrat tomonidan ham qayd etilgan. U «Bu kunlarda bizning eng mashhur dutorchimiz samarqandlik Hoji Abdulaziz qo‘lini taxtaga urmay chalg‘oni uchun uning dutori havas bilan tinglanadir», – deb u samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulovning dutor ijrochiligida mohir ekanligi va nozik bir uslub egasi ekanligiga e’tibor berib o‘tadi.

Farg‘ona-Toshkent vohasining dutor ijrochilik uslublari ham juda rang-barang ekanligini aytib o‘tish lozim. Chunki, bu vohada ijro uslublari ko‘p. Faqat Qo‘qon dutor ijrochilik maktabining o‘zigina,





o‘ziga xos an’analar bilan sug‘orilgan. Bu an’analarni birgina «Qo‘qoncha» asarida ham ko‘rish mumkin. Dutorning shaxdam shiddatli talqini, zarblarining rang-barangligi, chap va o‘ng qo‘llar mohirligi va jozibaliligi uslub ijrochiligining mag‘zi hisoblanadi.

Ijrochilik maktablari yuzaga kelishida alohida ijro uslublarning ahamiyati katta. Shuning uchun Farg‘ona-Toshkent vohasida biz ko‘pgina shaxsiy dutor ijrochilik uslublari shakllanganining guvohi bo‘lamiz.

Musiqa ijrochiligi amaliyotida dutor cholg‘u ijrosini me‘yoriga etkazib, ustozlik darajasida faoliyat olib borgan bir talay mashhur san’atkorlar o‘tgan. Zohidjon Obidov, Faxriddin Sodiqov, Mahmud YUnusov, Orif Qosimov, G‘ulom Qo‘chqorov kabi ustoz san’atkorlar shular jumlasidandir.

XX asrda dutor ijrochiligining rivoji aynan mana shu ustozlarning samarali ijodiy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Lekin, har bir san’atkorning dutor ijrochiligida o‘ziga xos chertish yoki chalish usuli bo‘lgan. Aynan shu jihat ularning mohir ekanliklariga asos bo‘lgan. Bu dutor ijro etganda chap yoki o‘ng qo‘l harakatlarida o‘z ifodasini topgan. Ijro amaliyotida ham shu sozanda nomi bilan muhrlanib qolgan (bu albatta kelajak avlodlar uchun o‘rnak bo‘lishi yoki eslab qolish, o‘rganishda osonlik yaratish uchun xizmat qiladi).

Jumladan, ana shundaylardan biri o‘z zamonasida mohir sozandalik darajasiga erishgan, dutor ijrosi bilan elga tanilgan Zohidjon Obidovdir.

Zohidjon Obidov ijrochi bo‘lish bilan birga ijod bilan ham shug‘ullangan. Shu holat uning dutor ijrochiligida turli metroritmik usullarni izlashiga sabab bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki, Zohidjon Obidovning dutor ijrochilik uslublari o‘ng qo‘l harakati alohida ahamiyat kasb etgan.

Sozanda shaxsiy ijro uslubining negizi ham uning o‘ng qo‘li harakati bilan bog‘liq. Qo‘l barmoqlari va beriladigan zarblarning turli ko‘rinish va shakllari hamda urg‘ularni rang barang ishlatishda, teskari zarblarni o‘rniga qo‘yib aks ettirish uslubning zaminidir. Zohidjon Obidov asosiy diqqatni o‘ng qo‘lga qaratib, kuyni rang-barang usullar va zarblar bilan bezaydi. Asarga joziba baxsh etuvchi harakatlarni ko‘paytiradi. Lekin, u chap qo‘lga e‘tiborsiz bo‘lgan. Bu uslub ham ijrochilikning o‘ziga xos tomonlari sifatida amaliyotda muhrlangan.





Zohidjon Obidov uslubiga aks xarakterga ega bo‘lgan, va el orasida mashhurlikka erishganlardan, taniqli dutorchi sozanda, ustoz san’atkor Mahmud Yunusovdir. Mahmud Yunusov dutor ijrochiligida o‘ziga xos uslub orqali tanilgan. Bu uslub asosida o‘ng qo‘l harakatining to‘g‘riligi, bir xillik xususiyat kasb etishi, elastik harakatlardan va mayda zarblardan mustasno ekanligi turadi. Lekin uslubning muvaffaqiyati va xalqqa manzur bo‘lishi chap qo‘l ijro jozibasida mujassamlashgan.

Mahmud Yunusov ijroda chap qo‘l bilan o‘zbek milliy sayqal va qochirim-bezaklarni juda mohirona ishlata olgan. Bu esa dutordan taralayotgan ohangning serjilo va sersayqal yangrashiga zamin bo‘lgan.

Xalq orasida, ayniqsa, dutorni o‘rganish mezonlarida ijrochilikka xos texnik jihatlarni yaxshi o‘zlashtirish doimo samaraliligi bilan alohida ahamiyatli bo‘lgan.

XX asr dutor ijrochiligi ham xalq cholg‘ularining akademik ijro uslubi bilan tutashganligini qayd etish lozimdir. Chunki, bu uslub dutor oilasi cholg‘ulari rivojini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Dutorning texnik jihatdan mohir ijrosiga asoslangan uslub mashhur ustoz dutorchi Orif Qosimov nomi bilan bog‘liq.

Dutor ijrochiligining an’anaviy yo‘nalishida o‘ziga xos jozibali uslub in’om etgan ikki zabardast ustozlarni e’tirof etish joiz. Bular xalq ardoqlagan san’atkorlar Faxriddin Sodiqov va Turg‘un Alimatovlardir.

XX asrning 30-yillaridan o‘zbek musiqa san’atida, ayniqsa ijod va ijroda yangi-yangi qarashlar yuzaga kela boshlagan. Musiqaning sehri va jozibasi yanada teranroq va zamona ruhi bilan uyg‘unlikda aks ettirila boshlangan.

Faxriddin Sodiqov o‘zining ko‘p yillik ijodiy va ijrochilik faoliyatida o‘ziga xos dutor ijro uslubini kelajak avlod uchun taqdim etgan.

Turg‘un Alimatov uslubi keng ommalashgan va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning dutor ijrochilik uslubi, mukammal tarzda o‘ng va chap qo‘llar harakatlari bir biriga mutanosib holda ifoda etilishini e’tirof etish joizdir. Dutor sadosi tekis, ravon va serjilo, jozibali yangrashidagi barcha jarayonlarning mutanosibligi aynan Turg‘un Alimatov ijro uslubining asosini tashkil etadi.

Bu uslubda chap qo‘ldagi har bir sayqal va bezaklar o‘ng qo‘l harakatlari bilan muhrlanadi. Bir-biriga mutanosib harakatlarning har





biri tinglovchi yuragini tirnab zavqlantiradi. E’tiborsiz qolishga iloj yo‘q, chunki harakatlar ohang bilan uyg‘un, ohang esa tarannumda go‘zal va jozibali taraladi Bu har qanday insonni maftun etadi. Turg‘un Alimatovning dutor ijrochiligidagi o‘ziga xos tomonlaridan yana biri, bu – tanbur va sato cholg‘u ijrochilik an’analarining dutorga moslashtirilganidadir. Bir cholg‘uning imkoniyati ikki va uch cholg‘uning ovoz tarannumlari xususiyati bilan boyitilsa, albatta undan taralayotgan ovoz boy, serjilo va zabardast bo‘lishi begumon. Bu esa ijrochilik amaliyoti uchun o‘rnak sifatida xizmat qiladi.

Konservatoriyada Faxriddin Sodiqov maqom ijrochilarining yangi avlodini tarbiyalab voyaga yetkazishda samarali ish qildi. Chunki, hozirgi ustozlar darajasida faoliyat olib borayotgan O‘lmas Rasulov, Shavkat Mirzaev, Abduhoshim Ismoilov, Yo‘ldosh Tojiev, Tuyg‘un Otaboev, Abdurahim Hamidov, Abdurahmon Xoltojiev, Ahmadjon Abdurahimov kabi zabardast san’atkorlarni ijodiy yo‘lga solgan aynan ustoz Faxriddin Sodiqovdir.

Zamonaviy dutor ijrochiligi rang-barang uslublar bilan boyib, o‘z taraqqiyoti jarayonida va davr talabi doirasida rivoj topib bormoqda. Bunga, dutorning o‘quv tizimi jarayoni, ya’ni maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv muassasalarining dasturidan joy olganligi ham misol bo‘la oladi. CHunki, dutor o‘zbek xalqining qadimiy va hamisha zamonasi bilan hamohang yashab kelgan sevimli sozlaridan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki O‘zbekistonda dutorning xalq an’anaviy va hududiy ijrochilik uslublari mavjuddir. Hududiy uslublarga Farg‘ona-Toshkent va Xorazm dutor ijrochilik maktablari kirib, har biri o‘zining vohaviy xususiyatlariga ega. Xorazmda esa maxsus dutor maqomlari ham shakllangan. Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq dutorchi sozandalaridavn Mahmud Yunusov, G‘ulomjon Qo‘chqorov, Faxriddin Sodiqov, Abdurahim Hamidov kabilar doimo xalqimiz e‘zozida bo‘lib kelganlar. Kelajakda ana shunday zabardast dutor sozi ijrochilari ko‘payishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘txati:

1. Mahmud Ahmedov. Hoji Abdulaziz Rasulov. T.: “O‘qituvchi” 1974.
2. Ravshan Yunusov. Faxriddin Sodiqov. YUNESKO dasturiga asosan nashr ettirilgan. T.:2005 y 33-bet.





3. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent. 1998.

4. Yuldosheva Feruza. Bugungi maqom cholg‘u ijrochiligida Turg‘un Alimatov maktabining ahamiyati: dutor misolida. Yunus Rajabiy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2022.

5. Malika Ziyayeva. Dutor (Faxriddin Sodiqov ijro uslubi). T.: “Musiqqa” 2011.

6. B. Matyoqubov. “Sozi dur so‘zi gavxar. Maqolalar to‘plami. “Urganch” 2007.





**O‘ZBEK DOIRA IJROCHILIK SAN’ATI: DADAXO‘JA
SOTTIXO‘JAEV
(1921-1992)**

*Nizomiddin G‘ULOMOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-kurs magistranti.
Ilmiy rahbar: Raxmatilla SAMADOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI professori.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘zbek doira ijrochilik san’atida o‘ziga xos ijrochilik maktabini yaratgan, darg‘a-san’atkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Dadaxo‘ja Sottixo‘jaevning faoliyati atroflicha ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijrochining o‘ziga xos ijrochilik uslubi, ijodiy maktabi an‘analari maqolada o‘z aksini topgan.*

***Kalit so‘zlar:** doira, cholg‘u, ijrochilik maktabi, musiqa san’ati, uslub, an‘ana.*

XX asrga kelib o‘zbek musiqa san’ati yangi rivojlanish davriga qadam qo‘ydi. Qadimiy san’at turlarining takomili natijasida yangidan-yangi ijodiy-ijrochilik maktablari yuzaga keldi. Xususan, Yevropa musiqa madaniyatining mamlakatimiz hududiga kirib kelishi, raqamli texnologiyalarning iste‘molda paydo bo‘lishi pirovardida bebaho san’atimiz durdonalarini yozib olish, nota varoqlariga qayd etish natijasida kelgusida milliy meros namunalarini umrboqiyligi ta‘minlandi. Bu borada o‘zbek musiqa san’atida aynan, bastakorlik, kompozitorlik, ijrochilik san’atiga tegishli musiqiy asarlar soatlab yangraydigan magnit lentalariga muhrlanishida ko‘plab insonlarning beminnat xizmatlarini ta‘kidlash joiz.

O‘zbek xalq musiqa san’atini doira cholg‘usisiz, uning jozibali usullarisiz tasavvur qilish qiyin. Katta yig‘inlar, to‘yu-tomoshalar, tantanalarda, xonandalarning xonishi, raqqosalarning hiromi, sozandalarning nag‘malariga, albatta doira jo‘r bo‘ladi. Agar uzoqdan





doira sadolari eshitilsa, bilingki, shu yerda qandaydir tantana, xursandchilikdan daloladdir.⁴⁶

Bu bebaho musiqiy qadriyatlarni bizgacha bekamu ko‘st yetib kelishi hamda shu asosda yangi usullar ham jilva ko‘rsatishida yaqin o‘tmishda yashab ijod qilgan ustoz san’atkorlar – Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Abulqosim To‘ychiev, Muhammadqul ota Mullajonov, To‘ychi va G‘afur Inog‘omovlar, G‘afur Azimov, Rahim Isaxo‘jaev, Anvar Baraev, Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev, Hojiqurbon Hamidov (Hoji tam-tam), Boltaboy Sharipov, Akbar Yo‘ldoshev (Malla polvon), Mirjalil Mirholiqov, Ubaydulla Mahmudov, Qahramon Dadaev, Erkin To‘ychiev, Ravshan Akbarbekov, Odil Kamolxo‘jaev kabi doira san’ati darg‘alarining xizmatlari beqiyos, albatta.⁴⁷

Shu o‘rinda, doira ijrochilik san’atida alohida maktab yaratgan, hassos ijodkor, sozanda, ustoz-san’atkor, so‘zamon askiyachi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Dadaxo‘ja Sottixo‘jaevning faoliyati musiqa madaniyatimiz solnomalarida zarhal harflar bilan muhrlanib qoldi. U faqatgina ijrochi bo‘libgina qolmasdan, balki, tashkilotchi, maqom usullarining bilimdoni, ko‘plab doira ijrochilarining sevimli va suyuqli ustozidir.

D.Sottixo‘jaev o‘zbek maqomini asrab qolishdek, qahramonona vazifani maqom mulkining xazinaboni, O‘zbekiston xalq artisti, akademik, bastakor, sozanda Yunus Rajabiy bilan yelkama-yelka turib maqom ansamblini tashkil etish hamda maqom kuy-qo‘shiq va ashulalarini soatlab yangraydigan plastinka lappaklariga muhrladilar. Shuni qayd etish joizki, uning ansamblidagi ijrochilik faoliyati taqsiinga sazovordir. Birgina maqom ansambli bilan chegaralanmasdan balki, turli ijodiy jamoalar, teatr orkestrlarida, O‘zbek davlat estrada orkestrida, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarida barakali ijod qildi. Uning faoliyatiga razm soladigan bo‘lsak, so‘ronli o‘tmishga sayohat qilishimizga to‘g‘ri keladi.

⁴⁶ D.Uzoqov. Ustozlardan doira saboqlari. Doira uchun asarlar to‘plami. “Musiqa” nashriyoti, Toshkent.:2014-yil, 7-s.

⁴⁷ D.Islomov. Maxsus cholg‘u. (An’anaviy doira ijrochilik usullari) (5111000-Kasb ta’limi: 5151600-Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). Toshkent.: 2019-yil, 5-s.





Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev 1921-yilning 23-fevral sanasida Toshkent viloyatining Parkent shahrida Sotvoldixo‘ja oilasida tavallud topgan. Uning ajdodlari “xo‘ja”⁴⁸larga borib taqaladi.

XX asr boshlarida sobiq Sho‘ro mustabid tuzumining mafkurasida diniy tabaqa vakillari qattiq qarshilik va to‘siqlarga uchragan. Ularga nisbatan adolatsiz hukmlar joriy etilgan. 1930 yilga kelib, uning padari buzrukvor Sotvoldixo‘ja I.Stalin olib borgan mash‘um siyosatning qurboni bo‘ldi.⁴⁹ U davrlarda ilm ahli vakillari, ziyoli kishilar hamda aholining boy qatlami qatag‘onga uchragani va uzoq o‘lkalarga (qo‘loq) surgun qilinganligi tarixning sahifalarida o‘z aksini topgan.

9 yoshli Dadaxo‘ja ota-onasidan erta ayriladi. Shu yildan e‘tiboran uning hayotida qiyinchilik va nochorlik davri boshlanadi. Uning yelkasiga juda erta yetimlik yuki tushadi. Bolaligidan musiqa san‘atiga ayniqsa doira cholg‘usiga o‘zgacha mehr qo‘yadi. U madaniyat va musiqa san‘atining markazi hisoblangan choyxonalarda, turli yig‘in, marosim, to‘y tantalarida ijodiy guruhlarining ijrolaridan zavq oladi va musiqa san‘atiga ishtiyoqi tobora kuchayib boradi.

U avval to‘garakda, keyin esa karnay-surnay guruhidagi sozandalardan saboq oladi. Musiqa san‘atining ushbu sohasiga qiziqishi andijonlik dorbozchilik guruhiga olib keldi. Bir muddat ushbu guruxdan sozandalik sirlarini o‘zlashtira boshlaydi va shu guruh bilan Farg‘ona vodiysiga kelib qoladi. Shu tariqa san‘at ostonasida kirib keladi.

D.Sottixo‘jayev 30-yillarning oxirida Andijon viloyat musiqali drama teatriga sozanda sifatida ishga qabul qilinadi. Teatrda uning ilk ijrochilik faoliyati boshlanadi. U taniqli sozanda, ustoz-san‘atkor, mohir surnaychi va qo‘shnaychi Ahmadjon Umrzoqovdan Farg‘ona vodiysi ijro an‘analari va mumtoz musiqa san‘ati sirlarini o‘rganadi. Ustoz rahbarligida maqomlarning usullari borasidagi tizimni qunt bilan o‘zlashtirib Mashhur qiziqchi ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonovdan (sozandalik, qo‘shiqchilik lapar va yalla yo‘llari, askiyachilik),

⁴⁸ “Xo‘ja” atamasi(fors. — xo‘jayin, sohib) — islom mamlakatlarida turli davrlarda turlicha ma‘noda ishlatilib kelingan faxriy unvon va murojaat shakli. Ijtimoiy tabaqa sifatida sayyidpandan keyingi o‘rinda turgan. Xo‘ja larning kelib chiqishi haqida har xil fikr bor. Ba‘zi ma‘lumotlarda Xo‘jalar choryorlardan tarqalgan deyilsa, boshqasida arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari deb hisoblanadi. Xo‘jalar muayyan imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Ba‘zi mamlakatlarda bu imtiyoz ma‘lum darajada saqlanib qolgan.

⁴⁹ Dadaxo‘ja Sottixo‘jaevning qizlari Rozaxon Isaqova (Sottixo‘jaeva) bilan suhbatdan. Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri, Majnuntol ko‘chasi 69-uyda 17-dekabr, 2023 yil.






O‘zbekiston xalq hofizi Jo‘raxon Sultonovdan (milliy musiqa san’ati an’analari, sozandalik, askiyachilik) saboq oladi. Ustozlarga ergashgan Dadaxo‘ja yonma-yon turib, faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Shuningdek, ustozlaridan nafaqat kasbiy balki insoniy sifatlar insoniylik, muomala, san’atkor odob-ahloqi, sahna madaniyati, halollik, rostgo‘ylik, zukko va hozirjavoblik (askiyachilik)ni puxta egallaydi. Shu bois ham Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev nihoyat darajada odamohunligi, hozirjavoblighi, shinavandalighi bilan zamondoshlari orasida qadrlil va e‘zozli inson edi.

1939 yilda u Respublikamizning ko‘pchilik atoqli sozandalari qatorida Yangi yo‘l musiqali drama teatriga ishga chaqiriladi. Bu dargohda Dadaxo‘ja aka xalqimizning eng ko‘zga ko‘ringan, sara san’atkorlari bilan birga ijod qilishga muyassar bo‘ladi. D.Sottixo‘jaev shu davrda atoqli sozanda, bastakor hamda xonandalardan To‘xtasin Jalilov, Kamtar Otaboev, Lutfixonim Sarimsoqova, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Saodat Qobulova singari san’atimizning yulduzlari va darg‘alari bilan faoliyat olib borib, ijrochilik kamolitiga yetadi. 1957 yilga qadar u zamonaning taniqli estrada xonandalari jam bo‘lgan ijodiy guruh “O‘zbek davlat estradasi”da samarali faoliyat ko‘rsatadi.

1957 yilda O‘zbekiston davlat radiosi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri (keyinchalik Doni Zokirov nomidagi o‘zbek davlat xalq cholg‘ulari orkestri)da sozanda sifatida ishlay boshlaydi. Bu orkestrda ikki yil davomida faoliyat yuritadi. 1959 yilda mashhur maqomdon ustoz, bastakor, hofiz Yunus Rajabiy bilan birgalikda “Maqom ansambli”ni tashkil etishda faol ishtirok etadi va bu ansamblda doirachi sifatida ishga qabul qilinadi.

Ustoz-san’atkor umrining so‘nggi kuniga qadar mana shu jamoada faoliyat olib boradi. Respublikamiz musiqiy hayotida mumtoz musiqa namunalarini magnit lenta va plastinki lappaklariga muhrlanishida Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev ritmik asos vazifasida doira cholg‘usida bosh bo‘lib qatnashadi. Ayniqsa, “Shashmaqom”ning 1966-yili plastinkalarga yozilishi so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyiga munosib sovg‘a sifatida yozilishida qatnashgani ahamiyatlidir. Chunki, bu plastinkada “Shashmaqom”ning deyarli barcha ashula va cholg‘u yo‘llari aks etgan.





So‘z mulkingning sultoni
Alisher Navoiyning 525 yillik
yubileyiga “Shashmaqom”
plastinkalari. 1966 yil.

D.Sottixo‘jaev an’anaviy uslubdagi deyarli barcha xonanda va hofizlarning, oltin fondiga yozilgan musiqiy asarlarning barchasiga jo‘r bo‘lgan. U an’anaviy doira ijrochiligida o‘ziga xos yorqin uslubga ega bo‘lgan san’atkordir. Uning ijrochilik uslubida mukammallik, pishqlik, ayniqsa maqom usullarining me’yoriy talqini, ijroning betakrorligi bilan ajralib turadi. Ustoz Ahmadjon Umrzoqov bilan birgalikda o‘zlashtirgan mumtoz usullar silsilasi yosh avlod uchun katta maktabdir. Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev o‘z vaqtida xalq tomosha va bazm-sayllarida chaqiriq usullarining mohir ijrochisi va talqinchisidir. Ijrochilik faoliyatida yakka va jo‘navozlik ijro o‘ziga xos badiiy





namunasini topgan. Ijodkor faoliyati davomida quyidagi shiorni ilgari surgan: “Maqom usullari aniq ravon va asl holda ijro etish” edi. Chunki, maqom usullarining sayqali ham, zer-u zabari ham o‘zi bilan. Unga ortiqcha bezak, pardoz berish yaramaydi. Maqom ijrochiligining asosiy qoidasi ham mana shunda.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev o‘z faoliyati davomida bir qator shogirdlarni tarbiyalagan. Namanganlik Tojiali Olimov, Sobir Saibikromov, Rahmatilla va Quدراتilla Samadovlar ustaning ishongan izdoshlaridir. 1983-yilda hukumatimiz tomonidan Dadaxo‘ja Sottixo‘jaevning ko‘p yillik ijodiy-ijrochilik faoliyati e‘tiborga olinib, ijodkorga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan taqdirlanadi. Mashhur doira ijrochisi, atoqli san’atkor Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev 1992-yilning 17-sentabr sanasida Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahrida vafot etgan. U o‘zi yashagan shaharning “Oltinobod” qabristoniga dafn etilgan. Uning xotirasi shogirdlari, farzandlari hamda musiqa shinavandalarining xotirasida mangu yashgaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D.Islomov. Ustozlardan doira saboqlari. Doira uchun asarlar to‘plami. “Musiqqa” nashriyoti, Toshkent.:2014-yil.
2. D.Islomov. Maxsus cholg‘u. (**An’anaviy doira ijrochilik usullari**) (5111000-Kasb ta’limi: 5151600-Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). Toshkent.: 2019-yil, 5-s.
3. Дадахўжа Соттихўжаевнинг қизлари Розахон Исақова (Соттихўжаева) билан суҳбатдан. Тошкент вилояти, Янгийўл шаҳри, Мажнунтол кўчаси 69-уйда 17-декабр, 2023 йил.
4. Ислотов Д. Мозийдан садо.(Монография).-Т.: “Ехstremum press”, 2015.
5. Ислотов Д. Доира санъати дарғалари.(Монография).-Т.: “Fan va texnologiya”, 2019.





BOTIR ZOKIROV IJODIDA MAQOM OHANGLARI

Surayyoxon KARIMOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI

2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Shavkat MATYOQUBOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI dotsenti.

Annotatsiya: *O‘zbek musiqasi, milliy ohanglari kabi mukammal va betakror, go‘zal va nafis musiqa dunyoda topilmaydi. Ayniqsa maqomlarimizning jozibasi barchani o‘ziga maftun etib kelmoqda. Maqom ohanglaridan andoza olgan holda milliy estrada san’atini yanada rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Estrada va maqom san’atining mushtarak jihatlarini biz Botir Zokirov ijro etgan asarlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada Botir Zokirov ijro etgan bir nechta asarlar tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida estrada san’ati va maqomlarning uyg‘unliklari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *maqom, estrada, san’at, qo‘shiq, musiqiy asarlar, usul, parda.*

Аннотация: *Идеальной и неповторимой, красивой и элегантной музыки, такой, как узбекская музыка, национальные мелодии, не найти в мире. Особенно всех покорило очарование наших макомов. Возможности дальнейшего развития искусства национальной эстрады по умолчанию от тонов макома огромны. Общие аспекты эстрадного и макомного искусства отчетливо прослеживаются в произведениях Ботира Закирова. В данной статье анализируются несколько исполнений Ботира Зокирова. В процессе анализа выявляются гармонии эстрады и макомов.*

Ключевые слова: *маком, эстрада, искусство, музыка, музыкальные композиции, ритм, нота.*

Abstract: *Perfect and unique, beautiful and elegant music, such as Uzbek music, national melodies, cannot be found in the world. Everyone was especially captivated by the charm of our makoms. The possibilities for further development of the art of the national stage by default from the tones of the makom are enormous. The general aspects of pop and makom art can be clearly seen in the works of Botir Zakirov.*





This article analyzes several performances of Botir Zakirov. In the process of analysis, the harmonies of pop music and makoms are revealed.

Key words: *makom, pop, art, music, musical compositions, rhythm, musical note.*

Milliy ohanglar, uarning bardavomligi, asl holatida saqlanib avloddan-avlodga yetkazilishi masalalari hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Ohang tinglovchining ongiga, ruhiyatiga bevosita ta’sir etib, uning ma’naviy dunyosi shakllanishida katta xissa qo‘shadi. Qolaversa kuy va ohang kuchli ma’naviy qurollardan biri sanaladi. Dunyo rivojlanmoqda, kundan kunga har sohada yangilanishlar, taraqqiyot kuzatilmoqda. Ammo bu rivojlanishlar yosh avlod ma’naviy dunyosiga faqat va faqat ijobiy ta’sir etishiga intilishimiz muhim. Buning uchun esa zamonaviylik bilan birgalikda milliyligimizni ham rivojlantirib borishimiz, yanada to‘g‘riroq aytadigan bo‘lsak milliyligni zamonaviylik sifatida qabul qilishga intilishimiz lozim. Ana shunda biz dunyo ahlining e’tibori va e’tirofiga sazovor bo‘la oladigan yo‘nalishlarga ega bo‘la olamiz. Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda alohida e’tibor bilan yondoshilayotgan maqom san’atimizning zamonaviy yoshlar hayotiga faol kirib kelishi jarayoni juda muhimdir.

Insonlar hilma hil bo‘lganidek, yoshlarimizning didi, dunyoqarashi ham hilma hildir. Shunga qaramay, tinglovchilarning aksariyati, bugungi kunda asosan estrada san’atiga ko‘proq qiziqish bildirmoqdalar. Bu qiziqish, aslida bugun paydo bo‘lgan emas. Ya’ni estrada yo‘nalishi o‘zbek san’atiga kirib kelgan lahzalardayoq katta qiziqish bilan qabul qilingan. Yillar davomida o‘zbek milliy estrada san’ati aynan milliy ohanglarimiz vositasida shakllanishi natijasida bir qancha yutuqlarga erishib keldi. O‘zbek milliy estrada san’atining shakllanib, rivojlanishida bir qancha ijodkorlarning xissalari bor. Shular qatorida, ushbu san’atning tamal toshini barpo etgan ijodkor sifatida Botir Zokirovning nomini alohida e’tirof etish joiz.

Botir Zokirov juda iste’dodli ijodkor bo‘lgan. Uning yaratgan qo‘shiqlari bugungi kunda ham sevib tinglanadi. Ba’zi ijrolari xatto boshqa davlatlarda ham e’tirof etiladi. Uning ijro etgan va yaratgan asarlarida samimiylik, soflik, beg‘uborlik, sokinlik va jo‘shqinlik, hayot ufurib turadi. Botir Zokirov ijodidagi qo‘shiqlarni tinglar





ekanmiz ularda milliy ohanglarimizdan ham unumli va mohirona foydalanilganligining guvohi bo‘lamiz. Uning bir nechta asarlarini tahlil qilib ko‘ramiz.

1975-yilda Botir Zokirov tomonidan ijro etilgan “Majnuntol” qo‘shig‘ining muallifi unig ukasi Farrux Zokirov bo‘ladi. Bu qo‘shiq major tonalligida yozilgan. Dugoh maqomi ohanglariga juda o‘xshaydi. Qo‘shiq ijrosi davomida kuztiladigan sakrashlar ham aynan maqomda qo‘llaniladigan sakrashlar bilan bir hil. Bu qo‘shiq kuylarida bastakor kichik xajmdagi notalardan foydalangan, ammo shuning o‘zidayoq o‘zbek milliy musiqasining jozibasini ko‘rsatib bergan. “Majnuntol” qo‘shig‘i estrada san’ati ilk shakllanish davrida yaratilgani uchunmi, unda milliylikdan deyarli qochilmagan. Uni yaratgan va ijro etgan ijodkorlar maqomlarimizni tinglab ulg‘aygan, milliy ohanglarimiz bilan sug‘orilgan insonlar ekanligi sezilib turadi. Ana shu bolalik davridan eshitib ulg‘aygan ohanglaridan kelib chiqqan holda Farrux Zokirov “Majnuntol” asarini yaratgan. Bu qo‘shiqda milliylik jamlangani uchun ham balki, Botir Zokirov uni ijro etishga jazm etgandir.

*Bosh yuvay deb majnuntol bir kun
Chiqqan emish buloq bo‘yiga,
Chiqqan emish buloq bo‘yiga,
O‘zin ko‘rib buloqda durkun,
Ketolmayin qolibdi uyiga,
Ketolmayin qolibdi uyiga.*

Farrux Zokirov bu qo‘shiqning yaratilishi va ijro etilishi haqida shunday degan edi: “Yigitlik yillarim musiqa bastalashga moyilligim bor edi. “Shunday qo‘shiq yozsamki, Botir Zokirov repertuariga kiritisa”, deb orzu qilardim. Akam esa eshitib ko‘rardi-da, “Yo‘q, hali bor, pishmagan”, derdi. Shukr, ko‘p fursat o‘tmay, shunday baxtga musharraf bo‘ldim. 1974-yil “Majnuntol” qo‘shig‘ini yozgan bo‘lsam, bir yildan keyin “qo‘shiq juda chiroyli chiqibdi, maylimi, men kuylasam”, deya so‘ragan. O‘shanda yuragim yorilib ketay degan. Hozir ham kuchli hayajon bilan eslayman”.⁵⁰

Botir Zokirov repertuaridan o‘rin olgan “Hayolimda bo‘lding uzun kun” qo‘shig‘i Hamid Olimjon so‘ziga aytilgan. Ilk bora shoirning

⁵⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Majnuntol>





yubileyiga bag‘ishlangan konsert dasturida ijro etilgan edi. Shoirning rafiqasi Zulfiyaxonim bu qo‘shiq ijrosidan so‘ng ko‘zida yosh bilan Botir Zokirovga minnatdorlik bildirgan. “Hayolimda bo‘lding uzun kun” qo‘shig‘ini tinglay boshlashingiz bilan Ushshoq maqomi hayolingizga keladi. Chunki unda yangraydigan ohanglar, sakrashlar Ushshoq maqomiga juda o‘xshaydi.

*Xayolimda bo‘lding uzun kun,
Seni izlab qirg‘oqqa bordim.
Och to‘lqinlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim.*

Qo‘shiqning boshida yangraydigan cholg‘u muqaddimasi ham juda original tarzda yaratilgan bo‘lib, u o‘zida maqomlarda keladigan hang, dumcha, zamzamalarni jamlab, aks ettirgan. Qo‘shiq umumiy jihatdan betakror lirik kuy yo‘liga egadir. Ushshoq so‘zining ma‘nosi oshiqning ko‘pligini bildiradi, ya‘ni “oshiqlar” deganidir. Bu qo‘shiqni kuy jihatidan ham, matn jihatidan ham, ovoz jihatidan ham oshiqning dil izhori desa bo‘ladi. Undagi foydalaniladigan usul muhabbatga to‘lib urgan yurak kabi. Nola va qochirimlari esa oshiq ko‘ngilning xayajonlariga o‘xshaydi.

Botir Zokirovning repertuaridagi yana bir qo‘shig‘i “Maftun bo‘ldim” deb nomlangan. Bu qo‘shiq o‘zbek tilidagi eng mashhur qo‘shiqlardan biridir. Ko‘pchilik o‘zbek tinglovchilari bu qo‘shiqni xatto yoddan biladi. Qo‘shiq 1958 yilda rejissyor Yo‘ldosh A‘zamov sur‘atga olgan “Maftuningman” nomli musiqali filmi uchun maxsus yozilgan. Qo‘shiqning matni Turob To‘laga, musiqasi esa Mutal Burxonovga (ba‘zi manbalarda Manas Leviyev deb keltirilgan) tegishli. Qo‘shiqni Botir Zokirov yuksak mahorat bilan ijro etgan.

*Jon, yori jonim, mehribonim, janon,
Jon, gulizorim, kel, nigorim, jon.
Maftun bo‘ldim, maftun bo‘ldim
Go‘zal bir janonga.
Maftun bo‘ldim jondan aziz
Xumorko‘z janonga.*

Bu qo‘shiqni tinglay boshlashingiz bilan Sarahbori Dugoh, Sarahbori Rost va boshqa Sarahborlarda keladigan xang va zamzamalarni payqay boshlaysiz. Qo‘shiq oxiriga qadar mana shu xang va zamzamalardan mahorat bilan foydalanilgan. Qo‘shiqda milliylik





boshidan to oxiriga qadar saqlanib qolgan. Aynan mana shu jihati va ijro mahoratining yuksakligi tufayli ham qo‘shiq xalqqa taqdim etilishi bilanoq, ularning qalbidan chuqur joy oldi. Chunki aynan mana shu xang va zamzamalar tinglovchining qalbini to‘lqinlantiradi, bir oz hayajon beradi va yoqimli tuyg‘ularni uyg‘otadi. O‘zbek maqomlaridagi aynan mana shu jihat Botir Zokirovning “Maftun bo‘ldim” qo‘shig‘iga mukammal tarzda, o‘ziga xos ko‘rinishda ko‘chirilgandek go‘yo.

Farg‘ona-Toshkent mumtoz asarlari ichida “Yolg‘iz” asari bor. Uning usuli Botir Zokirov ijro etgan “Ra‘no” asarining usuli bilan aynan bir hildir. Bundan tashqari bu qo‘shiqda rus musiqasi elementlari ham seziladi. Nola va qochirimlari esa Shashmaqomning Segoh maqomi bilan o‘xshash. Qo‘shiq yuksak iste’dod egasi tomonidan bastalangani yaqqol sezilib turadi. Chunki unda estrada janrining maqom ohanglari bilan uyg‘unligi mukammal tarzda ifodalangan.

Barnolar ichra barno – Ra‘no,

Gulmisan, gulyormisan,

Gulmisan, gulyormisan?

Oshiqqa dildormisan?

Hamma gullardan a‘lo – Ra‘no,

Hamma gullardan a‘lo – Ra‘no, Ra‘no.

Botir Zokirovning “Ra‘no” qo‘shig‘i ilk bora 1964 yilda “Qo‘shiq suratini chiz” deb nomlangan musiqiy filmda yangragan. 1966 yilda esa qo‘shiq xonanda tomonidan Fransiyaning Parij shahrida joylashgan Olimpiya zalida ijro etilgan.



Qo‘shiqning nota matniga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning Savti kalonlar asosida yaratilganligining ham guvohi bo‘lamiz. Qiyoslash





uchun Qashqarchai Savti Kalonning qisqacha nota matnini ham keltirib o‘tamiz.⁵¹



Botir Zokirov ijro etgan bu qo‘shiqlar bugungi kunda ham o‘z qadr qiymatini yo‘qotgan emas. Turli xalqlarning ohanglaridan foydalanib, “milliy estrada” nomiga munosib bo‘lmay yaratilayotgan qo‘shiqlar, afsuski, bugungi kunda ko‘payib bormoqda. Estrada qo‘shiqlarini yaratishda maqom ohanglaridan foydalanish – bu yangilik emas, bu avval ham mavjud bo‘lgan tajriba. Buni ushbu maqolada keltirilgan Botir Zokirovning qo‘shiqlari tahlili misolidan ham anglash mumkin. Mana shu tajribalardan o‘rnak, mumtoz musiqalarimiz, maqomlarimizdan andoza olgan holda yaratilajak har qanday qo‘shiq umri boqiy bo‘lishiga va yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov O. “Estrada san’atida maqom ohanglari”, “Oriental Art and Culture” ilmiy-uslubiy jurnali. Volume 4 Issue 5 / October 2023. 454-b. Panjiyev Q., Azizov R., “Estrada qo‘shiqchiligi yoshlarni tarbiyalashning ma’naviy vositasi sifatida”, “Zamonaviy ta’lim” 7-son, 2018.
2. Mullajonov D.M. 1990-yillar o‘zbek musiqiy estradasida ohang muammosi: san’at. fan. nomzod. dis. – Toshkent, 2004
3. Ibrohimov O. Milliy tarbiyaning musiqiy asoslari //Sog‘lom avlod uchun. 1997. № 4. – B. 6-7.
4. https://uz.uz/uz/posts/ozbekiston-davlat-konservatoriyasi-huzuridagi-botir-zokirov-nomidagi-milliy-estrada-sanati-institutini-tashkil-etish-togrisida_311518
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Majnunol_\(qo%CA%BBshiq\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Majnunol_(qo%CA%BBshiq))

51 O.Safarov “Estrada san’atida maqom ohanglari”, “Oriental Art and Culture” ilmiy-uslubiy jurnali. Volume 4 Issue 5 / October 2023. 454-b.





TEMURIYLAR SAROYIDA ABDULQODIR MAROG‘IYNING ILMIY-IJODIY FAOLIYATI

Mushtariybonu MUXITDINOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti.
[*mushtariyotbosarova@gmail.com*](mailto:mushtariyotbosarova@gmail.com)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘rta asr musiqa san’atining yetuk namoyandasi xonanda, sozanda, nazariyotchi hamda bastakor Xoja Abdulqodir Marog‘iyning Temuriylar, xususan, Amir Temur saroyida xizmat qilgan davri haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Xoja Abdulqodir Marog‘iy, Amir Temur, mehtar, musiqa, bastakorlik, musiqa nazariyoti, saroy musiqasi, miatayn, musiqiy risola.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о времени, когда Ходжа Абдулкадир Мароги, зрелый представитель средневековой музыки, певец, музыкант, теоретик и композитор, служил при дворе Тимуридов, в частности, Амира Темура.*

Ключевые слова: *Ходжа Абдулкадир Мароги, Амир Темура, мехтар, музыка, композиция, теория музыки, придворная музыка, миатайн, музыкальный трактат.*

Abstract: *This article tells about the time when Khoja Abdulkadir Marogi, a mature representative of medieval music, singer, musician, theorist and composer, served at the court of the Timurids, in particular Amir Temur.*

Key words: *Khoja Abdulkadir Marogi, Amir Temur, mekhtar, music, composition, music theory, court music, miatain, musical treatise.*

O‘rta Osiyo tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, undagi madaniy hayot hamda ilm-fan sohalari davrning boshqa hududlariga qaraganda sezilarli darajada yuksak bo‘lgani, jadal rivojlangani hamda hukmdorlar homiyligida asrab-avaylanganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ayniqsa, o‘rta asrlarda yetishib chiqqan buyuk alloma-yu ulamolar, sohasining yetuk namoyandalari, davr bilimdonlari bu





qorong‘u tarixni yo‘lchiroqlar o‘laroq yoritib turibdi. Bugungi kunda butun jahon bo‘ylab tarqalgan hamda fundamental bilimga, qolaversa kundalik hayotimiz hamrohiga aylangan matematika, tibbiyot, geografiya va boshqa shu kabi sohalar asosi, ma’lumotlar manbasining ajdodlarimiz yaratgan durdona asarlarga tayanishi faxrimizdir. Shu o‘rinda, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi qomusiy olimlarning beqiyoz xizmatini eslatib o‘tish joizdir. Ularning musiqa ilmi va amaliyotiga ham qo‘shgan tengsiz hissasini yuqorida tilga oldik. Ulardan keying avlod o‘laroq bir qancha olimlar musiqa ilmi yo‘lida izlanib, tarixiy manbalarda munosib nom qozonganlar.

XIV asr oxiri XV asrning boshlarida yashab, ijod etgan mahoratli ijrochi, yetuk musiqashunos, qobiliyatli bastakor Abdulqodir Marog‘iy o‘z ijod namunalari uning zamondosh olimlari, tarixchilari, qolaversa, keying davr manbashunoslari tomonidan yuksak baholanadi. Marog‘iyning davr musiqa amaliyoti, cholg‘u ijrochiligi, musiqa ilmi va bastakorlik san’ati rivoji uchun qo‘shgan sezilarli hissasi nihoyatda ahamiyatli bo‘lganligi qator manbalar orqali bizga ma’lumdir.

O‘rta asrlarda musiqa ilmi bilan shug‘ullangan, ushbu sohaga oid kitoblar yaratishga qo‘l urgan olim-u ulamolar talaygina. Biroq ularning orasida musiqa amaliyotining mohiri, nazariyotining bilimdoni, ijodiyotini bevosita o‘z ijro va ijod namunalari orqali tafakkur qila olgan shaxs sifatida Temuriylar saroyida faoliyat olib borgan namoyandalarning biri o‘laroq Abdulqodir Marog‘iyni alohida e’tirof etish lozim. U cholg‘u musiqasi va ijrochilik amaliyotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, ijro eta olgan, kuylagan va musiqa ilmini idroklagan. Buning natijasida, ustozlari ilmiga ergashib, zamonasi musiqiy-nazariy, shuningdek, davrning mashhur o‘n ikki maqom ilmiga oid ma’lumotlarni o‘zida jamlagan musiqiy risola bitgan shaxsdir.

Abdulqodir Marog‘iyning hayoti bir qator shahar, mamlakatlarda, turli sulolalar hukmdorlari xizmatida o‘tdi. Qayerda bo‘lmasin, kimning huzurida ijod qilmasin, yuksak mahorati, yoqimli ovozi, yaratgan betakror asarlari va ularning ijrosi, qolaversa, musiqaning nazariy ilmiga o‘zgacha qarashlari bilan alohida obro‘-e’tiborga, mavqega, atrofdegilar ehtiromiga sazovor bo‘lgani e’tiborlidir. Buning boisi, u o‘ziga Yaratgandan ato etilgan qobiliyati, mehnatlari natijasi o‘laroq erishgan mahorati va tajribasi bilan o‘zi xizmat qilgan saroylar





musiqiy muhitiga ijobiy ta’sir ko’rsatgan, rivojlantirgan va o‘z kuylari bilan boyitgan. Biroq uning hayoti tahlikali o‘tgani, qochqinlarga duchor bo‘lgani qator tarixiy manbalardan ayon.

Abdulqodir Marog‘iy uzoq yillar davomida turli hukmdorlar huzurida “saroy musiqachisi” sifatida xizmat qildi. Bu jarayon davomida yetuk musiqiy amaliyotchi, nazariyotchi ijodkor bo‘lib yetishdi. Olim ijodining eng yuksak cho‘qqisi Temuriylar saroyida xizmat qilgan davrga to‘g‘ri keladi. Abdulqodir Marog‘iyning musiqashunos hamda bastakor sifatida yaratgan ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish O‘rta Sharq musiqasi, Temuriylar davri musiqiy madaniy hayoti va qator tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Sohibqiron Amir Temur ba’zi adabiyotlarda 1386-yil Tabrizga hujum qilgani va u yerda hukmron bo‘lgan Jaloyiriylar sulolasi vakili Sulton Xusaynni mag‘lub etib “... yurt aholisi ichidan eng iqtidorli san’atkorlar, hunarmandlar va ulamolarni tanlash va ularni Samarqandga yo‘llash bilan mashg‘ul bo‘ladi”.[1-54] Garchi ushbu jumlada Abdulqodir Marog‘iy nomi keltirilmagan bo‘lsa-da, tarixiy jarayon va ayrim ma’lumotlar uni aynan shu yil Samarqandga keltirilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ammo faqat ushbu taxminga tayanish to‘la-to‘kis to‘g‘ri emasligini quyidagi iqtibos ko‘rsatadi: “Farmerni yozishicha, Bag‘dodni fath qilgan Amir Temur Xoja Abdulqodirni ham boshqa mutaxassislar qatori Samarqandga jo‘natadi.”[2-10]

Amir Temur Bag‘dodga birinchi marta 1393-yilda yurish qilgani tarixiy manbalardan ayon. “Sulton Ahmadning o‘g‘lonlarini va xotinlarini va Bag‘dod shahridin yaxshi hunarmand kishilarni ko‘chlarini bila Samarqandda eltib borsunlar!

Va Xoja Abdulqodirkim, musiqiy ilmida olamda mashhur va nodir-ul asr erdi, ani taqi Samarqand yibardi”[3-159], deyiladi yana bir Temur tarixiga oid ahamiyatli va ishonchli manbada. Yana bir olim esa Marog‘iyning Samarqandga olib kelinishi haqida quyidagicha zikr qiladi: “788 hijriy (milodiy 1386) sanada Amir Temur Tabrizni o‘z qo‘liga oldi va Sulton Ahmad Bag‘dodga ko‘chdi. U o‘zi bilan Abdulqodirni ham olib ketgan, albatta”. Ushbu fikrlar ham Abdulqodir Marog‘iy Bag‘dod istilosidan so‘ng Samarqandga yuborilgani isbotidir.

Abdulqodir Marog‘iy Temuriylar saroyida avval Amir Temur, keyinchalik Mironshoh, Shohrux Mirzo, Xalil Sulton kabi ulug‘ san’at





homiylari huzurida xizmat qildi, ular ardog’ida bo’ldi. Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagicha yozadi:

“Va sohibqironning haramlarikim, har biri bir Bilqisi zamon erdi, boshlarig‘a murassa’ taftoqlar va oltun bila tikkon to‘nlar kiyib, xurshitdek taxtlari ustida o‘ltirur erdilar. Va oydek qizlar va xizmatkorlar xizmatda turub erdilar. Va jonparvar suvchilar va dilnavor soqiylar barcha karashma va noz bila turub, sozanda va xonandalar barcha ishlariga mashg‘ul bo‘ldilar. Va alarning ichida Xoja Abdulqodir, nodirul-asr va yagonai zamon erdi, ud ohangini tuzub, Dovutdek nag‘ma etib bu duoni der edi”. [4-190] Temur tarixi bo‘yicha asosiy manbalardan bo‘lib xizmat qiluvchi durdona asar muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy Marog‘iyni “yagonai zamon” deya ta’riflaganining o‘zi ham uning qobiliyati, tengsiz ijodi, saroydagi o‘rni va yuksak e’tiborga sazovor bo‘lganligini anglatadi. Quyidagi iqtibos ham fikrimiz dalilidir: “Yaxshi unluq mug’anniylar un tortib, g‘azal-u naqsh aytur edilar. Va turku, mo‘g‘ilu, xitoyu, arabu, ajamdin harkim o‘z rasmi bilan nima aytur edi. Ul jumladin Xoja Abdulqodirkim, benaziri olam erdi, qo‘biz va yatug‘on (torli-chertma cholg‘u asbobim.) va udni shodliq mizrobi bila chala boshladi.” [5-291]

Abdulqodir Marog‘iyning Temuriylar saroyida yuksak obro‘-e’tiborga ega bo‘lgani va zamonasining yirik musiqachisi sifatida nom qozongani ko‘plab tarixiy manbalarda keltirilgan.

“Bu jarayonga ulkan hissa qo‘shgan shaxslar qatorida “turli-tuman fazilatlar bo‘yicha yetuk hunarmand, qori, shoir va xattot, musiqiy ilmida, ashula va torda davron saromadi va naqsh-u san’atda tengsiz bo‘lgan” Xoja Abdulqodir Marog‘iyning xizmatlarini alohida ta’kidlamok kerak [Самарқандий 2008, 55]. Zero, benazir Xoja Abdulqodir Marog‘iy boshchiligidagi olim va musiqa ustozlarining samarali ilmiy-ijodiy izlanishlari pirovardida komil inson g‘oyalarini yaxlit ta’limot tarzida musiqada ifoda etish vazifasi O‘n ikki maqom timsolida muvaffaqiyatli yechimini topgan. Shu asnoda maqom san’ati ulug‘ Sohibqiron asos solgan buyuk saltanatning ustuvor ma’naviy-mafkuraviy tizimlari qatorida saroy madaniyatidan munosib o‘rin olgan edi.”[6-94] Ushbu jumladan ma’lumki, Marog‘iy saroyda nafaqat ijrochi, balki musiqashunoslar rahnamosi ham bo‘lgan. Chunki uning musiqa ilmiga zamonaning boshqa olimlariga nisbatan boshqacharoq yondashuvi, qarashlari Marog‘iyning ustunliklaridan biri hisoblangan.





“Temur qaysi o‘lkani borib olsa, undagi buyuk olimlar, katta ustalar, ulug’ shoirlar, ulkan san’atkorlarni Samarqandga keltirar edi. Shu yo‘l bilan o‘zining “poytaxt”ini dunyoning eng buyuk shahri qilishg‘a tirishar edi; “Zubdatu-l-advor”, “Maqosidu-l-alhon” ismli musiqiy kitoblar yozg‘an Marog‘ali Abdulqodir bilan “Sharqiyya” ismli musiqiy kitob yozg‘an urumiyalik Sayfiddin Abdulmo‘minga o‘xshagan ulug’ musiqiy ustodlari ham shul keltirilganlar qatorida edilar.

Temurdan burung‘i ham O‘rta Osiyoda asoslarini arab-erondan olg‘an musiqiy san‘ati bor edi. Biroq Temurning buyrug‘i bilan har tomondan keltirilgan ixtisoschi olimlar g‘ayratlari bilan bu san‘at birdan jonlandi, oyoqqa bosti”. [7-39-40] Abdurauf Fitratning ushbu yoziqlari Temur saroyidagi ilmiy, madaniy muhit haqida yaqqol tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi. Qolaversa, chinakam ilm maskaniga aylangan saroyda muntazam o‘tkazilib turiladigan ilm majlislari har sohada ilm rivojlanishini, olimlarning ilmiy suhbatlari natijasida yana yangi pog‘onalarga ko‘tarilishini xulosalar hech gap emas. Bundan tashqari XX asrning sanoqli millatimizga mansub sanoqli olimlaridan birining bildirgan fikrlari Marog‘iyning barakali ijodiga berilgan o‘ziga xos baho hamda uning Temur saroyidagi madaniy hayotning yanada yuksalishiga qo‘shgan hissasiga yaqqol ishoradir.

Amir Temur saroyida Abdulqodir Marog‘iyning ijodiy faoliyati qizg‘in kechdi. Yangi-yangi kuylar bastalandi, ularning ijrosi Temur va saroydagi boshqa musiqaga oshno insonlar qalblarini zabt etdi. U Temuriylar saroyida buyuk musiqachi sifatida hurmat-e‘tibor qozonganini, Amir Temurning sevimli musiqachisi bo‘lganligini Suraya Agayevaning “Temur doim Marog‘iydan ud sozini chalishini so‘rardi” [8-24], jumlasini dalillaydi. Ko‘rinib turibdiki, tengsiz bastakorning ijrochilik borasidagi mahorati ham boshqa qobiliyatlaridan qolishmas edi. Bundan tashqari Sulton Uvays huzurida xizmat qilayotgan kezlarida bastalagan miatayn turkumidagi ijodini Temuriylar saroyida ham yana boyitadi. Uning Amir Temurga bag‘ishlab yaratgan miatayn asari zamon zarvaraqlari orqali bizgacha ma‘lum bo‘ldi. Shu o‘rinda quyidagi iqtibosni keltiramiz:

“Saroy san’atkorlarining sultonlarga (xonlarga) bag‘ishlab ijod etgan eng oliy musiqiy tuhfasini - miatayn majmuasida ham aynan usul





omili va badiiy ifodasi muhim o‘rinda turgan. Masalan, zamonasining tengsiz xushovoz hofizi va mashshoqi, maqomshunos olimi va yuksak salohiyatli ijodkori Abdulqodir Marog‘iy Amir Sohibqironga har biri ellik zarbdan iborat ikki yuz davrli miatayn asarini tuhfa etgan.”[9-19] Musiqashunos olim Oqilxon Ibrohimov keltirgan ushbu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Xoja Abdulqodirning ijodi serqirra bo‘lganligi va ham amaliy ham nazariy sohada orttirgan bilim va tajribasi o‘zaro uyg‘unlashib, buyuk musiqa ilmi bilimdoni va amaliyoti ustasiga aylanishiga poydevor vazifasini o‘tagan. Uning usul ilmida ham ilmi iyqo‘da ham yuksak ilmga ega ekanligi murakkab turkumlarda ham hayratlanarli darajadagi muvaffaqiyatli asarlar yarata olishiga yo‘l ochib beradi.

O‘rta asrlarda shohlar saroylarida miatayn turkumining naqadar yuksak e‘tirofqa sazovor bo‘lganligini Nafas Shodmonovning “...barcha qudratli shhlar o‘z saroylarida miatayn ijro etilishini istaganlar”[10-25], fikridan ham anglab olish qiyin emas.

Marog‘iy Amir Temurning ishonchli kishilaridan biriga aylandi. Uni hamisha o‘zi bilan olib yurdi. 1398-yilgi Hindiston yurishiga ham o‘zi bilan olib ketdi. Ammo bu safar olimning ijodiy rejalari amalga oshishi uchun noqulay vaziyat keltirib chiqarishi mumkinligidan havotirga tushgan Xoja Abdulqodir Temurga bu haqida bayon qildi. Uning ijodiy faoliyatini qadrlagan Temur esa holatni tushundi va uni Samarqandga qaytishiga izn berdi.

Amir Temur odil amir, ilm homiysi, madaniyat va san’at oshnosi bo‘lgan. Uning davrida yurt madaniyati har qachongidan kengroq rivojlandi. Mamlakat sarhadlarining kengayishi turli xalqlari madaniyati, san’ati, ilmi va amaliyoti o‘zaro aralashishiga, turli millat va elatlarning mazkur sohalar bo‘yicha yetuklarining bir joyda, Temur saroyida yig‘ilishiga va professional san’at muhitining shaklanishiga sabab bo‘ldi. Amir Temur musiqadan nafaqat madaniy hayotning ajralmas qismi sifatida, balki siyosatda, urushlar jarayonida ham foydalangan. Bunga u musiqiy usullarni qo‘llash orqali erishadi. Manbalarda keltirilishicha, harbiy maqsadlarda foydalanilgan musiqa turlari haqida tarixda ma’lumotlar saqlanib qolinmagan, ammo Marog‘iy o‘z risolalarida Temuriylar saroyida ijod qilayotgan davrida yaratgan “Zarb ul-fath” hamda “Davri shohiy” usullarini keltirib o‘tadi.





Abdulqodir Marog‘iyning Amir Temur saroyidagi hayoti va faoliyati har doim ham bir tekisda kechmadi. Kitoblarda bu haqida turli rivoyatlar bor. Xoja Abdulqodir Mironshoh huzurida xizmat qilib yurgan kezlarida Mironshohning ayrim xatti-harakatlari Temurga manzur kelmaydi. Natijada, Temur Mironshoh huzuridagi barcha bek va amirlarni o‘limga hukm qiladi. Abdulqodir Marog‘iy, Ardasher Changiy, Habib Udiy, Mavlono Muhiddin Kohiy, Qutbiddin Noyiy kabi bir qator saroy musiqachilari ham ushbu hukm qilinganlar orasida bor edilar. Zikr etilganlar orasidan faqat Marog‘iygina qochib ketadi va hukmdan qutulib qoladi. Ammo bundan keying bir muddat ichida uning hayoti sarson-sargardonlikda o‘tadi. Ushbu davr ichida u eski homiysi Sulton Uvays Jaloyiriyning qoshiga, Bag‘dodga najot topish ilinjida boradi va bir qancha vaqt uning panohda qo‘nim topadi. Biroq biroz vaqt o‘tgach Amir Temur Bag‘dodga yurishlarini boshlaydi. Marog‘iyini o‘limdan qochib, Ba‘dodda yashiringanidan xabar topgan Temur uni tutishlarini va o‘ldirishlarini buyuradi. Biroq qo‘lga tushgan Xoja Abdulqodirning go‘zal qiroati uni Temurning avfiga, o‘limdan qutulib qolishiga sabab bo‘ladi va bundan so‘ng uning Temur saroyidagi mavqeyi tiklanib, o‘z ijodiy faoliyatini davom ettiradi.

Abdulqodir Marog‘iy Amir Temur saroyida ilmi musiqiyda ham barakali ijod qildi. “Jome-ul alhon”, “Maqodir-ul alhon”, “Kanz-ul alhon”, “Zubdat ul-advor”, “Shahri kitob ul-advor” va boshqa bizga qadar yetub kelgan va kelmagan qator asarlar Temur panohida va homiyligida yaratildi. Umrining so‘nggi, ijodining va ilmiy faoliyatining eng bilimga to‘la davrini shu tariqa musiqa nazariyotida ovzi bilgan barcha bilimlarni kitoblarga muhrlash va bu bilan keying avlodni ham o‘ilm bulog‘lidan to‘yintirish uchun g‘ayrat qildi.

Amir Temur vafotidan keying Marog‘iyning saroydagi hayoti haqida olimlar shunday yozadi: “Temur zamoning bosh xonandasi bo‘lgan Abdulqodirning Sohibqiron vafotidan keying hayoti manbalarda unchalik oydin emas. Ma‘lumi shuki, u avval Temur taxtiga o‘tirgan Sulton halilning himoyatida bo‘ldi. Keyinroq Sulton Shohruhning saroyida yashadi. Sulton Shohrux va uning o‘g‘li Boysunqur mirzolar bilan olimning yaqin aloqasi bo‘lganligi ma‘lum.





Davlatshoh Samarqandiyning tazkirasida Shohrux saroyiga ravnaq bergan to‘rt san’atkorlardan biri deb ibn G‘aybiy⁵² ko‘rsatiladi”[11-31].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Xoja Abdulqodir Marog‘iy Temuriylar saroyida yuksak ehtiromga sazovor bo‘ldi. Yaratilgan erkin madaniy muhitda barakali ijod qildi. Musiqa amaliyoti-yu nazariyotida zamonasining buyugi sifatida dong taratdi. Afsuski, uning bastalagan asarlari bizga qadar to‘laligicha yetub kelmadi, biroq ba’zilar yo‘qolib ketgan bo‘lishiga qaramay, musiqa nazariyotiga oid ayrim kitoblari hozirgi kunga qadar olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqda.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Toshkent “Ma’naviyat”. 1999.
2. Rajabov I. Marog‘iy. // “Sovet O‘zbekistoni san’ati” jurnali, 1982, №5.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. “Sharq”, Toshkent – 1997.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. “Sharq”, Toshkent – 1997.
5. Ibrohimov, O. A. 2021. “Temuriylar renessansida musiqa san’ati”. O‘zbekiston: til va madaniyat 3.
6. Абдурауф Ф., Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи., “Фан”, Тошкент-1993.
7. Agayeva S. “Abd Al-Qadir Maraghi – towards the problem of investigation regarding the history of musical art of Azerbaijan and the culture of turkic people”// 24-p.
8. Ibrohimov, O. A. Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati. – “Donishmandlar ziyosi”., Toshkent – 2023.
9. Шодмонов Н. Хожа Абдулқодир Мароғий. Тошкент: Адабиёт ва санъат. 2000.

⁵² Xoja Abdulqodirning tahalluslaridan biri.





UYG‘UR 12 MUQAMLARI

Munira OSMAN,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI

2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: *Uyg‘ur o‘n ikki muqami uzoq tarixga, keng va chungqurlikka ega. Muqamlarga Uyg‘ur xalqi boshidan kechirgan tarixiy davrlar hamrohlik qiladi. Muqamlar - uyg‘ur xalqining ko‘plab sozandalari, qo‘shiqchilari va sozandalari tomonidan ko‘p joylarda va bir necha davrda yaratilgan xalq musiqasi. Bu safar merosxo‘rlikda qayta tartiblangan, uzviylashtirilgan va takomillashtirilgan o‘n ikki muqam 360 ta qo‘shiq va 4492 ta misradan tarkib topgan. Bundan tashqari, uyg‘ur klassik shoirlarining she‘rlari, Uyg‘ur xalq parchalari va xalq Qoshaqlarini ham o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Muqam, Boyavan, Yorkandxon, Amanishaxon, Qumul muqam”, “Du‘lan muqam”, “Turpan Muqam”, Rak, Qibiyat, Mushaviraq, Qaerga, Panjiga, Uzhal, Ajam, Ushak, Barat, Nava, Segah,eraq Muqamlari, nag‘ma, doston, mashrap, sotor, tanbur, rawap, dap, duttur. mukam, musiqa, ohang, kuy, nazariya, san‘at, musiqashunos, olim.*

Uyg‘ur 12 muqamlari tarixlar mobaynida bir necha marta tartibga keltirilib, o‘zgartirildi. Jumladan melodiy IV asrda “Buyuk kuylar”dan “Kumul buyuk kuyi”, “Kucha”, “Kuchu”, “Kashgar” “Xotan” kuylari tarqaldi. “Veynoma”, “Suynoma”ni musiqa taskirotida qayd qilingan faktlarga asoslanganda muqamlarning eng dastlabki kuy mavzulari – “Buyuk kuylar” “Dachuy” nomlari bilan ancha muntazam ravishda tizimlashtirilganligi haqida ma‘lumotlar berilgan. Melodiy VI asrda kuylar tizimining yanada yuksalib borganligi taxmin qilinadi. VI asrdan X asrga qadar bo‘lgan davrda har joylarda xalq ichiga tarqalgan muqam kuylari yanada rivojlanib., bir biriga singib ketgan.

“Muqam” so‘zi arab tilidan forsiyga tarjima qilinganda, asl ma‘nolaridan tashqari “melodiy” va “oshiq” ma‘nolari ham aniqlanadi. Forslar klassik musiqani tashkil etib, o‘zlashtirisharekan, “muqam” so‘zi nafaqat melodiyalarning ma‘nosini, balki klassik an‘anaviy





musiqaning maxsus ma'nolarini ham ifodalaydi. Klassik ananaviy musiqa va musiqa "muqam" deb nomlanadi. “Muqam” so‘zi nafaqat Uyg‘ur tilining Chag‘atay tili sahnasida, balki melodiy va qo‘shiq, klassik musiqa nomi bilan ham ishlatiladi. Chagatai tilining keyingi taraqqiyotida, bu tilni qolipga solib, klassik musiqani tashkil qilgan mamlakatlar sifatida “muqam” so‘zi, ya’ni barcha yakka klassik musiqaning yana bir maxsus ma’nosi qandaydir yo‘l bilan “muqam” deb ataldi. Uni saqlab qolish bilan birga, faqat tizimli qo‘shiq guruhigina “muqam” deb atalish odatiga ega. Gap shundaki, “muqam” so‘zi musiqa sohasida muayyan tartibda tashkil etilgan klassik musiqalar guruhi yoki guruhining nomiga aylangan.

Muqam so‘zi qadimgi Uyg‘ur Kusan-Tukhar so‘zi maqayamening etnologik jihatdan o‘zgarib turuvchi shakli bo‘lib, “ulug‘ qo‘shiq” ma’nosini bildiradi. Unga arabcha “muqam” so‘zi qo‘shilgan bo‘lib, “makon” va “daraja” ma’nolarini anglatadi. Uyg‘ur tilining “muqam” deb nomlanishi, qo‘llab-quvvatlovchi qo‘shiq va raqs musiqasining katta hajmdagi idroki o‘ziga xos nomga aylangan..

“O‘n ikki muqom” Xinjongng G‘arbiy hududlarida Xan va Tang sulolalari davrida paydo bo‘lgan, milodiy IX-XIV asrlarda tashkil etilgan va milodiy XVI asrda Yorqand xonligi saroyida yetuklashgan. Uyg‘ur klassik an’anaviy keng ko‘lamli “Muqam” musiqa syuitasi musiqa, she‘r, qo‘shiq va raqsni o‘zida mujassam etgan badiiy durdonadir.

Uyg‘ur qo‘shiq va musiqa san’atining onasi bo‘lgan “O‘n ikki muqam” nafaqat shaxsning paydo bo‘lishining bir yo‘li, balki uzoq tarix davomida kollektiv tomonidan yaratilgan an’anaviy o‘n ikki ketma-ketlikning ramzidir. Demak, “o‘n ikki muqam”ning ko‘rinishini ma’lum tarixiy davr bilan cheklab bo‘lmaydi. Tarixning sahnasida doimo bo‘lib kelgan Uyg‘ur ajdodlari cho‘l, tog‘lar, daryolar, yaylov va dalalar, ovchilik, chorvachilik va qishloq xo‘jaligi hayotida tegishli kuy va ashulalar yaratganlar. Qo‘shiq asta-sekinlik bilan melodik xususiyatlardan tarkib topgan muqamlar guruhidan iborat.

Uyghur “o‘n ikki muqam”ning qazilishida va bizning hozirgi kunimizning kelishida mashhur muqamolog, shoir Qidir Khan va malika Amannisa, Abdurrashid Xanning himoyasi va qo‘llab-quvvatlashi ostida, Sa’idiy sulolasi asoschisi Abu Said Xanning o‘g‘li Xonlar o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bu qo‘shilish Amanisakhan





ko‘magida tashkil etilgan. Mashhur muqamolog Turdahun aka meros bo‘lib, 1956-yilda yozib olingan. Ammo “o‘n ikki muqam”dan o‘n ikkidan boshlash taqiqlanmagan. Muqam o‘zining turli mahalliy variantlarni tushish, ko‘paytirish, muloqot qilish va yaratish tarixida ko‘p marta tajriba o‘tirgan. “O‘n ikki muqam”da inson mehri, go‘zal tilaklar, hayotda quvonch, qayg‘u, iudaizm, hamjihatlik, xotirjamlik, maymun-pips, g‘azab, zulm va zulm tasvirlanadi.

Madaniy xazinadagi boy, zahmatkash va ijodkor Uyg‘ur xalqining hikmatlarining asl mohiyati uyg‘ur hayotining barcha sohalarini musiqa tili bilan ifodalovchi badiiy kompasdir. Unda Uyg‘ur xalqining hayoti va go‘zalligi, istak ehtirolari, tarixiy reallik va yashash muhitiga bo‘lgan muhabbat va nafrat inson tafakkurining turli shakllarida, jumladan musiqa, badiiy adabiyot va usullarda ifodalanadi. Ushbu musiqa asari “Sharq musiqa madaniyati mo‘jizasi” deb nomlanadi, chunki u jahon xalqlari san’ati tarixidagi noyob asardir. Qisqasi, “o‘n ikki muqam” azaldan Uyg‘ur xalqi qalbida muqaddas san’atning “xudosi” bo‘lib kelgan. Tilni ko‘nglimiz qay darajada shishib ketishi bilan ifodalab bo‘lmaydi, psixologik holatimiz esa organik jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoladi. Chindan ham “O‘n ikki muqam”ning musiqiy sezgirligi bilan ajablangan.

Satarning strelkalarini “nihoyatda tor” o‘ynashni, uning ovozini “go‘zallarning ko‘nglini ol” deb talab qiluvchilar birinchi navbatda uyg‘ur xalqidir.

“Muqom”ning dastlabki mujassamlash ishlari Yorkand xonligining ikkinchi avlod xoni Rexid davrida amalga oshirilgan, “Muqom”ni tuzishga katta hissa qo‘shgan Amannisaxon va Yusuf Qodirxondir. Amannisa Xon o‘tinchi oilasida tug‘ilgan, shuning uchun u yoshligida jamiyatning quyi tabaqalarida mashhur bo‘lgan “Mashrap” bilan aloqa qilish imkoniyatiga ega edi. Qishloqda vaqti-vaqti bilan "Mashrap" o‘tkaziladigan joylar Amannishaning musiqaga qiziqishini oshiribgina qolmay, musiqiy iste'dodini ham rivojlantirdi. U yoshligidan mohir xonanda bo‘lib, turli cholg‘u asboblarni yaxshi bilardi. Uning ko‘plab she‘rlari va qo‘shiqlari keng tarqalgach, u mahalliy aholi orasida mashhur shaxsga aylandi. Amanishaxon o‘zining musiqiy moyilligi va tajribasini Rashid saroyiga olib keldi. Amannisaxonning ta’siri va targ‘iboti ostida Rexide butun mamlakat





bo‘ylab tarqalib ketgan uyg‘ur musiqachilari, qo‘shiqchilari va shoirlarini o‘z safiga jalb qildi va saroy bu ishda mohir bo‘lgan ko‘plab taniqli shaxslarni to‘pladi. Xalq orasida keng tarqalgan “Muqom” harakatlari, bu odamlar birlashib, “Muqom”ni tashkil qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tushunchaning murakkabligidan kelib chiqib, Amonnisaxonning turli joylarda yoyilgan Muqom tushunchasini birlashtirib, uni chuqur, sekin, ochiladigan, hayajonli, jo‘shqinlik va yorug‘lik jarayoniga ko‘ra boy va rang-barang kuylarga birlashtirgan. hissiyotlar. Ular birlashtirilgan va yaxshi tuzilgan keng ko‘lamli syuitani tashkil qiladi: “chong Nagma”, “Dastan” va “Mashrap” jami 3 kotta Tur va 12ta kitabdur, Uzunlik bir kecha-kunduz qo‘shiq kuylash uchun o‘rnatiladi.

“O‘n ikki muqom”ning kuylash shakli oddiy, ijroda xonandaning tepasida o‘tirishi yoki uning atrofida turishi kerak. Avval o‘rtada o‘tirgan oqsoqol “prolog” kuylaydi, keyin hamma qo‘shiq aytadi. Ohanglarning o‘zgarishi xonandalar va tomoshabinlarning his-tuyg‘ularini sekin-asta avjiga olib chiqadi, tomoshabinlar safida raqqosalar soni bora-bora ko‘payib boraveradi, u eng yuqori cho‘qqiga yetib borsa, butun tomoshabinlar o‘z shod-xurramliklarini o‘rtaga tashlab, jo‘shqin kuylaydilar, raqsga tushadilar. Qo‘shiqchilik asosan to‘y-hashamlarda, bayram bozorlarida (bozorlarida), hosil tantanalarida ijro etiladi. Umuman, diniy bayramlarda bayramona to‘ylarda faqat “Chong Nagma” va “Mashrap” kuylanadi; Hamrohlik cholg‘ulariga Satar, Tanbor, Dutor, Ravap, Gejak, chang, dap, Sabayi kiradi. Umuman olganda, barcha cholg‘u asboblaringiz bo‘lmasa ham qo‘shiq aytishingiz mumkin, ammo dap ajralmas. Ba’zi professional maqom ijrochilari ko‘pincha juft bo‘lib ishlaydi, bosh qo‘shiqchi Satarda, hamroh esa dafda chaladi. Xo‘tan tumanida muqom kuylash jo‘rligidan xalq “Balaman” deb ataydigan qadimiy cholg‘u asboblari karon va qamish naylar bor.

Uyg‘ur o‘n ikki muqam tahrirlash

1. Rak muqam 23-Nagma 205-Misra
2. Chabbiyat Muqam 23-Nagma 251-Misra
3. Mushavirak Muqam 31-Magma 363-Misra
4. Charigah Muqam 18-Nagma 212-Misra
5. Panjigah Muqam 25-Nagma 240-Misra
6. Uzhah Muqam 29-Nagma 224-Misra





7. AJam muqam 17-Nagma 143-Misra
 8. Ushshaq Muqam 23-Nagma 286-Misra
 9. Bayat Muqam 19-Nagma 119-Misra
 10. Nawa Muqam 20-Nagma 119-Misra
 11. Sigah Muqam 6-Nagma 72-Misra
 12. Iroq muqam 8-Nagma 102-Misra
- Muqom to‘plami va tadqiqoti

Necha o‘n yillik mashaqqatli mehnatdan so‘ng, 1960 yilning noyabr oyida Aptunom Rayon raisi Sayfudin Azezi so‘zboshi bilan yozilgan “O‘n ikki muqam”ning partiturasini “Musiqi” nashriyoti va “Etnik” nashriyoti hamkorligida chop etildi. 1961-yilda China Record Company tomonidan chop etilgan “O‘n ikki muqom” axborot yozuvi ham ishlab chiqarilgan. Ushbu ulkan madaniy loyihaning nihoyasiga yetishi Shinjondagi turli etnik guruhlarning an’anaviy san’atini o‘rganishda ilg‘or va ko‘rgazmali ahamiyat kasb etadi. “O‘n ikki Muqam” ham zamonaviy musiqa rivoji uchun qimmatli ma’lumot beradi.

1965-yilda yaratilgan “Xalq kommunasi yaxshi” nomli yangi muqom ashula va raqs, 1973-yilda ko‘chirilgan va moslashtirilgan “Qizil Chraq” operasi Shinjondagi barcha millat sozandalarining bu sohadagi izlanishlari samarasidir. Ushbu musiqiy durdonaning nashr etilishi bilan Muqam tadqiqotlari asta-sekin rivojlanib, katta avlod musiqachilari va tanqidchilari Van Tongshu, Abdushuvkvr Muhammad Imin qatarli ustazlar yozdilar. “Uyg‘ur klassik musiqasi haqida “O‘n ikki muqam””, “Muqamni tadqiq qilish” kabi nufuzli maqolalari. 1986-yilda Shinjong san’at ilmiy-tadqiqot institutining Muqom ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tomonidan “Qiebyat muqom” birinchi marta tizimli va to‘liq sahnaga qo‘yilib, “china ovozi muqom san’ati”da ishtirok etish uchun mamlakatimiz poytaxti Pekingga olib kelindi. "maxsus ijro Konsertlar va nazariy seminarlar;

1987-yilda u Chinxay provinsiyasida bo‘lib o‘tgan “Besh shimoli-g‘arbiy viloyat (mintaqalar) musiqa haftaligi”da ishtirok etdi, 1988-yilda shiang gangda bo‘lib o‘tgan 12-Osiyo san’ati festivalida ishtirok etdi va Buyuk Angiliya, Pokiston va boshqa mamlakatlarda spektakllarga tashrif buyurdi. mamlakat va xorijda katta ta’sir yaratgan boshqa mamlakatlar va mintaqalar 1989 yil mart oyida Shinjon san’at instituti va Shinjon milliy orkestri negizida Shinjon Muqam san’ati





truppasi tashkil etildi. 1989-yil may oyida tashkil etish, ilmiy-tadqiqot va ijrochilik ishlari bilan shug‘ullanish, Shinjon Muqam san’ati truppasi tashkil etildi, unga Aptunum rayonden viloyat raisi Temur Davomat rahbarlik qilib, bu qadimiy uyg‘ur musiqasini jahon musiqa sahnasida, yana bir bor yoritdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraop Taklimaskam “Uyg‘ur o‘n ikki muqam” Xinjog san’at instituti 2006.





MAQOMLARNING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Javohir NAMOZOV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Shomahmud SHORAXMEDOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.*

Annotatsiya: O‘zbek mumtoz musiqasining asosiy poydevori “Maqom” hisoblanadi. Milliy mumtoz musiqa merosimizning tom ma’noda chin bebaho boyliklari hasiblangan Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari o‘zbek xalqi musiqa merosida juda katta o‘rin tutadi. Ushbu maqolada maqomlarning tarixi va rivojlanish bosqichlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: maqom, rivojlanish, tarix, meros, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, musiqa madaniyati.

Abstract: “Maqom” is the main foundation of Uzbek classical music. Shashmaqom, Khorezm maqams, and Fergana-Tashkent maqam roads, which are literally priceless treasures of our national classical music heritage, occupy a great place in the musical heritage of the Uzbek people. In this article, the history and stages of development of statuses are scientifically analyzed.

Key words: makom, development, history, heritage, Shashmakom, makom of Khorezm, music culture.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davrdan boshlab, milliy maqom san’atining o‘ziga xosliklarini saqlab qolish, rivojlantirish, yangicha tus berish borasida ustoz san’atkorlar qatorida yosh iqtidorli ijrochilar tomonidan ham izlanishlar olib borilmoqda. Ma’lumki, Sharq musiqasining shakllanish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Rivojlanish va yillar kesimida musiqa va san’at ham vaqt imtihonida o‘zgarib, sayqallanib, ma’lum darajada o‘zining kasbiy darajasiga chiqdi. Sharq kasbiy musiqasining eng oliy navi albatta maqomlardir. Xuddi shunday o‘zbek milliy musiqasi ham asrlar davomida ko‘plab tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi hamda bugungi kungacha yetib keldi.





O‘zbekiston oliy musiqa ta’limida professional kadrlar tayyorlash va jarayonni yangi avlodga yanada yangi texnologik harakatlar bilan alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida madaniyat, san’at, maqom va baxshichilik sohaslarini yuksaltirish ijtimoiy sohani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangan. Aholining madaniy saviyasini oshirish, yoshlarni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash, iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ustoz-shogird an’anasini davom ettirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish masalalari ustuvor vazifalarga aylandi. “O‘zbekiston – 2030” birinchi ustuvor yo‘nalishning 1.5-bandida “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar” deb nomlanib, unda bir qator vazilafal belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev xalqning ma’naviyatini oshirish masalasini birinchi o‘ringa qo‘ydi va bunga milliy mumtoz musiqa va maqomlarimiz bilan erishish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Prezidentimiz tomonidan maqom san’ati va milliy musiqaga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Maqomni rivojlantirish, xalq orasida targ‘ib qilish va o‘rgatish hamda kelajak avlodga yetkazish masalalari qo‘yildi. Ular tomonidan 2017-yil 17-noyabrgadi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Maqom markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi va uning negizida maqom ansambli tashkil qilindi. Har bir viloyatda namunali maqom anasambllari faoliyat yuritmoqda. Musiqa maktablari hamda litseylar uchun maqom markazi tomonidan “Maqom alifbosi” kitobi chiqarildi. Xalqaro maqom san’ati anjumani o‘tkazila boshlandi.

Ayniqsa maqom san’atini ilmiy-uslubiy va ijro an’analarini puxta o‘zlashtirish va munosib davom ettirish maqsadida ta’lim muassasalariga moxir maqomchi san’atkorlarni biriktirib ustoz - shogird maktablarini tashkil etish xam oqilona ish bo‘ldi. Qolaversa maqom san’atini chuqur o‘rganish va uni kelajak avlodga yetkazish uchun mutaxassislar tomonidan milliy maqom san’ati tarixi va maqom ijrochiligiga oid o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratish vazifa qilib berildi.





O‘zbek mumtoz musiqasining asosiy poydevori “Maqom” hisoblanadi. Milliy mumtoz musiqa merosimizning tom ma’noda chin bebaho boyliklari hasiblangan Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari o‘zbek xalqi musiqa merosida juda katta o‘rin tutadi. Sharq qadim zamonlardayoq dunyo tamaddunida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan, ilm-fan yuksalgan hamda madaniyat o‘chog‘i sifatida ma’lum va mashhur zamin hisoblanadi. Xususan, Sharq xalqlari ma’naviy-madaniy hayotida musiqa san’ati alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek xalqining ko‘hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma’naviyat manbai bo‘ganligi o‘tmish tarix zarvaraqlaridan ma’lum. Markaziy Osiyada yetishib chiqqan buyuk olimlar jahon fani, me’morchiligi, adabiyoti va san’ati rivojiga katta hissa qo‘shib kelganlar. Musiqa san’ati ravnaqida ham ana shunday allomalarning ulushi katta bo‘lgan. Sharq musiqa madaniyatini o‘rganish, tatbiq etish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar, olib borilganligi barchaga ma’lum. O‘rta Osiyo hududida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida kashf etilgan musiqaga oid topilmalar, bu yerlarda islomgacha ham yuqori darajadagi musiqiy jarayon davomiy bo‘lib turganini ko‘rsatadi. Miloddan avvalgi musiqa madaniyatiga oid Qadimiy Parfiya, Xorazm, Baqtriya-Tohariston, Sug‘d, Choch (Shosh), Sharqiy Turkiston arxeologik topilmalaridan tashqari, Kushon (I-IV asrlar), Eftalitlar (VII asr o‘rtalari) davlatlari va turk hoqonligi (VI-VII asrlar) davrlariga oid topilmalar, xususan, Afrosiyob, Marv, Zartepa, Dalvarzintepa, qadimiy Xorazmdagi Qo‘y qirilgan qal’a, Ko‘zi qirilgan qal’a, Gyaur qal’a, Surxon vodiysidagi Ayritom, Xolchayon, Ashxobod yaqinidagi Nisa va boshqa yerlardan topilgan sopol haykalchalar, tosh tasvirlar, fil suyagidan yasalgan idishlar - ritonlarning tepa qismidagi bo‘rtma tasvirlar bu jihatdan ibratlidir. Musiqaga oid arxeologik topilmalar orqali musiqa va musiqa asboblari takomillashuvi jarayonini kuzatish mumkin. Masalan, Toshkent yaqinidagi Kankadan topilgan V asrga oid tasvirdagi sozanda ayol qo‘lidagi udning tori ikkita va bu torlar qorindagi xarrakka emas, qorin pastidagi (tagidagi) ilgakka ilingan, vaholanki, VII asrga oid Panjikent devoriy suratlaridagi ud tasvirlarida esa uning tori to‘rtta, ilgak xarrak bilan bir butun va u qorin ustida, qorin katta, qopqog‘ida aks-sado chiqaruvchi tuynukchalar bor, dastasi kalta, dastaning oxiridagi quloqxona nihoyasi orqaga qayirilgan, ud chalayotgan ayolning qo‘lida esa mizrob bor. Ayritomda,





ibodatxonaning kiraverish peshtog‘iga bo‘rttirib ishlangan tasvirlarda qo‘shnay, nog‘ora, ud, arfa kabi musiqa asboblari chalayotgan 14 sozandani, ya’ni cholg‘uchilar ansamblini ko‘rish mumkin. Panjikent devoriy suratlarida ham ansambl tasvirlangan, faqat bu yerda ashula, raqs va musiqa asboblari mushtarak ansambli. Ansambldagi ud chaluvchi ayolning o‘ng qo‘lida mizrob, udning to‘rt tori bor, raqqosa imolari sezilarli bir ko‘rinishda tasvirlangan. Qolaversa Afrosiyob, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Rustami doston, Siyovush va boshqa qahramonlarga bag‘ishlangan og‘zaki an‘anadagi qo‘shiqlar, musiqiy rivoyatlar, umuman musiqa mavzui qadim ikonografika, haykaltaroshlik, tosh o‘ymakorligi, toshtaxtalar, tasviriy san’atda (devoriy rasmlar) ham o‘z ifodasini topgan. Bu kabi topilmalar shuni anglatadiki, bu hududlarda musiqa qadimdan kasbiy darajada rivojlangan.

Qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli xissa qo‘shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga ega. Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeolog olimlar tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo‘lib xizmat etadi hamda bu xalqlarning qadimdan boshlab yuksak madaniyat egalari bo‘lganligini tasdiqlaydi. Lekin arab istilosi davrida (VII - IX asrlar) boshqa madaniy yodgorliklar qatorida musiqaga doir yozma manbalar ham kuydirilib, yo‘qotib yuborilgan. Islom Movarounnahr, Eron va Xurosonni fath etgunga qadar ham bu mintaqa xalqlari boy musiqiy madaniyatga ega edi. Xususan, musiqa san’atining xilma-xil shakllari va musiqa asboblarning ko‘p turlari mavjud bo‘lgan. Qadim zamonlardan musiqa mintaqa xalqlarining turmushida muhim ijtimoiy vazifalarni ado etib keldi. U oliy darajada ijtimoiy, siyosiy va diniy ahamiyat kasb etdi. Bayramlar, sayillar, diniy marosimlar va boshqa yirik tadbirlar kuy, qo‘shiq, raqs va o‘yin-tomoshalarsiz o‘tmagan. Movarounnahr, Eron va Xuroson xalqlarining islomgacha bo‘lgan musiqa san’atida Navro‘z va Mehriyon bayramlarida ijro etiladigan kuy va qo‘shiqlar alohida o‘rin tutadi. Yilning bahorgi teng kunlik bayrami – Navro‘z Ahmoniylar davrida (miloddan avvalgi VI-asrlarda) keng tarqalgani ma’lum, ya’ni uning tarixi 26 asr va undan ham ortiq vaqtga to‘g‘ri keladi. Navro‘z bayramida ommaviy sayillar, tomoshalar





o‘tkazilgan va bu tadbirlarda musiqa va musiqachilar asosiy o‘rinni egallab, turli - tuman yangidan-yangi kuy va qo‘shiqlar paydo bo‘lar edi. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) bergan ma’lumotlarga ko‘ra, podshohlar rasman Navro‘z kunlari taxtga o‘tirganlar va bu kunga maxsus bag‘ishlanib ijod qilingan kuy va qo‘shiqlar ijro etilgan. Navro‘z kuy va qo‘shiqlarining har birining o‘z nomi bo‘lib, ular keyinchalik “Navro‘znoma” deb atalmish turkumga birlashdi. Beruniyning yozishicha, Rasululloh (s.a.v.) Navro‘z haqida eshitib bilganlaridan keyin “Koshki biz uchun har kun navro‘z bo‘lsa edi”, degan ekan. Yilning kuzgi teng kunlik bayrami – Mehrigon ham Navro‘z kabi ko‘hna va qadrlil bayram bo‘lib, u tufayli paydo bo‘lgan kuy va qo‘shiqlar – “Mehrigoni xurd”, “Mehrigoniy” va boshqalar hamda “Mehrigoniyon” musiqiy turkumi ma’lumdir.

O‘rta Osiyo xalqlarining so‘nggi ming yillik madaniyati tarixiga oid yozma manbalargina bizgacha etib kelgan. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnaxr va Xurosonda xalq ozodlik kurashining avj olishi, yerlik xalqlarning istilochilarga qattiq qarshilik ko‘rsatishi va qo‘zg‘olonlari natijasida arab xalifaligi hukmronligi ag‘darilib, maxalliy Toxiriylar va so‘ngra Somoniylar davlati barpo etildi.

Bu davrda, madaniyat va san’atning rivojlanishi uchun bir qadar sharoit yaratildi. O‘rta Osiyodan chiqqan qator olimlar xuddi shu davrlarda o‘rta asr fani tarixida o‘zlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashxur bo‘ldilar. Fanning boshqa soxalarida ham o‘lmas ilmiy asarlar yaratgan buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Urmaviy va ularning davomchilari musiqa nazariyasi (“Ilmi musiqiy”) bo‘yicha ham ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar.⁵³ Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo‘llanilgan musiqa nazariyasining yuzaga kelishida xalq etuvchi axamiyat kasb etadi.

IX-XI asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida ma’naviy va moddiy hayot har tomonlama yuksalishga erishdi. Bu esa musiqa san’atida ham o‘z aksini topdi. Ayniqsa Somoniy hukumdorlardan bo‘lgan Ismoil Somoniy davrida Buxoro ilm-fan, adabiyot, musiqa va tasviriy san’at markaziga aylandi. Ismoil Somoniy o‘z saroyiga davrining ko‘plab yetuk olimlari, taniqli va iste’dodli shoirlar, sozanda va xonandalarni

⁵³ Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963-yil. 64-bet.





yig‘adi hamda ularning homiysiga aylanadi. Qolaversa IX-XI asrlarda Rud, tanbur, borbat, daf, ko‘s, tabl, qo‘biz, rubob, taburak, nay, zir, dagona, shaypur, surnay, karnay, organun, qonun, chang kabi musiqa asboblardan keng foydalanilganligining o‘zi ham musiqa madaniyatining nechog‘lik taraqqiy etganligini ko‘rsatib beradi.

Uyg‘onish davri musiqa madaniyati rivojlanishida turkiy, forsiy, tojik, hamda arab xalqi musiqa nomoyondalari o‘zaro hamkorlik qilganliklari tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Xususan shoir Manuchehriy Dog‘moniy o‘zining quyidagi baytida X-XI asrlarda musiqa sanati bilan shug‘ullangan cholg‘uchi va bastakorlarning nomlarini tilga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent,1963.
2. N.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi 1-kitob.
3. I.Rajabov. Maqom asoslari. Toshkent-2014.
4. Z.Oripov. X-XV asrlar Sharq musiqiy manbashunosligi. Toshkent 2008.
5. I.Rajabov. Maqomlar. Toshkent 2006.
6. Z.Oripov. X-XV asrlar markaziy osiyo musiqa manbashunosligi. Toshkent 2017.
7. Rajabov I. Maqomlar. Nashrga tayorlovchi va maxsus muharrir O. Ibrohimov. T.:”SAN’AT”, 2006.





XOJI ABDULAZIZ ABDURASULOVNING IJROCHILIK USLUBI

Yorqin XOSILBEKOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI

1-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Shavkat MATYAKUBOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI dotsenti.

Annotatsiya: *Xalq ijodiyoti ulkan ummondir. U doimo ijodkor ahlining mahsuli bilan boyib, muntazam ulkanlashib boraveradi. O‘zbek milliy musiqasi va adabiyotining shakllanib rivojlanishidagi asosiy poydevori ham shundadir. Qaysi-ki, istedod egasi milliy an’analarga asoslangan holda ijod qilar ekan, yaratgan asarlari milliy madaniyatimiz ravnaqidagi yorqin namunalar sifatida muhrlanadi. Zamonamizning otaxon hofizlaridan biri, taniqli bastakor Xoji Abdulaziz Abdurasulov ham ana shunday ijodkorlardandir. Ushbu maqolada Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijrochilik uslubi xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ijodkor, maqom, tarix, meros, Shashmaqom, ijrochilik, ashula.*

Abstract: *Folk art is a vast ocean. It is constantly enriched with the products of creative people and is constantly growing. This is the main foundation of the formation and development of Uzbek national music and literature. As a talented person creates based on national traditions, his works are marked as bright examples of the development of our national culture. One of the great masters of our time, the well-known composer Khoji Abdulaziz Abdurasulov is one of those artists. This article discusses the performance style of Khoji Abdulaziz Abdurasulov.*

Key words: *Creator, makom, history, heritage, Shashmakom, performance, ashula.*

Xalq ijodiyoti ulkan ummondir. U doimo ijodkor ahlining mahsuli bilan boyib, muntazam ulkanlashib boraveradi. Zotan, bu ummon tarkibidan joy oladigan har bir namuna o‘zining siru-sinoatlari, milliy an’analar, milliy ruhiyat va milliy qadriyatlar bilan sug’orilgan mezoni





bilan izohlanadi. O‘zbek milliy musiqasi va adabiyotining shakllanib rivojlanishidagi asosiy poydevori ham shundadir. Qaysi-ki, istedod egasi milliy an’analarga asoslangan holda ijod qilar ekan, yaratgan asarlari milliy madaniyatimiz ravnaqidagi yorqin namunalar sifatida muhrlanadi. Davrlar o‘tishi davomida esa, ular, avloddan-avlodga o‘tib, ulkan ummon tarkibidan joy oladi va merosga aylanadi. Zamonamizning otaxon hofizlaridan biri, taniqli bastakor, Orifjon Xotamov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, ham ana shunday ijodkorlardandir. Xoji Abdulaziz Abdurasulov mashhur xofiz va bastakor sifatida shuxrat qozongan bo‘lib, Samarqand, shaxrida ko‘k masjid maxallasida to‘quvchi oilasida tavallud topgan. Uning musiqaga bo‘lgan havasi yoshlikdan boshlanib, tanburchi Xoji Raximqulga shogird bo‘lib tushadi va maqom yo‘llarini ijrochisi Borux xofizdan ashulalar o‘rganadi va birga kuylay boshlaydi. Keyinchalik “Shashmaqom”ni mukammal o‘rganish maqsadida Buxoroga borib, mashhur maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirovdan saboq oladi. Uning o‘ziga xos ijrochilik uslubining shakllanishida aynan mana shu saboqning ahamiyati katta bo‘ldi. Bu saboq osongina o‘tmagan, albatta. Ham saboq, ham mehnat natijasida Hoji Abdulaziz Abdurasulov faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ijrochilik uslubiga ega bo‘ldi.

Abdulaziz ikki marta Makkaga xaj safariga boradi va safar davomida turli millat kuy va qo‘shiqlari bilan tanishadi. Xoji Abdulaziz tanburni juda yaxshi chertsada, ashulalarni ko‘proq duetlar jo‘rligida ijro etardi. Uning dasturlaridan yuzlab ashulalar o‘rin olgan bo‘lib, xofizlikdan tashqari bastakorlik bilan xam shug‘ullanardi. U yaratgan “Gulzorim” “Bozurgoniy”, “Beboqcha” “Qurbon o‘lam” ashulalari el orasida mashhur ijro sanaladi.

Bastakor tomonidan Guluzorim asari Rost maqomining Savti Ushshoq sho‘basi ohanglari asosida yaratilgan. Amaliyotda ikki varianti mavjud bo‘lib, qisqa varianti va katta avji bilan aytiladigan Hoji Abdulaziz Abdurasul ijro varianti deb yuritiladi. Asarda maqomlarga xos namudlardan ham foylanilgan. Xususan, unda Turk avjidan foydalanilgan. Nomlanishi esa asar matnidan tashqari, ashula jumllaridan keyin qo‘shib aytiladigan “Ey guluzorim, voyey, rahm ayla nigorim” kabi so‘zlar sabab bo‘lganligi e’tirof etiladi.

1909-yilda uning ijrosida Riga “Gramafon” firmasi “Iroq”, “Nasrullovi”, “Ushshoqlar”ni yozib olgan. 1928-yilda Samarqand





musiqa va xareografiya institutiga ishga olinadi va u yerda bo‘lg‘usi mashxur san’atkorlar M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burxonov, D.Zokirov va boshqalar uning ijodidan baxramand bo‘ladilar.

Shu yillarda Domla Halim Ibodov bilan hamnafaslikda ijod qilib yuradi. Birgalikda juda ko‘plab konsertlar va sayllarda ishtirok etadilar. Ustoz san’atkor maqom ijrolarini boyitib, jumladan “Ushshoq”ni “Samarqand ushshoqi”, “Qashqarchai ushshoq” yo‘llarini va yana bir necha ijrolarini yaratadi. Ustoz juda ko‘p shogirdlar yetishtiradi. Mashxur san’atkor Yunus Rajabiy shunday eslaydi: - Poytaxt Samarqand shaxridagi paytlarda, Rizqi Rajabiy, Imomjon Ikromov, yana bir qancha san’atkorlar Xoji akaning uylarida yashab qo‘shiq o‘rganardik. Men Xoji aka aytgan qo‘shiqlardan taosirlanib ertalabgacha uxlay olmasdim. Va birorta kuyni dilimga joylash uchun sekin xirgoyi qilib takrorlardim. Bordi-yu, biror joyni xato qilsam bormi, Xoji aka yotgan joyida menga qayrilib, “Xoy Yunusvoy, undoq emas mana bundoq bo‘ladi” deb o‘zlari aytib berar-dilar. Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijrosida qator qo‘shiqlar gramplastinkalarga, radio tasmalariga yozib olingan. Ustoz xofiz sakson yoshda xam 1933-yil fevral oyida bo‘lgan O‘zbekiston san’atkorlarini birinchi slyotida qo‘shiq aytish baxtiga muyassar bo‘lgan. Shu kuni xoji Abdulaziz Abdurasulov va domla Xalim Ibodovga “O‘zbekiston xalq xofizi” faxriy unvoni berildi. Ustozning tabarruk nomi mustaqillik yillarida xam eozozlandi Prezidentimiz farmoni bilan “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berildi. Uning nomida Samarqand shahrida yosh xonandalarning respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazib turiladi.

Shu o‘rinda Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijro etgan bir nechta asarlarning tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Ushshoq. Bu ashulani “Qaro ko‘zim” yoki Toshkent Ushshog‘i deb ham atashadi. “Qora ko‘zim” deyilishiga sabab bu ashulaning boshlanish qismi Navoiyning “Qaro ko‘zum kelur mardumlig‘ emdi fan qilg‘il” deb boshlanuvchi g‘azali bilan aytiladi. Toshkent Ushshog‘i deyilishiga sabab esa uni Toshkentlik bastakor hofizlar, aynan Mulla To‘ychi Toshmuhammedov va Hoji Abdulaziz Abdurasulovlar tomonidan yaratilganligiga hech shak-shubha yo‘q. Bu Ushshoqning nomi qadimiy jadvallarda keltirilmagan. U jadvallarda faqatgina Qo‘qon xonligi saroyida ijro etilgan ashulalarning ro‘yxati bo‘lgan. Bu Ushshoq aynan Toshkentda yaratilganligini shundan ham





payqashymiz. Bu ashulaning ko‘lami u qadar katta emas. Doira usuli zarbul qadim bo‘lib, Farg‘ona- Toshkent maqomlarining deyarli hammasi shu usuldadir.

Samarqand Ushshog‘i. Ushshoqlarga shaharlarning nomi berilishi bastakorlar orasida an‘ana bo‘lib kelgan. Bu nomlar orqali asosan shaxarlarning go‘zalligiga, ularga o‘xshab qadimiy va navqiron bo‘lishiga havas qilib nomlashgan. Samarqand Ushshog‘ini aynan Samarqandlik bastakorlar yaratgan ekan, ustozlarning ta’kidlashlaricha bu Ushshoq Hoji Abdulaziz Abdurasulovning qalamiga mansub. Bu ashula g‘azalining muallifi Zebunisodir.

Farg‘ona-Toshkent maqomlarining cholg‘u qismlarida juda ko‘p asarlar mavjud. Shulardan Nasrullovi va uning turkumidagi 3 ta asar Talqinchai Nasrullovi, Qashqarchai Nasrullovi va Ufor Nasrullovi. Mushkuloti Segoh – bu ham Mushkuloti Dugoh kabi uch qismga bo‘linadi. Ya’ni Talqincha va Ufor qismlari ham mavjud. Kuy yo‘li asl Segoh pardalarida tuzilgan bu asarning xozirgi kunda ijrosini kamdan kam eshitamiz.

Shashmaqomning ichki munosabatlari ham uning ijodkorlari tomonidan har tomonlama o‘ylab, puxta ishlangandir. Maqom bir butun tuzilma sifatida o‘nlab tarkibiy qismlardan iborat. Ularning har birining o‘z o‘rni va vazifasi mavjud hamda ular bir biriga muvofiq ravishda ishlangan. Tarkibiy qismlarning har biri boshqalari bilan turli munosabatda bo‘ladi va shu asnoda ko‘p qismlilikning hilma hil ko‘rinishlari yuzaga keladi. Ya’ni ochiq tarzda oddiy qatorlashuv yoki boshi, o‘rtasi va oxiri aniq belgilangan yaxlit bo‘limlar. Yozma manbalar va musiqiy risolalarda ko‘p qismlilikning birinchi navi “navba” va amaliyotda qatorlashuv va tizilishni nazarda tutadi. Navbaning amaldagi ko‘rinishiga Shashmaqom cholg‘u yo‘llarining ichki tuzilishi misol bo‘lishi mumkin. Chunki ularning tarkibida bir usulga asoslangan tasnif va tarje’, shuningdek, yagona usul asosidagi ikki – uch, hattoki to‘rt muhammas yoki saqil izma iz oddiy navba tarzida tizilib kelishi mumkin.

Shashmaqomning ashula yo‘llarida qismlarning oddiy va murakkab bo‘limlarga jamlanishi kuzatiladi. Unda har bir qism o‘z o‘rni va vazifasiga ega. Boshqacha aytganda, ular boshlang‘ich, o‘rta va yakunlovchi qismlar vazifasini bajarishi mumkin. Shunga o‘xshagan ko‘p qismliliklar toifasi o‘tmish musiqiy risolalarida “navbati





murattab” ya’ni tartiblashgan navba deyilgan. Navbati murattab mazmunan qismlari darajalangan ko‘p qismlilikning murakkab ko‘rinishidir. Chunki unda qismlar izma izligi ma’lum tartib va mantiqqa bo‘ysundirilgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov maqom namunalarini ijro etar ekan, uning ichida jamlangan har bir nozik elementga ham ustalik bilan yondoshgan holda ijro etgan. Qo‘lida dutor yoki tanbur cholg‘usi bilan hamnafaslikda ijro etganligining ham alohida jihati mavjud.

Xonandalik faoliyati davomida asarlarni dutor yoki tanbur cholg‘usi jo‘rligida ijro etgan ustoz san’atkorlardan ko‘plarni bilamiz. Ularning har biri ham sozandalik bobida, ham xonandalik bobida o‘zlarini namoyon eta olganlar. Hoji Abdulaziz Abdurasulov ham xuddi shunday iste’dodga ega bo‘lib, yana yangidan yangi musiqiy asarlarni yaratgan hamdir. Uch to‘rt jihatni bir o‘zida mujassam etgan noyob iste’dod egalari esa yuz yilda bir dunyoga keladi, desak, mubolag‘a bo‘lmas. Chunki, biror mumtoz asarni xonanda sifatida kuylash barobarida dutor yoki tanbur cholg‘usida mohirlik bilan kuyini chalish juda katta iste’dodni talab etadi. Xoji Abdulaziz Abdurasulov betakror ijro uslubiga ega, shijoat va shiddatli, olovqalb xonanda bo‘lgan. Uning aynan mana shu xususiyatlari qo‘lidagi cholg‘uni ijro etayotgan vaqtida ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Вызго Т.С.К вопросу об изучении макомов. //Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. М., 1972 г..
2. Ibrohimov O. Hazrat Navoiy va maqom. //Musiqqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to‘plami II. Toshkent, 2002 .
3. Кароматов Ф., Эльнснер Ю. Макам и макам. //Музыка народов Азии и Африки. Вып.4. М. 1984 г.
4. Qosimov R. Maqomot-xalq ehtiyoji. “Shashmaqom saboqlari” maqola va ma’ruzalar to‘plami T., 2005.
5. Shashmaqom. Kitob. Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1966.
6. Shashmaqom. Kitob. Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1967.





7. Shashmaqom. Kitob. Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1970.

8. Shashmaqom. Kitob. Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1972.

9. Shashmaqom. Kitob. Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1973.

10. Shashmaqom. Kitob. Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1975.





O‘ZBEK MAQOMLARIDA QALANDARLAR TURKUMI

Aziza DAVRONOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

1-bosqich magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek musiqasi va maqomlarida Qalandarlar tavsifi qolaversa, Qalandarlik tushunchasi uning kelib chiqish jarayoni haqida so‘z yuritiladi. Qisqacha misollar keltirilib, ijrochilik xususiyatlari oochiqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Maqom, musiqa, diniy musiqa, qalandar, samandar, Qalandari dugoh, so‘fiylik, Hoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqurg‘oniy.*

Аннотация: *Помимо описания каландаров в узбекской музыке и статуса, рассматривается понятие каландаров о процессе его возникновения. Приведены краткие примеры и раскрыты особенности производительности.*

Ключевые слова: *Макам, музыка, религиозная музыка, Каландар, Самандар, Каландари Догох, Суфизм, Хаджа Ахмед Яссави, Сулейман Багургани.*

Abstract: *In addition to the description of qalandars in Uzbek music and status, the concept of qalandars about the process of its emergence is considered. Brief examples are given and performance features are revealed.*

Key words: *Maqam, music, religious music, Qalandar, Samandar, Qalandari Dogoh, Sufism, Khaja Ahmed Yassawi, Suleiman Bagurgani.*

O‘zbek mumtoz musiqasi serjihat va buyuk ma’naviyat majmua sifatida e’tirof etiladi. Binobarin, ushbu musiqa namunalari ijod, san’at turi bo‘lib qolmasdan, balki madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o‘rganilishi lozim. O‘zbek mumtoz musiqasi shunday keng ko‘lamliki, uning qamrab olmagan mavzulari kamdan-kam topiladi. Xalq o‘zi kuylayotgan ashulalarga, dostonlariga, maqomlari va cholg‘u kuylariga insonni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga ta’sir ko‘rsata oluvchi tarbiyaviy mavzularni singdira olgan. Ushbu musiqa





numunalari orqali xalq yuragidagi dardlarini, mehr-muhabbatini, ishqiy kechinmalarni, orzu-istaklarini bayon qilib kelgan.

Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Darvish Ali Changiylar maqomlar va umuman mumtoz musiqaning kishilarga ta’sirini o‘rganishgan. Ushshoq, Navo, Husayniy, Iroq, Dugoh, Buzruk kabi jozibador va ohangdor maqom yo‘llari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari musiqa madaniyatidan o‘rin olib, mashhur bo‘lgan. Shu bois, o‘zbek mumtoz musiqasi minglab yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog‘onalarga ko‘tarilgan va xalqning madaniy-ma’naviy boyligiga aylangan.

Musiqaning inson ma’naviyatiga ta’siri juda qadimdan Sharq mutafakkirlari va musiqashunoslari fikrini band qilgan. “Arablar faylasufi” al-Kindiy musiqani koinot garmoniyasi, inson ruhiyati garmoniyasiga qiyosan o‘rganadi, insonni jismoniy va ma’naviy sog‘lom qiluvchi omil sifatida idrok etadi. U musiqaga doir risolalarida kuy, rang va xidlarni estetik idrok etish jarayonidagi mushtaraklikni aniqlashga ham axamiyat beradi. Al-Kindiy Sharq olimlari orasida birinchilardan bo‘lib musiqa nazariyasi haqida risolalar yozibgina qolmay, musiqaning badiiy-estetik va tarbiyaviy jixatlariga ham katta e’tibor berdi.

Ana shunday insonning ruhiy olamiga bevosita ta’sir o‘tkaza oladigan, qolaversa, uni ruhiy komillik sari yetaklaydigan musiqiy janrlardan biri bu diniy musiqa janri hisoblanadi. O‘zbek musiqasida ham asosiy g‘oyasi ruhiy kamolot va diniy qarashlar ustuvor turadigan asarlar mavjud. Bulardan Qalandariy, Samandariy, sufiy musiqalar, zikr aytishda qo‘llaniladigan musiqiy ohanglar shular jumlasiga kiradi. Quyida Shashmaqom tarkibiga kiruvchi birgina Qalandari va Samandari Dugoh asarlari misolida ushbu tushuncha, yo‘nalish va ushbu janrda ijod qilgan buyuk allomalar haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

“Qalandariy yo‘llar (qalandariylik, qalandarlik) tariqati 11-12 asrlardan boshlab shakllangan. Bu tariqatning asoschisi Jamoliddin Soviydir. Qalandariya o‘ziga xos urf odatga ega tariqatdir. Qalandarlik tarixda ma’lum qonun qoidalar, maxsus liboslar kiyib yurgani ma’lumdir. Ularning ko‘pi mujarrad o‘tgan. Qalandar so‘zi “dunyodan





voz kechgan, tarki dunyo qilgan kishi, “zohid” ma’nolarini va “diniy g‘azallar o‘qib, ham dinni targ‘b qiluvchi, ham darbadar kezuvchi davesh”, “o‘zbek xalq kuylaridan birining nomi”, “erkaklarga qo‘yiladigan nom”, ma’nolarida keladi”[6.b.8]. Qalandarvachcha-qalandarning shogirdi. Qalandarxona – qalandarlarning yig‘iladigan va tunaydigan joyi. Said Jafar Sajjodiy eron olimi aytganidek “qalandar biror mansab, maqomga ega bo‘lmagan, dunyoning ortiqcha g‘am tashvishlaridan forig‘ kishidir. U jamiyatga ichdan emas tashqaridan ta’sir ko‘rsatib, joriy urf -odatlarini buzadi. Shu sababdan ayrim manbalarda ular “so‘fiyoni xorij” ya’ni tasavvufdan, jamiyatdan tashqarida bo‘lgan so‘fiylar deb nomlangan.

So‘fiy malomatiy va qalandar orasidagi qisqacha farq shunday: so‘fiyning qalbi xalq bilan emas, Haq bilan. Qalandar esa xalq urf-odatlarini oshkora buzadi. Qalandarning tashqi ko‘rinishi g‘ayri odatiy. To‘n, hirqa, paypoq, yungli kuloh, har xil jes bezaklar, munchoqlar, uzuklar taqishgan. Qo‘lda aso, belda kachkul bilan qalandarona mavzudagi g‘azallarni o‘qib yurishardi. G‘azallar hech qanday ritm yoki usullarga bo‘ysunmagan holda, beqaror usul va iltijo, yolvorish tarzida bo‘lgan. Mumtoz adabiyotda lirik qahramon sifatida bir necha ma’naviy qiyofalarga ega bo‘ladi: Birinchisi- oshiq qalandar. Bular chinakam Haq oshiqlari. Ikkinchisi- majzub qalandarlar. Bular qissa, manoqib, tazkira, va ayrim she’riy asarlarda ta’rifu tavsif etilgan valiy sifat zotlar. Uchinchisi- ujb va riyodan poklana olmagan, adab talablaridan chekingan, tilanchilik bilan kun ko‘rishga odatlangan qalandarlardir.

Abdurauf Fitratning yozishicha “Qalandarlik musulmon tasavvufining sho‘basidir. Bu maslak bizning o‘lkamizda so‘ng kunlargacha davom etdi” deydi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda tasvirlangan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Orzigul”, “Malikai ayyor” kabi dostonlardan joy olgan qalandarlar ibratli zotlardir. Hofiz Xorazmiy, Sayyid Qosimiy, Lutfiy, Gadoiy, Atoyi kabi shoirlar qalandarona ruh va ohanglar bilan sug‘orilgan baytlarni talaygina bitishgan. Qalandarona oshiqlikning yirik namoyondalaridan Imom G‘azzoliy, Jaloliddin Rumi, Boborahim Mashrab va boshqalar.

Mavlono Jaloliddin Rumi hozirgi Tojikistonning Vaxsh shahri (Xorazmshohlar mamlakati) da 1207- yil sultonal ulamo laqabli ulug‘ shayx Muhammad Balovaddin Valad xonadonida tug‘ildi. Xorazmshoh





bilan otasining munosabati buzilib Balxdan ketgach, Koniya qo‘nim topishadi. Jaloliddin Shom, Halab, Damashq, Qaysariya va shunday yirik ilm markazkarida o‘qiyda va yetuk donishmandlardan biri bo‘lib yetishadi. Mo‘g‘ul bosqini tufayli Movarounnahr va Xurason o‘t ichida qoladi. Biroq Jaloliddin ota yurtiga qaytmaydi. Sababi u yerda Balxda 400 ulamolarni qatl qilishadi. Shunda u o‘zini anatoliyalik hisoblab, Rumi degan taxallus oladi. U milliy adabiyotga salmoqli hissa qo‘shgan va katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ilmiy doirada uni goh Kant, goh Hegel kabi faylasuflar bilan taqqoslashadi. Rumiya tasavvuf taraqqiyoti, ilmi hikmat, falsafa, she’riyat va ma’naviyat ham yuqori darajada edi. Alisher Navoiy uni ilohiy ishq kuychisi, buyuklikning ko‘z ilg‘amas cho‘qqisi deb sharaflaydi. Uning ijodi g‘azal, masnaviy va ruboiylarni o‘z ichiga oladi. Birgina “Devoni kabir” (Ulug‘ devon) da 3000 dan ortiq she’r mujassam. Falsafiy so‘fiyona mushohadalar, ruhiyat dialektikasini kashf etgan. Bundan tashqari “Maktubot” mavlononing turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tashkil topgan to‘plam, “Fihi mo fihiy” (“Ichindagi ichindadir”) nomli asarlari ham mavjud. Mavlononing falsafiy kitobidir. 1998- yil Toshkentda o‘zbek tilida nashr etildi. Jaloliddin Rumi 1273- yil 17- dekabrda Koniya qo‘nim vafot etgan. Islom mafkurasi kuy va ohang ijro manbaiga emas, balki borib yetadigan joyi ya’ni eshitilishiga qarab samo deb yuritiladi. Samo o‘z navbatida xushmahzum, muvofiq, mutanosib, go‘zal ovoz deya ta’rif beriladi. Tariqat olamida “samo” tushunchasi (simo) “eshitish” ma’nosida bo‘lib, zikr va ilohiyotga berilish asnosida mashshoqlar tomonidan kuylanadigan ashulalarga nisbatan ham aytiladi.

Aslida Qalandar yo‘llari barcha maqomlarda mavjud. Ammo o‘sha go‘zal maqom sho‘balardan biri bu Dugoh maqomidan o‘rin olgan Qalandari va Samandari Dugohlardir. Endi biz taxminimizga ko‘ra Qalandar yo‘llarning musiqa bilan aloqasi qanday kesishganini bilib olamiz. Aytildiki masjidlar oldida Qalandarlarning qalandarxonasi mavjud bo‘lgan. U yerda qalandarlar zikrlar, g‘azallar diniy she’rlar, qo‘shiqlar aytib ibodat qilishgan. Taxminimizcha maqomdon ustozlar ularni zikr va g‘azallarini doimiy eshitib kelishgan. Ya’ni Qalandarlar zikrlarida Shashmaqomda mavjud Hoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqurg‘oniy va boshqa shular kabi shoirlarning g‘azallaridan foydanishganini eshitishgan. Ushbu g‘azallarni boshqa yo‘lda ya’ni





qalandariy yo‘lda bastalab irjo etish fikri uyg‘ongan taxminimizcha. Aniqrog‘i biz buni ilhomlanish desak maqsadga yaqinroq bo‘lar edi. Sababi zikrdagi hanglar ashulaga ham ko‘chgan deya olamiz.

Shashqamomdagi Qalandari va Samandari Dugohni kuylash uchun ijrochidan keng diapozonli ovoz, alohida tajriba kuch talab qilinadi. Ushbu asarlar kam ijro qilinadigan asarlardir. Asar o‘zining hanglari va zam-zamalarining murakkabligi bilan ajralib turadi.

QALANDARI DUGOH

M. M. $\frac{3}{4} = 88 - 92$
 $\frac{3}{8} = 152 - 180$

бу юнг
 нах ли ки рашк эл тур ба се
 сар ви ра вон ан ли. Да риг эл мие ме нинг
 кўнг лум та ну жо ну ра вон
 ан ли. Да риг эл мие ме нинг

[2.112]

Ijroni eshitganimizda asarning hanglari o‘zgacha yangrashi go‘yoki iltijo yoki nola qilayotganini eslatib turadi. Usuli ham talqin usulida bo‘lib zikr harakatiga to‘g‘ri keladi. Qalandari va Samandari Dugohda go‘zal nag‘malar, serjilo nolalar mavjud. Ularda boshqa ikkinchi guruh sho‘balari kabi qashqarcha, soqinoma, ufarlar mavjud emas. Samandari Dugoh ham talqincha usulida. Bu usulda ham namudlarning yangrashi o‘zgachaligi isbotlangan. Daromadi





talqinchalarga xos bo‘lsada furovardi “Qalandari Dugoh” singaridir.

SAMANDARI DUGOH

M. M. $\text{♩} = 180 - 188$
 $\text{♩} = 92 - 98$

Та_кал_луф ҳар не_ча су_рат да бул
са он_дин ор_тиқ_сен. Се_ни жон_дер_лар ам
мо бе та_калі_луф жон_дин ор
туқ_сен Па_ри_нинг хус_ни_ич ра_гар
чи о ти бе_ни_ҳо ят_дур.

Umuman olib qaralganda o‘zbek musiqasida qalandar, samandar qolaversa, diniy musiqa janrlari hali keng o‘rganilmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Uning musiqiy-uslubiy jihatlarini, ushbu asarlardagi diniy xususiyatlarning ahamiyatini tadqiq qilish, ilmiy izlanishlar olib borish bugungi kunda dolzarb bo‘lgan va ayni jabhada muhim muammolardan biridir.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Is’hoq Rajabov. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug‘ati. “Tamaddum” nashriyoti, Toshkent -2023.
2. Yunus Rajabiy. “Shashmaqom” IV -jild. Toshkent.: 1972 y.
3. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. 11-jild. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2005.
4. Yunus Rajabiy. O‘zbek maqomlari. Shashmaqom. Toshkent-2007.





-
5. Yunus Rajabiy. Musiqa me’rosimizga bir nazar. Toshkent – 1978
 6. “Ichindagi ichindadir” forum.ziyo uz. com.
 7. Sayfiddin Rafiddin. Adabiyotda Qalandarlik. Sharq Yulduzi nashriyoti, Toshkent-2013.
 8. B.Matyoqubov. “Doston Navolari” 2009 y.
 9. M.B.Raxmon o‘g‘li. Muxammad Yusuf Devonzoda “Xorazm musiqiy tarixchasi” 2014 y.





MILLIY RUHDA TARBIYA TOPGAN ZAMONAVIY IJODKOR

Nargiza BEKBOYEVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Soibjon BEGMATOV,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy musiqa ijrochiligi gultoji hisoblanmish maqomlarimizning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan benazir maqomdon, qolaversa, mahoratli sozanda, o‘ziga xos uslubiga ega bastakor O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, 2024-yilning fevral oyida Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston madaniyat kunlari” doirasidagi madaniy tadbirlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Shashmaqom, Abduhoshim Ismoilov, Maqomot, “Tong”, “Hayoli qiz”, Elmurod Ahmedov, Furqat Ashuraliyev, Xitoy, “O‘zbekiston madaniyat kunlari”.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается об Абдухошиме Исмаилове, известном артисте Узбекистана и Каракалпакстана, внесшем большой вклад в отечественное музыкальное исполнительство, а также об искусном музыканте, композиторе со своим стилем. Кроме того, будут освещены культурные мероприятия в рамках «Дней культуры Узбекистана», проводимых в Китайской Народной Республике в феврале 2024 года.*

Ключевые слова: *Шашмаком, Абдухошим Исмаилов, Макамот, «Стеснительная девушка», Эльмурод Ахмедов, Фуркат Ашуралиев, Китай, «Дни культуры Узбекистана».*

Abstract: *This article talks about Abduhoshim Ismailov, a famous artist of Uzbekistan and Karakalpakstan, who made a great contribution to domestic musical performance, as well as a skilled musician and composer with his own style. In addition, cultural events will be covered within the framework of the “Days of Culture of Uzbekistan” held in the People’s Republic of China in February 2024.*





Key words: *Shashmakom, Abduhoshim Ismoilov, Makamot, “A shy girl”, Elmurod Akhmedov, Furkat Ashuraliev, China, “Days of Culture of Uzbekistan”.*

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, mohir g‘ijjakchi va bastakor Abduhoshim Ismoilov 1952 yil 9 iyunda Farg‘ona viloyati Quva tumanida dehqon oilasida tug‘ilgan. Bolaligidan musiqaga qiziqadi va havaskorlik to‘garagiga qatnaydi. 1967 yili Farg‘ona musiqa bilim yurtiga, 1975 yilda Toshkent davlat konservatoriyasiga o‘qishga kiradi. 1980 yilda o‘qishni tamomlab Yu.Rajabiy nomidagi maqom ansamblida ijodiy faoliyatini boshlaydi.

Ustoz san’atkor 1983 yilda o‘tkazilgan Respublika maqom ijrochilarining tanlovida birinchi o‘rin sovrindori bo‘ladi. Ustoz mohir g‘ijjakchi hamda iste’dodli bastakor sifatida yaratgan qator musiqiy asarlarida Farg‘ona vodiysi ijroochilik maktablari an’analarini o‘ziga xos uslub va zamonaviy musiqa vositalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda uyg‘unlashtirishga, turli yorqin ohang va usullar kashf etishga intilgan san’atkordir.

Abduhoshim Ismoilov ijrosidagi qo‘shiq va kuylar muxlislar tomonidan hamisha ishtiyoq va qiziqish bilan kutib olinadi. Ayniqsa, har bir yaratilgan kuylarida o‘ziga xos milliylik, g‘ijjak sozi ijrochiligining Farg‘ona vodiysi maktablariga xos joziba, mayinlik, qalb torini nozik chertish kabi jihatlar yorqin namoyon bo‘lishi darhol sezilib turadi. Bularga: «Holim so‘rma», «Gullola», «Tong», «Hayoli qiz», «Dil nolasi», «To‘yona», «Qalb sadosi» kabi qator cholg‘u va raqs kuylarini misol tariqasida aytish mumkin.

Abduhoshim Ismoilovning 1973-yildan boshlangan ijodiy faoliyati jarayonida ko‘proq qo‘shiq va ashula janrlarida asarlar yaratib kelayotganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. U qaysi bir she‘rga murojaat qilmasin, avvalo uning matni muhim ahamiyat kasb etgan. Abduhoshim Ismoilov so‘z va kuyni teran uyg‘unlashtirishga doimo harakat qilib keldi.

Abduhoshim Ismoilov 1999-yilda “Maqom ansambli” rahbari etib tayinlanadi. Ma’lumki, Yunus Rajabiy tomonidan 1959-yilda asos solingan maqomchilar ansambliga turli davrlarda ustoz san’atkorlar rahbarlik qilganlar. Mohir sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov, hofiz Orif Alimaxsumov, hofiz Isroiljon Vahobov kabi maqom





bilimdonlari Yunus Rajabiy maktabining davomchilari sifatida qaraladi. Bu ijodkorlardan Abduhoshim Ismoilovning farqi shundaki, u birinchilardan bo‘lib Shashmaqom ijrochiligiga yangicha ijodiy qarashlari bilan yondashdi. 1987-yildan maqom ansambli bilan birga Shashmaqomni yangi zamonaviy stereo formatidagi ovoz yozuvini boshlab, bu ish jarayonida yutuqlarga ham erishdi. Cholg‘u ansambli tarkibini kengaytirib, ansamblga yangi sozlarni kiritdi. Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov o‘zining “Maqomot”⁸ nomli kitobida shunday deb yozadi: “Yunus Rajabiydan so‘ng Shashmaqom ijrochiligiga yangilik kiritishga jur‘at etgan rahbar Abduhoshim Ismoilov bo‘ldi”.⁵⁴

Haqiqatdan ham so‘nggi yillarda Abduhoshim Ismoilov rahbarligida Shashmaqomni ijrosida bir qator yangiliklar kuzatilmoqda. Ulardan biri cholg‘u ansamblining tarkib masalasi bo‘lib, ijodkor uning sadosini boyitish maqsadida qo‘biz bass, klarnet, nog‘ora, “katta” doyra sintezator va turli urma cholg‘ularni kiritdi. Ansambl tarkibi kengaydi va Abduhoshim Ismoilovning ijodida rivojlanayotgan ko‘povozlik yaqqol o‘zini ko‘rsata boshladi. Ya‘ni cholg‘ular avvalgiday asarning boshidan oxirigacha jo‘rlik qilmay o‘ziga ajratilgan bo‘laklarnigina ijro eta boshlashdi. Shu bilan birga ansambl ijrosida asarning avj nuqtasiga ham ko‘proq e‘tiborini qaratdi. 2000 ga yaqin cholg‘u va aytim asarlari muallifi bo‘lgan Abduhoshim Ismoilov so‘nggi yillarda mumtoz an‘analarga, yangi maqomlarning aytim va cholg‘u yo‘llari, katta ashula va sunray yo‘llari xususiyatlarini chuqur idroklab, ularga ijodiy yondashuv orqali tayanib Alisher Navoiy, Bobur, Gadoiy, Hofiz, Haziniy kabi klassik shoirlarning g‘azallariga murojaat qilib, bir qator ashulalar bastaladi. “Vasl topsang”, “Tarahhum qilmadi”, “Nasib bo‘lg‘ay”, “Hamroz qil”, “Ey do‘st”, “Munavvar qil”, “Yor emas” shular jumlasidandir. Sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilov 1999-yildan hozirga qadar Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambliga rahbarlik qilib kelmoqda.

Shu yillari Abduhoshim Ismoilovning bastakorlik ijodi, ijrochilik va targ‘ibotchilik faoliyati yuqori baholanib, uning bir qator unvonlar sohibi bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

⁵⁴ Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: “Musiqqa”. 2004. 105-bet.





Musiqa, madaniyat, san’at hech vaqt til - millat tanlamaydi. Necha asrlardan buyon Buyuk Ipak Yo‘li chorrahasida joylashgan jonajon O‘zbekistonimiz o‘zining betakror musiqa madaniyati, jozibador va serjilo san’ati bilan dunyo xalqlarini lol qoldirib keladi. Madaniyati rivojlangan, san’ati gullab yashnagan joy hamisha zamon axlining diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Bizning boy madaniyatimiz, san’atimizga ruhan yaqin, qolaversa, uzoq asrlik do‘stona munosabatlari chambarchas yaqin davlatlardan biri bu Xitoy Xalq Respublikasidir. O‘zbekiston hududi Buyuk ipak yo‘lining markazi bo‘lganligi tufayli ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. Hozirgi kunga qadar ikki mamlakat o‘rtasida madaniyat, fan, texnika va ta’lim sohasida ham hamkorlik rivojlanmoqda. Xitoy vakillari Samarqandda o‘tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida, O‘zbekiston folklor jamoalari, qolaversa maqom ansambllari, qator taniqli soha vakillari Pekinda har yili o‘tadigan xalqaro madaniyat va turizm festivallarida muntazam ishtirok etib keladilar.

2001-yilda O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lgandan beri ushbu tashkilot doirasidagi munosabatlar ham shiddat bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, terrorizmga qarshi kurash va O‘rta Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash sohasida ikki tomonlama hamkorlik kengaymoqda. Mazkur tashkilotning yuridik asoslarini ishlab chiqish va uning amaliy vazifalarini belgilashda O‘zbekiston faol ishtirok etadi.

Vazirlar mahkamasining 2023-yil 22-dekabrdagi 809-F sonli farmoyishiga muvofiq Xitoy Xalq Respublikasida “O‘zbekiston madaniyat kunlari” doirasida ko‘plab madaniy tadbirlar tashkil etish masalalari belgilandi. Shu munosabat bilan kuni kecha Toshkent va Shanxay aloqalarining 30 yilligi munosabati bilan Xitoy Xalq Respublikasi Shanxay shahrida katta tadbir tashkil qilindi. Ushbu konsert dasturi ikki xalqning mushtarak maqsadlarini san’at orqali yanada keng miqyosda ifoda etdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Konsert dasturi davomida yurtdoshlarimiz o‘zining chiqishlari, go‘zal liboslari bilan tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egalladi. Xususan mazkur yubiley konsertida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli rahbari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati faxriy professori





Abduhoshim Ismoilovning chiqishi tomoshabinlarning e’tiroflariga sazovor bo‘ldi.



Ajdodlarimizning bugungi kunga qadar qoldirgan me’rosi butun dunyoda ahliga dasturul amal bo‘lgan. Xususan Shanxay universiteti xovlisida 2017 yilda bobomiz Alisher Navoi haykalining qad ko‘targanini ko‘rish insonda o‘z ona vatani, xalqiga bo‘lgan faxr tuyg‘usini yanada oshiradi.



Alisher Navoi poyiga Mukarrama Turg‘unboeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli raxbari boshchiligida ijodiy jamoa tomonidan gulchambarlar qo‘yildi. Ustoz san’atkorimiz Abduhoshim Ismoilov safar ta’surotlari haqida to‘xtalib: “Xitoyda hazrat Navoiy





haykalining qurulishi bu avvalo buyuk ajdodimizga, qolaversa, xalqimizga bo‘lgan chuqur hurmat belgisi sifatida bizni g‘ururlantiradi. Bu esa ayni damda hurmatli yurtboshimizning bugungi kunda olib borayotgan oqilona siyosatlari natijasidir” deydi.

Bundan tashqari Pekin shahrida ham “O‘zbekiston madaniyat kunlari” keng miqyosda nishonlandi. Ushbu tadbirda maqom ansambli xonandalari, O‘zbekiston xalq hofizlari Elmurod Ahmedov va Furqat Ashuraliyevlar ham o‘zlarining munosib ishtiroki bilan mumtoz navolarimiz orqali shinavandalar ko‘nglidan joy oldi. Ana shunday madaniy tadbirlarning boshqa davlatlarda keng miqyosda tashkil qilinishi bu o‘zbek mumtoz musiqasi qolaversa, boy madaniyatini targ‘ib etishda eng muhim omil bo‘lib xizmat qilishi bilan bir qatorda o‘zaro hamkorlik rishtalarini ham yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-yil 17-noyabr. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 18 noyabr soni.

2. Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti, 1978.

3. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004.

4. Abdullayev R. Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli. // Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. – Toshkent: Navro‘z, 2019.





XONANDALIK TA’LIMIDA SO‘Z VA OHANG MUTANOSIBLIGINING AHAMIYATI

Feruza ABDUKARIMOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
1-bosqich magistranti.*

Ilmiy rahbar: Ra’no ORIPOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsent,
pedagogika fanlari nomzodi.*

Annotatsiya: *Maqolada maqom xonandaligida so‘z va ohang mutanosibligini o‘rganishning ta’limiy-tarbiyaviy xususiyatlari, maqom ijrochiligida so‘z va she’riyatning muhim ahamiyati, so‘z va ohang mutanosibligi masalasiga doir pedagogik qarashlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *so‘z, ohang, mutanosib, maqom, she’riyat, komillik, nafis, talqin, ijro, badiiy, estetik, tarbiyaviy, ruhiyat, ta’sir.*

Аннотация: *В статье описаны учебно-воспитательные особенности изучения баланса слов и тонов в макомом пении, значение слова и стихов в макомом исполнении а также педагогические взгляды на проблему баланса слов и тонов.*

Ключевые слова: *слово, тон, баланс, маком, поэзия, совершенство, изящество, интерпретация, исполнение, художественное, эстетическое, воспитательное, дух, эффект.*

Abstract: *The article describes the teaching and educational features of studying the balance of words and tones in makom singing, the meaning of words and poems in makom performance, as well as pedagogical views on the problem of the balance of words and tones.*

Key words: *word, tone, balance, makom, poetry, perfection, grace, interpretation, execution, artistic, aesthetic, educational, spirit, effect.*

O‘zbek musiqa san’atining eng yetakchi janri hisoblangan maqom ijrochiligi, asrlar davomida o‘tgan shoir-u olimlar, mohir bastakorlar, sozanda va hofizlar, mahoratli ijodkorlar va ijrochilar tomonidan talqin etilib, “ustoz – shogird an’analari” tizimida bizning vaqtgacha og‘zaki tarzda yetib kelgani ma’lum. Hozirgi kunda maqom san’atini amaliy jihatdan o‘rganish va





o‘rgatish, targ‘ib etish, maqomlardagi so‘z va ohang mutanosibligi, aruz ilmi, maqomlarga bog‘langan g‘azallar ma‘no va mazmun mohiyatini o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan asoslab, tahlil qilish, maqomlarimizning tarbiyaviy ahamiyatini ta‘lim oluvchilarga chuqur singdira oladigan mutaxassislar tayyorlash dolzarb masalalardan biridir.

Maqom ijrochiligi malakali ustoz saboqlarini olishi shart bo‘lgan murakkab soha yo‘nalishlaridan. Dilkash va jozibali, shu bilan birga mukammal bo‘lgan durdona asarlarni tinglab uning ma‘no-mazmunini tushunish, barkamol ijrolardan bahramand bo‘lish uchun muayyan tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi albatta. Maqom ijrochiligida xonandalik san’ati esa boy uslubga, keng qamrovga ega, turli yo‘nalishlarda rivojlanib kelgani bilan ahamiyatli. Unda so‘z, musiqa, muloqot, ruhiyat va shu kabi qator omillar mujassam. Mumtoz hofizlik san’atida ijro etiladigan asarning so‘z matniga alohida e‘tibor berib kelingan. Ashula ijrochiligi so‘z va kuyning uyg‘unlashgan holda mutanosib talqin etilishiga xos, ularning har birini alohida yondoshish bilan ifoda etishga asoslanadi. Tovushlar majmuasida vujudga kelgan musiqiy kuy alohida ma‘noga ega bo‘lsa, unga bog‘langan so‘z ham muhim bir g‘oyani ifoda etadi. Xonanda ijrosini tinglovchiga eng birinchi navbatda yetkizib beradigan, singdiradigan tamoyil bu – so‘z sanaladi. Ijrochi talqin etayotgan asaridagi g‘azal mazmunini o‘zi tushuna bilishi va tushuntira olishi uning muhim vazifalaridandir. Shu o‘rinda xonanda uchun muhim hisoblangan so‘z va ohang atamalarining qisqacha ta‘rifiga to‘xtalib o‘tsak.

So‘z - tilning narsa va hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim strukturasi va ma‘naviy birligi; o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, borliqdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma‘no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi. So‘z ma‘nosida umumiylik va yakkalikning, barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning dialektik o‘zaro munosabati aks etadi. Hazrat Navoiyning bir ruboiysida:

**So‘z durki nishon berur o‘lukka jondin,
So‘z durki berur jong‘a xabar jonondin,**





**Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.**

Inson ham aslida boshqa jonivorlar kabi bir jonzotligi, uni sharaflagan hodisa til, so‘z qudrati ekani aytiladi. Sodir etilajak barcha ishlarning negizida so‘z yotadi. So‘z yordamida izhor-u, ijrolarni, yoqimli misralar, go‘zal ohanglarni yetkaza olamiz.

Ohang - (fors. - tovush, nag‘ma, kuy) - musiqiy ifoda vositasi sifatida eng kichik kuy bo‘lagi, intonatsiya. Ohang - bir necha tovushlarning mantiqan ulanib borishidan hosil bo‘lib, vokal musiqada she’riy ruknga mos keladi. Ohanglar birikib yirikroq tuzilmalar - kuy jumllarini tashkil etadi. Ohang kuyning bosh (eng o‘ziga xos) tuzilmasi va boshqa ma’nolarda ham, hindlarda esa “ohangit” musiqaning umumiy ifodasi sifatida, forsiyzabon xalqlarda “ohangsoz” - bastakor ma’nosida ham qo‘llaniladi.

Har bir maqom muayyan ruhiy holatni ko‘rsatadi. Lekin bu qalb holatlarini, his-tuyg‘ularini so‘z bilan ta’riflash amrimahol. Shu bilan birga, so‘z vositasida izhor etib bo‘lmaydigan fikrning o‘zi yo‘qligi ham taajjubli. She’rda esa musiqiyga o‘xshash tuyg‘u hayajoni va so‘zga xos ma’nodorlik mavjud. Shuning uchun ham she’riyat, ayniqsa, lirik kayfiyatlar bilan sug‘orilgan g‘azaliyot ruhan maqom kuylariga aynan mos tushadi va jonli ijroda bir-biriga chamcharchas bog‘lanib ketadi. Mumtoz she’riyat va mumtoz musiqaning bir-birini to‘ldirib kelishi ularning atalishidan ham ma’lum asli. Qadimdan kuy so‘zga bog‘lanib ijro etilib, bu jarayonda so‘zning g‘oyasi kuyga ham asos bo‘lgan. Ashulachi esa kuy va so‘zning birligini ta’minlagan holda har ikki omilning ham mazmunini ovoz talqinida ochib berishi lozim bo‘lgan. Ijrochilik mohiyatini ko‘rsatishda xonanda har bir asarni ichki dunyosini tushunib, uning obraziga tayyorlangan holda kira olishi va shu obrazni ijodkor tasavvur qilgandek yarata olishi muhim hisoblanadi.

She’riyat va musiqa orasidagi umumiy ko‘prik, g‘azalning ichki musiqiylikini ta’minlovchi omil – vazndir. Vazndor she’rlar, kuyga o‘xshab eshituvchini beixtiyor o‘z girdobiga tortib boradi. Bu holat badiiy asardan hayajonlanish, zavq olish, dunyoni his-tuyg‘ular bilan idroklashdir. U inson qalbini oliyjanoblikka, ma’naviyat olamiga, kuydan, she’rdan, umuman badiiy obrazdan zavq olishga chorlaydi. Ba’zida ustozlardan eshitamizki, “Shunday g‘azallar bor, o‘zining kuyi





bilan yaraladi, o‘qiysan-u, ashula qilib ijro qilasan va yangi musiqiy asar yaraladi”.

Maqom doirasidagi she’rlar boshqalariga nisbatan ko‘proq og‘izga tushganligi bilan ajralib turadi. Ular odatda, og‘zaki ravishda ustozdan shogirdga o‘tib kelgan. Bunday g‘azllar ko‘p tilga olingani, manzurnafas hofizlar tomonidan ijro etilganidan muxlislar nazariga tushib qolgan va maqom an’analarining tarkibiy bo‘lagi sifatida saqlanib, e‘zozlangan. Maqom she’riyatidagi ravonlik, kuychanlik, ma’no va mazmun jihatidan musiqiy mavzuga yaqinlik, hamohanglik sifatleri asrlar davomida uyg‘unlashib, sayqallashib kelmoqda. Maqom shinavandasi she’r va g‘azallarning mag‘zini chaqa bilishi, ularning nozik tomonlaridan xabardor bo‘lishi zarur. Bunday ko‘nikmalarga esa faqat tajriba yo‘li bilan, nafis majlislarda fozillarning nozik ta’rifu tafsirlarini eshitib, saboq olish bilangina erishiladi. Demak, maqom ustozlari yoki mohir shinavandasi nazariy va amaliy ilmlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda kuy va she’rdagi ma’nolar talqin etilishidan ham ogoh bo‘lishi lozim.

Aytib o‘tish joizki, bugungi kunda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI da bo‘lajak xonandalarning mukammal kadr bo‘lib yetishishlari uchun amaliy darslar bilan bir qatorda “Shashmaqom” g‘azallari tahlili”, “Aruz va mumtoz musiqa” kabi fanlar ham talabalarga o‘qitilib borilyapti. Ammo, magistratura bosqichida bu fanlarning o‘tilmasligi maqom san’atida olimlik sari qadam tashlayotgan magistrantlarning saviyasida biroz bo‘shliq hosil qiladi nazarimda. Ushbu fanlar har bosqichda mutaxassislik fanlari qatorida birdek olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi!

Maqola so‘nggida mavzuga doir ilova sifatida ustozim, dotsent Shavkat Matyoqubov bilan birgalikda amalga oshirgan kichik ishimizni keltirishni joiz bilamiz. Ustoz rahnamoligida “Dugoh” maqomining I guruh sho‘balaridan “Orazi dugoh” asarini Ari Boboxonov nota yozuvi asosida o‘rganar ekanmiz, asar matni fors-tojikcha bo‘lgani bois, o‘zbekcha so‘z bilan ijro qilishga to‘g‘ri keldi va ustozimning maslahatlari bilan asarga Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan hali kuyga solinmagan “Yangi oy yor yuzi birlan...” deb boshlanuvchi g‘azalini tanladim. Kaminada hali aruz bo‘yicha to‘laqonli ilmlar shakllanmagan, bu ayni damda eng zarur maqsad bo‘lib turibdi. Lekin jarayonda asarning ohangi va usuligagina tayangan holda g‘azal






tanlashga harakat qildim. Bu ishimiz yuzasidan hali boshqa ma’ruzalarda ham keng tahliliy jihatdan yoritamiz. Quyida esa “Orazi dugoh” ning Yunus Rajabiy va Ari Boboxonov nota yozuvlaridan o‘rgangan holda mening talqinimdagi namunani havola qilamiz. Kamchiliklari borasida bilganlaringiz yuzasidan murojaat qilsangiz boshimiz ko‘kka yetadi.

Orazi Dugoh

Namudi oraz



7



13



19 miyonxati namudi oraz



24



30



zamzamai

36 oraz



43



miyonxati II namudi oraz





49
o - hin tut - ra - tur ishq ah - li g'ay-rat - din

55
Sa-bo tah-ri - ki - din har gah pari shon bo'l- sa
zamazmai oraz

61
par-cham - lar. yor yor ey vo - ye o - o -

68
75 nāmudi navo o - hay jo - ni- mo

81
O - chil - di zul - fi - yu hay lar na-mu-dor o'l - di
namudi dugoh

87
yu - zin - da O - chil - di zul - fi - yu hay - lar

94
na-mu-dor o'l - di yu - zin - da o - - - Gul-uz-ra

100
chun bo' lur pay - do ke-cha- o - chil-sa shab-nam-
la-ro - o - no-za - ni-na-mo o - -

106
dunasri namudi oraz
- Me - nu g'am kun - ji - yu o - hu fi-g'o-nu ash

112
ki xu-no - lud Ne xush-dur go' - sha - yi - xo-





118



liy ma-yi so-fi - yu ham-dam - lar

124



dunasri miyonxati I namudi oraz

Ko' - ngul - ni ishq buz - di ne o - sig' —

129



pan - du na - si - hat - din Me - ning maj - ruh —

135



ko'ng-lum - ga — ya-rash-mas ush - bu mar-ham - lar

141 zamzamai oraz



148 yor — yor ey-vo o - o - o - miyonxati II namudi



154 oraz hay jo - ni - mo Yu - zi nav -

154 oraz



ro' - zi as - li iyd - ni Bo - bur g'a - ni -

159



mat tut Ki mun-din yax - shi bo'l-mas bo'l - sa

165



yuz nav - ro' - zu bay - ram - lar yor — yor ey-vo

171



ye o - o - o - o - hay jo -

178



namudi oraz

184



ni - mo — Yu - zi nav - ro' zi as - li —

iyd - ni Bo-bur - g'a - ni - mat — tut Ki mun-din —





AN’ANAVIY DUTOR IJROCHILIGI TA’LIMI: TARIX VA ZAMONAVIYLIK

Feruza HIMMATOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI
2-bosqich magistranti.*

Ilmiy rahbar: Ilyos ARABOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada an’anaviy dutor ijrochiligi ta’limining tarixi hamda hozirgi holati haqida qisqacha tadqiqot asosidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan. Dutor cholg’usi haqidagi ilk ma’lumotlar hamda muhim faktlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Dutor, dutor ijrochiligi ta’limi, musiqiy cholg’ular, tarixiy topilmalar, Amir Temur davri musiqasi, Alisher Navoiy va musiqa, maqom namunalarining audio yozuvlari.

Abstract: *this article provides a brief research-based overview of the history of traditional dutor performance education as well as its current maqom. The first accounts of the instrument of Dutor, as well as important facts, are given.*

Key words: *Dutor, dutor performance education, musical instruments, historical finds, music of the Amir Temur period, Alisher Navoi and music, audio recordings of maqom samples.*

Аннотация: *В этой статье кратко излагается основанная на исследованиях обратная связь об истории, а также о текущем состоянии традиционного исполнительского образования дутар. Изложены первые сведения об инструменте дутар, а также важные факты.*

Ключевые слова: *Дутор, дуторское исполнительское образование, музыкальные инструменты, исторические находки, музыкальная эпоксида Амира Темура, Алишера Навои и музыка, аудиозапись состояния образцов.*

O‘zbek milliy musiqa san’atining tarixiy ildizlari naqadar chuqur ekanligini tushinish uchun milliylik qadryatlarining tub omillarni anglash zarur. An’anaviy musiqamizning hozirgi davrgacha yetib





kelishi faqatgina uning ta’limiga bog‘liqdir. Sozandalik hamda xonandalik ta’limi ustoz-shogird an’anasi o‘laroq rivojlangan. An’anaviy dutor ijrochiligi ta’limi qadimdan xalqning turli qatlamlarida shakllanib kelgan. Dutor cholg‘usi qadimdan boshqa sozlardan farqli ravishda ham professional musiqachilar, ham havaskor musiqachilar orasida mashhur bo‘lgan. Uni xalqchil musiqiy cholg‘u ekanligining asosiy sabablari xos xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Unda ijro qilish shuqadar seruslubki oddiy kuy-qo‘shiqlardan tortib murakkab bo‘lgan mumtoz kuy va ashulalargacha dutorda ijro qilish mumkin.

Hozirgi davrga kelib mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o‘rganish asosida madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o‘zbek milliy cholg‘u ijrochiligining yuksalishida yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Haqiqatdan ham o‘zbek milliy cholg‘ulari o‘zining rang-barangligi va jozibadorligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Azal-azaldan har bir o‘zbek xonadonida biror bir cholg‘u asbobi bo‘lgan. Hozirgi kunda ham bu an’ana davom etmoqda. Ushbu maqolamizda o‘zbek xalqining sevimli cholg‘usi bo‘lmish “Dutor” haqida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

“Dutor – fors tilidan olingan bo‘lib, ikki tor degan ma’noni anglatadi. Ushbu cholg‘u o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O‘zbek dutori mayin, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi”[1.4]. Dutor adabiy manbalarda Temuriylar davridan boshlab tilga olingan. Dutor haqidagi ilk ma’lumotlarni Zaynulobiddin Al-Husayniyning “Qonun” asari, 16-bobidan topishimiz mumkin.

1920-yillar oxiri 1930-yillar boshida dutorni takomillashtirishga kirishildi. Konstruktorlar birinchi navbatda cholg‘u tovushini yanada kuchaytirish haqida o‘ylay boshlashdi, ayni mahalda dutorning parda bog‘lamlari, uzun dastasi, sozlanishi va torlar tovushqatori o‘zgarishsiz qoldirildi. Dutorni takomillashtirish va bu cholg‘u yaratish ishlari 1930-yillarning oxirida A.I.Petrosyan va S.Y.Didenko tomonidan boshlandi.





Dutorda xromatik tovushqatorli konstruksiyada bog‘lama pardalar doimiy, o‘yma pardalar bilan almashtirildi, tashqi jihatdan xalq cholg‘usidan birmuncha bo‘lakcha ko‘rinish kasb etadi. Keyinchalik tipik namuna asosida prima, sekunda, alt, bas va kontrabas dutorlar yaratildi. Bas va kontrabas dutorlar qattiq charm noxun bilan chalinadi. Dutolar oilasidan hozirgi o‘zbek xalq cholg‘u ansambllari va orkestrlarida foydalaniladi.

Ma‘lumki O‘rta Osiyo musiqa madaniyatining paydo bo‘lishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Professional musiqaning shakllanishi esa, Kushon podshohligi davriga borib yetishini ham tarixdan bilamiz. **“Xorazmning Kushon davriga oid ma’naviy-madaniy yodgorliklar juda boy va ajoyibdir. Jumladan, 1945-1950 yillar mobaynida olib borilgan eramizning III-IV asriga oid Tuproqqal’a saroyining qazish ishlari vaqtida juda ko‘p sonli devoriy yozuvlar topilgan bo‘lib, ular orasida uchta musiqiy cholg‘uning tasviri ham aniqlangan. Bular: oltita torli kichik arfa, ikkita torli kichik udsimon cholg‘u va qumsoat shaklidagi ikkiyoqlama zarbli cholg‘u. Va ushbu uchta cholg‘uga monand uchta musiqachi ayollar tasviri. Sozandalardan biri bo‘lgan, arfa chalayotgan ayol tasviri juda mashhur bo‘lsa, qolgan ikkitasi esa deyarli hech qayerda chop etilmagan”**[3.12].

U davrning musiqiy hayoti, musiqaga bo‘lgan xalq va davlat munosabatini faqatgina tarixiy yodgorliklar – arxeologik topilmalar va boshqa turli xil manbalardan bilib olish mumkin. **“Sopol idishlarga tushirilgan tasvirlarda sakkizta cholg‘u ushlab turgan sozandaning qiyofasi va sopol xumdon devorining bir tomoniga bir rel’efli tasvirlar ishlangan. Barcha haykalcha va rel’eflar turli davrlarga mansub bo‘lib, meloddan avvalgi IV-III asrlardan eramizning I asrigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Har bir haykalchaga bittadan musiqiy cholg‘u tasviri to‘g‘ri kelib, rel’eflarga ham shunchadan tasvirlar tushirilgan. Shunday qilib, jami 9 ta cholg‘u asbobi mavjud ekanligi aniqlanadi. Ularning barchasi turli cholg‘ular guruhiga mansub. Torli guruhlarda to‘qqiz torli, burchakli arfa, besh torli kifara, to‘rt torli udsimon cholg‘u va oltita, ikkitorli dutorni eslatuvchi, rezonator shakli bo‘yicha ikki kichik guruhga bo‘linuvchi sozlar mavjud. Ikkita haykalcha va**





rel’efdan tashqari bu sopol idishlardagi tasvirlar chop etilmagan”[4.6-7].

Amir Temur va Temuriylar davrini, mubolag‘asiz, nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun Yakin va O‘rta Sharq ellarining musiqa san’ati jadal ravnaq topgan, kamolot cho‘qqisiga erishgan, chinakam Uyg‘onish davri bo‘lgan deyish mumkin. Zero, bu xalqlar yagona davlatni tashkil etib, o‘zaro samarali madaniy aloqalar o‘rnatibgina qolmay, ayni vaqtda Osiyo va Ovro‘paning eng yirik mamlakatlari bilan ham ma’naviy bog‘lanish imkoniyatiga ham ega bo‘lganlar.

Sohibqiron saroyda o‘tkazilgan tantanalarda doimo musiqachilarning ijrosini maroq bilan tinglab, yangi yaratilgan asarlarga baho berishni xush ko‘rgan. Uning bu fazilatlarini merosxo‘rlaridan tortib sarkardalarigacha butun saroy ahli yaxshi bilgan.

Amir Temur davriga xos bo‘lgan ma’naviy ko‘tarinkilik musiqa san’atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat yaratib berdi: sozandalik va xonandalik, musika ta’limi, bastakorlik ijodi, musika ilmi kamol topdi. Asrlar qa’rida shakllangan an’anaviy ustoz-shogird ta’lim tizimi keng quloqch yozdi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, tom ma’nodagi uyg‘onish harakatini yaratgan bu jarayon nafaqat Amir Temur saltanatining poytaxti Samarqandda, balki uning avlodlari Shohruh, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur va boshqalar davridagi Buxoro, Xiva, Kitob, Balx, Qobul shaharlarida ham qizg‘in kechdi. O‘rta asrlar an’anasi shahar aholisining kasb-koriga ko‘ra, jamoa (mahalla) bo‘lib yashashni taqozo etar edi. **“Xalq ichida tanilgan san’atkorlar, hokimlar farmoniga ko‘ra yoki o‘ziga qulaylik yaratish maqsadida kasbdoshlari bilan jamoa bo‘lib yashashni afzal ko‘rar edilar. Shunga binoan “xonandalar mavzesi”, “sozandalar mahallasi”, “bastakorlar ko‘chasi” joriy etildi. Bu kasb sohiblarining alohida obro‘ va nufuzga sazovor bo‘lganlari atrofida, maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar shakllandi”[2.10-11].**

Alisher Navoiy naqshlar (ashula-cholg‘u asarlari) hamda peshravlar (cholg‘u asarlari) muallifi bo‘lganligi “Boburnoma”da keltirilgan. Tuzilish jihatdan murakkab bo‘lgan bunday asarlarni yarata olish hodisasi nafaqat Sharq, balki G‘arb madaniyati tarixida ham kamdan-kam uchraydi. Qolaversa, yarim asrdan keyin, ya’ni XVI-XVII





asrlar bo‘lag‘asida yashab ijod qilgan olim Darvesh Ali Changiy, shu davrdagi ommabop 24 usuldan bir qanchasi Ulug‘bek, 12-tasi Husayin Boyqaro, 7-tasi esa Alisher Navoiy qalamiga mansub ekanligiga guvohlik beradi.

Amir Temur va Temuriylar davri musiqa asboblari turli-tumanligi va serqirraligi bilan ajralib turadi. Masalan: ud (yog‘ochidan foydalanilgan daraxt nomiga ko‘ra) sozini arablar faqat Sharqqa emas, balki G‘arbga ham tarqatishgan (lyuto, lyutnya va boshqalar shu asbobdan kelib chiqqan), bu davrning musiqa nazariyasida (musiqiy risolalarda) interval, tetra-pentaxordlar, tovushqatorlar belgilash uchun hamda yakkaxon va ansambl ijrochiligida qo‘llanilgan. Bu orqali musiqiy cholg‘ularning shakllanishi tarixiy jihatdan butun Musulmon Sharqida umumiy uzviylikni tashkil qilishini tushunishimiz mumkin.

Dutor ijrochiligining jozibasi - rang-barang zarblaridan hosil bo‘ladigan sadolarni turli bezak va jilolar bilan bezashdir. Shu bois dutorga xos bezak - qochirimlar an‘anaviy ijrochilikda munosib o‘rin olgan. Ular sozandalar orasida qochirim, qashish, miyang‘, molish, nolish, to‘lqinlatish kabi iboralar bilan ataladi. Har bir bezak o‘z ko‘rinishi, ijro uslubi va shunga xos jozibali sadosiga egadir.

Vaqlar o‘tishi natijasida turli urf-odatlar, an‘analar hamda etnik xususiyatlar hududimizdagi musiqa madaniyatining turli xil ko‘rinishlarda bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Hozirgi kunga kelib mumtoz musiqa madaniyatimiz o‘zining ko‘p yillik tarixiy xazinasini o‘laroq asl mumtozlik ko‘rinishiga ega bo‘ldi. O‘zbek milliy musiqa san‘ati ijrochiligini o‘rganish hamda targ‘ib qilish borasida ko‘plab yangiliklarni ko‘rmoqdamiz. Zamon rivojlanishi natijasida tarixan shakllangan ustoz-shogird an‘anasi ham zamonaviy ko‘rinish kasb etdi.

Maqom ta‘limi qadimdan og‘zaki tarzda, ustoz-shogird an‘anasiga tayangan holda amalga oshirilgan. XX asrga kelib O‘zbekistonda Shashmaqom namunalari ulug‘ ustozlar tomonidan audio tasmlarga yozib olinganligidan keyin mazkur usg‘zaki an‘ana biroz zamonaviyroq tus oldi. 1972-yilda Toshkent davlat Konservatoriyasida “Sharq musiqasi” kafedrasining tashkil ettirilishi va natijada Shashmaqom ta‘limi davlat darajasida amalga oshirilishi ham ustoz-shogird an‘anasiga biroz o‘zgacha tus kiritdi.

Aytib o‘tganimizdek hozirgi zamon ta‘lim tizimi tobora yangicha bosqichlarda rivojlanib bormoqda. Bizning yo‘nalishimizning ta‘lim





sohasidagi muammolarining yana biri ustoz-shogird an’anasi. Hozirgi saboq jarayonlarida zamonaviy uslublar bilan bir qatorda ustoz-shogird an’anasi ham saqlab qolingan. Albatta, yuqorida hikoya etilgan o‘tmishdagi ustozlar bugungi kunda juda noyob. **“Aksariyat ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan maqom ustozlari shogird yetishtirishda o‘z tajribasi va bilimi, qo‘lidagi cholg‘udan ko‘ra audio yozuvlardan foydalanishni qulay deb biladi”**[5.330]. Bunda o‘tmishdagi ustozlar ijro etgan audio yozuvlar asosiy qo‘llanma bo‘lib, shogird asarni eshitish va taqlid etish yo‘li bilan o‘zlashtiradi. Bunga sabab, murabbiy qo‘lidagi cholg‘u, qog‘ozdagi nota maqom ohangiga mos kelmasligidadir. Bundan hulosasi shuki, maqom ta’limida na ustoz-shogirdlik to‘liq qo‘llanilmaydi. Na zamonaviy, ilmiynazariy qo‘llanmalarga asoslab o‘rgatila olinmaydi. Bu holat esa maqomdek ulug‘vor musiqiy san’ati ta’limini havaskorlik to‘garagi darajasiga tushirib qo‘ygan.

Hozirgi shart sharoit o‘tmishdagi kabi uzoq yillar ustozlar maktablarini o‘tab chiqishni taqozo eta olmaydi. Shuning uchun hozirgi maqom ijrochiligida ustoz-shogird an’anasiga o‘z nazariy qurollarini tiklab bermoq zarur va bu bilan birga ta’lim yo‘nalishida zamonaviy-innavatsiyon uslublardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida an’anaviy xonandalik hamda sozandalik bo‘yicha talabalar tahsil olib kelishmoqda. O‘zbek milliy mumtoz kuy va ashula namunalarini amaliy o‘zlashtirish ustozlarning ijrolariga xavas qilib, ularni tinglab o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ўзбек анъанавий музыка ижрочилик хрестоматияси”. Тўпловчи А.Ҳамидов. “Ўқитувчи” нашриёти. – Т., 1995
2. F.Shukurova. Cholg‘u ijrochiligi tarixidan. “OTIS” sho‘ba boshqarmasi bosmaxonasi. – Т., 2005
3. Ilyos Arabov. An’anaviy dutor. “Tafakkur gulshani” nashriyoti. – Т., 2022
4. T.Tojiyev. Xiva xonligi musiqiy muhiti” (XIX-asr ikkinchi yarmi – XX-asr boshlari Muhammad Rahimxon II hukmronligi davri. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. – Т., 2022





5. Ўзбек миллий энциклопедияси. – Ўзбекистон давлат илмий
нашриёти Т., 2014





YUNUSQORI YUSUPOVNING IJROCHILIK MAKTABI

Umidjon TUROPOV,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti*

Ilmiy rahbar: Nabijon QODIROV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy san’atimiz rivoji uchun umrini bag‘ishlagan ijodkorlardan biri, Andijon ijrochilik maktabining yorqin namoyandalaridan hisoblangan Yusunqori Yusupov ijrosi va ijodi haqida fikr yuritiladi. Ularning qoldirgan ijodiy merosi o‘rganilib, bugungi kunda yetishib kelayotgan yosh ijrochi xonanda va sozandalarga o‘rnak sifatida ko‘rsatilishi ustida ilmiy va ijodiy ishlar olib borildi. Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanish va tadqiqotlar davomida ko‘plab ustoz xonanda va sozandalar, soha bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan ijodkor va ijrochilar bilan suhbatlar tashkil etildi. Ulardan olingan zarur tavsiya va takliflardan unumli foydalanildi.

Kalit so‘zlar: mumtoz musiqa, xonanda, ovoz, hamnafaslik, mahoratli ijodkor.

Abstract: In particular, in this article, one of the creators who devoted his life to the development of our national art, Yusungari Yusupov, who is considered one of the brightest representatives of the Andijan performing arts school, discussed the performance and creativity. During the research and studies conducted on the article, interviews were organized with many master singers and musicians, creators and performers who are specialists in the field.

Key words: classical music, singer, voice, harmony, skilled artist.

Musiqa merosimizga har gal nazar tashlaganimizda uning naqadar boy va serjiloligiga, nafis va rang-barangligiga guvoh bo‘lamiz. Har gal uni tinglaganimizda yangi va o‘zgacha qirralari kashf etilib, insonni o‘ziga mahliyo etadi. Mumtoz musiqa san’atimiz tarixida juda ko‘plab iste’dodli san’atkorlar va g‘oyat ajib ijod sohiblari yashab o‘tganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri Andijon ijrochilik maktabining yetuk vakili, qisqagina umri mobaynida o‘zbek milliy musiqa san’ati rivojiga





samarali hissa qo‘sha olgan betakror ovoz sohibi va mohir g‘ijjakchi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Yunusqori Yusupovdir.

Yunusqori Yusupov o‘z zamonasida nomi chiqqan sozanda va xonanda sifatida tanilgan. U o‘zining dardli ovozi bilan muxlislarining qalbini zabt eta olgan ijodkor bo‘lgan. Sozandalikda ham o‘z uslubini yaratgan. Davralarda uning kuylari tinglovchilar qalbini hayajonga to‘ldirgan. Qisqagina hayot davomida ham o‘zining chin san’at uchun tug‘ilgan inson ekanligini isbotlab keta olgan ijodkor ekanligini u qoldirgan ijodiy merosni ko‘rgan har bir inson beixtiyor his etadi.

Yunusqori Yusupov 1937-yil 1-yanvarda Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi Ovushqa qishlog‘ida tavallud topgan. Oilasi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Uning bolalik yillari urush davrlariga to‘g‘ri keladi. Yunusqori Yusupovning ismiga “qori” so‘zining qo‘shib aytilishiga sabab esa uning bolalikda qizamiq kasalligi natijasida ko‘zi ojiz bo‘lib qolishidir. Otasi Yusufjon aka va onasi Fotimaxon aya o‘g‘lining iste’dodini sezib, unga alohida e’tibor qaratib, uni rivojlantirishga harakat qilishgan. Yosh Yunusqori favqulodda iste’dodli va zehnining o‘tkirliги bilan atrofdagilarni tezda o‘ziga qarata olgan. Musiqaga bo‘lgan ishtiyoqi va iste’dodi yuqori darajada bo‘lgan. Uning musiqiy iqtidorini payqagan otasi unga mandalina cholg‘usini olib bergan va yosh Yunusqori musiqiy boshlang‘ich ko‘nikmalarni ushbu cholg‘uda o‘zlashtirgan. Vaholangki, bunday musiqiy sohalarda o‘quvchiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz har vaqt zarurligi barchaga ayondir. Taqdir taqazosi bilan unga Ismoilxon ismli kolxoz raisi ilmiy homiylik qilgan desak, menimcha, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Sababi, Yunusqori yashaydigan uy paxtachilik kolxozining binosiga qo‘shni bo‘lgan. O‘sha vaqtda kolxoz raisi bo‘lgan Ismoilxon musiqaga ixlosi baland, san’atsevar kishilardan edi. Shuning uchun ham yosh Yunusqorini kolxoz binosiga chaqirib, unga kuylar chaldirar va qo‘shiq ham ijro qilib berishini iltimos qilardi. Ijrochining ilk sodda bo‘lgan chiqishlari ham tinglovchilarga ajib kayfiyat va maroq ulashardi. Xususan, rais Ismoilxon ham bolada nodir iste’dod borligini his etadi. Uning kelajakda yetuk san’atkor bo‘lishiga umid bildiradi. Bir kuni Ismoilxon san’atkor tanishlaridan iltimos qilib Yunusqori uchun nay cholg‘usini olib kelib beradi. Albatta, bundan yosh Yunusqorining boshi ko‘kka





yetadi. Nay cholg‘usi orqali Yunusqori milliy san’at bilan chuqurroq tanishib, uning asliyatini his eta boshlaydi. Nay cholg‘usini ancha-muncha o‘rgangandan so‘ng, unga rahnamolik qilgan ustozni ya’ni Ismoilxon Yunusqorining tirishqoqligini ko‘rib, unga yana yangi boshqa cholg‘u asbobi olib berish fikriga keladi va yordamchilariga Yunusqori uchun g‘ijjak cholg‘usi olib kelib berishlarini tayinlaydi. Tez orada bu cholg‘u ham Yunusqori uchun muhayyo bo‘ladi. Lekin g‘ijjak cholg‘usini o‘rganish uchun Yunusqorida ustozga ehtiyoj sezila boshlaydi. Natijada Yunusqorini ustoz qo‘lida saboq olishga yo‘naltirishadi. U g‘ijjak cholg‘usi bo‘yicha ilk saboqlarni Paxtaobodlik san’atkor Abdumalikxon Yunusovdan oladi. Yunusqori ustoz Abdumalikxon Yunusovdan g‘ijjakning sozlanishi, unda ijro etish mezonlari xususida va yetuk ijrochi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan jihatlarni o‘rganishga astoydil harakat qiladi. U tinimsiz mehnat qiladi. Kun davomida ijrochilik ustida ishlaydi. Cholg‘u chalishni asosiy o‘ringa qo‘yadi. Bundan tashqari, hofizlik san’atini o‘rganishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Tinimsiz mehnatlar natijasi o‘laroq, Yunusqorining xalq orasida nomi chiqa boshlaydi. Yunusqorining ijodiga befarq bo‘lmagan paxtaobodlik bir necha ustoz san’atkorlar xususan, Ergash g‘ijjakchi, Usta Hojimat tanburchi, Abdukarim Rasulov, Orifjon Qodirov, Toshxo‘ja Maxsum, Shavkatjon Yusupov va Qodir Ohunlar unga ustozlik qila boshlaydilar. Yunusqori ulardan cholg‘u va ashula ijrochiligi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtiradi. O‘rganish davomida zehni o‘tkirligi va kuchli ishtiyoqi bilan ustozlarini hayratga soladi. Unga yorug‘ olamni ko‘rish baxti nasib etmagan bo‘lsada, u borliq go‘zalliklarini va oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan go‘zalliklarni qalb ko‘zi bilan ko‘rishga harakat qiladi. O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Yo‘ldoshev ustozni Yunusqori Yusupovni quyidagicha esga oladi:

“Mashhur xonanda va sozanda, mahoratli bastakor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Yunusqori Yusupov mening ustozim bo‘lganlar. Ularni o‘zimga har vaqt ustoz deb bilganman. Ular Andijonda nomi chiqqan san’atkor bo‘lganlarida biz yosh yigit edik. Chamasi 15-16 yoshlarda edik. U vaqtda ular Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi madaniyat bo‘limida musiqa rahbari bo‘lib faoliyat yuritardilar. Biz esa o‘sha yerga borib Yunusqori akamdan ashula o‘rganardik. Ajoyib suhbatlaridan bahramand bo‘lardik. Bizga





ancha-muncha ashulalar o‘rgatganlar. Ular bilan uzoq yillar birga ijod qilish, suhbatlarida bo‘lish baxtiga musharraf bo‘lganman. U inson skripka sozida o‘zlari chalib, ashula ijro qilganlar. Ular ijrosidagi barcha ashulalar puxta, mukammal bo‘lib, shinavandalarga yoqimli bo‘ladigan shirali ovozlari bor edi. Aytgan ashulalarining barchasi o‘zgacha bo‘lib, tinglovchiga xush yoqqan. Xususan, “Ushshoq” ashulasi Yunusqori Yusupov ijrosida dardli va sehrli yangraydi. “Ushshoq”ni ijro qilgan boshqa buyuk ustozlar ijrosidan Yunusqori Yusupovning ijrosi o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. Ustozga havas qilib ko‘p ashulalarni ulardan o‘rganganman. Xususan, “Ushshoq” ni ham. Qolaversa, o‘zlari bastalagan “Devona kelibdur”, “Diyorim mening” kabi ashulalarini ham ularning o‘zlaridan o‘rganganman.

Sozandalik mahorati haqida gapiradigan bo‘lsak, Yunusqori aka juda yetuk g‘ijjakchi bo‘lganlar. Ular ijro qilgan kuylarini tinglovchiga yoqadigan qilib chaldilar. Eshituvchilarni tezda o‘ziga qaratib olardilar. Bundan tashqari, suhbatlarida bo‘lgan kishi maza qilib, yana so‘zlashini kutardi. Shuning uchun ham ularning shinavanda muxlislari juda ko‘p bo‘lgan desam adashmayman. Suhbatlarda ko‘pincha, o‘tgan buyuk ustozlar haqida, bo‘lgan qiziq voqealarni gapirardi. So‘zga usta, xazil-mutoyibani ham joyiga qo‘yardilar. Bizning san’atkor bo‘lib kamol topib yetishishimizda ham Yunusqori akaning xizmatlari g‘oyat katta bo‘lgan”.

Sovet davrida ko‘zi ojiz kishilarni televideniyaga chiqarish mumkin bo‘lmaganligi sababli, Andijondan Toshkentga ansambl bilan kelib tadbirlarga qatnashib, televideniyaga chiqishganlarida Yunusqori Yusupovni televideniyaga chiqishlariga qo‘yishmagan ekan. Shu sababdan Yunusqori Yusupovni parda orqasiga joylashtirib, mikrafon qo‘yib berishgan ekan. Bu holat hammaga yomon ta’sir qilib, Yunusqori Yusupovning o‘zlarini ham qattiq ranjitgan ekan.

Yunusqori Yusupovning ustozlari haqida gap ketganda Mahmudjon Yo‘ldoshev: “ paxtaobodlik Abdumalik to‘ra, Arabboy aka, qolaversa G‘ulomjon Xojiqulovni ham ustoz deb bilardilar” – dedilar.

Shu bilan birda Mahmudjon Yo‘ldoshev Yunusqori Yusupovning insoniy fazilatlariga ham alohida to‘xtalib, muloyimliklari va qat’iyatlari haqida gapirdilar:





“Ustoz Yunusqori akani odamlar bilan o‘zini tutishlari juda ajoyib edi. Sodda, kamtar, oddiy edilar. Shogirdlarga yaxshi maslahatlar berardilar. Har bir bergan savolimizga erinmasdan javob berardilar. Bilmagan narsalarimizni ulardan so‘rab o‘rganardik. Suhbatlarini eshitib maza qilardik. Ularning yana bir yaxshi fazilatlaridan bittasi, birovga hech qachon yomon gapirmasdilar. Shuning uchun ham hamma u kishini yaxshi ko‘rardi”.

Paxtaobodda Obidjon Yoqubov degan inson bo‘lgan. U kishi haqiqiy san’atsevar muxlis bo‘lib, Yunusqori Yusupovning chin shina vandasi bo‘lgan ekan. Yunusqori Yusupovning suhbatlaridan, ijrolaridan bahramand bo‘lish uchun turli ijodiy kechalar tashkillashtirgan ekanlar. U inson orqali san’atga chuqur hurmat va chin muxlislik ishtiyoqini ko‘rishimiz mumkin.

Yunusqori Yusupovning Toshkentga kelishlariga asosiy sabab Yunus Rajabiy ijodiga bo‘lgan jiddiy havaslari bo‘lgan. Yoshliklaridan ularga taqlid qilib ularning ijrolarini o‘rgangan. Ustoz Yunus Rajabiy bilan ko‘rishishga bo‘lgan ularning ishtiyoqlari ularni Toshkentga olib kelgan. Maqom ansamblida Yunus Rajabiy bilan ko‘rishgan, o‘zlarini tanishtirgan. Yunusqori Yusupov Yunus Rajabiyga qarata: “Men sizni g‘oyibona ustoz deb bilaman. Siz aytgan ashulalarni o‘rganib, taqlid qilib, sizga o‘xshashga harakat qilaman. Andijonning Paxtaobod tumanidan siz bilan ko‘rishib, duoyingizni olgani keldim. Bir eshitib ko‘rsangiz, fikrlaringizni aytsangiz ustoz” - deganlar. Yunus Rajabiy esa boshlashga ruxsat berganlar. Yunusqori Yusupov “Ushshoq” ashulasini ijro qila boshlaganlar. Shunda Yunus Rajabiy ulardan o‘zining ijro hidi kelayotganligini sezgan. Yana boshqa asar aytib berishlarini so‘raganlarida “Bayot I” ni aytganlar. Bu ijrolar Yunus Rajabiyga ma’qul tushib, radioda audiotasmaga yozib olishni taklif berganlar va maqom ansambli sozandalari jo‘rligida asarlar yozib olingan. Shu tariqa Yunusqori Yusupovning ijrolari Yunus Rajabiy sababli radioda eshittirilib, xalq orasida yoyila boshlagan. Shu zayilda Yunusqori Yusupovning ijodi davom etib, radioda ularning ijrolaridagi audioyozuvlar ko‘payib, xalqqa taqdim etilgan va Yunusqori Yusupov tanila boshlagan. Vaziyat va sharoit taqazosi sababli ko‘p ovoz yozishning imkoni bo‘lmagan. Chunki, Yunusqori Yusupov Andijonda yashab, ijod qilganlar. Ularning 10 tacha ashulasi va kuylari audioyozuvlarda yozib qoldirilgan. “Ushshoq” ashulasining ijro





talqinlari ko‘p bo‘lsada, Yunusqori Yusupovning ijrosichalik xalq orasida e’tirof qilinmagan. Yunusqori Yusupov ijrolarining hammasi mukammal bo‘lgan va asosan, ovozlariga tushadigan asarlarni ijro qilganlar. Respublika radiosining musiqiy yozuvlar “Oltin fondi” xazinasidan Yunusqori Yusupov ijrosidagi “Bayot I”, “Janonim kelib”, “Guljamol”, “Ko‘zing”, “Farg‘onacha”, “Surnay Dashtnavosi”, “Guluzorim qani”, “Kelibdur”, “Bilmasang bilgin”, “Sozandalar madhi” kabi bir qator asarlar munosib o‘rin olgan.

“Yunusqori Yusupovning xonandalik faoliyati ko‘pgina jihatlarni o‘zida mujassam etgan. U milliy ashulalarni ustozlardan o‘rganib, ularni maromiga yetkazib ijro etish bilan birga, o‘zining chiroyli uslubi orqali bu asarlarni o‘ziga xos tarzda talqin etdi. Uning xonandalikdagi e’tiborli jihati – uyg‘ur millatiga mansub ustoz Qodir Oxundan olgan bilimlarining natijasi o‘laroq, uyg‘urcha ijro bezaklaridan ma’lum o‘rinlarda ustalik bilan foydalangan. Shu bilan birga, uyg‘urcha qo‘shiqnlarni ham maromiga yetkazib ijro etgan”⁵⁵ – deyiladi Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti dotsenti Nabijon Qodirovning “G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar” nomli Yunusqori Yusupovning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan kitobida. Haqiqatdan ham Yunusqori Yusupov ijrolaridagi ashulalarni sinchikovlik bilan, e’tibor berib tinglaganimizda uyg‘ur xalqiga xos bo‘lgan ohanglarni anglashimiz mumkin.

Yunusqori Yusupov sozandalikda ham yuqori mahorat sohibi bo‘lganlar. Ularning bir umrlik hamrohi bo‘lgan deb g‘ijjak cholg‘usini aytishimiz mumkin. Milliy cholg‘ularimiz orasida o‘zining yurakni hayajonga soluvchi shirali ovozi bilan ajralib turuvchi g‘ijjak cholg‘usi Yunusqori Yusupovning qo‘lida o‘zgacha yangragan. Sehrli nolalar tinglovchini mast etgan. Yunusqori Yusupov o‘zining takrorlanmas ijrochilik san’ati bilan milliy ijrochiligimizga ko‘plab yangiliklar olib kirgan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Yunusqori Yusupov g‘ijjak cholg‘usida surnay yo‘llarini nihoyatda yuqori mahorat bilan ijro qilganlar. Surnay cholg‘usida ishlatiladigan ijro bezaklaridan mohirlik bilan foydalanib, ayrim tovushlarni qo‘sh torda ijro etib, aynan surnay ovozidek tovush hosil qila olganlar. Katta ashula ijrochiligini esa xonandalikda ishlatiladigan ijro bezaklari, dinamika va

⁵⁵ N.Qodirov G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar – T.,”Musiqqa”, 2016, 40-b





hattoki nafas olish qonun-qoidalariga ham amal qilgan holda g‘ijjak sozida ijro etishni uddalaganlar. Bunga misol tariqasida, “Oltin fondi” xazinasidan o‘rin olgan sunray yo‘llaridan “Surnay Dashtnavosi” va “Guluzorim qani” nomli katta ashulani fikrimizning isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Qolaversa, Yunusqori Yusupov g‘ijjak cholg‘usida karnayning, turli hayvonlarning va qushlarning ovozini ham o‘xshata olgan.

Yunusqori Yusupov Paxtaobod tumanida 1970-yili “Guljamol” nomli maqomchilar ansamblining tashkil topishida ham o‘zlarining munosib hissasini qo‘shganlar. Ushbu xayrli ishning tashabbuskori bo‘lganlar. Xalq orasidan iste‘dodli yosh xonandalarni izlab topib, ularga o‘zlari beminnat ustozlik qilganlar. Ansambl ijro dasturi maqom yo‘llari, xalq va bastakorlik na‘munalaridan tashkil topgan. Yunusqori Yusupov boshchiligida ushbu ansambl ko‘plab viloyat va respublika miqyosidagi tanlovlarda munosib ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. Bugungi kunda ushbu ansamblga Yunusqori Yusupovning shogirdlaridan bo‘lgan Komiljon Hakimov rahbarlik qilib kelmoqda. Bundan tashqari, Yunusqori Yusupov uzoq yillar davomida Paxtaobod tumanida joylashgan Zokirjon Habibiy nomidagi Madaniyat uyida faoliyat ko‘rsatib, ko‘plab shogirdlar yetishtirib chiqarganlar. Ularning shogirdlari nafaqat Andijonda, balki butun Respublikaning boshqa turli hududlarida ham bo‘lgan. Xususan, O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Yo‘ldoshev, Abdurasul Siddiqov, Jo‘raboy va Arabboy Qurbonovlar, Komiljon Hakimov va Jamilaxon Asrorova kabi taniqli san‘atkorlar ham Yunusqori Yusupovning shogirdlaridan hisoblanishadi.

Milliy san‘atimiz rivoji yo‘lida qilgan uzoq yillik mehnati inobatga olinib, Yunusqori Yusupovga 1987-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni berilgan. Ularning qoldirgan boy musiqa merosi, milliy san‘atimiz rivoji yo‘lida olib borgan fidokorona mehnatlari bugungi kundagi san‘atimiz uchun ko‘prik vazifasini o‘tagan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2001.





2. Qodirov N. G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar (Yunusqori Yusupov). – Toshkent, 2016.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2000-2005.
4. Ayxodjayeva Sh, Ergasheva Ch, Zokirov A. O‘zbek musiqasi tarixi. - Toshkent, 2021.





NAY IJROCHILIGINING BUGUNGI KUNDAGI MUHIM AHAMIYATI

Guli MAXAMMADJONOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
2-bosqich magistranti,
Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi o‘qituvchisi
Ilmiy rahbar: **Xurshid ARIPOV,**
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, nay cholg‘usi haqida umumiy ma’lumotlar va nay ijrochiligini bugungi kungacha bo‘lgan davri, bugungi kundagi o‘rni, milliy musiqamiz, milliy cholg‘ularimizga oid bo‘lgan iliy-amaliy konferensiyalar, buyuk allomalar ta’riflari, qadimdan shakllangan musiqaga oid izlanishlar va O‘rta Osiyo tarkibida bo‘lgan xalqaro anjuman yillari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy musiqa, milliy cholg‘ular, nay cholg‘usi, cholg‘u ijrochiligi, ma’naviy meros, milliy sozlar.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni⁵⁶ ijrosidan kelib chiqqan holda ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlar iste’dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish, ularning milliy va jahon musiqa san’atining yuksak namunalaridan bahramand bo‘lishi uchun zarur sharoit yaratish kabi vazifalar ham bosqichma-bosqich ravishda hayotga tatbiq etilmoqda. Ana shunday keng ko‘lamli ishlarning samarasi o‘laroq bugungi kunda yurtimizda ajdodlarimizning boy musiqiy merosini, qadimiy va serqirra musiqa madaniyatimizni o‘rganish va targ‘ib etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ushbu bebaho merosdan bahramand etish barobarida ularga milliy va jahon musiqa san’ati durdonalari keng o‘rgatilmoqda va ustozlar tomonidan nay ijrochiligini yosh avlodga yetkazish, rivojlantirish uchun o‘quv qo‘llanmalar yaratilmoqda. Bu bejiz emas,

⁵⁶ Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan.





albatta. Zotan, musiqa millatning o‘ziga xos qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lib, inson ruhiy-ma’naviy kamoloti, tafakkurining rivojlanishida, qalbiga yuksak va beg‘ubor tuyg‘ularni singdirish, uni ezgu va xayrli ishlarga da’vat etishda, ma’naviyatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan fikr yuritadigan bo‘lsak, yoshlarimizning ma’naviyatini yuksaltirish, ularni teran tafakkur, ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalashda, qalbi va ongida ona Vatanga muhabbat, milliy an’ana va qadriyatlarimizga sadoqat tuyg‘ularini mustahkam qaror toptirishda musiqa san’atining o‘ziga xos o‘rni saqlanib kelinmoqda. Istiqlolimizning tayanchi bo‘lishi ma’naviy barkamol ham ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirishda milliy musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir. O‘zbek xalqi boy madaniy tarixga ega. Bu madaniy meros tarixiy taraqqiyot mobaynida shakllangan ma’naviy boyliklarni, shu jumladan milliy musiqa san’atini ham qamrab oladi.

Hozirgi kunda O‘rta Osiyo hududida milliy musiqa cholg‘ulardagi milliy musiqalarni rivojlantirish maqsadida, O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe, Olma Ota, Samarqand shaharlarida va 2024-yil 27-30-iyun kunlari Jizzax viloyatining Zomin tumanida o‘tkaziladigan II Xalqaro maqom san’ati forumi doirasida “Maqom san’atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham nafaqat milliy cholg‘ularimiz balki, maqom san’atini rivojlantirilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, milliy musiqa ijrochiligiga xos asarlar jumladan, milliy musiqa cholg‘ularining ijrolari namoyish etib kelinmoqda.

Olma Ota shahrida 1973-yilda o‘tkazilgan Osiyo davlatlarining musiqiy tribunasi, Dushanbe shahrida 1990-yilda Borbad Marvazining tavalludini 1400 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan umumjahon musiqiy anjumani, Toshkent shahrida 1975-yilda o‘tkazilgan “Maqom, mugam va zamonaviy bastakorlar ijodi”, Samarqand shahrida ko‘p yillardan buyon o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari”, 2018-yil Qashqadaryo viloyati Shahrizabzda o‘tkazilgan “Xalqaro maqom san’ati” forumi xalqaro musiqiy anjumanlari shular jumlasidandir.

Milliy musiqa cholg‘u ijrochiligining yo‘qolib borishini oldini olish maqsadida, 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida





san’atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzullo Karomatov rahbarligida maqom asarlarini ijrolari, umuman milliy musiqa ijrochiligi bo‘yicha “Sharq musiqasi” kafedresi tashkil etildi. Unda milliy musiqa cholg‘ulari ijrochiligi qayta tiklanib – ud, tanbur, qonun, nay, g‘ijjak, dutor, rubob, doira, surnay, qo‘shnay, sato va boshqa cholg‘ularning milliy uslubdagi ijrolari o‘rganila boshlandi va hozirgi kunda davom etib kelmoqda.

Keyingi yillarda olimlarimizning izlanishlari natijasida - arxeologik qazishmalardan topilgan uy - ro‘zg‘or buyumlaridagi musiqa cholg‘ulari va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar hamda haykalchalarga tayanib, musiqa ilmi juda qadim tarixga egaligi barchamizga ma’lum.

Musiqa ilmi qachon paydo bo‘lgan degan savolga, odamzod yaratilgan lahzada deb javob berishimiz mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha - Alloh Taolo Hazrati Odamni yaratib, uning vujudiga jonni kiritish jarayonida musiqa sadolari “arzu samo”ni to‘ldirib turgan ekan. Musiqa haqida gap ketganda “Jonbaxsh” sifatining qo‘llanilishi ham shundan bo‘lsa ajab emas⁵⁷. deyilgan.

Miloddan oldingi davrda yashab ijod etgan ko‘pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga, musiqa ilmiga ham alohida e’tibor berganlar va hozirgi kunga qadar bu ma’lumotlardan foydalanib kelmoqdamiz.

Masalan: Arestotel, Pifagor, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog‘iy, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar IX asrlardan boshlab “Musiqa” ilmi va uning ijrochiligiga oid risolalar yaratila boshlandi. Forobiyning “Kitobu-l-musiqiy al kabir” (Musiqaga oid katta kitob) X-XI asrlarda Abu Ali Ibn Sinoning “Kitobu-sh-shifo”, “Donishnoma” kitoblaridagi maxsus boblar. Abdulqodir Marog‘iyning “Maqosid-ul-alhom” (Kuylar maqsadlari) Urmaviyning “Risolutush-sharafiya), Qutbiddin Sheroziyning “Durratuttoj” musiqiy risolalari. Abdurahmon Jomiyning “Risolayi- musiqiy” (Musiqa ilmi risolasi). Kavkabiyning “Risolayi- musiqiy” asari, ya’ni “Risola dar bayoni duvozdah maqom” “O‘n ikki maqom bayoniga bag‘ishlangan risola”, Husayniyning “Qonuni-ilmi”

⁵⁷ Nafas Shodmonov. “Temuriylar davrida musiqashunoslik”. T., 1995, 3-b.





va “Amaliy musiqa”, Darvesh Ali Changiyning “Tuhfatu-s-surur” asarlari shular jumlasidandir.

Nay cholg‘usi qiyshiq bo‘lganligi sababli, uni taroshlab to‘g‘rilaganlar hamda unga nayi rost deb nom qo‘yganlar. Qiyshiq naydan bir qancha maqomlarni chiqarib bo‘lmaydi, to‘g‘ri naydan esa nima xohlasalar, chiqarish mumkin bo‘lgan. Zotan, Mubarca’ pardasi bor va u yettinchi parda bo‘lib, Rost maqomidandir. Panjgoh ham, so‘ng zilkulli bor Navo ham shunday. Segoh ulardan keyin chiqadi. To‘g‘ri nayni *zeru bam* ham deydilar.”

Yana shunday ma’lumotlardan birida – “nay go‘yo temirchilarning olovini havo orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlano Safjiddin Al-Mo‘min tomonidan ixtiro qilingan degan ma’lumotlar ham bor. Nay musiqa cholg‘usi zardoli, tut, g‘arov, nuqra, kumush yoki misdan yasaladi. Unda yetti ovoz chiqaruvchi teshik pardalar va bittasi alohida og‘izdan nafas berish uchun, oltitasi bir joyda birin-ketin olti barmoqqa moslangan, bular asosiy sado chiqaruvchi aylana pardalar hisoblanadi”.

Nay cholg‘usi katta tarixga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda ushbu cholg‘u – ijrochilik jihatidan ikki xil yo‘nalishga bo‘linadi.

1 – an’anaviy ijrochilik – bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo‘shiq-lari;

2 – nota orqali ijro - bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo‘shiq-lari bilan birga, O‘zbekiston va jahon kompozitorlarining turli janrlarda yozilgan asarlarini ijro etish.

Nay ijrochiligida qo‘llaniladigan sayqallar o‘zga cholg‘ular kabidir: Ularni ifodalanishlari ham chop etilgan “Rubob navolari”, “G‘ijjak navolari” to‘pgamlarida keltirilgan bezaklar kabidir. Lekin, nayning o‘ziga xosligi ham mavjud. Nay ijrochiligining nafas usullari va ijro uslubiga tayangan holda musiqiy namunalarni nay cholg‘usiga moslashtirishga asarlarni asl holatini saqlashga harakat qilinib kelinmoqda. Akademik Y.Rajabiyning “O‘zbek xalq musiqasi kitobining barcha jildlarida chop etilgan xalq va maqom tarkibiga kiritilgan asarlarni hozirgi kundagi ijrochilik an’analariga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Mazkur cholg‘u o‘zining mohirona ijrosi bilan shinavandalar qalbidan chuqur o‘rin olgan marhum ijrochilar: Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Dadaali Soatqulov, Jamil Kamolov, Ishoq Qodirov,





Mahmud Muhamedov, Rabbim Hamdamov, Yusufjon Dadajonov, Uzoq Mahmudov, Yashin Haqqulov, Mirza Toyirov, Halimjon Jo‘raevlardir. Nay chalish sabog‘ini olayotgan har bir yosh talabalarimiz yuqorida nomlari tilga olingan ustozlar hayotini va ular ijro etgan dilrabo ohanglardan bahramand bo‘lishlari lozim. Hozirgi kunda xizmat qilib kelayotgan o‘quv qo‘llanma va talabalarga ijrochilikdagi muhim sir asrorlarni o‘rgatib kelayotgan naychi ustozlar: Tohirjon Qahhorov, Botir Do‘simbetov, Xurshid Aripov, Shukrullo Ahmadjonov, Ahmadjon Sobirov, Ilhomjon Javdotov, Halimjon Sharipov, Mansur Jomurodovlar yosh sozandalarga nay chalish sirlarini orgatib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda nay milliy cholg‘u ansambllari tarkibida yetakchi sozlardan hisoblanadi. Kuy boshlanadigan pardaga bog‘liq xolda nayga moslab boshqa cholg‘ular sozlanadi. Shuning uchun naydagi barmoq chalgich teshikchalar berkitilish soniga qarab milliy sozandalar orasida besh qo‘l, to‘rt qo‘l, uch qo‘l deb nomlanuvchi sozlash turlari qo‘llangan. Hozirda nayning o‘rni yakkanavoz va jo‘rnavoz soz sifatida yanada kengaydi, undan xalq cholg‘u ansambllari va orkestrlarida foydalanishning yangicha usullari yuzaga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aripov X. “Nay nolasi” Toshkent-2013.
2. Aripov “X. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” (Nay) Toshkent-2018.
3. Sobirov A. “Nay navolari” Toshkent-2000.
4. Toirov M “Nay” darsligi Toshkent-2000.
5. Qahhorov T. “Nay navosi” Toshkent-2000.
6. Dosimbetov B. “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” Toshkent-2021.





SHASHMAQOMDA MAVZUIYLIKNING USLUBLARI TO‘G‘RISIDA

Dilshodaxon XAYDAROVA,

Musiqa san’ati mutaxassisligi bo‘yicha Magistr.

Annotatsiya: Ushbu maqola Shashmaqomdagi mavzuiylik tushunchasi to‘g‘risida yozilgan. Maqolada mavzuiylik jihatlarining omillari, uslublari ta’riflari bilan keltirilgan. Maqomlardagi namudlarning mavzuiylikdagi ahamiyati atroflicha o‘rganilgan. Mavzu va mavzuiylikning asosiy usullari tahlil etilgan. Maqola so‘ngida musiqiy misollar berilgan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о концепции тематизма в ШашмакOME. В статье описаны факторы и методы тематизма. Тематическая значимость моделей в макамах намуд изучена. Анализируется тема и основные методы тематизма. Музыкальные примеры приведены в конце статьи.

Abstract: This article talks about the concept of themetism in Shashmakom. The article describes the factors and methods of themetism. The thematic significance of the patterns in maqam namud has been studied. The theme and basic methods of thematism are analyzed. Musical examples are given at the end of the article.

Kalit so‘zlar: Mavzuiylik, namud, takrorlash, ketma-ketlik, variatsion rivojlanish.

Ключевые слова: Тематизм, намуд, реприза, последовательность, вариационное развитие.

Key words: Thematicism, namud, reprise, sequence, variational development.

Har qanday asar, shu qatorda musiqiy asar ham o‘zining shakli, g‘oyasi, mazmuni va albatta, mavzusiga ega bo‘lishi muqarrar. Asar tarkibidagi har bir unurning o‘ziga xos jihatlari asarning yaxlit tarkib topishi uchun xizmat qiladi. Ularning avvalo, har tomonlama mukammalligi alohida ahamiyatga egadir. Zero, ularning uyg‘unlikda hosil qiladigan va “asar” sifatida yuzaga keladigan yakuniy natijada, haqiqiy ko‘rinishi vujudga keladi. Har bir unsur muhim, ularning





tarkibida “mavzu” omili musiqaning eng ilg‘or va ahamiyatga molik tarmog‘i sifatida qayd etilishi begumondir. Musiqada mavzu go‘yoki birlamchi jarayon va rivojlanish mezonining harakatdagi asosiy tayanchlaridan biridir. Shu bois bo‘lsa kerak “mavzu”ning cheksizligi begumondir. Hamda musiqashunoslikning ko‘p sohalariga asos bo‘luvchi, shu o‘rinda qiziqarli unsurlardan biri ekanligini e‘tirof etamiz.

Mavzuning g‘oyaviy davomi sifatida esa mavzuiylik yotadi. Mavzu va mavzuiylik chambarchas bog‘liq bo‘lgan ifoda tushunchasi bo‘lib, musiqashunoslikda “mavzu”lar tahlili tadqiqot uchun eng qiziqarli mavzulardan biri sanaladi. Mavzuiylik turli yo‘nalishga asoslangan holda bir qator asarlarda ochib berilganligini qayd etish lozim. Jumladan, bu izlanishlarda mavzuiylikning turli jihatlarini, ya’ni muallif uslubi, janri, kompozitsiya texnikasi, musiqiy shakli, musiqiy til unsurlari va shu singari bir qator masalalarga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, mavzu va mavzuiylik masalasiga musiqashunoslarning bildirgan fikrlari, asoslangan ta’rif va tasniflarini keltirib o‘tish o‘rinli bo‘lib, tushunchalarning ilmiy ta’rifiga to‘xtalish joizdir.

Maqomning mukammal, sermazmun bo‘lishida mavzuiylikning o‘rni katta. Mavzuiylik – har qanday asarning ajralmas qismidir. Shashmaqom mavzularga boy va bu mavzuning har biri o‘ziga xos ma’no mazmunni, g‘oyani ilgari suradi.

Biz Shashmaqomda mavzu va mavzuiylik masalasini baholi qudrat yoritib, mavzuiylikni yuzaga kelish uslublari ochib berishga urunib ko‘rdik. O‘rganishimiz jarayonida maqom san’atining mavzuiylik jihatlarida uch omili yaqqol namoyon ekanligini ko‘rsatish :

- **Asosiy mavzu va uning turli ko‘rinishlarda asar rivoji uchun xizmat qilishi.**

- **Maqomot tizimida mavjud turli mavzularning ko‘rinish sifatida ketma-ket kelishi — kiritilishi.**

- **Har bir maqom turkumida asosiy mavzudan tashqari boshqa maqomlarning namudlari ishlatilishi.**

Ushbu uslublar o‘ziga xos bir jarayon bo‘lib, bu xususiyat maqomlarga xos bo‘lganligi bilan xarakterlidir. (Misol №1 ga qarang.)

Asosiy mavzu va uning turli ko‘rinishlarda asar rivoji uchun xizmat qilishi — musiqiy mavzuni rivojlantirishning bir necha usullari mavjud: takrorlash, ketma-ketlik, variatsion rivojlanish, taqlid.





Rivojlanishning eng oddiy usuli - *takrorlash*. Odatda bir xil ohang turli so‘zlar bilan takrorlanadigan qo‘shiqlarda uchraydi. Bunda berilgan mavzuning asar davomiyligi (muqaddima-daromad-miyonxat-dunasravj-furovard)da intervali o‘zgargan holda kelishi. Bunday uslub, mavzuiylikning dastlabki namoyon bo‘lishi hisoblanadi va mavzuni mustahkam tasdiqlashga ham xizmat qiladi.

Ketma-ketlik ham takrorlashga asoslanadi va rivojlanish texnikasi, bu mavzu turli balandliklarda, bir xil yoxud turlicha intervalda, aniq yoki taxminan takrorlanishi bilan murakkablashadi.

(Misol №2 ga qarang.)

Variatsion rivojlanish ham takrorlash, lekin o‘zgartirilgan, mavzuning birinchi taqdimotidan farq qiladi. Mavzuni tashkil etuvchi musiqiy nutqning barcha elementlari o‘zgarishi mumkin. Variatsion rivojlanish musiqiy mavzuni o‘zgartirishning eng qadimgi usullaridan biri bo‘lib, xalq musiqasida asosiy hisoblanadi. Xalq ohanglaridan foydalangan holda yozilgan asarlarda kompozitorlar mavzuni rivojlantirishning o‘ziga xos usulini tanlashlari ajablanarli emas.

(Misol №3 ga qarang.)

Maqomot tizimida mavjud turli mavzularning ko‘rinish sifatida ketma-ket kelishi — kiritilishi. Inson ruhiyati bir xillikni yoqtirmagani tabiiy holat bo‘lganligini inobatga olib qaraganda, Shashmaqom ijrochiligida ham rang-baranglik va asar davomida o‘zgachalik namoyon bo‘lishi talab etiladi. Bir xil mavzuning bayoni jarayonida, boshqa mavzuning kiritilishi rang qo‘shishi bilan birga, inson tabiatiga xos bo‘lgan jihatlarga urg‘u berib o‘tadi go‘yo. Bunda mavzularning kiritilishini kuzatamiz ya’ni, Buzruk maqomiga Nasrullohi va Uzzol maqomlari va Rost maqomiga Ushshoq va Sabo maqomlari, shuningdek, Navo maqomiga Bayot, Oraz hamda Husayniy maqomi, Dugoh maqomida Chorgoh, Oraz va Husayniy maqomi, Segohda Xoro, Ajam maqomini, Iroq maqomi tarkibida esa Iroq va Muxayyar maqomlarining mavzulari kiritilgan mavzu bo‘la olishini yuqorida ham aytib o‘tganmiz.

Har bir maqom turkumida asosiy mavzudan tashqari boshqa maqomlarning namudlari ishlatilishi. Ushbu uslubni yoritishda avvalo “namud” atamasi va uning turlari to‘g‘risida ma’lumot berishi o‘rinlidir.





Namud – fors-tojik tilida “ko‘rinish”, “namoyon bo‘lish” ma’nolarini bildiradi. Musiqiy tushuncha sifatida namud muayyan kuy yoki ashulaning ma’lum tuzilmasining turli sho‘balar tarkibidagi ko‘rinishidir. Ular asosan sho‘baning boshlanish kuy jumllaridan olinadi. Namudlarning turli ko‘rinishlari sho‘balarning avji sifatida ishlatiladi. Masalan, Nasri Uzzol sho‘basining boshlanishidagi 2–4 jumlasini o‘ziga sho‘balarning tabiatiga, doira usuliga moslashtirilgan holda avj sifatida foydalaniladi va Uzzol namudi deb nomlanadi. Asosiy namudlarning soni sakkizta, avjlar esa ikkita.

Uzzol namudi, Ushshoq namudi, Navo namudi, Dugoh namudi, Segoh namudi, Zebo Pari avji, Oraz namudi, Bayot namudi, Muxayyari Chorgoh namudi. Mazkur namud va avjlar maqom sho‘balarida kuy tuzilishining qonuniy rivojlanishi, kuyning ruhi, qiyofasi, lad asosi va doira usulining xususiyatlariga moslab olinadi. Ular turli usuldagi ashulalarda har xil ko‘rinishlar orqali gavdalanadi.

Namudlar maqom sho‘balarida yakka yoki guruhli tarzda ishlatilishi mumkin. Guruh bo‘lib kelganida ularning bir-biriga silliq ulanishi hisobga olinadi.

Namudlar quyidagi tartibda bir-biriga ulanishi mumkin:

Uzzol namudi - Muxayyari Chorgoh namudi;

Ushshoq namudi –Uzzol namudi - Muxayyari Chorgoh namudi;

Ushshoq namudi - Muxayyari Chorgoh namudi;

Segoh namudi - Ushshoq namudi – Turk avji;

Segoh namudi - Turk avji;

Segoh namudi – Navo namudi – Oraz namudi;

Zebo Pari avji - Muxayyari Chorgoh namudi;

Zebo Pari avji - Navo namudi;

Oraz namudi - Navo namudi;

Bayot namudi - Navo namudi;

Muxayyari Chorgoh namudi – Dugoh namudi.

Bu tartib barqaror bo‘lmay, xonandalar sho‘balar tarkibidagi ba’zi namudlarni tushirib qoldirishlari yoki yangilarini kiritib ijro etishlari mumkin. Masalan, Navro‘zi Sabo sho‘basi odatda Segoh, Navo va Oraz namudlari bilan aytiladi. Mashhur hofiz Domla Halim Ibodov esa uni birgina Segoh namudini kengaytirib ijro etgan. Shunday qilib, namudlar turlicha shaklda qo‘llanilgan. Ular yirik shakldagi xalq kuy va ashula yo‘llaridan ham turlicha foydalanilgan. Atoqli hofiz va





bastakor Hoji Abdulaziz o‘zi yaratib ijro etgan “Guluzorim” ashulasi Savti Ushshoq pardalari ohanglaridan iborat bo‘lsa-da, unga Turk avjini qo‘shib aytgan, “Bebokcha” ashulasiga esa (asli Rostdagi Savti Saboga ohangdosh) Zebo Pari bilan Navo namudini kiritgan. Shu kabi ijro namunalarini maqom ijrochiligi va nazariyasini tinglab, o‘rganishda bir qatorini ko‘rishimiz mumkin.

Maqom ashula bo‘limi sho‘balarining tarkibidagi kuy tuzilmalari har xil bo‘lishi mumkin. Buning barobarida mavzuiylik, ruhiy kechinmalar ham shuncha boyib boraveradi. Masalan, sho‘balar odatda cholg‘u muqaddima bilan boshlanadi. Keyin daromad jumalari ijro etiladi va miyonxat (o‘rta pardalardagi ashula jumalari)ga o‘tiladi. O‘rniga qarab, dunasr (daromadning yuqori pardalarida takrorlanishi) jumalari ijro etiladi. Keyin ma‘lum sho‘baga xos namudlar (bittadan to‘rttagacha kelishi mumkin) aytilib, miyonxat yoki u siz ulanib ketadigan furovard (tushirim) bilan yakunlanadi. Ularda bir bayt she‘r bilan o‘qiladigan ashula tuzilmasi bir xat sanaladi. (Shashmaqom nota yozuvi to‘plamlarida xatlar I, II, III kabi rim raqamlari bilan, yarim (nim) xatlar esa 1, 2 kabi arab raqamlari bilan belgilangan).

Shashmaqom va ularning sho‘balari, maqom yo‘llarining kuy tuzilishi haqida ko‘rgazmali tasavvur hosil qilish uchun akademik Yunus Rajabiy to‘plab notaga olgan olti jildlik Shashmaqom kitobiga murojaat qilish o‘rinlidir. Kitobning oltinchi jildida “So‘nggi so‘z” va “Namudlar jadvali” maqom yo‘llarini va ashula qismlari tuzilishini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, namudlar xususida mufassal ma‘lumot olish uchun Is‘hoq Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobida atroflicha ma‘lumotlar ham keltirilgan. [2. 156-245]

Xulosa o‘rnida keltirishimiz mumkinki, mumtoz musiqa ijodiyotida mavzu va mavzvuiylik mavzusi juda keng qamrovlidir. Bizga qadar mumtoz musiqa ayniqsa, Shashmaqom tizimi misolida o‘rganilmagan mavzu bo‘lganligi sababli, baholi qudrat izlanish olib bordik.

Izlanishlarimiz natijasi o‘laroq, Shashmaqomda mavzuiylikning qo‘llanilish jihatlari bilan tanishib, fikrimizni isboti bilan keltirib o‘tdik. Maqomlar chuqur falsafaga ega va boy o‘tmishdan so‘zlovchi qomusiy asar, zero, uning mavzusi inson tug‘ilib, to‘lamdan o‘tgunga qadar bo‘lgan hayotiy kechinmalarni, ruhiy holatini qamrab olganligi sababidan ham mavzu va mavzuiylik masalasi biz uchun qiziq, muhim





ishlardan biri bo‘lib qoladi. Maqomlarga sinchkovlik bilan nazar tashlaganimizda, juda ajib manzaraga duch keldik. Oltita maqom – bu 6 ta Saraxbor, 6ta mavzu, 6 ta butun bir jarayonni o‘zining kichkinagina bir mavzuchasiga singdirib, kod sifatida keltirilgan mavzular mavjud. Butun bir maqomning mohiyati ana shu kod – mavzuda mujassamdir. Mavzuiylik tizimi esa mana shu kodni terish bosqichidir go‘yo.

Musiqiy nota misollar:

Misol:№1



Misol:№2

Ushshoq savti qashqarchasi

m . m . ♩ = 104

Sen ka-bi, ey sho'h, bir- jon o - fa-ti ja -
 non qa-ni Ish - va-da o - shu - bi dah - ru
 fit - na-i dav - ron qa-ni? Is - ta-sam og'-
 - zing ka-bi bir g'yn-cha-mi gul - shan - da bor? Ko'z-la-ring dek
 nar - gi-su has - ting ka-bi ray - hon_ qa-ni?





Misol: №3

Mo`g`ulcha buzruk talqinchi

m . m . ♩ = 152 - 160
m . m . ♩ = 88 - 92

Ne ku - ray to` - biy - ni qad -
- di xush xi - ro - ming bo - ri - da, ne qi - lay sun - bul - ni xat
- ti mushk - fo - mihg bo - ri - da. ne qi - da. Kim Xi-

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabov.I. Maqom asoslari. T., 2014 y.
2. Rajabov.I. Maqom masalasiga doir. T, 1963.
3. Ручевская.Е, Иванова.Л, Широкова.В. Анализ вокальных произведений. Музыка. М., 1988.
4. Ручевская.Е. Классическая музыкальная форма. Композитор. Санкт-П., 1998.





RUBOB CHOLG‘U SOZINING TARIXI HAMDA AHAMIYATI XUSUSIDA

Javohir NAMOZOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Shomahmud SHORAXMEDOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: Milliy cholg‘ular ichida qashqar rubobi alohida o‘rin tutadi. Rubob sozi o‘zining jarangi, yurak qitiqlar nolayu qochirimlari, rang-barang ijro bezaklari va nihoyat, o‘rganish va ijro etish jihatidan qulayligi bilan xalqimiz orasida naqadar ommaviylashgan va sevimli sozga aylangan. Ushbu maqolada rubob cholg‘u sozining tarixi hamda ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qashqar rubob, tarix, cholg‘u, sozanda, oktava, orkestr.

Abstract: The kashgar rubob occupies a special place among national instruments. Rubab music has become a popular and favorite music among our people with its sound, heart-tickling moans and groans, colorful performance decorations, and finally, ease of learning and performance. This article discusses the history and significance of the word rubob.

Key words: kashkar rubob, history, musical instrument, musician, octave, orchestra.

Milliy musiqiy meros, jumladan milliy cholg‘u ijrochiligimiz tarixi ham eramizdan bir necha asr oldingi davrlarga borib taqaladi. O‘zbek xalqi va millatining barcha rivojlanish davrlarida qo‘shiq bilan bir qatorda dutor, tanbur, doyra, ud, g‘ijjak, qonun, rubob kabi milliy cholg‘u sozlari qalb qo‘riyu — ko‘ngil davosi sifatida bebaho ma’naviy ozuqa bo‘lib xizmat qilgan.

Milliy cholg‘ular ichida qashqar rubobi alohida o‘rin tutadikim, rubob sozi o‘zining jarangi, yurak qitiqlar nolayu qochirimlari, rang-barang ijro bezaklari va nihoyat, o‘rganish va ijro etish jihatidan qulayligi bilan xalqimiz orasida naqadar ommaviylashgan va sevimli





sozga aylangan.

Rubob cholg‘usi Markaziy Osiyo xalqlari o‘zbeklar, tojiklar, uyg‘urlar orasida qadimiy va ommalashgan cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobi asosan qachon va qayerda paydo bo‘lganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Shunga qaramay tarixiy manbaalarda “rabob”, “rebab”, “rubob” cholg‘usi haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi.

Bunday ma’lumotlarni Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Marog‘iy, Darvish Ali Changiy, Abdurauf Fitrat kabi ko‘plab allomalarning asarlarida kuzatish mumkin. XVII asrda Buxoroda yashagan Darvish Ali Changiyning “Musiqa haqida risola” sida XVI-XVII asrdagi cholg‘ular haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. O‘sha davrlarda tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobus, g‘ijjak cholg‘ulari keng tarqalgan cholg‘ular hisoblangan.

Sozandalar haqidagi ma’lumotlar orasida mashhur rubobchilar haqida ham so‘z yuritiladi. Xususan, “Buxorolik Shayx Shamsiy-Rabboniy mohir rubob cholg‘uchi, mashhur sozanda sifatida tanilgan. Uning ijrosi shu qadar tinglovchilarga ta’sir qilganki, hech bir kishini befarq qoldirmaydi. Rubobning ohangini eshitib, betakror ijrosidan hayratga tushgan odamlar chor atrofdan to‘planaverishgan ekan”. Lekin bu asarlarda so‘z yuritilgan rubob cholg‘ulari aynan hozirgi yoki boshqa bir ko‘rinishda ekanligi haqida aniq bir ma’lumotlar uchramaydi.

Qashqar rubobining Shinjon uyg‘urlari orasida tarqalgan “do‘lon rubobi” nomli turi ham mavjud. Uning dastasi pardasiz, naqshli fason qulog‘i (rubobning bezak shoxlari Farg‘ona vodiysida “fason qulog‘i” deb ham yuritiladi) hamda uchta asosiy va bir nechta torlari bo‘lib, mizrob bilan chalinadigan sozlardan hisoblanadi. Bu cholg‘u qadimgi Torin va Yorkent daryosi bo‘ylaridagi vohalarda yashagan Do‘lon qabilalarining qadimiy cholg‘u asboblaridan hisoblanib, miloddan IV asr oldin qo‘llanilgan degan ma’lumotlar bor.

Xitoy tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan “Tan podsholigining muhim bayonlari” kitobining 33-jildida “Qashqarlik besh torli rubob ustasi Pilol (Xitoyda uni Pey Shin Fu deb atashgan) rubobni mizrob bilan chaladi va keyinchalik uning bu xilda qadimgi chalish usuli hamma joyga tarqalib, ko‘plab xalqlar, mamlakatlar





tomonidan qabul qilingan” degan fikrlar keltiriladi.

Qashqarda yashagan mashhur rubobchilardan Toshvoy rubobchi (1864-1898) qashqar rubobining ommalashuvida katta hissa qo‘shgan. Uning ko‘plab shogirdlari yetishib chiqqan va “Toshvoy” degan musiqasi hozirgi kunda ham uyg‘ur sozandalari orasida ham mashhurdir.

Bugungi kunda uyg‘ur xalq musiqa ijrochiligida rubob cholg‘usining “podachi rubob”, “do‘lon rubob”, “bas rubob” va “qashqar rubob” deb nomlangan 4 ta turi keng qo‘llanilmoqda.

Uyg‘ur qashqar rubobi – uyg‘ur xalqining eng ommalashgan cholg‘usi sifatida shahardan to kichik qishloqlargacha tarqalgan. Uning 1-tori 1-oktava “do” notasiga sozlanib to‘rttadan oltitagacha rezanator torlari mavjud.

Do‘lon rubobi – “qumul rubob” deb ham yuritilib, asosiy 3 ta tori lya-re-lya, lya-mi-lya kabi sozlanadi. Bundan tashqari o‘ntagacha rezanator torlari mavjud.

Bas rubobi esa re-lya-re, re-sol-re notalariga sozlanib, orkestrlarda keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari uyg‘urlarda rubobning 8 torli turi mavjudligi haqida ma’lumotlar bor.

Ma’lumotlarga qaraganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham O‘zbekistonda bu cholg‘u kam uchragan va dastasiga ichak bog‘langan diatonik cholg‘ulardan biri bo‘lgan.

Mutaxasislarning ta’kidlashlaricha 1936-yilda Farg‘ona vodiysining so‘lim Shohimardon qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan xalq saylida mashhur rubobchi M. Mirzayev qashqarlik bir sozandadan rubob cholg‘usini harid qiladi va Toshkentlik usta Usmon Zufarov bilan birga takomillashtiradilar. Natijada bu rubobning menzurasi uzaytiriladi, dastasi esa lotun qalamchalar bilan pardalarga teng bo‘linib, hozirgi ko‘rinishdagi rubobni yaratadilar. Rubobni qayd qilingan nusxasi hozir ham ustoz M. Mirzayevning uyida saqlanmoqda.

XX asrning 40-50 yillaridan boshlab, Toshkent Davlat Konservatoriyasi qoshida cholg‘ularni o‘rganish va takomillashtirish maqsadida eksperimental laboratoriya tashkil etilib, unda o‘zbek xalq cholg‘ulari qayta ishlay boshlandi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor A.I.Petrosyans rahbarligida bir guruh soz ustalari – Usta Usmon Zufarov, V.A.Romanchenko, S.Y.Didenko, A.A.Kexvoyans, X.Muhiddinov, N.Ryuxin, A.Abdug‘afforov,





B.B.Andreyevlarning ijodiy va ijobiy izlanishlari o‘laroq ko‘plab milliy cholg‘ular rekonstruksiya qilnidi. Jumladan qashqar rubobi ham qayta ishlanib, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan prima, alt va messoroprano turlari yaratildi. Natijada qashqar rubobida o‘zbek xalq musiqasi bilan birga ko‘plab boshqa xalqlar kuylari va kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Qashqar rubobi nafaqat respublikamizda, balki qardosh Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston respublikalarida ham keng tarqalgan. Chunki rubob sozida milliy kuylar qatori mumtoz kuylarni, bastakorlar ijodiga mansub rang-barang kuylarni, mashhur chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan murakkab yirik asarlarni ham mohirona ijro etish mumkin.

Shu o‘rinda prima rubobi haqida ham ma’lumot berib o‘tsak. Cholg‘ular rekonstruksiya qilingadan so‘ng yuqorida nomi keltirilgan sozlar ichida prima rubobning yasalihi ham kompozitorlik asarlarini ijro etishda samarali izlanishlarda bo‘lib chiqadi. Ayniqsa orkestrda muhim o‘z o‘rnini egalladi. An’anaviy qashqar ruboblari kosasi tut daraxti yog‘ochidan o‘yib ishlangan bo‘lsa, yangi yaratilgan ruboblar kosasi yog‘och qovurg‘achalarni birlashtirib yasala boshlandi. Rubob prima kosasi ham yog‘och plastinkalardan, dastasi esa o‘rik daraxti yog‘ochidan ishlanadi. Kosasiga esa baliq terisi qoplanadi. Cholg‘u torlarini tutib turishi uchun kosa tagiga to‘rtta ilmoqlar o‘rnatiladi. Kosa bilan dasta tutashgan joyida, dastaning ikki tomonida shoxsimon fason qulog‘i mavjud bo‘lib ular o‘ziga xos bezak vazifasini o‘taydi. Torlar rubobning bosh qismiga o‘rnatiladigan mexanik quloqlarga taqiladi va cholg‘u dastasining boshidagi shayton xarrak hamda kosaga qoplangan baliq terisi ustiga joylashgan xarrak (“Xarrak”-cholg‘u torini tutib turuvchi moslama) oraliq ilmoqlariga o‘tkaziladi. Shayton xarrak va teri ustidagi xarrak torlarning dasta uzra muayyan balandlikda joylashishni ta’minlaydi. Xarrak yumshoq yog‘ochdan bo‘lmasligi, aksincha qattiq pishiq va sifatli bo‘lishi lozim. Chunki xarrak tovush sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Rubob prima dastasi 24 ta metall plastinkalari bilan bo‘lingan bo‘lib, ular orasidagi o‘zaro masofa parada deb yuritiladi. Pardalar sozning bosh qismidan kosasiga qarab sanaladi. 2, 5, 7, 10, 12, 14 raqamli pardalarga o‘ziga xos bo‘lgan, turli ko‘rinishdagi plastmassa yoki sadafdan ishlangan bezak- belgilar o‘rnatilgan bo‘lib, ular soz dastasida notalar joylashishni aniqlashda





yordam beradi. Cholg‘uni sozlashda xarrakning joylashgan o‘rni muhim. Bunda Cholg‘u dastasidagi 12 pardada torlar bosilib torning oktava intervalida jaranglashini eshitib ko‘riladi. Agarda ochiq tor oktava intervaliga nisbatan baland sadolansa xarrak ilmoq tomonga, va shundan keyingina cholg‘uni sozlashga kirishish maqsadga muvofiq. Chunki rubob prima cholg‘usi kosasiga qoplangan baliq terisi havo temperaturasiga juda sezgir bo‘lib, sozning o‘zgarib turishiga sabab bo‘ladi. Prima rubobida to‘rta tor mavjud bo‘lib, **Sol, Re, Lya, Mi** tovushlariga sozlani.

Rubob prima yuqori registrli cholg‘u sozi bo‘lib, skripka cholg‘usidagi kichik oktavadagi sol tovushidan 4 oktavadagi mi gacha bo‘lgan tovushlarni ijro qilish imkonini beruvchi diapazonga egadir. O‘zbek xalq chog‘ulari orkestrida rubob prima boshqa chog‘ulardan qator o‘ziga xos ahamiyatga molik bo‘lib, yetakchi o‘rinni egallaydi. Rubob prima xalq cholg‘ulari orkestrdagi mizrobli va chertma torli cholg‘ular guruhining ijro qilish imkoniyati, mahoratini, ovozini sezilarli darajada oshiradi. Badiiy va ijrochilik jihatidan juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lganligi sababli rubob prima sozida jahon musiqasining klassik namunalarini, taniqli bastakorlarning asarlarini, o‘zbek xalq kuylarini, O‘zbekiston bastakorlari yaratgan murakkab yirik asarlarni ham yuksak mahorat bilan ijro etish mumkin⁵⁸.



Xalqimiz ichida qashqar rubobining yanada sevimli va ommaviy

⁵⁸ Oltinoy Shukrullo qizi Mahmudova. Prima rubobning yaratilish tarixi. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X.





bo‘lishiga mashhur rubobchi sozandalarimizdan Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Abbos Bahromov, Ari Boboxonov, Sulaymon Taxalov, Qobil Usmonov, Adham Xudoyqulov, Tohir Rajabov va Rifatilla Qosimovlar katta hissa qo‘shdilar.

“Tarixiy manbaalardan ma’lumki, musiqa ijrochiligi o‘zbek va uyg‘ur xalqlarida ham boshqa ko‘pgina xalqlarda bo‘lgani kabi qadimdan xalqning to‘yu-tantanalarida, xalq sayillari va bayramlarida yakka holda, turli katta-kichik guruhlar ko‘rinishida shakllanib, keyinchalik hukmdorlar saroylarida maxsus jamoalar shaklida rivojlanib, takomillashib uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan holda bizgacha o‘zining hozirgi mukammal ko‘rinishida yetib kelgan”⁵⁹.

Bir qancha yozma manbalarda ming yillar mobaynida musiqa va musiqa cholg‘ulari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ijrochilik san’ati hamda mohir sozandalar haqidagi qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Tadqiqotchi Mironov asarlarida ham shunday yoziladi: “Rubob – juda qadimiy afg‘on asbobi”. U Hindistonda ham uchrab turadi. Qashqarda uni Rabob deb atashadi. Professor Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi tarixi” asarida bu cholg‘u asbobining Xorazm amiri Xorazmshox davrida (XV asr) Balx shahrida noma’lum shaxs tomonidan yasalganligi haqida ma’lumot keltiradi.

Qashqar rubobining qadim zamonlardan qo‘llanilganligi haqida V.M.Belyaevning “O‘zbekiston cholg‘u asboblari” (1933 yil) kitobida ma’lumotlar bor. U shunday deb yozadi: “Yaqin vaqtda ochilgan qashqar rubobi – bu asbobning ya’ni fors klassik musiqa asbobining ajdodini ochilishi demakdir”. O‘zbekistonga bu asbobning qanday qilib kelib qolganligini aniqlash qiyin. U Farg‘ona vodiysida ma’lum bo‘lgan va juda kam edi. Buxoro va Samarqandda esa chertib chalinadigan asboblardan “afg‘on rubobi” keng qo‘llanilgan

Hozir rubobni yurtimizning har yerida uchratish mumkin. U hozirgi davrda o‘zbek xalqining eng sevimli cholg‘u asboblardan biri bo‘lib, u ham uy ichida, havaskorlik to‘garaklarida professional ijrochilikda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda rubob sozini keng tarqalishida O‘zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayevning xizmati juda katta.

Rekonstruksiya qilingan rubobning xalq turidagi rubobdan farqi

⁵⁹ S.Begmatov, M.Matyoqubov “O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari”, “Yangi nashr”, Toshkent 2008.





shundaki, boylangan 19-23 pardalari o‘rniga 24 ta misdan yoki lotundan yopishtiriladi. Ular xromatik gammani tashkil qiladi.

Tovushqatorga temperatsiya kiritilgan. Beshta torning to‘rttasi metal-po‘latdan. Bittasi ichakdan yoki kaprondan bo‘ladi. Hamma torlarida kuy ijro etish mumkin.

Rubob o‘rtacha qalinligi 1 mm, uzunligi 1,5 yoki 2 sm bo‘lgan plektr nohun(mediator)da chalinadi.

Rubobda chalishni o‘rganishning dastlabki davrlaridanoq nohunni to‘g‘ri ushlab tavsiya etiladi.

Rubobni yakkasoz ijrochiligida turib chalinadi. Ansambl ijrochiligida esa o‘tirib chalinadi. Yakka va ansambl ijrochiligi uchun rubobda ijro etiladigan asarlar juda ko‘p.

An’anaviy musiqa ijrochiligi o‘ziga xos milliy bezaklarni va ularni sharqona talqini uchun mos uslublarni taqazo etadi. Bu faqat barmoqlar harakatlari bilan jonlantiriladi. An’anaviy ijrochilikda bu omilni mukammal talqini uchun bir qator amallarga rioya qilinishi talab etiladi.

An’anaviy musiqa ijrochiligida asosan birinchi, ikkinchi va uchinchi barmoqlar turli xildagi nolalarni to‘laqonli ifoda etilishida qo‘llaniladi. Uchinchi va to‘rtinchi barmoqlar ko‘proq forshlag sifat bezaklarni ijro etishda qulaydir.

Rubobda Shashmaqom kuylari, xalq kuylari, bastakorlar asarlari yakka ravishda ijro etilganda, aynan talab etilgan pardadan emas, balki, rubobga xos va soziga mos bo‘lgan pardalardan boshlab ijro etish maqsadga muvofiqdir. Xozirda ko‘proq Shashmaqom, o‘zbek xalq kuylarini rubobga moslab notalarga olish ishlari, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi an’anaviy cholg‘u ijrochiligi kafedrasida professor o‘qituvchilari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Rubob soziga moslab o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.Mahmudova. Prima rubobning yaratilish tarixi. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X.

2. Begmatov S., M.Matyoqubov “O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari”, “Yangi nashr”, Toshkent-2008.





3. Raximov Sh., A.Lutfullayev “Cholg’ushunoslik”, “Asian book house”, Toshkent-2020.

4. Rasultoyev J, Melixo‘jayev O., O‘zbek cholg‘ularini yasash va ta‘mirlash. – Toshkent.: 2007.





RAHMATJON QURBONOVNING BASTAKORLIK IJODI

Rasul JUMASHEV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

1-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Shavkat MATYAKUBOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI dotsenti.

Annotatsiya: *Ijrochilik an’analarini mukammal o‘zlashtirgan, musiqa merosini idroklagan va merosga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lish iste’dodi bo‘lgan yetuk xonanda va sozandalarning amaliyotida qaror topgan. Bastakorlik amaliyotining o‘zi bir qator tabiiy, hayotiy va ijodiy qoidalarga asoslanib shakllangandir. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, “Mehnat shuxrati” ordeni sohibi Rahmatjon Qurbonovning ijodiy va bastakorlik faoliyati tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xonanda, hofiz, san’at, madaniyat, bastakor, xalq san’ati, ashula.*

Abstract: *It is settled in the practice of mature singers and musicians who have perfectly mastered the traditions of performance, perceived the musical heritage and have the talent to react creatively to the heritage. Composer practice itself is formed based on a number of natural, vital and creative rules. This article analyzes the creative and compositional activity of Rahmatjon Kurbanov, the honored artist of the Republic of Uzbekistan, the owner of the Order of “Labour Glory”.*

Key words: *singer, hafiz, art, culture, composer, folk art, singing.*

O‘zbek xalq musiqa merosi boy va uzoq o‘tmishga ega. Uning ildizlari ming yillik tarixga egaligi manbalarda zikr etib kelinadi. O‘zbek bastakorlik ijodiyotini ilmiy tadqiq etgan musiqashunos olim T.B. G‘ofurbekovning yozishicha: “Milliy bastakorlik san’ati – yillar va asrlargina emas, balki ming yilliklar davomida barcha sinovlarga bardosh berib, usluban sanog‘i yo‘q musiqiy bitiklar tevaragida o‘z





an’analarini yo‘qotmay kelmoqda”⁶⁰. Albatta, bastakorlik ijodiyotining ilk qadamlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu aslida muqarrar jarayon. Chunki har qanday ijod mahsuli insoniyat tafakkurining mevasi hisoblanadi. Oddiy xalq musiqa namunalari ham sodda bo‘lsa-da, insoniyatning yaratuvchanlik harakatlarining mevasidir. Lekin, ijodning mumtozlik, ya’ni kasbiylikka xos bo‘lgan namunalari aynan bastakorlik an’analariga xos deb e’tirof etib kelinadi.

Xalqimizning milliy-ma’naviy merosini musiqa san’atisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qadriyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an’anaviy tarzda avlodlardan avlodlarga o‘tib, xalqimizning buyuk ma’naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san’ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Chunonchi, bu jarayon musiqa san’atining barcha kasbiylik ahamiyatiga ega bo‘lgan tarmoqlari uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Musiqa san’atining kasbiylik an’analarida yuzaga kelgan mumtoz namunalari, xalq marosimlari jarayonida yaratilib kelingan kuy va qo‘shiqlar o‘ziga xos an’analar asosida zamonlar osha yashab, rivojlanib kelmoqda. Odatda, bastakorlik ijodiyoti bir-biridan kelib chiqqan ikki qatlamga bo‘linadi. Birinchi qatlam – xalq musiqa ijodiyoti, ya’ni xalq tomonidan yaratilib kelingan folklor musiqasi. Ikkinchisi – musiqa ijrochiligi amaliyoti; meros bo‘yicha muayyan bilimga ega bo‘lgan shaxs, ya’ni bastakorlar ijodiyoti natijasida yaratilgan mumtoz musiqiy asarlaridir. Bastakorlik ijodiyotining eng yirik va mukammal shakli maqomot tizimiga kiruvchi asarlardir. Bastakorlik amaliyotida shakllanib maqomot shakligacha rivojlangan janrlar, manbalarda amal, qavl, parda, nag‘ma, ovoz, naqsh, peshrav, savt, chorzarb, kor, tarona kabi iboralarda tasvirlanib kelingan. Ushbu iboralarning amaliyoti va ijodiyoti xususida, tarixda bitilgan musiqiy risolalar, turli ilmiy va badiiy adabiyotlarda aks ettirilganligini qayd etish lozimdir.

Ma’lumki, bastakorlik sohasi ijrochilik an’analarining pirovardi sifatida yuzaga kelgan. Ijrochilik an’analarini mukammal o‘zlashtirgan, musiqa merosini idroklagan va merosga nisbatan ijodiy munosabatda

⁶⁰ G‘ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti tarixidan. //Saylanma. – T., 2009. 9-b.





bo‘lish iste’dodi bo‘lgan yetuk xonanda va sozandalarning amaliyotida qaror topgan. Bastakorlik amaliyotining o‘zi bir qator tabiiy, hayotiy va ijodiy qoidalarga asoslanib shakllangandir. Ushbu qoidalar, avvalo, milliy qadriyatga, makon va zamonga, shakl-ushamoyilga, xarakterga va qolaversa, bir qator musiqiy unsurlarni o‘zida mujassam etishi bilan xarakterlanadi. Chunki musiqa nazariyasi bilan bog‘liq jihatlar, yaratilgan har qanday bastakorlik asarlarini shakliy, lad-tonallik, o‘lchov-ritmik, mavzuiy, ohang rivoji, funkcionallik kabi xususiyatlari asar tarkibini tashkil etuvchi unsurlar bilan bog‘liqdir. Bu unsurlar musiqa asarining asosiy negizini ta’minlab beradi.

Rahmatjon Qurbonov 1959-yilda Xiva shahrida tavallud topgan. U tug‘ilib voyaga yetgan xonadonda oilaning barcha a’zolari san’atga mehr qo‘ygan, o‘zlari ham kuy-qo‘shiqlarni maromiga yetkazib ijro qilar edilar.

Rahmatjon otasidan o‘zbek cholg‘u asboblari chalish va mumtoz qo‘shiqlarni ijro etish uslublarini yoshligidan o‘rgana bordi. Shuningdek, bu oilada mamlakatimizning eng taniqli san’atkorlari, adiblari, shoirlari doimo mehmon bo‘lishardi. Ana shunday davralarda, albatta, qo‘shiqlar yangrab, kuylar chalinar edi. Rahmatjon ham bunday paytlarda o‘z iste’dodini namoyon etib, rubob chalib, qo‘shiq kuylaganda hammaning qalbi yayrab ketar edi. Yillar o‘tdi. Raxmatjon Qurbonov san’at yo‘nalishi bo‘yicha o‘zining munosib o‘rnini topib oldi...

Zahmatli, fidoyi mehnatlari Davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist”, “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvonlari xamda “Mehnat shuxrati” ordeniga sazovor bo‘lgani doimo har birimizga faxr va quvonch bag‘ishlaydi.

Rahmatjon Qurbonov ijodiy faoliyati davomida qardosh qoraqalpoq, ozarbayjon, turkman, turk, tojik xalq qo‘shiqlarini ham zo‘r ishtiyoq bilan kuyladi va ko‘pchilikning mehrini qozondi.

Ustoiz san’atkor o‘z ijodi bilan nafaqat san’atimiz rivojiga, balki xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash ishiga ham hissa qo‘shdi. Mehnatlari munosib baholanib, davlatimizning “Mehnat shuhrati” ordeni bilan ham taqdirlandi.

U san’at sohasidagi ko‘p yillik serqirra ijodiy faoliyati bilan el-yurt nazariga tushgan, respublikamizda taniqli, xalqimiz suygan





xonanda edi. Ustoz asl san’at durdonalaridan “Chorgoh”, “Talqini Rost”, “Katta suvora”, “Chapandozi suvora”, “Bozirgoniy”, “Qaro ko‘zim”, “Nasrullovi”, “Maxsus”, “Feruz-1”, “Feruz-II”, “Orazibon” kabi ko‘plab maqom hamda mumtoz ashulalarni o‘zgacha mehr va ixlos, yuksak mahorat bilan me’yoriga yetkazib yuqori saviyada ijro qilgan edi.

R.Qurbonov ko‘p yillar O‘zbekiston davlat filarmoniyasi “Lazgi” ashula va raqs ansambli rahbari lavozimida mehnat qildi va ushbu ansambl faoliyatini samarali boshqardi. Yaponiya, Xitoy, Malayziya, Germaniya, Fransiya, Angliya, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya kabi o‘nlab xorijiy davlatlarda ijodiy safarlarda bo‘lib, o‘zbek xalqi san’ati, milliy qadriyatlarini jahonga targ‘ib qilishga musharraf bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Rahmatjon Qurbonov bir necha risolalar, kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarining muallifidir, Ularda o‘zbek mumtoz san’ati, buyuk san’atkorlarimizning bosib o‘tgan ibratli va unutilmas hayoti, ularning o‘ziga xos ijro uslubi, xalq ijodiyoti durdonalari haqida to‘laqonli yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yunusov R. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida. Musiqa ijodiyoti masalalari. I to‘plam. - T., 1997.

2. G‘ofurbekova X.. Bastakor Saidjon Kalonov. Musiqa ijodiyoti masalalari. I to‘plam. - T., 1997.

3. G‘afurbekov T.. O‘zbek bastakorlik ijodiyotida mualliflik masalalariga doir. Musiqa ijodiyoti masalalari. 2 to‘plam. - T.,

4. S.Begmatov. “Bastakorlik ijodi” Toshkent – “Niso poligraf” – 2017.





MUNDARIJA

| | | |
|--------------------------------|--|----|
| <i>Tabrik so‘zi</i> | <i>O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti rektori O.A.Nazarbekovning anjuman ishtirokchilariga tabrigi</i> | 4 |
| <i>Nodira HAYDAROVA</i> | <i>Saraxbori Buzruk shakli, g‘azal vazni va mazmun mohiyati</i> | 8 |
| <i>Suhrob JUMAYEV</i> | <i>An’anaviy xonandalikda ovoz sozlash masalalari</i> | 17 |
| <i>Yulduz DADAJONOVA</i> | <i>“Sug‘diyona” milliy cholg‘ular kamer orkestri jaz musiqa san’atida</i> | 23 |
| <i>Виктор ХАНДАМЯН</i> | <i>Технологические новации в узбекских традиционных музыкальных инструментах: от прошлого к современности</i> | 29 |
| <i>Gulxumor ABDUSAMATOVA</i> | <i>“Tohir va Zuhra” musiqali dramasining atoqli ijodkorlari</i> | 36 |
| <i>Shoxbozbek ABDUXOSHIMOV</i> | <i>Tasnifi Buzruk kuyining nota nashrlaridagi qiyosiy tahliliga doir</i> | 45 |
| <i>Komilaxon TADJIBAYEVA</i> | <i>Zamonaviy o‘zbek operasi muammolari xususida</i> | 57 |
| <i>Tohirjon ABDULLAYEV</i> | <i>Musiqiy ovoz yozish dasturlari tarixidan</i> | 62 |
| <i>Shohsanam USUBJONOVA</i> | <i>Xonandalarni “ustoz-shogird” an’analari asosida o‘qitish texnologiyalari</i> | 67 |
| <i>Davron KARIMOV</i> | <i>Yunus Rajabiy uy-muzeyi faoliyati xususida</i> | 72 |
| <i>Asfandiyor ABUBAKIROV</i> | <i>Musiqa ta’limida fan va amaliyot integratsiyasi</i> | 79 |
| <i>Umidjon TUROPOV</i> | <i>Yunusqori Yusupov ijro yo‘li va bastakorlik ijodi</i> | 84 |
| <i>To‘lqin ELMURODOV</i> | <i>Maqom xonandaligida ovozni tarbiyalashning dolzarb muammolari</i> | 88 |





| | | |
|----------------------------------|--|-----|
| <i>Vasilisa NAYPAK</i> | <i>Shashmaqomning rivojida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining o‘rni</i> | 93 |
| <i>Behzodbek TURSUNBOYEV</i> | <i>O‘zbek bastakorlik ijodiyoti: Tursunboy Jo‘rayev (1952)</i> | 100 |
| <i>Tohirjon ABDULLAYEV</i> | <i>Ovoz yozish dasturlarining qiyosiy tahliliga doir</i> | 107 |
| <i>Jur‘atbek HAKIMOV</i> | <i>Eson Lutfullayevning ijro uslubi va ijodiy merosi</i> | 112 |
| <i>Shaxzoda SAFAROVA</i> | <i>Xonandalik amaliyotida “Dutor” ijrochiligining ahamiyati (Lutfixonim Sarimsoqova) ijodida</i> | 118 |
| <i>Qumriniso RASULOVA</i> | <i>An’anaviy dutor cholg‘usining ijro uslublari</i> | 123 |
| <i>Nizomiddin G‘ULOMOV</i> | <i>O‘zbek doira ijrochilik san’ati: Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev (1921-1992)</i> | 130 |
| <i>Surayyoxon KARIMOVA</i> | <i>Botir Zokirov ijodida maqom ohanglari</i> | 136 |
| <i>Mushtariybonu MUXITDINOVA</i> | <i>Temuriylar saroyida Abdulqodir Marog‘iyning ilmiy-ijodiy faoliyati</i> | 142 |
| <i>Munira OSMAN</i> | <i>Uyg‘ur 12 muqamlari</i> | 150 |
| <i>Javohir NAMOZOV</i> | <i>Maqomlarning tarixi va rivojlanish bosqichlari</i> | 156 |
| <i>Yorqin XOSILBEKOV</i> | <i>Xoji Abdulaziz Abdurasulovning ijrochilik uslubi</i> | 162 |
| <i>Aziza DAVRONOVA</i> | <i>O‘zbek maqomlarida qalandarlar turkumi</i> | 168 |
| <i>Nargiza BEKBOYEVA</i> | <i>Milliy ruhda tarbiya topgan zamonaviy ijodkor</i> | 175 |
| <i>Feruz</i> | <i>Xonandalik ta’limida so‘z va ohang mutanosibligining ahamiyati</i> | 181 |
| <i>ABDUKARIMOVA Feruz</i> | <i>An’anaviy dutor ijrochiligi ta’limi: tarix va zamonaviylik</i> | 189 |
| <i>HIMMATOVA Umidjon TUROPOV</i> | <i>Yunusqori Yusupovning ijrochilik maktabi</i> | 196 |
| <i>Guli</i> | <i>Nay ijrochiligining bugungi kundagi</i> | 204 |





| | | |
|------------------------|--|-----|
| <i>MAXAMMADJONOVA</i> | <i>muhim ahamiyati</i> | |
| <i>Dilshodaxon</i> | <i>Shashmaqomda mavzuiylikning</i> | 209 |
| <i>XAYDAROVA</i> | <i>uslublari to‘g‘risida</i> | |
| <i>Javohir NAMOZOV</i> | <i>Rubob cholg‘u sozining tarixi hamda</i> | 216 |
| | <i>ahamiyati xususida</i> | |
| <i>Rasul JUMASHEV</i> | <i>Rahmatjon Qurbonovning bastakorlik</i> | 224 |
| | <i>ijodi</i> | |



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI

**“O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATINING
YANGI TENDENSIYALARI”**

mavzusidagi Respublika yosh olimlar, tadqiqotchi va
magistrlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
to‘plami

Adadi 50 nusxa. Bichimi 60x84 1/16.
Bosma tabog‘i 14,25. «TimesNewRoman» garniturasida.
“BOOKMANY PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

